SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4
2023
ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2023

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – **ISSN 2181 – 8096**

Bosh muharrir – **Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay’ati

D. Sayfullayev	*tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
D. Muxiddinova	*filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)*
A. Mannonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
R. Xodjayeva	*filologiya fanlari doktori, professor*
Sh. Shomusarov	*filologiya fanlari doktori, professor*
Q. Omonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
U. Muxibova	*filologiya fanlari doktori, professor*
X. Xamidov	*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
B. Abduhalimov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Xodjayev	*tarix fanlari doktori, professor*
M. Is’hoqov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Doniyorov	*tarix fanlari doktori, professor*
X. Fayziyev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
D.Xodjimuratova	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
Sh. Yovqochev	*siyosiy fanlar doktori, professor*
N.Abdullayev	*siyosiy fanlar doktori, dotsent*
A. Vahobov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Abdullayev	*iqtisod fanlari doktori, professor*
I. Mavlanov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Bahodirov	*falsafa fanlari doktori, professor*
E. Izzetova	*falsafa fanlari doktori, professor*
G. Glizon	*AQSHning New Mexico universiteti professori*
A. Shonazarova	*AQSHning Kolumbiya universiteti professori*
Ono Masaki	*Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori*
Li Dji In	*Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori*
V. Mesamed	*Isroilning Quddus universiteti professori*
A. Gurer	*Turkiyaning Anqara universiteti professori*
A. Vorobyev	*Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi*
G. Avda	*Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori*
S. Kuraym	*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
A. Tohir	*Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori*
H. Baydemir	*Turkiyaning Otaturk universiteti professori*

Nashrga tayyorlovchilar:
J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

Xodjayeva R. Художественное литературное наследие мыслителей Центральной Азии на примере творчества Абу Бакра аль-Хоразми и Ибн Сины 5
Muhibova U. Hindistonda milliy ozodlik uchun kurash va adabiy hayot..... 14
Umarova S. Xorazm devonlarida qasida.....23

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Hamidov X. Abdulla Qahhor asarlaridagi maqollarning tarjimalarda berilishi va tahliliga doir..... 33
To‘raqulova D. Abdulla Qahhor hikoyalarining koreyscha tarjimasida kiyim-kechak nomlarining berilishi xususida.....43
Berdiyev U. Xitoy tilidagi paremiologik birliklarda “odam” konseptining talqini.....50
Davlatov Z. Tugallik va oniylik semali ko‘makchi fe’llarning leksik-semantik xossalari (*gitmek, vermek*) xususida.....60
Hakimova B. Zamonaviy tilshunoslikda konsept masalasi va koreys lingvokulturologiyasida “ayol” konseptining ifodalanishi 69
Saidoripova D. Fors tilida sifat yasovchi prefiksal allomorflar 81

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Amonov M. Tasavvuf ta’limotiga oid manbalar tahlili (Zarafshon vohasi XV–XIX asrlar) 94
Shokirova H. Alisher Navoiy “Xamsa”sining XIX asrda kitobat qilingan ba’zi qo‘lyozma nusxalari 105
Tursunaliyeva M. Ogahiy tarixiy asarlari qo‘lyozmalarining o‘ziga xos xususiyatlari..... 119
Tag‘bayev A. B. Karmisheva asarlarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida yashovchi tojiklar etnografiyasi yoritilishi.....135

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Saliyeva M. Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati 144
Gafarov I. Janubiy Osiyo mintaqasida AQSH tashqi siyosatining genezisi (1947–2022-yy.).....157
Abdullayeva R. O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining transport tranzit sohasidagi hamkorligi.....170
Ачилов А. Влияние этнополитических процессов на стабильность в Афганистане: исторический и сравнительный анализ.....184
Ravshanov S. Qora dengiz va Ukrainaning Turkiya tashqi siyosatidagi ahamiyati.....194
Saidov J. Rossiya va Xitoy ta’sirida Koreya Respublikasining Markaziy Osiyodagi diplomatiya siyosati 205
Imomova Y. AQSH tashqi siyosatidagi mafkuraviy muvozanat: izolatsionizm va internatsionalizm 216
Abdazimov J. Xitoyda siyosiy mafkuralarning namoyon bo‘lishi 227

ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDY

ХОДЖАЕВА РАЪНО
Профессор, доктор филологических наук, ТГУВ

Художественное литературное наследие мыслителей Центральной Азии на примере творчества Абу Бакра Аль-Хоразми и Ибн Сины

Аннотация. *В X–XIIвв. в регионе Центральной Азии- Мавараунахре наблюдается расцвет литературного творчества на арабском языке .В рукописных фондах всего мира, в том числе в духовных сокровищницах нашей республики хранятся десятки тысяч арабоязычных рукописей. Часть их выборочно изучена востоковедами . Вместе с тем количество пока еще неизученных рукописей очень велико и среди них находятся рукописи, содержащие яркие произведения художественного творчества . Мыслители Центральной Азии - ученые и литераторы внесли большой вклад в подъем мусульманской культуры IX–XII вв., получившего название первого «Мусульманского Ренессанса» .Такие великие ученые региона как Абу Бакр аль-Харезми, Ибн Сина, Абу Райхан ал- Бируни, Махмуд аз Замахшари успешно сочетали научные изыскания с литературной деятельностью. Именно здесь, в Центральной Азии были созданы шедевры художественной литературы, имеющие значение не только для арабо-мусульманской цивилизации, но и всей мировой литературы в контексте проблемы взаимовлияния и взаимодействия литератур. Перевод и исследование этих произведений с тем, чтобы донести до нашего народа ценности духовно-эстетического наследия является ответственной и почетной задачей узбекских востоковедов.*

Ключевые слова: *художественное наследие, арабо-мусульманская цивилизация, арабоязычная литература, культурный подъем, мусульманский ренессанс, Мавараунахр, Хорезм, мировая литература*

Annotatsiya. *X–XII asrlarda Markaziy Osiyoning Mavarounnahr o‘lkasida arab tilidagi adabiy ijodning yuksalishi kuzatildi.Jahon qo‘lyozma fondlarida, jumladan respublikamizning ma’naviy xazinalarida arab tilida bitilgan minglab qo‘lyozmalar saqlanib kelinmoqda. Ular sharqshunoslar tomonidan saralab o‘rganilmoqda, ammo, ma’naviy – madaniy merosimiz boyligini badiiy ijodda ifodalagan, lekin hali o‘rganilmagan qo‘lyozmalar soni juda ko‘p. Mintaqamizda rivojlangan boy arabiynavis adabiyot musulmon olamida ro‘y bergan Sharq musulmon Renessansining birinchi bosqichiga zamin yaratdi va xalqlarning ma’naviy, ijtimoiy fikri rivojiga katta hissa qo‘shdi. Allomalar Abu Bakr Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy o‘z faoliyatida ilmiy va adabiy ijodni birga olib bordilar, ikkala sohada ham betakror asarlar yaratdilar. Ulardan qolgan adabiy badiiy meros nafaqat arab–*

musulmon tamadduni uchun ahamiyatlidir, balki ma'naviy–estetik didni charxlashda jahon adabiyoti miqyosida munosib o'rin egalladi. Ushbu ma'naviy-estetik qadriyatlarni xalqimizga yetkazish uchun allomalarimizning arab tilida yozilgan mazkur asarlarini tarjima qilib tadqiq etish o'zbek sharqshunoslari zimmasiga yuklangan nufuzli va mas'uliyatli burchdir.

***Kalit so'zlar va iboralar**: badiiy meros, arab-musulmon tamadduni, arabnavis adabiyot, Sharq musulmon renessansi, madaniy yuksalish, Mavarounnahr, jahon adabiyoti.*

***Abstract.** In the X–XII centuries there had been a rapid flourishing of literary creative in the Arabic language in the region of Central Asia such as Mawaraunnahr. Tens of thousands of Arabic-language manuscript have been stored in manuscripts collections all over the world, including the manuscripts collection of our Republic. Some of them have been selectively studied by orientalist. At the same time, the number of still unexplored manuscripts is very large, and there are manuscripts containing vivid artistic creations among them.The cultural upsurge in the 9^{th}-12^{th} centuries in Central Asia and throughout the area of the Muslim East contributed to the flourishing of literary creativity in Arabic. Thinkers of Central Asia have made a great contribution to this rise, which has been called the Muslim Renaissance. Such scholars of the region as Abu Bakr al-Khwarizmi, Ibn Sina, Abu Rayxan al-Biruni, Mahmud az- Zamaxshari successfully combined scientific research with their literary activity and created unique works in both fields. These works have played a major role in the formation of spiritual and social thought and aesthetic consciousness of the peoples of the Muslim East. Translating and researching of these works in order to bring the treasures of spiritual and aesthetic heritage to our people is a responsible and honorable task of Uzbek orientalists.*

***Keywords**: Arabic literature, Islamic civilization, spiritual and artistic heritage, Islamic values, human values, writer, scientist, Muslim civilization, cultural rise, Mawaraunnahr, Khwarezm.*

Введение. Великие мыслители Центральной Азии, её ученые и литераторы внесли большой вклад в подъём мусульманской культуры IX—XII вв., в развитие арабоязычной научной и художественной литературы. Богатая арабоязычная литература Мавараунахра (как арабы называли регион, расположенный между реками Сыр-Дарья и Аму-Дарья) способствовала развитию духовно-общественной мысли народов Центральной Азии и мощному культурному подъёму, получившему название первого мусульманского Ренессанса в этом регионе. Учёные региона, как известно, создали великолепные труды в области точных и естественных наук, а также в области истории, философии, филологии и других гуманитарных наук. Литераторы создавали произведения во многих жанрах арабской литературы— прозаических: расаил, адаба, макама, макола, кисса, хикая, хитаба и др.; поэтических: касида, китъа, риса, газел, хамрийат и др. и внесли достойный вклад в расцвет арабской, вернее арабоязычной художественной литературы этого периода. Хотя к X веку багдадский халифат уже распался и на его просторах образовались независимые государства Саманидов, Бувайхидов, Фатимидов, арабский язык не потерял

своего статуса языка науки и литературы. Распад халифата привел к оживлению культурный жизни на местах, к взлёту научного и литературного творчества. Эти процессы были особенно заметны в Мавараунахре, подарившем общечеловеческой цивилизации плеяду великих ученых и литераторов. Культурные связи внутри мусульманского ареала не прерывались, они были довольно стабильны и крепки. Стоило в одном конце исламского мира появится ценному научному исследованию или литературному произведению, оно рано или поздно становилось достоянием образованных людей в другой его части. Более того широкая переводческая деятельность в арабской Испании—Андалусии способствовала распространению арабо-мусульманских культурных традиций в средневековой Европе. Из мусульманской Испании через юг Франции в Европу хлынул поток научных знаний, литературы, философии, которые принадлежали всем народам мусульманского мира, что послужило одним из факторов развития европейской науки и мысли в XII-XIII вв. и вошло в состав европейской духовной и материальной культуры.

Рукописные фонды мира, в том числе фонды республики Узбекистана содержат тысячи арабоязычных рукописей. Они выборочно изучаются, переводятся, исследуются, доводятся до сведения широких кругов. Особенно это касается научной литературы. И всё же неизученных рукописей, ждущих своих исследователей, ещё достаточно много. Наследие художественной литературы, передающей идейно- эстетический дух того периода, изучена сравнительно мало. Такие крупные города Центральной Азии как Самарканд, Бухара, Шаш, Гурганч были подлинными центрами исламской цивилизации, где процветало художественное литературное творчество, ставшее частью мировой литературы.

Целью настоящей статьи является знакомство с художественными произведениями выдающихся мыслителей Центральной Азии таких как Абу Бакр ал-Хоразмий, Ибн Сина, которые успешно сочетали научные изыскания с литературной деятельностью. Именно ими были созданы шедевры художественного наследия—литературные памятники, вошедшие в арсенал мировой литературы. Опираясь на сравнительно-исторический, сравнительно-типологический и другие научные методы литературоведческого анализа в интерпретации произведений этих авторов, мы рассмотрим особенности их жанров, поэтику, значение для литературных процессов своего времени. Так знаменитый ученый- филолог Абу Бакр аль-Хоразми (934—993) на литературном поприще прославился в жанре «братских посланий» — «расаиль ихванийа». Этот жанр вошёл в арабскую литературу в VIIIв. с распространением диванов—канцелярий, откуда чиновники – секретари обменивались не только официальными посланиями, но и посылали дуг другу дружеские письма, в которых описывали разные события, обменива-

лись шутками, делились личными проблемами. Со временем эти дружеские послания превратились в своеобразный жанр художественной прозы, написанный в виде письма существующему или мнимому адресату. В нем обычно излагались взгляды автора на те или иные явления жизни, его отношения и переживания в связи с теми или иными событиями. Через послания Абу Бакра аль-Хорезми просачивается дух эпохи. Они содержат описания исторических событий, дают характеристику историческим личностям, представляют ценные сведения о социально—общественной и литературной среде своего времени. Некоторых послания носят дидактический характер, другие наполнены искромётным юмором, в одних он прославляет власть имущих, в других разоблачает их пороки и призывает к справедливости. Литератор часто вступает в полемику по различным вопросам, адресуя свои послания реальным правителям, визирям, чиновникам—секретарям, друзьям и единомышленникам. Но случается, что послание не называет имя адресата, ограничиваясь обращением «брат» или «друг», из чего следует, что адресат мнимый. Аль – Хорезми был горячим патриотом своей родины. В одном из посланий он с гордостью писал о своих земляках: — «хорезмийцы —лучшие торговцы среди людей, но, если они берут в руки ручку, значит будут писать, если берут саблю, значить—сражаться» [1,144]. В послании просвещенному правителю — хорезмшаху Мухаммаду Абу Абдуллаху из династии Афригидов, аль- Хорезми откровенно восхвалят его за меценатство в литературе и науке :

Если упал взор на моего эмира,

Нет надобности смотреть на других эмиров [1, 144]

И в то же время в послании к правителю литератор не боится делать наставления в вопросе, каким должен быть правитель: « У кого на службе добропорядочные люди, значит ему служит само благочестие. Если его приказы исполняют умные люди—сам разум служит ему. Как могут благородные люди служить человеку, который не отличается благородством, или как могут совершенные люди трудится на человека, далёкого от совершенства» [1.144].

В посланиях аль-Хорезми много риторики, поэтических вкраплений—стихов самого аль-Хорезми и стихов других поэтов, пословиц и поговорок, назидательных коротких рассказов, мудрых изречений и афоризмов, мастером создавать которых он был. Эти афоризмы были переведены с арабского на другие языки, в том числе на узбекский и русский. Рассмотрим несколько афоризмов аль-Хорезми в переводе Анвара Шукурова: — *Требование от недостойного человека совершить достойный поступок-само недостаток.*

—Плод воспитания – большой ум, плод познания--добрый поступок.

—Видишь мяту : когда она зелёная – её нюхают, когда завяла - её выбрасывают.

—Слушающий клеветника хуже, чем клеветник.

—Если правдивый язык говорит неправду, то он начинает заикаться. Свои мудрые изречения Абу Бакр включил в специальную книгу, назвав её «Ал-амсал ал-муваллад» — «Афоризмы»[11].

Вместе с тем Абу Бакр ал- Хорезми был незаурядным поэтом и оставил после себя поэтический сборник «Диван аш-шиър», который дошел до наших дней.

Великий мыслитель Центральной Азии - Ибн Сина в основном известен как автор медицинских и философских трудов. Но он плодотворно трудился и на литературном поприще, создавая произведения в различных жанрах прозы и поэзии, а также писал литературоведческие исследования. Его знаменитый «Трактат о любви», дошедший да арабской Испании и переведенный на латинский язык, оказал влияние на поэзию трубадуров в возвышении любви к женщине и очищении души, наполненной этой любовью. В статье Густава фон Грюнебаума «Рисала фи-л-ишк» Ибн Сины и куртуазная любовь» указывается, что «корни куртуазной любви следуют искать не в арабской литературе, а скорее в арабской философии и особенно в мистической философии Ибн Сины» [6,191].

Из прозаических произведений Ибн Сины наибольшую известность получила повесть «Хайй ибн Йакзан». Это имя героя повести, которое буквально переводится «Живой, сын Бодрствующего» и несёт в себе символический смысл. Герой повести путем самостоятельного поиска знаний и упорного труда добивается духовного совершенства. Он твердо убежден, что только знание и наука могут противостоять мракобесию и невежеству, а для этого следует постоянно совершенствоваться и познавать. Повесть носит философский характер, наполнена определенными символами, освоение которых способствует пониманию заложенной в ней мысли .Повесть оказала большое влияние на многих литераторов в мусульманском мире, в том числе на Ибн Туфайла (1110—1185)—знаменитого философа и медика в арабской Испании в XIIв. Повесть вдохновила его на написание романа «Хайй ибн Йакзан», получившего широкую известность и на Западе и переведенного на многие языки мира, в том числе на английский и русский. В полном названии романа Ибн Туфайл отмечает, что эта книга « о тайнах восточной мудрости, извлеченных из зерен сущности высказываний главы философов Ибн Сины». Сюжет романа несколько изменен. Его герой обитает на безлюдном острове и в одиночестве приобретает большой жизненный опыт в познании законов природы, в изучении вселенной. Затем путем самоусовершенствования он приобретает знания и в области общественных вопросов. Приобретенный социальный опыт помогает ему понять недостатки общества, в котором он проживает. Хайй стремится исправить

людей, научить тому, что сам познал из общественных законов жизни, но люди не могут подняться до высот его умозрительного мышления и логики. Глубоко разочарованный он возвращается на свой необитаемый остров, где продолжает самосовершенствоваться и углублять свои познания. Ибн Туфайль перенял главную мысль Ибн Сины о том, что человек – это духовное создание и какими ни были его жизненные обстоятельства, опыт и окружающая среда, он способен на саморазвитие и самопознание. Процесс познания, описанный Ибн Туфайлом, увлекательно и поэтично вылился в своеобразный гимн человеческому разуму и труду. Строй фабулы романа тяготеет к философской притче о том как совершенствуется человек в поиске себя и истины .Роман, пропитанный нравственно-эстетическими взглядами Ибн Сины, оказал большое влияние на арабскую и западную философию и литературу. Предполагается, что под его влиянием в Европе после его перевода в 1671 на латинский и позже на другие европейские языки даже появился жанр «воспитательного романа», ярчайшим образцом которого является «Робинзон Крузо» - знаменитый роман Даниэля Дефо, также воспевающий созидательный труд и разум человека.

Другая повесть Ибн Сины -- « Соломон и Ибсал» поднимает нравственно-этические проблемы и возвеличивает такие ценности как искренность в чувствах, преданность, верность, силу воли в противостоянии несправедливости, предательству, насилию и другим порокам. Эта повесть имеет свою сюжетную канву, также наполнена аллегориями как и третья повесть- « Юсуф», в основу которой положено кораническое сказание о пророке Юсуфе . Его образ обрисован в повести как образ человека, умеющего обуздать свои чувства, ставящего разум и знание превыше всего. Каждый персонаж повести несет в себе черты характера определенного типажа, что позволяет говорить о литературной интерпретации знаменитого кораического сказания. Четвертая повесть Ибн Сины-- «Ат-Тайр» несколько отличается от первых трёх, поскольку повествование в ней ведётся от имени птицы, которая является символом души, субстанцией духа, в то время как тело –субстанция материи, Только органическое слияние двух субстанций ведёт к совершенству, к познанию истины. Эта философская повесть оказала большое влияние как на литературу народов Центральной Азии, так и на литературу всего мусульманского мира. Повесть переведена на многие языки, у неё много литературных интерпретаций и среди них самые известные—«Мантик ат-тайр» персоязычного суфийского поэта XII века Фаридуддина Аттара и «Лисан ат- тайр» великого узбекского поэта Алишера Навои.

В поэзии Ибн Сины различаются две линии – научная и лирическая. Научную линию представляют различного рода научные трактаты, в том числе знаменитые трактаты по медицине. Научные трактаты обычно написаны в размере ражаз арабского стихосложения аруз, поэтому их называют уржузами.

Медицинские уржузы Ибн Сины получили большое распространение во всем мире, к ним написаны много комментариев и они специально изучались в медицинских учреждениях. Что касается лирической поэзии Ибн Сина, то она представлена многими жанрами—касыдой, китъа, газели, рубаи и др. В некоторых стихах Ибн Сины ощущаются все перипетии его нелегкой судьбы, его неспокойная жизнь, когда великий ученый то попадал в милость к правителям, то бежал от их гнева, сменяя город за городом в поисках убежища . Когда он был изгоем родились следующие строки:

Прославился я, но даже большой город стал тесным для меня
Выросла моя цена, но не нашелся покупатель для меня [10,34]

В 1021 году в результате наговора во время смуты в г. Хамадане Ибн Сина был заключён в крепость Фаражон. Тогда родились эти печальные строки:

Как прибыл я сюда ты видел, тебе известно.
*А выйду ль я отсюда – сомнение у меня, быть может, никогда.[*10, 49]

Тяжёлые испытания научили ученого большому жизненному опыту. Он делился им в своих четверостишиях:

Спросят про тайну твою, скрой её сполна,
Кто мало говорит - разумеет больше.
Пока тайна внутри тебя - она пленница твоя,
Но станешь пленником ты, когда её раскроешь .[3 ,44]

Рубаи Ибн Сины также пронизывает горький жизненный опыт:

Когда невежи, что считают себя умными подчас
Выставляют свой ослиный нрав напоказ
И ты будь ослом в беседе с ними
Иначе объявят неверным тебя в недобрый час [3,49]

Всю свою жизнь великий мыслитель боролся против бездуховности и невежества и сеял семена знаний. Используя традиционные яркие образы арабской поэзии он передает свои горькие размышления по поводу распространения невежества в окружающей его среде :

Когда невежество доходит до беспредела,
Печень времени наполняет черная кровь.
Даже если океан у твоего порога,
Трудно раздобыть жемчуга горсть[3,46]

Ибн Сина на своём жизненном пути встречал разных людей, сталкивался с предательством, насилием, враждой. Особую боль герою его стихов доставляет предательство близкого человека, друга, которому он привык доверять:

Мой друг гостил в доме моего врага,
Никогда не посажу его теперь я рядом
Не ешь сахар, в котором хоть капля яда,
Берегись мухи, что подсела в логово змеи [3,50]

Если проследить за идейно-эстетической эволюцией лирики Ибн Сины, можно заметить движение его поэтической мысли от личностного настроения к философскому обобщению и общечеловеческим ценностям:

Хорошо бы пока не покинул этот мир
Твой разум освободить от мук раскаяния.
То, что завтра сделать будет трудно
По возможности надо сделать сегодня[3,50]

Ибн Сина при жизни достиг высот славы, познал результаты своей учености, научных трудов,медицинской практики, имел множество учеников и среди них по-настоящему преданных, пользовался большим почетом и уважением в широких кругах. Тем не менее к концу жизни сделал для себя важный вывод, что знание бесконечно, оно не имеет границ и объять необъятное невозможно :

Не осталось слов, которых я б не знал.
Осталось мало тайн, о которых я не слыхал Но если поразмыслить глубже о знаниях моих,
*Я понял, что до сих пор ничего не познал.[*3,51]

Ибн Сина творил во многих жанрах арабской поэзии, в том числе в традиционном жанре «хамрият», воспевающем вино и застолье:

Прозрачное вино на деле – пища для души,
От прекрасных цветов его запах, от рубина - яркий цвет
Словно птица счастья Хумо села на плечо
Того, кто выпил искрящее вино из бокала [3,39]

Но как медик и мудрый человек Ибн Сина хорошо понимал все последствия увлечения выпивкой. Поэтому в его стихах, посвященных вину, больше увещеваний и предупреждений о вреде вина, чем его восхваление. Поэт четко проводит нравственную грань между категориями запретного (харам) и дозволенного (халал):

Для мудрого, что сдержан, вино—халал, для глупца –харам.
Умеет вино отличить плохое от хорошего.
Когда пьёт глупец – прибавляются его грехи,
Мелет глупости его язык, ухудшается нрав [3,39]

Или:

Вино для глупца -- враг, для умного другом может быть.
Когда его мало - оно лекарство, много-ядом может быть.
Если его много, вреда от него немало
Если его мало, полезным может быть[3, 48].,

Ибн Сина много писал и в жанре «газель» —любовной лирики, где радость от встречи с возлюбленной сменяются горестными раздумьями от разлуки или потери её. Поэт находит яркие оригинальные образы для описания *красоты возлюбленной :*

Любимая распустила свои кудри,
Чтоб их чернота накрыла этот свет.
Но не осуществилось желание её-
Засветилась она своей красотой[3,45]

Или для описания своей печали:

Я потерял любимую и оттого
Оделся в черное в знак тоски по ней .
От чего же так черна эта темная ночь
По ком печалиться она – не могу понять[3,45]

Ибн Сина до конца своей жизни сохранил огромную работоспособность и как ученый, создающий гениальные труды, проводящий практические опыты в медицине, и как философ, раздумывающий о мироздании и выстроивший свою систему вселенной, и как литератор, запечатлевший в художественных произведениях порывы своей души, свои ценности и понимание красоты. О любви к жизни, о душевной молодости писал Ибн Сина в следующих строках:

Слишком высок оказался порог детства моего--
Годы прошли, но так я и не перешагнул его
В волосах белеет иней, старость подошла
Но сладость детства с губ моих до сих пор не ушла.
Сверкает на голове снегом белизна
А где-то в уголке души еще цветёт весна [3,46]

Или другой пример:

Старость—вот она цель прошедшей жизни всей
Но не проходят мечты сердца, его желания
В душе еще кипят гордые порывы, но увы
Все короче становится подол оставшихся дней [3,45]

В Узбекистане литературное наследие Ибн Сины исследовано известным арабистом А. Ирисовым в его докторской диссертации[9], но как отмечал сам ученый, оно настолько велико и разнообразно, что ещё требует обширного литературоведческого анализа(9,4).

Таким образом, великие мыслители Центральной Азии Абу Бакр аль-Хорезми и Ибн Сина внесли весомый вклад в развитие литературы на арабском языке. Они успешно сочетали в себе личность алима (ученого), создающего замечательные научные труды,имеющие всемирное значение, с личностью адиба (литератора), творившего в различных жанрах арабской художественной литературы, таких как касида, расаил,макама, кисса и др. Созданные в Мавараунахре литературные памятники на арабском языке сыграли большую роль в становлении духовно- общественной мысли и эстетического сознания как народов мусульманского Востока, так и за его пределами. Глубокий литературоведческий подход к этим художественным памятникам, доскональное изучение их

содержательно-формальных особенностей, поэтики поможет более широкому осмыслению литературных процессов в Центральной Азии в IX-XII вв.- в период первого этапа феноменального культурного подъёма в этом регионе.

Литература:

1. الخوارزمى ابو بكر, رسائل أبى بكر الخوارزمى،طبعت بمطبعة الجوائب فى قسطنطينية 1297 2.1982 الزمخشرى ابو القاسم محمود بن عمر,مقامات الزمخشرى,دار الكتاب ا ,بيروت, لبنان
2. Абу Али Ибн Сина .Стихи и медицинская поэма .(перевод с арабского на узбекский язык А. Ирисова).Из-во Узбекистан,Ташкент,1981
3. Элмуратов Исроил . Культура Хорезма X—XII веков в интерпретации Якута аль --Хамави. Ургенч,2005.(на узб.языке)
4. Великий учёный из Хорезма. Институт философии и права АН РУз. Ташкент.1998 (на узб. яз.)
5. Арабская средневековая культура и литература. Сборник статей зарубежных учёных. Изд-во «Наука»,Москва,1978.
6. МухтаровТ.А., Саттиев Л.И., Шомусаров Ш.Г. Очерки средневековой арабской прозы. Из-во « Фан», Ташкент,1992.
7. Ходжаева Раъно. Жанровая система и типология в классической арабской литературе. Таш. Гос .институт востоковедения. Т. 2015
8. Ирисов Абдусадык. Литературное наследие Ибн Сины (источники, своеобразие художественного творчества). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Т.,1996
9. Ирисов Абдусодик. Мудрец Ибн Сина . Из—во «Узбекистан», Т.,1992
10. https ://www ziyouz. uz/ru/ deyateli /vtlikie-mysliteli uzbekistana

MUXIBOVA ULFATXON
Professor, filologiya fanlari doktori, TDSHU

Hindistonda milliy ozodlik uchun kurash va adabiy hayot

Annotatsiya. *Ushbu maqola hind xalqining buyuk o‘g‘loni, vatan mustaqilligi uchun kurash dohiysi bo‘lgan Maxatma Gandi tavalludining 150-yilligi, Hindiston mustaqilligi hamda o‘zbek hindshunosligining 75 yilligiga bag‘ishlanadi.*

Maqolada ingliz mustamlakachilari tomonidan Hindistonning bosib olinishi va unga qarshi hind xalqining ko‘p yillik kurashlari, o‘zini o‘zi boshqaruvchi xalq davlatini barpo etish kabi g‘oyalar va nihoyat M.Gandi boshchiligida Hindistonning inglizlardan ozod etilishi, ozodlik uchun kurashlarning adabiy jarayonga ta’siri natijasida xalq boshiga tushgan azob-uqubatlarni o‘zida aks ettirgan badiiy asarlar va ularning muallifi bo‘lgan

Yashpal, Vishnu Prabxakar, Subxadra Kumari Chauxan, Premchand, Krishan Chandar kabi adiblar haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *inqilob, ta’limot, ozodlik, taraqqiyparvar, mustaqillik, mustamlakchilik, tajribasizlik, dohiy, gandizm, birlashish, rojalar, tarqoqlik.*

Аннотация. *Данная статья посвящена 150-летию со дня рождения Махатмы Ганди, великого сына индийского народа, гения борьбы за независимость страны, 75-летию независимости Индии и узбекской индологии. В статье рассматриваются вопросы завоевания Индии британскими колонизаторами, где выделяются особенности антиколониальной многолетней борьбы индийского народа за создание самоуправляющегося национального государства. Особое внимание уделено влиянию борьбы за свободу под руководством Махатмы Ганди на литературный процесс Индии, анализу художественных произведений, раскрывающих бедствия и страдания, выпавших на долю простого народа, таких писателей как Яшпал, Вишну Прабхакар, Субхадра Кумари Чаухан, Премчанд, Кришан Чандар.*

Ключевые слова: *революция, доктрина, свобода, прогрессив, независимость, колониализм, неопытность, гений, гандизм, объединение, раджас, разобщенность.*

Annotation. *This article is dedicated to the 150th anniversary of the birth of Mahatma Gandhi, the great son of the Indian people, the genius of the struggle for the independence of the country, the 75th anniversary of the independence of India and Uzbek Indology. The article ehamines the issues of the conquest of India by British colonialists, where the features of the long-term anti-colonial struggle of the Indian people for the creation of a self-governing national state are highlighted. Particular attention is paid to the influence of the struggle for freedom under the leadership of Mahatma Gandhi on the literary process of India, analysis of works of art that reveal the disasters and suffering that befell the common people, such writers as Yashpal, Vishnu Prabhakar, Subhadra Kumari Chauhan, Premchand, Krishan Chandar.*

Key words: *revolution, doctrine, freedom, progressive, independence, colonialism, inexperience, genius, Gandhism, unification, rajas, disunity.*

Hind xalqi asrlar davomida o‘z yerini chet el bosqinchilaridan himoya qilib kelgan. XX asr o‘rtalarigacha Angliya mustamlakasi bo‘lgan Hindiston 1947-yilda Mahatma Gandi boshchilida inglizlardan vatanni ozod etib, milliy mustaqillikka erishdi. 2019-yilda hind xalqining milliy dohiysi Mahatma Gandi tavalludining 150-yilligi hamda 2022-yili Hindiston mustaqilligining 75 yillik sanasi Hindiston hukumati va hind xalqi tomonidan nafaqat Hindiston hududida, balki boshqa mamlakatlar miqyosida ham turli madaniy tadbirlar, ilmiy anjumanlar, seminarlar shaklida keng nishonlandi. Jumladan, 2019-yil 28-sentabrda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ulug‘ qalb egasi Maxatma Gandi tavalludining 150-yilligi Hindiston elchixonasi, L.B.Shastri nomli Hind Madaniyati markazi, Hindistondan tashrif buyurgan gandishunos olimlar, Shanxay hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi Xalq diplomatiyasi vakillari hamda universitetning hindshunos olimlari bilan hamkorlikda Maxatma Gandining hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan seminar tashkil etildi. Ushbu seminarda universitetning Hind falsafasi bo‘yicha mutaxassis Sherdor

Pulatovning “Gandining «Mening hayotim” kitobidagi falsafiy qarashlari» nomli Gandi tavalludining 150-yilligiga bag‘ishlab tayyorlagan monografiyasining taqdimoti ham o‘tkazildi. Shuningdek, Hindiston mustaqilligining 75 yilligi ham Hindiston hukumati tomonidan maxsus ta’sis etilgan bir yillik «Azadi ka amrit maxa utsav» (“Ozodlikning o‘lmas tantanasi”) nomli dastur asosida keng miqyosda nishonlandi. Ushbu dastur Hindistonning mustaqil taraqqiyot davrida har bir sohasida erishgan yutuqlari bilan bog‘lagan holda tantanali nishonlandi va ushbu bir yillik bayram joriy yilning 15-avgustida yakuniga yetkazildi. Hind xalqining mustaqillik uchun kurashi, aslida, inglizlar Hindistonga ilk qadam qo‘yib, uni o‘z mustamlakasiga aylantirgan XIX asrlardayoq boshlangan edi.

Ingliz hukumati, aslida, Hindistonni o‘rganish maqsadida bu hududlarga kirib kelgan va sekin-asta bu go‘zal diyorning tabiatiga, go‘zalligiga, boy tabiiy konlariga maftun bo‘lib, Ost-Indiya kompaniyasi orqali Hindistonni o‘z mustamlakalariga aylantirib olgan. Bundan norozi bo‘lgan mahalliy hind feodallari ularga qarshilik ko‘rsata boshlaganlar. O‘sha davrdagi davlat maharajalari, jumladan, bengal maharajasi Siroj-ud-Davla, Maratx davlati rojasi Kana Firnavs, Maysur hukmdori Haydar Alilar barchani inglizlarga qarshi kurashga birlashtirish uchun harakat qilganlar. Lekin, inglizlar ayyorlik bilan maharajalarning birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ular o‘rtasiga raxna solib turar edilar. 1849-yilga kelib Hindiston ingliz hukumatining mustamlakasiga aylanadi. Shu yili inglizlar oxirgi mustaqil davlat Panjobni ham bosib oladilar. Shundan keyin inglizlar mamlakatni ochiqdan ochiq talon-taroj qila boshladilar. Bu, albatta, xalq orasida norozilik, uning ketidan qo‘zg‘olonlar kelib chiqishiga sabab bo‘lar edi. 1857–1859-yillarda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon eng yirik qo‘zg‘olonlardan biri edi. Bu kurash haqiqatni olganda milliy uyg‘onish qo‘zg‘oloni edi. Biroq, bu qo‘zg‘olonlar hind xalqining tarqoqligi, tajribasizligi, rahbarlarning birlasha olmasligi, ba’zi feodallarning inglizlarga sotilishi natijasida mag‘lubiyatga uchrar edi, shuningdek, yer egalarining ko‘pchiligi inglizlar bilan ittifoq tuzishi natijasida qo‘zg‘olonlarning otryadlari tarqalib ketardi.

Biroq inglizlarning Hindistonning tarqoqligidan ustalik bilan foydalanishi natijasida yuz berayotgan mag‘lubiyatlarni to‘la mag‘lubiyat deb aytish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lar edi. Bu kurash mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, Hindiston xalqlari tarixida juda katta iz qoldirgan.

Har bir xalqning adabiyoti o‘z mamlakati tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganidek, Hindiston xalqi adabiyotini ham xalq tarixidan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Milliy ozodlik uchun kurash davrida hind xalqi orasidan yetishib chiqqan vatanparvar, xalqchil hamda taraqqiyparvar yozuvchi va shoirlar o‘z qalamlarini xalq azob-uqubatlarini, qiyinchiliklarini, ikki yoqlama zulm ostida ezilyotganligini, zulmkorlarning jirkanch yuzlarini adabiyotda aks ettirishga qaratganlar va buni o‘zlarining muqaddas burchlari deb hisoblaganlar. Burjua

sinfiga xizmat qiluvchi reaksion ijodkorlar qatorida sofdil, xalq uchun, vatan uchun xizmat qiladigan ijodkorlar ham bu davrda, albatta, kam emas edi.

Mustamlakachilar taraqqiyparvar adabiyotchilarning o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatini chet ellik ekspluatatorlarga bo‘lgan hind xalqining nafratini, demokratik adabiyotning rivojlanishini to‘xtatib qo‘ya olmadilar, aksincha, hind xalqi ongida o‘zlariga nisbatan bo‘lgan nafrat o‘tini alanga oldirib, milliy-ozodlik harakatlariga aylantirib yubordilar.

Ingliz mustamlakachilariga qarshi qaxr-g‘azab va nafrat xalq og‘zaki ijodida ham o‘z aksini topgan. Xalq o‘rtasida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuruvchi mana bunday qo‘shiqlardan birida shunday deb kuylanadi:

Zulmat keltirding qora bulutli,
Bizga sen uzoq Inglistondan!
Yo‘qol yovuzlar, ket, yo‘qol bu yerdan,
Ket farangilar, jo‘na yurtimdan!

XIX asr oxiri – XX asrning boshlariga kelib milliy-ozodlik harakati butun mamlakat bo‘ylab ommaviy tus ola boshladi. Bu davrga kelib mamlakatda imperializm tez rivojlandi, milliy-ozodlik harakatidan qo‘rqqan inglizlar bunga ekspluatatsiyani, zulmni kuchaytirish bilan javob berdilar.

Mamlakatda kapitalizm tez rivojlana borishi bilan Hindiston jamiyatida ikki bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sinflar, ya’ni milliy burjuaziya va ishchilar sinfi shakllana boshladi. Bu sinflar milliy ozodlik harakatiga o‘z ta’sirlarini ko‘rsatib, bu harakatda yangi davr boshlanishiga sababchi bo‘ldilar. Bu davr burjuaziyasi ishchilarning inqilobiy chiqishiga, albatta, qarshi edilar, shuning uchun ingliz hukmdorlari bilan kelishib ish tutishga majbur edilar. Lekin, kapitalizm rivojlana borgan sari milliy burjuaziya ham o‘z tobeligini ko‘proq seza boshladi.

Shunday qilib mustaqillik uchun kurashga milliy burjuaziyaning ham qo‘-shilish davri yetib keldi.

XX asr birinchi yarmi Hindistonda milliy-ozodlik kurashining yanada avj olib borishi bilan xarakterlanadi. Bunga Rossiyada 1905–1909-yillarda bo‘lib o‘tgan burjua inqilobi va 1917-yilgi Oktabr inqilobi katta ta’sir ko‘rsatdi. 1905–1909-yillarda avj olgan milliy-ozodlik harakatida Bengal, Bombey, Panjob va Hindistonning Janubi-g‘arbiy hududlari kurashning markazi bo‘ldi. Ozodlik harakatida ishchilar bilan birga dehqonlar ham faol ishtirok etdilar. Mustaqillik uchun kurashning hammasi “Hindiston – hindlar uchun”, “Svadeshi” (o‘z milliy sanoatiga ega bo‘lish) va svaraj (o‘z-o‘zini boshqarish) shiorlari ostida o‘tgan, lekin shuni ham aytish lozimki, bu kurashlarda hali aniq bir rahbar, kurash tajribasi yetarli emas edi. Shu sabab qo‘zg‘olonlar mag‘lubiyatga uchrar edi.

Hind xalqi hayotida yuz berayotgan muhim o‘zgarishlar yozuvchilar e’tiborini ijtimoiy masalalarga chorlay boshladi. Shu davrning ko‘pgina yozuvchilari ayni shu masalalarga o‘z ijodlarini bag‘ishladilar. Bunda xalq tarixiga murojaat qilish,

o‘sha davr adabiyotidan sujetlar tanlab olib ijod qilish davr adabiyotining asosiy xususiyatlaridan bo‘ldi. Jumladan, XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan Chxayavad oqimining vakili Nirala milliy-ozodlik harakati barq urib ko‘tarilgan bir paytda “Chxatrapati Shivaji” (Ulug‘ Shiva hayoti, 1922-y.) poemasini yaratgan. Bu asarda garchi XVII asrda bo‘lib o‘tgan voqea, ya’ni Boburiy shohlardan Avrangzebga sotilib ketgan maharaj Jay Sinxga Maratx xalqining dohiysi Shivajining qilgan murojaati tasvirlangan bo‘lsa-da, uning mazmuni aslida bugungi ozodlik kurashlari bilan hamohang asar sifatida baholanadi.

Hindistonning taraqqiy parvar yozuvchilari adabiyotni voqelikka yaqinlashtirishga harakat qildilar. Ularning asarlarida asoratga, qullikka va zulmga qarshi norozilik yana ham kuchliroq jarangladi, hind xalqining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti ularni hayajonga sola boshladi. Ular o‘z ijodlari bilan xalq diqqatini huquqsizlikka qaratibgina qolmasdan, balki ozodlikka erishish uchun Vatan oldidagi o‘z burchlarini bajarishga chaqirdilar. Hind adabiyotida realizm asoschisi bo‘lgan Premchand shunday degan edi: «Biz shunday adabiyot yaratishimiz kerakki, unda chuqur mazmundorlik, erksevarlik, nafosatni his eta bilish, yaratuvchanlik ruhi, voqelikni real talqin etish hukmron bo‘lsin. Qalbimizga u kuch-quvvat baxsh etsin, fazoni isyonkorlik va tug‘yon nafasi bilan chulg‘ab olsin. Adabiyot bizni allalashi kerak emas, chunki uyqu hozirgi kunda biz uchun o‘lim bilan tengdir».

Birinchi jahon urushidan keyin Hindistonda Moxandas Karamchand Gandi boshchiligida milliy ozodlik harakatining yangi davri boshlandi. Gandining mustamlakachilarga qarshi kurashishda yaratgan yangi nazariyalari omma orasida keng tarqala boshladi. Gandi ilgari surgan kurash uslubi inglizlar bilan hamkorlik qilmaslik, ingliz hukumati tomonidan berilgan unvonlardan voz kechish, qonun chiqaruvchi organlarga, sudga, davlat organlariga bo‘ladigan saylovlarga, ingliz mollariga baykot e’lon qilishdan iborat edi.

Gandi xalqni mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘atar ekan, bu kurashda ommani yovuzlikka kuch bilan qarshilik ko‘rsatmaslikka chaqirish edi. Gandi olib borayotgan kurashlar ham “svadeshi” va “svaraj” shiorlari ostida o‘tgan. U mustamlakachilikka qarshi kurashda keng xalq ommasining birgalikda harakati tarafdori edi. Gandi o‘z ta’limotlari bilan xalq obro‘sini qozonib, o‘z davrida Hindiston Milliy Kongressini ommaviy partiyaga aylantira oldi.

E.N. Komarov va A.D. Litmanlar o‘z tadqiqotlarida gandizmga baho berib shunday deydilar: «Hindistonda hech qaysi siyosiy va g‘oyaviy ta’limot, hech bir partiya gandizmdek ommaviy ta’sir ko‘rsatish va tashkilotchilik kuchiga ega bo‘lmagan».

Ko‘pchilik hind olimlari XX asrning 20 –30 – yillarini Gandi davri deb atashlari bejiz emas. Ayniqsa, Hindiston Milliy Kongressining bu davrdagi faoliyati Gandi faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, O.V. Martishin

shunday deb yozadi: «Gandi Milliy Kongressni xalq ommasi bilan bog‘lab turuvchi yagona rahbari edi. U millionlab hind kishilari uchun Milliy Kongress va ozodlik kurashining ifodasi bo‘lib kelgan».

Gandizmning adabiy jarayonga ta’siri masalasi bo‘yicha hind tanqidchilari o‘rtasida turli fikrlar mavjud. Ba’zilari Gandi ta’limoti adabiyotga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan va umuman, adabiyotga aloqasi bo‘lmagan, deb hisoblaydilar. Jumladan, oriy adabiyotchisi Mayadxari Mansinx shuni tasdiqlaydiki, gandizm umuman olganda adabiyot uchun samarasiz bo‘ldi va bironta ham arzigulik asar yaratilishiga asos bo‘la olmadi. S.N. Bxattachariya esa adabiyotning gandizm ta’siri ostida bo‘lgan davrini “hind adabiyotining oltin davri”, deb baholaydi.

Albatta, Gandi ta’limotlari hamma yozuvchilar uchun ham ijod manbayi bo‘lmagan. Lekin, gandizmning xalq orasida keng tarqalganligi milliy-ozodlik harakatining rivojiga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Shu sabab Hindistonning taraqqiyparvar yozuvchilari o‘z asarlarini yaratishda gandizmdan ijod manbayi sifatida foydalanganlar. Bunday adiblardan ko‘plarining nomini sanab o‘tish mumkin – Premchand, Maytxili Sharan Gupta, Makxanlal Chaturvedi, Jayshankar Prasad, Sumitranandan Pant, Yashpal, Subxadra Kumari Chauxan, Jaynyendra Kumar, Harivanshray Bachchan, Vishnu Prabxakar va boshqalar.

Sanab o‘tilgan adiblarning ijodiga gandizmning ta’siri, tabiiyki, bir xil bo‘lmagan. Masalan, Premchand, M.Chaturvedi, M.Gupta, S.K.Chauxan, J.Prasad, S.Pant kabilar Gandining kuch ishlatmaslik ta’limotini ijtimoiy zulmga qarshi kurashning yagona yo‘li deb hisoblab, gandizmni targ‘ib qilishni lozim topganlar. Lekin, Bxagavaticharan Varma, Udayshankar Bxatta, Yashpalga o‘xshash yozuvchi va shoirlar gandizmni o‘sha o‘z davrida ijtimoiy hayotga nisbatan to‘g‘ri baholab, bu usulni ozodlikka erishish uchun yagona yo‘l, deb tushunmaganlar.

Ular, hattoki, o‘z asarlarida Gandi ta’limotining salbiy tomonlarini ham ochib beradilar. Chunki, bu ta’limotlar ko‘pgina ijobiy natijalarga olib kelish bilan bir qatorda milliy-ozodlik harakatini ko‘pincha boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yar edi. Xalq faqat namoyishga chiqish, ish tashlash, o‘qishni tashlash, hamkorlik qilmaslik, kuch ishlatmaslik yo‘li bilan mustaqillikka erisha olmasligini asta-sekin tushuna bordilar. Uchinchi bir fikr tarafdorlari (masalan, S.T.Nirala) esa Gandining ayrim g‘oyalariga qarshi chiqqan edilar. Shoiraning “Ulug‘ Shiva xati” (1922) she’rida milliy zulmga qarshi ommaviy qo‘lga qurol olib kurashishga chaqiriq jaranglaydi.

Dastlabki ijodiy faoliyatida Gandi ta’sirida bo‘lgan ayrim yozuvchilar (Premchand, V.Prabxakar) keyinchalik ikkilana boshlaganlar va mamlakat hayotidagi tajribalar asosida Gandining kuch ishlatmaslik ta’limotini inkor qiladilar.

Gandizmnig ta’siri chuqurroq bo‘lgan yozuvchilardan biri Premchand hisoblanadi. Uning asarlarida dehqonlar hayoti, ularning yangi teng mehnatga

asoslangan jamiyat haqidagi orzulari, Gandining sinfiy totuvlik nazariyalari o‘z aksini topgan.

Lekin, Gandining 30-yillar ijodini tahlil qilsak, bu faoliyati bizga butunlay boshqa natijalarni keltirib chiqaradi. Bu davrda u milliy zulmning haqiqiy asosini, gandizmning abstrakti g‘oyalarining natijasizligini tushuna boshlab, xususiy mulk mavjud ekan, xalq hech qachon ozodlikka erisha olmaydi, degan xulosaga keladi.

Gandining kuch ishlatmaslik va ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini kamolotga yetkazish ta’limoti J.Prasad va S.Pant asarlarida aks ettirilgan. Gandi ta’limoti ketidan borgan Pant hamma qiyinchiliklarni o‘z-o‘zini kamolotga yetkazish bilangina yo‘q qilish mumkin, deb hisoblagan.

Gandining adabiyotga ta’sirini belgilashda gandizmni g‘oyaviy qurol qilib olmagan yozuvchilarning gandizmga munosabatini o‘rganib chiqish diqqatga sazovordir. Ular o‘z asarlarida konkret tarixiy sharoitda, hind xalqi hayotining ma’lum bir etapida Gandi ta’limotining ta’sirini to‘g‘ri baholashga harakat qilganlar.

Hindiston xalqi ko‘p millatli bo‘lganligi, ularning o‘rtasidai diniy e’tiqodning ham bir xil emasligi inglizlar uchun milliy-ozodlik kurashini pasaytirishda juda qo‘l kelgan. Ular asrlar davomida qon-qarindosh bo‘lib kelgan xalqni diniy e’tiqod asosida hind-u musulmon toifasiga ajratib, ular orasiga raxna solganlar. Natijada ozodlik uchun kurashayotgan xalq o‘rtasida o‘zaro janjallar kelib chiqa boshlaydi. Bunday sharoitda inglizlarga Hindistonda mustahkamroq joylashib olish imkonini berdi va ularning asl niyati ham shu edi. Sharoitdan ustalik bilan foydalangan inglizlar 1906-yili Musulmon Ligasi partiyasini tashkil qiladilar. Bu partiyaning asosiy maqsadi go‘yoki “Hindular siquvida qolgan musulmonlarni qutqarish”dan iborat edi. Bu partiyaga qarama-qarshi ravishda “Hindu Maxasabxa” partiyasi ham inglizlar boshchiligida tashkil etildi. Shunday qilib mustamlakachilar doimo aka-ukadek yashab kelgan hind xalqini bir biri bilan urishtirib qo‘yib, qilgan ishlaridan mamnun holda hukumatni bemalol boshqarish uchun o‘zlariga sharoit yaratib olganlar.

Ro‘y berayotgan bu voqealar, inglizlar tomonidan hind xalqi o‘rtasiga solingan raxna va buning natijasida kelib chiqayotgan to‘qnashuvlar hind xalqi milliy-ozodlik harakatining dohiysi Gandini qattiq hayajonga sola boshlaydi. Sun’iy ravishda chetdan kiritilgan bu ixtilof ozodlik kurashini so‘ndirish maqsadida qilinganini Gandi juda yaxshi tushunar edi. Shu sabab u ham doimo ta’kidlar ediki, mustaqillik uchun kurashda ikkala xalqning birgalikda harakatigina yaxshi natijaga olib kelishi mumkin, “hindular va musulmonlarning birligi svaraj demakdir”. «Gandi Janubiy Afrikada yurgan chog‘laridayoq hindular va musulmonlar o‘rtasida o‘zaro chin ishonch mavjud emasligini, lekin mamlakat xalqining mustaqillik va ozodlik kurashida g‘alaba qozonishi uchun ularning birlishishi hayotiy zaruriyat ekanini yaxshi anglar edi».

Gandi hindu va musulmonlarni birlashtirish uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qilgan. Hattoki, musulmonlarning xalifat harakatida ham ishtirok etdi. Bu harakatning rahbari Mavlono Abul Kalam Ozod ham xalifat harakatida aholining musulmon bo‘lgan qismini ham ishtirok etishini maqsadga muvofiq deb hisobladi. Ikkala rahbar boshchiligida qilingan harakatlar natijasida hindular xalifat harakatida, musulmonlar esa, o‘z navbatida, Gandi boshchiligidagi hamkorlik qilmaslik harakatida ishtirok eta boshladilar.

Lekin, baxtga qarshi aholining hamma qismi ham ozodlik kurashida birlashish zarurligini tushunib yetmasdilar. Shu sababli hindu – musulmonlar kelishmovchiligi xalifat harakati susayishi bilan yana avj olib ketdi. Ayrim musulmonlar, jumladan, Aligarx musulmonlari bu harakatda hindularning ishtirok etishiga qarshi chiqdilar va Gandining hamkorlik qilmaslik harakatida qatnashishdan bosh tortdilar, chunki ular ham o‘zlaricha hindulardan xoli ravishda mustaqil bo‘lish uchun kurash olib borayotgan edilar. Shunday qilib, yana to‘qnashuvlar boshlanib ketdi. Bu davrdagi ahvolni aniqroq tasavvur qilish uchun ba’zi qonli to‘qnashuvlarni misol keltirish mumkin. Masalan, 1923-yilning may oyida Kalkutada bo‘lib o‘tgan to‘qnashuv. Bu to‘qnashuvning kelib chiqishiga asosiy sabab musulmonlar namoz o‘qiyotgan vaqtlarida hindular machit oldidan musiqa chalib o‘tadilar. Bu to‘qnashuv bir necha kun davom etgan va natijada bir qancha kishilar halok bo‘lgan.

Hind adabiyotining taraqqiyparvar adiblari o‘z mamlakatlarida yuz berayotgan voqealarga befarq qaray olmadilar. Ular ijodini hindu va musulmonlarni birlashtirishga chaqiruvchi asarlar yaratishga va shu asarlar orqali mavjud ixtilofning inglizlar tomonidan kiritilganini, bekorga qon to‘kilayotganligi, o‘zaro janjallarni yig‘ishtirib, bir-birlariga qarshi kurashmasdan, aksincha, birlashib turib ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashish zarurligini, faqat shu yo‘l bilangina mustaqillikka erishish mumkinligini xalq ongiga yetkazishga harakat qildilar.

Hind adabiyotining taraqqiyparvar yozuvchilari shunday asarlar yaratdilarki, bu asarlarda ingliz xukmdorlariga nisbatan nafrat, xalq azob-uqubatlariga hamnafaslik, hind-musulmon birligiga chaqiriq ohanglari jarangladi. Jumladan, Premchandning 1928–1933-yillarda yozgan “kurash yo‘li” to‘plamiga kiritilgan hikoyalari mamlakatda jiddiy tus olgan siyosiy kurashni, mehnatkashlar ommasining sinfiy ongi qanday taraqqiy eta borgani va ulardagi vatanparvarlik va mustamlaka zulmiga qarshi kurash, g‘azab tuyg‘ulari kuchayib borayotganini tasvirlashga bag‘ishlangan. Bu ixtilof kelib chiqishi bilan adabiyotda juda ko‘p asarlar maydonga chiqdiki, bu asarlarda bo‘linish natijasida sarson-sargardon bo‘lgan xalq azob-uqubatlari tasvirlangan. Yashpalning “Yolg‘on haqiqat”, Bxisham Sahnining “Mgla” ....., Abdulla Xuseynning “Yo‘qolgan avlodlar” nomli romanlari ayni shu bo‘linish masalasiga bag‘ishlangan. Bxishat Saxni o‘z romanida zamondoshlariga murojaat qilib, bunday xatolarni qaytarmaslikkka chaqiradi, chunki “Bunday vaqtda asosiy

qurbonlik xalq boshiga tushadi”, deydi. Bu hayotiy masala Krishan Chandar, Chandragupta, Vidyalankar, Vishnu Prabxakarlar ijodidan ham o‘rin olgan. Ch.Vidyalankarning “Yana bir hind tug‘ildi”, V.Prabxakarning “Bir otaning farzandlari”, “Men yashayman” kabi hikoyalari hind-musulmon birligiga bag‘ishlab yozilgan asarlar bo‘lib, ularning asosiy maqsadi xalq o‘rtasidagi diniy ixtilof mehnatkash xalq uchun begona ekanligi, hind xalqi asrlar davomida bir otaning farzandlaridek ahil, do‘st, inoq bo‘lib, hamkorlikda yashab kelganligini va bundan keyin ham yashay olishligini isbotlab berish edi.

Oktabr inqilobidan so‘ng Hindistonda Rossiyada yuz bergan ishchi-dehqonlar inqilobiga bo‘lgan qiziqish ortib, hind xalqining ozodlik uchun kurashuvchilariga katta ta’sir o‘tkazdi. Va bu ta’sir asosida rus adiblari tomonidan yaratilgan inqilobiy mazmundagi asarlarning ko‘pi hindi tiliga tarjima qilindi. Taraqqiyparvar hind yozuvchisi Roja Rao (1903–1995-yy.) Gorkiy nomiga 1934-yilda yuborgan xatida “Sizning “Ona” romaningiz ijodimning shakllanishida muhim omillardan biri bo‘ldi”, – deb yozgan edi. Shuningdek, Premchandning 1921-yilda yozgan “Premashram” (“Sevgi makoni”) romanida dehqonlar o‘z suhbatida Rossiyada podshoh taxtdan ag‘darilganini va endi u yerda mamlakatni ishchi-dehqonlar hokimiyati boshqarayotganligi haqida bir-birlariga zavq bilan hikoya qilishlarini kuzatish mumkin.

Inqilobiy mazmundagi asarlar barcha janrlarda yaratila boshlandi. Xususan, tarixiy romanlar asoschisi Vrindavanlal Varma (1889–1972) o‘z romanlarida hind xalqining ozodlik, vatan mustaqilligi uchun kurashlarini realistik asosda tasvirlagan. Varma o‘z asarlari orqali xalqqa mustaqillikka faqat umumxalq kurashi orqaligina erishish mumkin, degan g‘oyani singdirishga harakat qilgan.

Adabiyotning ijtimoiy rolini oshirish, undan ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qilishda keng foydalanish uchun Hindistondagi hamma taraqqiyparvar yozuvchi va shoirlarni birlashtirish zarur bo‘lib qoldi. Adabiy hayotda taraqqiyparvar yozuvchilarni butun Hindiston jamiyatini tuzish uchun ommaviy harakat boshlanib ketdi va 1936-yil aprel oyida Lakxnau shahrida Milliy Kongressning navbatdagi sessiyasida Hindiston taraqqiyparvar yozuvchilar jamiyati (XTYOJ) tashkil etildi hamda konferensiyaga rahbarlik qilish bir ovozdan Prem Chandga topshirildi. Konferensiyada uchta masala ko‘rildi: birinchisi, turli milliy adabiyotlarni yagona milliy mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida birlashtirish; ikkinchi masala, jamiyat ustavini ishlab chiqish, uchinchi masala, tashkilotning chet mamlakatlar adabiy tashkilotlari bilan aloqasi.

Konferensiyada birinchi bo‘lib Premchand so‘zga chiqdi va u Hindiston xalqlari adabiyotining bundan keyingi vazifalari, taraqqiyparvar yozuvchilar oldida turgan buyuk maqsadlar va shu maqsad yo‘lida olib boriladigan kurash haqida barafsil gapirib o‘tdi. Yozuvchilar jamiyatining tashkil topishi adabiyotning hamma janrlarida Premchand boshlab bergan realistik asarlarning ko‘plab yaratilishiga olib keldi. Hindiston taraqqiyparvar yozuchilar ittifoqining tashkil etilishi nafaqat milliy ozodlik

uchun kurash harakatini kuchaytirdi, balki hind adabiyotida o‘z davrining dolzarb muammolarini aks ettirgan, obrazlari mohirona tasvirlangan, sujeti qiziqarli va badiiy vositalari betakror badiiy asarlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi va bugungi kunda ular XX asr Hindiston xalqlari adabiyotining oltin merosi sifatida tan olinadi va hanuzgacha hind xalqi tomonidan sevib mutolaa etiladi, shuningdek, ularning juda ko‘pi ko‘pgina Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilib chop etilgan, ko‘pgina filmlar va dramalar yaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Вишну Прабхакар. Сбюрассказов «Дия гор». Москва, 1963.
2. Gandi. Mening hayotim. Toshkent, 2010.
3. Ганди М. Моя жизн. Москва, 1978.
4. Ермакова С.Н. Отражение национално освободителной борби в творчестве Чаухан. Ташкент, 1978.
5. Иностранная литература. Журнал. №6. Москва, 1958.
6. Комаров Э.Н., Литман А.Д. Мировоззрение Мохандас Карамчанда Ганди. Москва, 1969.
7. Мартишин О.В. Политические взгляды М.К. Ганди. Москва, 1970.
8. Саджад Захир. Избранное. Москва, 1960.
9. Oripov U.M. Xo‘ja Ahmad Abbos. Toshkent, 1960.

UMAROVA SOHIBA
Dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Xorazm devonlarida qasida

Annotatsiya. *Sharq she’riyatida qasida eng qadimiy janrlardan biri hisoblanib, qasidaning o‘ziga xosligi ma’lum shaxs yoki muhim hodisaning vasfi, madhi, maqtovi kabi holatlarni o‘zida mujassam etish, madh etilayotganning yuksak fazilat, xususiyatlarini e’tirofi bo‘ladi. Qasida devonlarda muhim o‘rin tutadi. Dastlab qasidalar arab adabiyotiga oid bo‘lib, qasidaning tag‘azzul, ya’ni xushomad qilmoq, madh etmoq qismidan ajralib chiqqan g‘azal janri esa forsiy adabiyotda o‘z nash’u namosini topgan.*

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida iste’dodli ijodkorlar yetishib chiqdi. Muhammad Rahimxon soniy – Feruz shoh va shoir sifatida san’at, adabiyotga katta ahamiyat qaratdi. Natijada ko‘plab shoirlarning lirik she’rlari jamlanib, ularning devonlariga tartib berildi. Mutaxassislarning aniqlashicha, XIX asrning o‘rtalarida Xivada yuzga yaqin shoir devon tartib bergan, albatta, bularning ichida shohning o‘zi ham bor. Ayrim shoirlar zullisonayn bo‘lishgan va ular o‘zbekcha va forscha devonlariga tartib berishgan. Xorazm devonlari janrlar xilma xilligi, an’anaviyligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Xorazm devonlari, xususan, “Devoni Sultoniy” va “Devoni Sa’diy”lardan o‘rin olgan qasidalar qurilishi va mavzu jihatidan tahlil etiladi. Muhammad Rahimxon soniy – Feruz Xivada yirik adabiy maktabga yetakchilik qilarkan, o‘zining yaqin qarindoshlarini ham bu davraga kirish, she’r yozish, devon tartib

berishga da'vat etadi. Sayyid Nosir to'ra Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning nabirasi bo'lib, Sultoniy taxallusi bilan she'rlar yozgan va "Devoni Sultoniy"ga tartib bergan. "Devoni Sultoniy"da o'n ikki xil janrdagi she'rlar jamlangan va miqdor jihatidan g'azal asosiy o'rinni egallaydi. Sultoniy devonidan joy olgan to'rtta qasida an'anaviy shaklda yozilgan.

Sayyid Nosir to'ra – Sultoniy qasidalari qasidai tom shaklida yozilgan bo'lib, bahoriyot qasidalar sirasiga kiradi. Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy qasidalari ham qasidai tom shaklida yaratilgan, mavzu jihatidan bahoriyot qasidalardan farq qiladi.

Kalit so'zlar. *Xorazm, Muhammad Rahimxon soniy – Feruz, shoirlar, shahzoda, Sultoniy, Sa'diy, devon, qasida, qasidai tom, qo'lyozma, adabiyot tarixi, matnshunoslik.*

Аннотация. *В восточной поэзии касыда считается одним из древнейших жанров, и оригинальностью касыды будет воплощение таких обстоятельств, как васф, восхваление определенного человека или важного события, признание высших качеств, характеристик того, кого восхваляют. Сначала касиды относились к арабской литературе, и жанр газели касиды, который был отделен от тагаззула, то есть льстить, восхвалять, нашел свое название в персидской литературе.*

В конце XIX - начале XX века в литературной атмосфере Харезмии выросли талантливые творцы. Как король и поэт, Мухаммад Рахимхан соний–Феруз придавал большое значение искусству, литературе. В результате были обобщены лирические стихотворения многих поэтов и приведен порядок их посвящений. Специалисты выяснили, что около ста поэтов середины 19 века в Хиве создали деваны, разумеется, сам король входит в их число. Некоторые поэты были зуллисонайнами, и они отдали предпочтение узбекским и персидским девонах. Харезмийские девоны отличаются разнообразием жанров, традиционализмом. В данной статье анализируются конструктивные и тематические аспекты харезмийских деваны, в частности касидов, на смену которым пришли "Девани Султани" и "Девани Саъди". В то время как Мухаммад Рахимхан возглавляет крупную литературную школу в Хиве, он также призывает своих близких родственников войти в этот круг, писать стихи создать деваны. Сайид Насир Тура был внуком Мухаммада Рахимхана соний– Феруза, который писал стихи под псевдонимом Султани и отдавал приказы "Султани Девани". В "Девани Султани" суммированы стихотворения двенадцати различных жанров, и в количественном отношении газель является основным из них. Четыре касиди, расположенные в "Девани Султани", написаны в традиционной форме.

Сайид Насир тура-Султани касиды, написанный в форме касида том, подпадает под порядок бахарийот касиды. Касиды Сайида Саъдуллаха Тура Саади также выполнена в виде том касидаи, в тематическом плане бахариот отличается от касиды.

Ключевые слова. *Харезм, Мухаммад Рахимхан соний - Феруз, поэты, принц, Султани, Садии, деван, касида, касидаи том, рукопись, история литературы, текстология.*

Annotation. *In eastern poetry, qasida is considered one of the most ancient genres, and the originality of qasida will be the embodiment of circumstances such as the vaste, praise, praise of a certain person or important event, the recognition of the highest qualities, characteristics of the one being praised. Mugim occupies a place in the qasi devons. At first the qasidas referred to Arabic literature, and qasida's ghazal genre, which was separated from the tağazzul.*

At the end of the XIX century at the beginning of the XX century, talented creators grew up in the literary atmosphere of Khorezm. As King and poet, Muhammad Rahimkhan soniy – Feruz

placed great importance on art, literature. As a result, the lyrical poems of many poets were summed up and their devotions were given order. Experts have found that about a hundred poets of the mid-19th century in Khiva gave the Devonian order, of course, the king himself is among them. Some poets were zullisonayn and they gave order to the Uzbek and Persian devons. Kharezm devons are distinguished by a variety of genres, traditionalism. This article analyzes the construction and thematic aspects of the Khorezm devons, in particular the qasidas, which were succeeded by the "Devani Sultani" and "Devani Sadi". While Muhammad Rahimkhan leads a large literary school in Sani – Feruz Khiva, he also challenges his close relatives to enter this circle, write poetry, Devonian order. Sayyid Nasir Tora was the grandson of Muhammad Rahim Khan Soniy – Feruz, who wrote poems under the pseudonym Sultani and gave order to the "Devani Sultoni". In "Devoni Sultani", poems of twelve different genres are summed up, and quantitatively ghazal is the main one. The four qadis, located from the Sultanate of Iran, are written in traditional form.

Sayyid Nasir Tora -Sultani qasidas written in the form of qasidai tom fall under the order of bahariyot qasidas. Sayyid Sadullah Tora Saadi qasida is also created in the form of a qasidai tom, in thematic terms the bahariyot differs from the qasida.

Keywords. *Khorazm, Muhammad Rahimkhan Soniy-Feruz, poets, prince, Sultani, Sadii, devan, qasida, qasidai tom, manuscript, history of literature, textology.*

Albatta, “turkiy she’riyatda qasida janri XIV-XV asrlarga qadar alohida janr sifatida o‘z o‘rnini topmagan. Asosan, katta asarlar qaysi vazn va she’riy shaklda yozilayotgan bo‘lsa, aynan uning vazni va shaklida, asarning bir uzviy qismi sifatida yozilib, vazn va qofiyalanish tartibiga kirmagan bo‘lsa-da, janrning asosiy ko‘rinishlari (nasib, madh, duo qismi) o‘z aksini topdi”[1]. Qasidalarning “nasib” qismi ko‘pincha muhabbat mavzusida bo‘lib, undan keyinchalik g‘azal ajralib chiqqan. Shuning uchun ba’zi g‘azallar mazmunan qasida yukini olgan. Xususan, Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Bahoriyot” g‘azali ham qasida deb nomlanmagan bo‘lsa-da, mazmunan qasidaning ba’zi talabiga mos keladi. G‘azaldan oldin ikki bayt arabcha misralar bilan shunday ifodalangan:

Qod ja‘at al-azharu ba’da favtiha,
Va g‘annat at-tayru bi a’lo savtiha.
Fa unzur ila aasari rahmati-llahi,
Kayfa yuhyi al-arza ba’da mavtiha[2].

Bahoriyyotdagi “Fa-unzur ilaa aasari rahmatillahi kayfa yuhyil-arza ba’da mavtiha”...jumlalari Qur’oni karim Rum surasi 50-oyatidan iqtibosdir: فَانظُرْ إِلَى آثَارِ رَحْمَتِ اللَّهِ كَيْفَ يُحْيِي الْأَرْضَ بَعْدَ مَوْتِهَا إِنَّ ذَلِكَ لَمُحْيِي الْمَوْتَى وَهُوَ عَلَى كُلِّ شَيْءٍ قَدِيرٌ

[1] Хасанова М. XV аср туркий шеъриятида қасида жанри: Филол.фан.б. фалсафа.док.автореф... – Самарқанд, 2018. – Б. 13.
[2] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: “Ёзувчи”, 1990. – Б. 103.

(Fa-unzur ilaa aasari rahmatillahi, kayfa yuhyil arza ba’da mavtiha, inna zalika lamuhyil mavta va huva ala kulli shay’in qadir)

Ya’ni, Allohning rahmati (yomg‘iri) asoratlariga boqing - yerni "o‘lgani"dan keyin qanday qilib uni "tiriltiradi"! Albatta, U (Alloh) o‘liklarni tiriltiruvchi va U har narsaga qodirdir.

Rabg‘uziy “Bahoriyot”iga asos bo‘lgan manba “Fa-ahya bihil-arza ba’da mavtiha” oyati karimasi Qur’oni karimdagi bir nechta oyatda keltirilganini qayd etish kerak. Muallif aslida Qur’oni karimdan chetlashmagan holda, mahorat bilan lirik chekinish qilishga erishgan. Yuqoridagi to‘rt misradan keyin esa biz bilgan o‘sha mashhur bayt:

Kun hamalg‘a kirdi ersa keldi olam Navro‘zi,

Kechdi bahman zamharir, qish qolmadi qori buzi [1] – bilan g‘azal boshlanadi. Bahoriyot deb nomlangan 11 baytli ushbu g‘azalning maqta’sida Rabg‘uziy she’rni g‘azal ekanligiga ishora qiladi:

Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,

Yoz uza mundog‘ g‘azallar aymishda Nosir Rabg‘uziy[2].

Keyingi davr shoirlar ijodida bahoriyot mavzusi, aynan qasidai bahoriyaga keng o‘rin berilgani ma’lum bo‘ladi. Hirot adabiy maktabi turkiy xalqlar adabiyotining oltin sahifalarini yaratdi. Bunda Husayn Boyqaroning xizmati katta bo‘ldi. Oliy majlis deb atalgan alohida o‘tirishlar aynan Sulton Husayn Boyqaro tomonidan boshqarilib, Husayniy shoh va shoir sifatida adabiyot, san’at rivojiga katta ahamiyat qaratgan. Hirot adabiy maktabi keyingi davr uchun ham ibrat bo‘ldi. Xususan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz devon tartib bergan va davlatning ijtimoiy, madaniy hayotiga e’tibor qaratish va shoirlar davrasini tashkil etishni Husayn Boyqaro hukmronligidagi Oliy majlisga monand tarzda olib borishga intilgan.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida lirik she’rlar jamlanib, devon tartib berish ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz madaniyat, san’at, she’riyatga ixlosmand shoh va shoir sifatida Xivada shoirlarni jamlab, ularning devonlari tartib berilishiga rahnomalik qildi. Bu davrda ko‘chirilgan devonlar Sharq devonchilik an’analarini o‘zida namoyon etib, devonlarda g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, ruboiy, masnaviy kabilar bilan birga qasidaga ham alohida ahamiyat berilgan. Ogahiy, Munis, Tabibiy, Avaz O‘tar kabi shoirlar devonlarida qasidaga maxsus o‘rin beriladi.

Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz Xivada yirik adabiy maktabga yetakchilik qilarkan, o‘zining yaqin qarindoshlarini ham bu davraga kirish, she’r yozish, devon tartib berishga da’vat etadi. Sayyid Nosir to‘ra Muhammad Rahimxon Soniy – Feruzning

[1] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: “Ёзувчи”, 1990. – Б. 103-104.

[2] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: “Ёзувчи”, 1990. – Б. 104.

nabirasi bo‘lib, Sultoniy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Tabibiyning “Payravi 30 shoiron g‘azali Feruzshohiy” tazkirasidagi masnaviyda Sultoniy haqida shunday yoziladi:

...Suxandonlar a’losi Sultoniydur,
Oning nazmi ma’ni durrin konidur.
Pisarzodai shohi jamjoh erur,
Zamiri ulumu fan ogoh erur.
Sayyid Nosir o‘lmishdurur nom anga,
Mudom ilm tahsilidur kom anga.

Sultoniy lirik she’rlarini jamlab, “Devoni Sultoniy”ga tartib bergan. Ma’lumki, Sharq qasidalari kompozitsion jihatdan 2 xil bo‘ladi: qasidai tom (to‘liq qasida), qasidai mujarrada (to‘liq bo‘lmagan qasida). Qasidai tom “nasib” (yoki tashbib) deb ataluvchi lirik muqaddima, madhga o‘tishda ko‘prik rolini o‘tovchi “gurezgoh” (o‘tish, qochish), “madh” hamda maqtalayotgan hodisa yoki shaxsga “duo” va matlabni ifodalovchi “talab” kabi qismlardan iborat bo‘ladi. “Tarjimon ul-balog‘a” muallifi Muhammad ibn Umar Roduyoniy (XI asr) qasidaning husni matla’si (kirish qismi) haqida shunday deydi: “qasida balog‘atining xususiyatlaridan so‘zning boshlanishi go‘zal va sayqallangan jumladan iborat bo‘lishi va uni eshitgan kishi avvalgi bayt ekanini anglashi lozim”[1]. Shu qoidaga asoslangan holda Sayyid Nosir to‘ra - Sultoniyning quyidagi qasidasini tahlil qilmoqchimiz.

“Devoni Sultoniy”ning 90-91-varaq, 180-182-sahifasidan joy olgan 70 misrali “Ketur soqiy qadah fasli bahor olam arodur...”[2] deb boshlanuvchi birinchi qasida qurilishi jihatidan qasidai tom shaklida yozilgan. Qasidaning nasib qismi:

Ketur soqiy qadah fasli bahor olam arodur,
Safou ravnaq ichra bog‘i sahro jannatosodur.
Shahi kavkab qadah paymo bo‘lub chun hut[3] dashtidin,
Hamalni bog‘u bo‘stoni ichra boda paymodur – deb boshlanadi, va:
Guliston ichra nargislar ko‘zin ochib dame yummay,
Magar gulshan arusig‘a boqib mahvi tamoshodur – misralaridan keyin qasidaning gurezgoh qismi shunday beriladi:
Olib ilkiga har yon lolalar gulrang jomini,
Bu sog‘ardin tarab jonni ich deb elga iymodur.
Qayon boqsang nazarda jilvagardur shohidi maqsud,
Qayon ursang qadamni ishrat asbobi muhayyodur.
Ma’alqissa, bo‘lib xulbardindek dahrning bog‘i,
G‘ubori g‘amdin el ko‘nglini ko‘zgusi mubarrodur.

[1] Раҳим Мусулмониён Қубодиёний. Шеър дар сарчашмаҳои назарий. – Теҳрон: Ҳавзаи ҳунарий. 1377/1998. –С.61-62.
[2] Qo‘lyozma. Inventar raqami: AP –7095.
[3] Hijriy shamsiy oylar hisobida hut va hamal(fevral va mart) oylariga ishora qilinmoqda.

Qasidaning madh qismi esa 20 misrada Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz vasfini quyidagicha aks ettiradi:

Xususan shohi dono adli birla baldai Xorazm,
Safou nasihat ichra g‘ayrati firadasi a’lodur.
Sulaymoni Iskandar davlatin berdi Subhon,
Oning adno quli hashmatda chun Jamshidu Dorodur.

Sultoniyning qasidasi qurilish jihatidan to‘liq, ya’ni qasidai tom shaklida yozilganidan duo, talab qismi mavjud va u 10 misradan iborat:

Duvoyi davlatin aylab so‘zing Sultoniy xatm ayla,
Oning vaslini yozmoqliqda xomang hayrat nishodur.
Binoyi ishratini haq Taoloni poydor etgay,
Jahon xumxonasi to mustaqimi oshkorodur.
Ilohi aylagil mahkam binoyi davlatin oning,
Jahon ayvoni uzra nilgun saqf toki barpodur.
Bahoroso mufarrah ayla shohim ko‘nglini yo rab,
Jahonda navbahor Navro‘z osori huvaydodur.
Ilohi aylagil dahr ichra umri davlatin boqiy,
Bu geti ichrakim mehri mah osori paydodur.

“Devoni Sultoniy”dagi 2-qasida qo‘lyozmaning 91-93-varoq, 182-183-sahifasidan joy olgan, 76 misradan iborat, ushbu qasida shunday baytlar bilan boshlangan:

Kelay dilbar olib ruxingdin niqob,
Man zordin etma davom ijtinob.
Yuzing mehrini jilvagar aylabon,
Shabistonimizni yorit behijob.

Qasidaning madh qismida o‘qiymiz:

Zihi shohikim xizmatin qilg‘oli,
Jahon shahlaridur g‘ulomi rikob.
Qilib davr komi bila yetti charx,
Qila olmas oning ra’yidin inqilob.
Shahanshohimiz xizmatin sidq ila,
Qilur sabayi sayyora ham irtikob.

Qasidaning duo qismi shu tarzda yakun topadi:

So‘zing muxtasar ayla Sultoniyyo,
Duvolar qilib behaddu behisob.
Kelib toza yil birla har yil bahor,
Aruzi tarab yuzidin olur niqob.
Kelib har bahor ichra Navro‘z ham,
Qilur olam ahlini ishrat mig‘ob.
Oning umri mehri topib irtifo,

Yetursin aqolim olamig‘a tob.

“Devoni Sultoniy”dagi 3-qasida qo‘lyozmaning 92-93-varoq, 184-186-sahifasidan joy olgan, 92 misradan iborat bo‘lib, qasidai tom shaklida yozilgan:

Lutf etibon hazrati parvardigor,
Keldi base fayz ila fasli bahor.

“Devoni Sultoniy”dagi oxirgi “o‘ldi” radifli 4-qasida qo‘lyozmaning 93-94-varoq, 186-187-sahifasidan joy olgan, 66 misradan iborat. Bu qasida ham qasidai tom shaklida, hazaji musammani mahzufda yozilgan:

Bo‘ling xushnud ofoq ahlikim vasli bahor o‘ldi,
Chiqib yerdin giyohlar lutfi Subhon oshkor o‘ldi.

Ayrim manbalarda “qasidalar mazmuniga ko‘ra qasidai bahoriya, qasidai madhiya, qasidai faxriya, qasidai xazoniya, qasidai hajviya, qasidai holiya, qasidai ishqiya, qasidai xamriya kabi turlarga ham ajratilgan”[1]. Ko‘rinadiki, Sultoniy qasidalarining barchasi nasib qismiga ko‘ra, bahoriya qasidalari sirasiga kiradi. Shu bilan birga, qasida janrining ma’no-mazmuni ko‘ra, tavhid, munojot, na’t, madhiya, marsiya, hajviya, orifona yoki tasavvufona turlari ham yaratilgan.

Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniyning yana bir nabirasi Sa’dulloh to‘ra Sa’diy Xivaning so‘nggi xoni Said Abdullaxon (1918-1920-yillar Xiva xoni)ning o‘g‘li bo‘lib, bobosi saroyida o‘sib, ulg‘aygan. Sa’dulloh to‘ra Sa’diy yoshligidan adabiyotga qiziqqadi, sharq mumtoz ijodkorlarining asarlarini o‘qib o‘rganadi. Sa’dulloh to‘ra Sa’diy taniqli muarrix va shoir Bayoniyga shogird tushgan, 20 yoshligidan she’r mashq qila boshlagan, u arab, fors tillarini bilgan. Sa’dulloh to‘ra Sa’diy haqida Bobojon Tarroh – Xodim shunday yozadi: “Sa’dulloh to‘ra podshozoda oilasidan chiqqan. U juda zehni o‘tkir odam edi. Bir ko‘rgan narsasini, xoh arabiy bo‘lsin, xoh forsiy bo‘lsin, darrov yodlab olar edi”[2]. Sa’diy taxallusi bilan ijod qilgan Sayyid Sa’dulloh to‘ra tomonidan tartib berilgan “Devoni Sa’diy”dagi qasidalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, devonda shoirning jami 3ta qasidasi joy olgan.

Sa’diyning birinchi qasidasi “Devoni Sa’diy” qo‘lyozmasining 51-52-varoq, 101-103-sahifasidan joy olgan[3], 74 misradan iborat bo‘lib, shakl jihatidan qasidai tomda bitilgan. Qasidaning nasib qismi shunday boshlanadi:

Sano ul Xudoyeg‘a bo‘lsun nisor,
Kamin bandasidur bori tojdor.
Jahon ahlig‘a lutf ila ayladi,
Adadsiz karamlarni ul biru bor.
Yaratmishdurur qatrai erdin[1],

[1] Қуронов Д., Мамажонов З.,Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 377-378.

[2] Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 35.

[3] Qo‘lyozma. Invernar raqami: AP-7092.

Sadaf ichra behad duri shahvor.
Yaratib xaloyiqni har jinsdin,
Qilib hukmini borchag‘a oshkor.
Qasidaning gurizgoh qismi:
Oningdek kishiga bo‘lur dastgir,
Kim umrin oning aylasa ixtiyor.
Kelib yuz tuman fayz birla rabi’
Qilurg‘a farah durrin elga nisor.
Havosi bo‘lub misli Iyso dami,
Bag‘ishlar ulusg‘a farah besho‘mor.
Sa’diy qasidasida mohirlik bilan gurizgoh qismidan madhga o‘tgan:
Bularning borisig‘a bo‘lg‘on sabab,
Shahanshohi olam shahi komkor.
Erur ismi shohi Muhammad Rahim,
Adolat bila dahr aro nomdor.

“Devoni Sa’diy”dagi 74 misrali ikkinchi qasida qo‘lyozmaning 52-53-varoq, 103-105-sahifasidan joy olgan, birinchi qasidaga hamohang tarzda nasib qismi shunday boshlanadi:

Xudovando bori bandangg‘a qilg‘il lutf ila ehson,
Nasimi rahmatingdin g‘uncha ko‘nglini qil xandon.
Sanga hamdu sano ayturda yo rab xush lison etgil,
Rasulingg‘a salom ayturda dog‘i be haddu poyon.
Qasidada:
Shahm Xorazm umrini farovon aylagil yo Rab,
Aban-anjad erur ul kishvari Xorazm uza sulton.
Qasidaning yoshilishi sababi:
Payambar yoshig‘a yetti[2] muborak umri ul shahning,
Ziyod etsun oning mundin ham umru davlatin Yazdon.
Qasida ta’rix tushirilgan:
Muborak to‘yingiz tarixini haddi hisob ila,
“Shah G‘oziy” deganda bo‘lg‘usidur ey shahi xo‘bon.

Agar nasib qismiga qarab, qasidalar mavzusi belginadigan bo‘lsa, Sa’diy qalamiga mansub 1-qasida hamd: Alloh taolga hamdu sanolar aytish bilan boshlanadi. So‘ngra yaratuvchining qudrati, karami, saxovati, kim unga umrini ixtiyor aylasa, fazlu kamolga yetishishi haqida gapirilib, gurizgoh qismiga o‘tiladi. Sa’diyning 2-qasidasi hamd bilan boshlanib, munojot, iltijoga o‘tadi. Qasidaning bu qismida shoirning diniy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

[1] Aslida: يراتميشدورور قطرهء ايردين
[2] Feruz 63 yoshida bo‘lganda mazkur to‘y o‘tkazilgan.

Sa’diyning 3-qasidasi qo‘lyozmaning 53-54-varaq, 105-106-sahifasidan joy olgan, 62 misradan iborat bo‘lib, shunday boshlanadi:

Holima lutfu karamlar aylabon ey soqiyo,
To‘ldurub gulrang may tutg‘il qadah birla manga.
Kim to‘lubdur xasta ko‘nglum yuz tuman anduh bila,
Jom ichib aylar olarni mun’adam ey dilrabo.

Ko‘rinadiki, shoirning ushbu qasidasi bevosita soqiyga murojaat etish bilan boshlangan.

Qasidaning duo qismida shoir taxallusi keltirilgan:

Qiblagohingni duoi xayrini ayla mudom,
Ilking ochib lahza-lahza girya birla Sa’diyyo .
Farz erur qilmoq duosin san kibi kamtarlara,
Ozdurkim aylabon qilsang duo joning fido,
Yo ilohiy, aylabon dushmanlarini xoru zor,
Dardu mehnat qaydig‘a dorayn aro qil mubtalo.
Yo ilohiy man hazin qilg‘il duosin mustajob,
Kim qilibdur dargahingg‘a ajz birla iltijo.

Sultoniy kabi shoirlarning bahoriyot qasidalariga asos manbalar mavjud ekan, Sa’diy qasidalari manbasi Qur’oni Karim va arab, fors, turkiy she’riyat an’analari, tasavvuf adabiyoti bilan bog‘liq tahlilni amalga oshirishni talab etadi.

“Devoni Sultoniy” va “Devoni Sa’diy”ga kiritilgan qasidalarda an’anaviylik saqlagan va mumtoz poetika qonun-qoidalariga muvofiq mahorat bilan yozilgan. Adabiyotshunos A.Erkinov Komil Xorazmiyning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi xususida so‘z yuritarkan, ushbu qasidani “Xiva muhitidagi an’anaviylikdan uzoqlashish istagi mahsuli sifatida qaralishi mumkin”[1], degan, fikrga keladi. Yana bir jihatdan qaraganda esa, Xorazmda 47 yildan ko‘proq hukmronlik qilgan Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz tomonidan an’anaviylikni o‘tgan asrning boshlariga qadar olib kelishga erishilgani maqsad bilan amalga oshirilgan. “Feruz. Shoh va shoir qismati” kitobida ta’kidlanganidek, “Feruz mavjud an’analarni mukammal o‘zlashtirgan, badiiy san’atga tashnaligini ustozlar mahorat bulog‘idan qondirgan mohir shoir edi”[2].

Mumtoz adabiyotga hamohang yozilgan qasidalarni zamonaviylik bilan hech qanday aloqasi yo‘q, deb bilamiz. Chunki XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Xorazmda yangi maktablarning ochilishi, kutubxonalarning tashkil etilishi, bosmaxonalarning ishga tushishi kabi ijtimoiy va madaniy islohotlarni joriy etgan Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz mumtoz sharqona tafakkur salohiyatini yo‘qotishni istamagan. Shuning uchun ham

[1] Эркинов А. Анъанавий ва модерн муҳитлар қиёси: Комил Хоразмийнинг Тошкентга бағишланган қасидаси //Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент, 2009.

[2] Раҳим Д., Матрасул Ш., Жумахўжа Н. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Иккинчи китоб. – Т.: “ЎЗБЕКИСТОН”, 1995. – Б. 53.

adabiyot, san’at rivojini davlat siyosati darajasiga ko‘targan. Buning uchun esa, avvalo, mumtoz she’r nav’larini yozishga va mumtoz davr adiblariga ko‘p e’tibor qaratgan. Shahzoda shoirlarning qasidaga murojaati aslida Feruzning sa’y harakati tufayli edi. Mumtoz adabiyotdagi barcha janrlarni o‘z adabiy muhitida shakllantirishga intilgan shoh va shoir talabchanligi asosida shahzodalar ham mazkur janrda namunalar yozishga intilganlar va ular mahorat bilan qasidalar yaratishga erishganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Отамуродова А., Абдураҳимов О. Маоний арсаси. – Т.: “Тафаккур қаноти”, 2012.
2. Раҳим Д., Матрасул Ш., Жумахўжа Н. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Иккинчи китоб. – Т.: “ЎЗБЕКИСТОН”, 1995.
3. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. – Урганч: “Хоразм”, 1996.
4. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон ИИ – Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т. : Янги аср авлоди, 2010.
5. Qo‘lyozma. Inv.raqami: AP -7092.
6. Qo‘lyozma. Inventar raqami: AP –7095.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

HAMIDOV XAYRULLA
Dotsent, filologiya fanlari doktori, TDSHU

Abdulla Qahhor asarlaridagi maqollarning tarjimalarda berilishi va tahliliga doir

Annotatsiya: *Ushbu maqola hind xalqining buyuk o‘g‘loni, vatan mustaqilligi uchun kurash dohiysi bo‘lgan Maxatma Gandi tavalludining 150-yilligi, Hindiston mustaqilligi hamda o‘zbek hindshunosligining 75 yilligiga*

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli o‘zbek adibi, badiiy so‘z ustasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarda qo‘llanilgan maqol, matallarning turk va rus tillariga qilingan tarjimalari tahlilga tortilib, asliyatga xos xususiyatlarning tarjimonlar tomonidan qay saviyada qayta yarata olingani, erishilgan yutuqlar va ijodiy mehnat jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar har tomonlama keng hamda chuqur tahlil qilingan, qiyosiy tahlil asosida o‘zbekcha hikoyalarning turkcha va ruscha tarjimalariga qanchalik mos ekanligi ko‘rsatilib, ayrim munozarali masalalarning yechimi bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan. Jumladan, asliyat va tarjima tillari orasidagi munosabatlar ko‘rib chiqilib, tarjimani amalga oshirishning qulay jihatlari bilan bir qatorda o‘ziga yarasha murakkabliklari borligi, o‘zbek va turk tillarining bir til guruhiga mansubligiga qaramay ko‘pchilik maqol va matallarning kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etishi asarlarni o‘girishda tarjimondan o‘ta ehtiyotkor bo‘lishni qat’iy talab qilishi zarurligi ta’kidlanadi va qardosh tillararo tarjimalarda so‘zma-so‘z o‘girma ko‘p o‘rinlarda o‘zini oqlashiga alohida urg‘u beriladi.

Tayanch so‘zlar: *badiiy asar, maqol, matal, badiiy tarjima, o‘zaro yaqin tillar, soxta ekvivalent, frazeologik birlik.*

Аннотация *.В данной статье всесторонне и глубоко проанализированы переводы пословиц и поговорок на турецкий и русский языки, использованные в рассказах известного узбекского писателя, мастера художественного слова Абдуллы Каххара, достигнутые успехи переводчиков и недостатки, допущенные в процессе творческой работы. На основе сравнительного анализа показано, насколько подходят переводы узбекских пословиц на турецкий и русский языки, даны теоретические и практические предложения по разрешению некоторых возникших спорных вопросов. В статье также рассматривается взаимосвязь между языками оригинала и перевода, а также тот факт, что, помимо удобств перевода, есть и сложности, несмотря на то, что узбекский и турецкий языки*

относятся к одной и той же языковой группы, большинство пословиц и поговорок имеют различия по происхождению. Подчеркивается, что переводчику необходимо быть очень осторожным, что при переводе с родственных языков часто оправдывается дословный перевод.

Ключевые слова: *художественное произведение, пословица, поговорка, художественный перевод, родственные языки, ложный эквивалент, фразеологические единицы.*

Annotation. *This article comprehensively and deeply analyzes the translations of proverbs and sayings into Turkish and Russian, used in the stories of the famous Uzbek writer, master of artistic expression Abdullah Kahkhar, the successes achieved by translators and the shortcomings made in the process of creative work. Based on a comparative analysis, it is shown how suitable the translations of Uzbek proverbs into Turkish and Russian are, and theoretical and practical proposals are given for resolving some controversial issues that have arisen. The article also discusses the relationship between the original and translation languages, as well as the fact that, in addition to the convenience of translation, there are also difficulties, despite the fact that the Uzbek and Turkish languages belong to the same language group, most proverbs and sayings have differences by origin. It is emphasized that the translator needs to be very careful, that when translating from related languages, a literal translation is often justified*

Keywords: *work of art, proverb, saying, literary translation, related languages, false equivalent, phraseological units.*

Kirish. Badiiy asarlarni tarjima qilish, nashr etilgan tarjimalarni tekshirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish masalalari dolzarbligicha qolayotgani sir emas. O‘zbek adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilib jahon adabiyoti xazinasiga tuhfa qilinishi bugun alohida ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, badiiy tarjima xalqlar orasidagi do‘stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Tabiiy ki, bunda tarjimalarning badiiy saviyasi, asl nusxaga xos badiiylik, milliy ruhni qayta yaratishda tarjimonlarning iste’dodi, bilim darajasi, madaniyati muhim omil hisoblanadi.

Atoqli o‘zbek adibi, badiiy so‘z ustasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarda qo‘llanilgan maqol, matallarning turk va rus tillariga qilingan tarjimalari tahlilga tortilib, asliyatga xos xususiyatlarning tarjimonlar tomonidan qay saviyada qayta yarata olingani, erishilgan yutuqlar va ijodiy mehnat jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar har tomonlama keng hamda chuqur tahlil qilingan, qiyosiy tahlil asosida o‘zbekcha hikoyalarning turkcha va ruscha tarjimalariga qanchalik mos ekanligi ko‘rsatilib, ayrim munozarali masalalarning yechimi bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan ushbu maqolada adibning “O‘g‘ri” va “Bemor” hikoyalari asosiy material sifatida olindi.

Maqsad va vazifalar. Ushbu maqola oldiga qo‘yilgan maqsad badiiy tarjimada maqol va matallarning qayta yaratilishi muammosini atoqli o‘zbek adibi Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va “Bemor” hikoyalarining turk va rus tiliga qilingan

tarjimalari asosida ko‘rib chiqish, tarjima jarayonida ijodkorlar erishgan yutuqlar va ular e’tiboridan chetda qolgan ba’zi xususlarni ta’kidlash va baholi qudrat ayrim taklif va tavsiyalar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqola oldiga turkcha maqol va matallar tarjimasida so‘zlarning qanday tanlangani, ijodkorlarning qaysi usullardan foydalanganini ko‘rsatish, frazeologik birliklarga muqobillar qanday topilganligi, o‘zbek va turk tillari orasida badiiy tarjimaning oson tomonlari va tillarning o‘zaro yaqinligidan kelib chiqadigan mushkulotlarning sababini yoritish, asliyatni ruscha tarjima bilan solishtirish vazifalari qo‘yilgan.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy va tahliliy-qiyosiy metodlardan foydalanildi. Darhaqiqat, ushbu maqola uchun material sifatida olingan mashhur asarlar, atoqli adib Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va “Bemor” hikoyalari turk tiliga ikki-uch marta o‘girilgan. Quyida ana shu tarjimalar imkon doirasida tahlil qilinadi va fanning turli nuqtayi nazarlaridan ko‘rib chiqiladi.

Erishilgan natijalar: O‘zbek tarjimashunosligining asoschisi G‘aybulla Salomov o‘zining o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalar tarjimasi masalalariga bag‘ishlangan mashhur asarida shunday yozgan edi: “Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa – undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g‘oyat murakkab va muhim ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy muammolari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda” [1]. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov esa maqollar haqida mana bu so‘zlarni yozgan: “Maqol xalq ijodi. Ijod badiiyatsiz, badiiyat mubolag‘asiz bo‘lmaydi. *Inson boshi toshdan qattiq* deymiz. Toshdan qattiq narsa yo‘qligi uchun shunday deymiz. *Tog‘ni ursa talqon qilad*igan yigit, degan gap bor. Tog‘ni maydalab bo‘lmasligi uchun bu maqol qudratli va boqiy. *Dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi*gan odam bo‘lmaydi. Soch bilan ko‘cha supurilmaydi, ko‘z yoshi bilan suv sepilmaydi. Lekin *yor yurgan ko‘chalarni supuray sochim bilan, changi chiqsa suv sepay ko‘zlardagi yoshim bilan,* deya kuylanadi. Buni lutf deydilar. Zavqi yo‘q odam lutfni anglamaydi”[2]. Nazarimda, buyuk shoir bu so‘zlarni Abdulla Qahhor va uning asarlari haqida aytgandek.

Darhaqiqat, maqol va matallar tarjimasi sohasida dunyo miqyosida, jumladan, o‘zbek tarjimashunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgani ma’lum. Shunga qaramay, fan taraqqiy etgan sayin bunday birliklarning yangi qirralari,

[1] Salomov G‘., Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, O‘zFA nashriyoti. – T.: 1961, 18-b.

[2] Vohidov Erkin, To‘la asarlar to‘plami, To‘rtinchi jild, Qish halovati, So‘z latofati. –T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2016, 297-b.

kelib chiqish manbalari, leksik-grammatik va lingvomadaniy xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish, ularning tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish zarurati sohada ancha ish qilish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Abdulla Qahhor asarlari paremiologiyasiga kelinsa, adib*ning birgina “Bemor”, “Dahshat”, “Ming bir jon”, “O‘g‘ri”, “Asror bobo” kabi hikoyalarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va matallardan keng foydalanadi. Adib* asarlarida ularning o‘rni bo‘lakcha, uning qalamiga mansub ko‘pchilik hikoyalarning maqol-epigraf bilan boshlanishi ham shundandir. Masalan, mashhur “O‘g‘ri” hikoyasi *“Otning o‘limi, itning bayrami”* maqoli bilan boshlanadi[1]. Turk tilida ushbu maqolning aniq ekvivalenti bo‘lmagani uchun ikkala tarjimon ham uni bir xil, so‘zma-so‘z o‘girgan: *Atın ölümü, itin bayramı*[2]. Bu yerda so‘zma-so‘z tarjima o‘zini to‘la oqlagan va turk tili paremiologiyasi bitta maqolga boyigan, deyish mumkin. Rus tiliga ham ushbu maqol (tarjimon – I.Barolina) so‘zma-so‘z *“Smert konya – radost dlya sobaki”*[3] deb so‘zma-so‘z berilgan va bunga ham sabab maqolning muqobili rus tilida yo‘qligidir.

“O‘g‘ri” hikoyasi bor-yo‘g‘i ikki sahifadan iborat. Frazeologizmlarni hisoblamaganda, hikoyada o‘ndan ortiq maqol, matal yoki maqolga teng frazeologik birikma ishlatilgan. Hikoyaning ikkinchi jumlasi xalq tilidan o‘zlashtirilgan, mazmunan maqolga tenglasha oladigan, ammo ko‘chma ma’no kasb etmaydigan *“Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin”*[4] aforistik jumlasidir. O‘sha davrlarda kambag‘alning bor-budi bir ho‘kiz bo‘lgani, agar undan ham mahrum bo‘lsa, holi xarob bo‘lishi alohida ta’kidlanadi. Ushbu o‘zbekcha maqolni Filiz Demirji *“Çiftçinin evi yanarsa yansın öküzü yok olmasın”*[5] shaklida hijjalab o‘girgan. Hatto o‘zbekcha “yo‘qolmoq” fe’li turkchada “kaybolmak”, tarjimada qo‘llanilgan “yok olmak” shakli esa “yo‘q bo‘lib ketmoq” ekanligiga e’tibor bermagan. Mohir Unli esa jumlani asliyatga mos tarzda ixcham, ohangdor, Qahhorga o‘xshash uslubda talqin qilgan: *“Çiftçinin evi yansın, öküzü kaybolmasın”*[6] (agar bu gap so‘zma-so‘z teskari tarjima qilinsa, quyidagi shaklni oladi: *Dehqonning uyi kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin”).* Maqolning I.Barolina tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasi quyidagicha: *“Dlya dexkanina pust uj luchshe*

[1] Qahhor Abdulla. Hikoyalar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. www.zyouz.com.
[2] Kahhar A. Hikayeler, Çeviren Filiz Demirci. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010.
[3] Кахкар Abdulla, Izbrannыe proizvedeniya v 3-x tomax. Tom I. Rasskazы i pyesы. Izdatelstvo literaturы i iskusstv imeni Gafura Gulyama. Tashkent: 1972. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[4] Qahhor Abdulla. Hikoyalar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. www.zyouz.com.
[5] Kahhar A. Hikayeler, Çeviren Filiz Demirci. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010.
[6] Kahhar A. Hırsız, Çeviren Mahir Ünlü. https://www.edebi.net/ index. php/edebi-eserler/komik-f-kralar/44-secilmis-yazilar/3860-abdullah-kahhar-hirsiz-hikaye.

dom sgorit, tolko вы ne poteryat vola”[1] (teskari tarjimasi: Dehqon uchun hoʻkizni yoʻqotib qoʻyishdan koʻra uyi yonib ketgan yaxshiroq). Bu yerda ham tarjima soʻzma-soʻz boʻlgan.

Oʻzbekcha maqol va iboralarning turkcha va ruscha ekvivalent yoki muqobillari boʻlishi tabiiy. Aynan bir xil maʼnoni ifodalovchi, hatto shakl jihatdan ham bir-biriga juda oʻxshash maqol va iboralar haqida Gʻ.Salomov shunday deydi: “Albatta, bir-biriga qardosh tillarda oʻxshash maqol va matallarning uchrashi hech kimni ajablantirmaydi. Chunki azaldan bir-biriga qarindosh boʻlib, bir territoriya va bir xil sharoitda yashab kelgan xalqlarning tillarida oʻxshashlik boʻlmasligi mumkin ham emas”[2]. Demak, qadimdan oʻzaro yaqin boʻlgan, biroq asrlar oʻtishi bilan farqli hududlarga joylashib qolgan turk xalqi va azaldan muayyan hududda muqim yashab kelayotgan oʻzbek xalqining maqol, matal va iboralari orasidagi yaqinlikning asosiy sababi ham shu boʻlsa kerak.

Gʻ.Salomov yana shunday yozadi: “Baʼzi tillarda maqollarning obrazli asoslari aynan saqlangan holda tarjima qilinsa, sunʼiy boʻlib chiqadi. Lekin ayrim hollarda soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan ham maqollarning maʼnosini toʻliq ifodalash mumkin. Agar maqol yoki idiomaning asosi shu maqol tarjima qilinayotgan tilda ham, originaldagi kabi, umumlashtiruvchilik, obrazlilik, shartlilik, abstraktlik xarakteriga ega boʻlsa, tarjima yaxshi natija beradi”[3].

Maqol yoki matallarni tarjima qilishda, dastlab ularning obrazliligi, milliyligiga eʼtibor beriladi. Oʻzbek va turk tillari bir oilaga mansub tillar boʻlgani bois ularning maqol va matallarida mushtaraklik borligiga qaramay, ular orasida baʼzi farqli jihatlar ham mavjud. Bu holat ushbu birliklarning shakllanishida millatning xarakteri, dunyoqarashi, urf-odatlari namoyon boʻlishi orqali yuzaga keladi. Demak, asar qaysi tildan tarjima qilinayotgan boʻlsa, tarjimon oʻsha xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, etnografik xususiyatlaridan tashqari, maqol va matallarning kelib chiqishi tarixidan ham xabardor boʻlish zarur.

Har qanday maqol muayyan shart-sharoitda paydo boʻladi va ularda mujassam obrazlilik bilan kontekst oʻrtasida uzviy bogʻliqlik boʻladi. Masalan, “Oʻgʻri” hikoyasida *Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi* va *Quruq qoshiq ogʻiz yirtar* maqollari bor[4]. Turk tilida bu maqollarning muqobillari mavjud emas. Albatta, ularni oʻgirish uchun soʻzma-soʻz tarjima usulini qoʻllashdan boshqa chora qolmaydi. Turk tarjimoni (F.Demirji) ham birinchi maqolni *Kedi güneşe bedava*

[1] Kaxxap Abdulla, Izbrannыe proizvedeniya v 3-x tomax. Tom I. Rasskazы i pyesы. Izdatelstvo literaturы i iskusstv imeni Gafura Gulyama. Tashkent: 1972. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[2] Salomov Gʻ., Rus tilidan oʻzbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, OʻzFA nashriyoti. – T.: 1961, 144-bet.
[3] Oʻsha asar, 46-bet.
[4] Qahhor Abdulla. Hikoyalar. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987. www.zyouz.com.

çıkmaz deb, ikkinchisini – *Kuru kaşık ağız yırtar* deb o‘girgan[1]. Ammo tuzilgan jumla uslub jihatdan g‘aliz *(Kedi güneşe bedava çıkmaz – Mushuk bepul oftobga chiqmas).* Ya’ni, so‘zma-so‘z tarjimadan ma’no anglashilib turgan bo‘lsa-da, uni o‘rniga tushgan deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, turkchada bunday gap bo‘lmasligi mumkin. Lekin tarjimon turk tilining maqollar xazinasini “kovlashtirib” o‘tirishga eringan bo‘lsa-da, loaqal o‘zi tuzgan gapning g‘aliz chiqqanligini anglashi va hech bo‘lmaganda *Kedi bile karşılığını almadan güneşe çıkmaz* deb o‘girishi mumkin edi. Ikkinchi tarjimada M.Unli bu kamchilikni tuzatgan va maqolni *Kedi bosh yyere güneşe çıkar mı? (Mushuk bekordan bekor oftobga chiqadimi)* deb o‘girgan. Ikkinchi maqol ikkala tarjimada ham bir xil, so‘zma-so‘z berilgan: *Kuru kaşık ağız yırtar*. Ikkinchi maqolda so‘zma-so‘z tarjima o‘zini oqlagan, mazmun turk kitobxoniga yetkaza olingan. Biroq Abdulla Qahhor uslubi, so‘z va iboralarning ifoda qudrati, jumlaga xos shiraning turkcha tarjimalarda ko‘ngildagidek aks etmaganini tan olish kerak.

Yuqorida tahlil etilgan ikki mashhur o‘zbek maqoli ruscha tarjimada quyidagicha berilgan: *Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi – Darom ved i koshka na solnse ne vыxodit. Quruq qoshiq og‘iz yirtar – Suxaya lojka, govoryat, rot deret.*

Ko‘rinib turibdiki, maqollar rus tiliga ham so‘zma-so‘z o‘girilgan va undan ma’no to‘la anglashilib turibdi. Qolaversa, ikkinchi maqol ruschaga juda mos tushgan. Ya’ni bu yerda so‘zma-so‘z tarjima o‘zini to‘la oqlagan, maqollar mazmuni rus kitobxoniga yetkaza olingan.

Tarjimon asliyatdagi so‘zlarning badiiy, uslubiy, milliy va estetik vazifasini hisobga olishi, so‘zning ma’nosiga alohida e’tibor berishi lozim. So‘zni aynan “ko‘chirish” yoki tushirib qoldirish mantiqiy uzviylik va badiiyatga putur yetkazadi.

Ta’kidlanganidek, Qahhor hikoyalarida maqolga teng o‘nlab aforistik jumlalar qo‘llanilgan. Bu adabiyotshunoslik tadqiqotlarida Qahhor frazeologiyasi, Qahhor uslubiga xos ifodalar deb nom olgan. Shunday jumlalardan biri “O‘g‘ri”dagi *“Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi”.* Birinchi tarjimada F.Demirji ushbu jumlani *“Fakirin arza verishi erbabının izzeti olur!”* shaklida bergan, ammo uni turk kitobxoni tushunmasa kerak. Chunki turk tilida “arz” so‘zi bor, biroq “arza” so‘zi mavjud emas. Ikkinchi tarjimon esa jumlani sal “bezak” berib *“Vatandaşın derdini anlatması büyüklerin şerefindendir”* deb turkchalashtirgan. Aslida bu yuqori uslubda yozilgan jumlani turkchada ham unga monand uslubda *Vatandaşın arzla basvurması yerbap kişiye karşı yüksek saygı işaretidir* tarzida bergan ma’qul yedi.

Yoki hikoyadagi *“Uni begim deguncha kishining beli sinar ekan”* aforistik iborasiga e’tibor qarataylik. Birinchi tarjimon jumlani *“Anlaşıldı ki ona bey*

[1] Kahhar A. Hikayeler, Çeviren Filiz Demirci. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010. – S.42.

dedikçe kişinin beli incelirdi" (So‘zma-so‘z teskari tarjimasi: *Ayon bo‘ldiki, unga "bey" deganing sari kishining beli injalashar ekan).* Ikkinchi tarjimada o‘zbekcha jumla *"Anlaşıldı ki beyler beyliğini gösterene kadar adamın beli kırılırmış"* deb berilgan. (So‘zma-so‘z teskari tarjimasi: *Ayon bo‘ldiki, beylar "beylik"larini ko‘rsatgunga qadar odamning beli sinar ekan).*

Yaqin tillardan o‘girishda so‘zma-so‘z tarjimaning o‘z o‘rni borligi sir emas, biroq buni nisbiy tusunish kerak. Chunki tillar qanchalik yaqin bo‘lmasin, asliyatdagi barcha so‘zlarni hijjalab o‘girilishi to‘g‘ri emas. Tarjimachilikda so‘zma-so‘z tarjimadan qochish tavsiya etilsa-da, ba’zida so‘zma-so‘z tarjimaga murojaat qilish tabiiy zarurat bo‘ladi. Turk va o‘zbek tillari orasida tarjima haqida so‘z borganda, nafaqat oddiy jumlalar, hatto ba’zan butun boshli frazeologizmlar, matal va maqollarni ham so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘ladi va ko‘p hollarda bunday yondashuv o‘zini oqlaydi ham. Masalan, "O‘g‘ri" hikoyasidagi quyidagi maqol qatnashgan jumlaning so‘zma-so‘z tarjimasi turk kitobxoniga tushunarli bo‘lishi kerak:*"Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz".* Ushbu maqol birinchi turkcha tarjimada *"Verene bir tane çok, alana da on tane azdır"*, ikkinchi tarjimada *"Verene bir çok, alana on bile az"* deb berilgan. Ikkala tarjima ham ishonchli, biroq ikkinchisi qisqa, lo‘nda bo‘lgani uchun A.Qahhor uslubiga mos tushgan. Umuman, adib asarlari tarjimonlari uning kam so‘z bilan katta ma’no-mazmunni ifodalashini yaxshi bilishi va buni o‘z ijodida takrorlashi kerak. Ammo afsus, bunga tarjimonlar har doim ham amal qilmaydilar.

Abdulla Qahhor asarlari tarjimalari ustida tadqiqot olib borgan ustoz Sh.Karimov shularni eslaydi: "Abdulla Qahhor asarlari so‘zlarining mag‘zi butunligi, ortiqchalik va bejamadan xoliligi bois, ularni boshqa tilga o‘*girish* tarjimonga mushkullik tug‘dirishi tabiiy hol edi. Bir gal hikoyasi tarjimada qariyb ikki hissa ko‘payib ketganini ko‘rgan adib tarjimonni koyib berganligini yozishgan. Shunda tarjimon adibga e’tiroz bildirib: "To‘g‘ri, siz ajoyib hikoya yozgansiz. Lekin tarjima qilgan odam uni jindek bo‘lsa ham kengaytirgisi, jindek unga qo‘shib qo‘ygisi kelaveradi. Bunday holida yesa u o‘ta siqiq, havo yetishma-yotgandek..." – degan edi, "Qahhor baribir ko‘nmasdan: – Mayli, yomonligicha, ammo-lekin meniki bo‘lib qolsin. Men yozgan narsani "yaxshilashingiz" shart emas" – degan"[1].

Adibning uslubiy o‘lchovlari, iboralari, qolaversa, badiiy tafakkurning talablari bilan bog‘liq vositalari, qochirimlarini tarjimada xuddi o‘ziday qilib bera olishning, atama ma’nosini beradigan atama, ibora ma’nosini beradigan iborani topib joy-joyiga qo‘yishning turgan-bitgani mashaqqat ekanligi yaxshi ma’lum.

Ba’zida turk tarjimonlari jumlalarni nafaqat so‘zma-so‘z, hijjaviy tarjima qiladilar, balki o‘zbekcha maqol yoki iborani tushunmasdan, turli "yangi narsa"lar

[1] Karimov Sh. Abdulla Qahhor ijodi xorijiy tarjimonlar talqinida, Maqola, Sharq yulduzi, 2016-yil, 4 - son, 144-bet.

o‘ylab topadilarki, asliyatga nisbatan bunday munosabatni oqlash mumkin emas. Masalan, o‘zbeklarning mashhur “O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan” maqoli “O‘g‘ri” hikoyasida juda o‘rnida ishlatilgan (A.Qahhor uni quyidagicha bergan: *O‘ynashmagin arbob bilan, seni urar har bob bilan).* Hozirgi turk tilida “bir ishni yaxshi biladigan” ma’nosidagi “erbap” (ar. erbâb) so‘zi *(Her işi erbabından sormalı* –Har qanday ishni ustasidan talab qilish kerak) va “mavzu, xusus” ma’nosidagi eskirgan “bap” (ar. bâb) so‘zi *(Bu bapta malumatım yoktur* – bu borada hech qanday ma‘lumotga ega emasman) juda yaxshi ma’lum.

F.Demirji mashhur o‘zbek maqolini turkchaga *“Muhabbetteki erbâbla, seni vurur her bâb ile”* deb o‘girgan (agar u so‘zma-so‘z teskari o‘girilsa, “Muhabbatdagi arbob bilan, seni urar har bob bilan” degan gap yuzaga keladi va bunday gapda ma’ni yo‘q ko‘rinadi)[1]. Maqol tarjimasi turk o‘quvchisiga tushunarli bo‘lmasligi va turk o‘quvchisini chalkashtirishi tayin. Agar maqol so‘zma-so‘z o‘girilsa ham, turk kitobxoni maqolning ma’nosi ayon bo‘lar edi. Hikoyaning ikkinchi tarjimasida maqol *“Oynaşma sen erbap ile, vurur seni her kapıda*” (so‘zma-so‘z: O‘ynashma sen arbob bilan, seni urar har eshikda) deb berilgan. Umuman, ikkala tarjimada ham mashhur o‘zbek maqoli o‘zining munosib ifodasini topmagan.

Qiyoslash maqsadida “O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan” maqoli Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida ham bir necha o‘rinda qo‘llanilganini ta’kidlash joiz (Qarang: 59-, 75- va 128-betlar) [2] . “Adolat manzili”da bir o‘rinda ushbu maqol *“Her gördüğünüz sarıklıyı hoca, her gördüğünüz sakallıyı babanız zannetmeyin…”*[3] deb berilgan (so‘zma-so‘z: *“Har ko‘rgan sallalikni domla-imom deb, har ko‘rgan soqollikni otam deb o‘ylamang”).* Ko‘rinib turibdiki, tarjima variantining o‘zbekcha matndagi maqolga ham, kontekstga ham hech qanday aloqasi yo‘q. Yana bir o‘rinda bu maqol *“ – Jon bolam! Urishmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan”* (75-b) jumlasi tarkibida qo‘llanilgan va turkcha tarjimada “*Canım oğlum! Kurdun ağzına giren bütün çıkmazmış”* (S.93) shaklida o‘girilgan (so‘zma-so‘z: *“Jon bolam, bo‘rining og‘ziga kirgan (odam) butun chiqmas emish”).* Asliyat mazmuni bu tarjimada qisman aks etgan.

“Adolat manzili”ning yana bir sahifasida so‘z borayotgan maqol quyidagi ko‘rinishda uchraydi: *Olishmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan*[4]. A.Batur uni turk tiliga quyidagicha o‘girgan: *Bekçiyle polisten dost, it derisinden post*

[1] Turk tilida “muhabbet” so‘zi “muhabbat” va “do‘stona suhbat” ma‘nosida qo‘llaniladi.
[2] Yoqubov Odil. Tanglangan asarlar. To‘rt jildlik, 1-jild. Adolat manzili, roman. – Toshkent: Sharq, 2005. – 178 b.
[3] Yakuboğlu Adil. Adalet Menzili, Tűrkçesi D.Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005. – S.72.
[4] Odil Yoqubov ham o‘zbek xalqi nutqida qoliplashib, bir xil aytiladigan maqolni o‘zicha o‘zgartirib (“o‘ynashmagin” fe‘l shaklini “olishmagin” deb o‘zgartirib) qo‘llagan (B.25).

olmaz demişler (S.25) (teskari o‘girilsa, “*Qorovul bilan politsiya xodimidan do‘st, it terisidan po‘stin bo‘lmas”* bo‘ladi). Bu yerda ham o‘zbekcha maqol turkcha o‘girmada o‘z aksini topmagan.

Yuqoridagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, turk tilida mashhur *“Davacın hakimse, yardımcın Allah olsun”* (so‘zma-so‘z: “Agar da’voying qoziga nisbatan bo‘lsa, senga Allohdan boshqa hech kim yordam bera olmaydi”, ya’ni “Dodingni xudoga ayt”) maqoli turk tarjimonlarining yodlariga kelmagan. Yuqoridagi fikrni tasdiqlash uchun “Adolat manzili” romanida qo‘llanilgan yana bir maqolni keltirish maqsadga muvofiq: *“Onangning o‘ynashi qozi bo‘lsa dardingni kimga aytasan”* ushbu maqolning tom muqobili yuqoridagi “Davacın hakimse yardımcın Allah olsun” hisoblanadi. Biroq Ahsan Batur uni *“Ananın oynaşı kadı ise derdini kime anlatırsın”* deb so‘zma-so‘z tarjima qilgan.

“Bemor” – Abdulla Qahhorning o‘zbek xalqi orasida mashhur hikoyasidir. Bu hikoya ham maqol-epigraf (“Osmon yiroq, yer qattiq”) bilan boshlanadi. Turk tilida ushbu maqolning aniq ekvivalenti bo‘lmagani uchun tarjimon (Filiz Demirci) uni so‘zma-so‘z o‘girgan: *“Gökler uzaktır, yer serttir”*[1]. Shu kabi maqol I.Barolinaning ruscha tarjimasida ham so‘zma-so‘z berilgan: “Nebo vьisoko, zemlya jestka”. Bu tarjimada ham asliyatdagi ma’no-mazmun o‘z aksini topgan.

Hikoyada maqol qiymatiga ega *“Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi”* iborasi qo‘llanilgan: *“Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi”*. Ushbu gapni tarjimon turkchaga shunday o‘giradi: *“Elbette ki bunların hepsi parayla oluyordu. Böyle zamanlarda kalın incelir, ince de kopar”*. O‘zbekcha matnda bemor odamga nisbatan qo‘llanilgan ushbu iboraning turk tilida aniq ekvivalent bo‘lmagani bois tarjimon uni ham so‘zma-so‘z o‘girgan va bu yondashuv o‘zini to‘la oqlagan deyish mumkin. Buni o‘qigan turk kitobxoni gap nimada ekanligini darrov fahmlaydi[2].

M.To‘xliyev tarjimasida maqol va jumla quyidagicha berilibdi: “Bunların hepsi elbette parayla oluyordu. Böyle zamanlarda kalın gerilir, ince kopardı” Jumla rus tiliga quyidagicha o‘girilgan: *“Vse eto, konechno, stoilo deneg. Ved tak ono vsegda: gde tolsto – tam tyanetsya, gde tonko – rvetsya”.* Tarjima, muvaffaqiyatli chiqqan.

Frazeologik birliklar ishtirok etgan jumlalarni ishonchli o‘girishning tarjimon uchun qiyinligi ushbu birliklarning ko‘pchiligi til egasi bo‘lgan xalqning urf-odatlari, madaniyati, psixologiyasi, diniy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqligida hamdir[3]. Bu esa o‘z navbatida tarjimondan xalqning moddiy va ma’naviy, urf-odatlari, milliy o‘ziga xosliklari, asliyat tili frazeologiyasi tabiatini teran his etish, shu bilan birga tarjima tili frazeologiya zahirasi bilan yaqindan tanish bo‘lgan holda, ikki madaniyat,

[1] M.To‘xliyev maqol-epigrafni tarjima qilmagan ekan.
[2] Taklif etilayotgan variant: “Tabii ki, bunların hiç biri parasız olmuyordu. Böyle durumlarda, dedikleri gibi kalın olan incelir, ince olan da kopar”.
[3] Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. –Toshkent: TDSHI, 2017. – B.128.

ikki til frazeologizmlarini taqqoslashi, ular orasidagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlab olishni talab etadi.

Sh.Karimovning quyidagi so‘zlari e’tiborga loyiq: “Abdulla Qahhor asarlarini o‘zbek milliy turmush tarzining badiiy ensiklopediyasi deyish mumkin. Bir so‘z bilan nishonga tegadigan detallar, imo-ishora orqali o‘zbeklarga xos turmush tarzini ifodalash Abdulla Qahhorga xos. O‘zbek hayoti va turmush tarzini bilmaydigan tarjimon buni tarjimada ifodalay olmasligi aniq. Natijada, asarning badiiy o‘ziga xosligi yo‘qoladi. Shu bois, u yoki bu milliy adabiyotga daxldor asarni tarjima qilishdan oldin o‘sha xalq hayotini yaxshi o‘rganish maqsadga muvofiq”[1].

Xulosa. O‘zbek va turk xalqlarini til, din, tarix, madaniyat, urf-odatlar kabti mushtarak jihatlar yaqinlashtirib turadi. O‘xshash maqol va matallar yuzaga kelishiga ana shu omillar sabab bo‘lgan. Ammo tillar orasidagi farqli jihatlarning mavjudligiga esa ikki xalqning salkam ming yildan buyon bir-biridan uzoq jo‘g‘rofiyalarda yashayotganligi bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, tarjimalarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning sabablaridan biri esa tarjimonlarning o‘zbekcha maqol va matallarning turkcha muqobillarini izlashga har doim ham intilmaganlari, ularni o‘girishda asosan so‘zma-so‘z tarjimaga ko‘p yo‘l berganliklari va oqibatda tarjimalarda birliklarning ma’nolari ishonchli tarzda ochib berilmaganligidir. Shuning uchun maqolada maqollarning tarjimalarda ishonchli berilishi bilan bog‘liq yondashuvlar ilgari surildi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar tarjimaning barqaror talab va qoidalarini ishlab chiqish, uning o‘ta murakkab ijodiy ish, hatto san’at darajasidagi faoliyat ekanini isbotlash, binobarin, tilni tuzuk-quruq bilmay va muayyan tajribaga ega bo‘lmay bu ishga qo‘l uradigan kishilarning adabiyot durdonalarini tarjima jarayonida o‘rtamiyona bir matnga aylantirib qo‘ymasligi uchun tarjima tanqidini kuchaytirish, tarjimashynoslikda qiyosiy tadqiqotlarni tizimli bajarilishini yo‘lga qo‘yish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda o‘zbekchadan turkcha va ruschaga tarjimalar tahliliga bag‘ishlangan mazkur tadqiqot nafaqat o‘zbek tilidan turk va rus tillariga, balki qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa qardosh hamda qardosh bo‘lmagan tillarga tarjimalarni baholashga ham nazariy, ham amaliy jihatdan zamin yaratishini ta’kidlash joiz. Bundan tashqari, tadqiqot natijasida kelingan xulosalar, berilgan taklif va tavsiyalar “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi talabalari va “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrantlar hamda yosh mutaxassislar, izlanuvchilar uchun foydali material bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

[1] Karimov Sh. Abdulla Qahhor ijodi xorijiy tarjimonlar talqinida, Maqola, Sharq yulduzi, 2016-yil, 4- son, 144-bet.

TO‘RAQULOVA DILDORA
Tayanch doktorant, SamDCHTI

Abdulla Qahhor hikoyalarining koreyscha tarjimasida kiyim-kechak nomlarining berilishi xususida

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjima jarayonida milliy koloritni saqlab qolishning muhimligi hamda milliy xos so‘zlarning tarjima qilish usullari va muammolari haqida so‘z boradi. Muqobilsiz leksikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. “Muqobilsiz leksika” termini ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Y.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan. Ular mazkur terminni quyidagicha izohlashgan: “Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar, ya’ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo‘lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi bo‘lmagan, bir so‘z bilan aytganda, o‘zi taalluqli bo‘lgan tildan tashqarida muqobili bo‘lmagan so‘zlardir”.L. S. Barxudarovning yozishicha: “Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobiliga ega bo‘lmasligidir”. U muqobilsiz leksikaga quyidagi uchta guruhdagi leksik birliklarni kiritadi:*

1. Atoqli otlar – geografik joy nomlari, tashkilot, korxona, gazeta va h.k. nomlar.

2. Realiya – boshqa tilda so‘zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so‘zlar. Masalan: moddiy va ma‘naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.

3. Tasodifiy lakunalar – biron-bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko‘ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi.

Maqolada har bir usulni Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarining koreys tiliga tarjimasidan keltirilgan misollar orqali yoritib beriladi hamda tahlilga tortiladi. Tahlil jarayonida milliy liboslarimiz hisoblangan do‘ppi, to‘n, kavush, salla kabilarning tarjimasi xususida to‘xtaldik. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar yildan yilga yaxshilanmoqda. Bu, o‘z navbatida, ushbu ikki mamlakat o‘rtasidagi lingvomadaniy munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Adabiy asarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri koreys va o‘zbek tillariga tarjima qilinmoqda. Afsuski, tarjima jarayonidagi bir qancha muammolar haligacha hal qilinmagan. Ana shu muammolardan biri–bu realiyalarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish yo‘llaridir. Maqolada, koreys tiliga tarjima qilingan o‘zbek hikoyalarida uchragan, kiyimlar nomlari tarjimasi muammosi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘z: *milliy xos so‘z, realiya, transletiratsiya, transkripsiya, milliylik, tarjima, tarjima muammosi, muqobil, badiiy tarjima, milliy kolorit.*

Аннотация: *В данной статье говорится о важности сохранения национального колорита в процессе перевода, а также о методах и проблемах перевода национальных слов. Интерес к изучению альтернативной лексики возрос со второй половины XX века. Термин «безальтернативная лексика» был введен в научный оборот исследователями Ю. М. Верещагиным и В. Г. Костомаровым. Они объяснили этот термин следующим образом: «Безальтернативная лексика — это слова, выражающие понятия, не существующие в другой культуре и языке, то есть элементы культуры, уникальные для*

конкретной культуры, а также слова, не имеющие перевода». в другом языке, в одном слове, другими словами, это слова, не имеющие альтернативы вне языка, к которому они относятся.

По мнению Л. С. Бархударова: «Безальтернативная лексика означает, что лексические единицы одного языка не имеют полной или частичной альтернативы в другом языке». Он включает следующие три группы лексических единиц в лексиконе без альтернатив:

1. Знаменитые существительные - названия географических мест, организаций, предприятий, газет и т.п. имена.

2. Реалии – слова, выражающие предметы, понятия и ситуации, не существующие в практическом опыте носителей другого языка. Например: названия национальной еды в материальной и духовной культуре, названия национальной одежды и т. д.

3. Случайные лакуны – лексические единицы одного языка по каким-либо причинам не соответствуют лексической структуре другого языка. Каждый метод поясняется и анализируется на примерах из перевода рассказов А. Каххора на корейский язык. В последние годы культурные, социальные и политические отношения между Узбекистаном и Кореей год от года улучшаются. Это, в свою очередь, создает основу для развития языковых и культурных связей между этими двумя странами. Литературные произведения напрямую переводятся на корейский и узбекский языки. К сожалению, ряд проблем в процессе перевода до сих пор не решены. Одной из таких проблем являются трудности перевода реалий и пути их преодоления. В статье говорится о проблеме перевода названий одежды, встречающихся в узбекских рассказах, переведенных на корейский язык.

Ключевые слова: *национально-специфическое слово, реальность, транслитерация, транскрипция, национальность, перевод, проблема перевода, альтернатива, художественный перевод, национальный колорит.*

Abstract: *This article talks about the importance of preserving the national color in the translation process and the methods and problems of translating national words. The interest in studying alternative lexis has increased since the second half of the 20th century. The term "non-alternative lexicon" was introduced into scientific circulation by researchers Y. M. Vereshchagin and V. G. Kostomarov. They explained this term as follows: Non-alternative lexicon is words expressing concepts that do not exist in another culture and language, that is, elements of culture that are unique to a particular culture, as well as words that do not have a translation in another language, in one word in other words, they are words that have no alternative outside of the language to which they refer.*

According to L. S. Barkhudarov: "A lexicon without an alternative means that lexical units in one language do not have a complete or partial alternative in another language." It includes the following three groups of lexical items in the lexicon without alternatives:

1. Famous nouns - names of geographical places, organizations, enterprises, newspapers, etc. names.

2. Realia - words that express objects, concepts and situations that do not exist in the practical experience of speakers of another language. For ehample: names of national food in material and spiritual culture, names of national clothes, etc.

3. Random lacunae - the lexical units of one language do not correspond to the lexical structure of another language for some reason. Each method is explained and analyzed through

ehamples from the translation of A. Qahhor's stories into Korean. In recent years, cultural, social and political relations between Uzbekistan and Korea have been improving year by year. This, in turn, creates a basis for the development of linguistic and cultural relations between these two countries. Literary works are directly translated into Korean and Uzbek languages. Unfortunately, several problems in the translation process have not yet been resolved. One of these problems is the difficulties in translating realities and ways to overcome them. The article talks about the problem of translating the names of clothes encountered in Uzbek stories translated into Korean.

Key word: *national specific word, reality, transliteration, transcription, nationality, translation, translation problem, alternative, literary translation, national color.*

Jamiyatda inson kamolotining shakllanishi, badiiy so‘z va uning qudratiga bevosita bog‘liq. Bir mamlakat adabiyoti ikkinchi mamlakat adabiyotiga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Sharqning o‘ziga xosligi ham shundadir. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ham adabiyot ta’minlaydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Sharq adabiyotshunosligini o‘rganish, inson bo‘lish demakdir. Zero, necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan buyuk xazina hamisha ruhiyatni oziqlantiradi. Badiiy asarlarni tarjima qilish, ular bilan tanishishdagi eng oson yo‘ldir. Shuning uchun ham bugun Sharq tillarini o‘rganish va o‘rgatish davlat ahamiyatiga molik masaladir. O‘zga xalqlar hayotida asarlar yaratish har bir adabiyotda muayyan an’ana va o‘ziga xos tajribaga ega hodisa. Bu jarayon adabiyotlar taraqqiyotining turli bosqichlarida, xilma-xil shakllarda, turli badiiy saviyada davom etib kelmoqda. Shunday davrlar bo‘lganki, o‘zga millat kishilarining badiiy obrazlarini adabiy jarayonning masalalaridan biri qilib qo‘yilgan va unga davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida qaralgan. Natijada respublikalarda o‘tkazilgan adabiyot va san’at kunlari, o‘zga millat shoir va yozuvchilarining yubileylariga, siyosiy, adabiy-madaniy tadbirlarga bag‘ishlanib har xil janrlarda ko‘p asarlar yozilgan. Lekin ularning hammasi ham bir xil badiiy saviyada bo‘lmagan. Sayozlari adabiy jarayonda hech qanday iz qoldirmasdan, faqat o‘sha tadbir uchun “xizmat qilib”, so‘ng unitilib ketilgan.

O‘zga millatlar hayoti to‘g‘risida badiiy asarlar yozish, ularning poetik obrazlarini yaratish ancha murakkab jarayon. Murakkabligi shundaki, bu mavzuga qo‘l urgan ijodkor tasvir obyektini yaxshi bilishi lozim. Shunday bo‘lishi kerakki, boshqa millat haqida yozilgan asarda muallifning mavzu materialini yuzaki bilishi sezilmasin, o‘quvchida o‘z xalqining ijodkori tomonidan yozilganidek taassurot qoldirsin. Koreys adabiyoti bir necha asrlardan buyon hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shu yo‘sinda ta’kidlab o‘tish joizki O‘zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishishi, xalqaro ijtimoy aloqalarning globallashuvi, respublikamizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun imkoniyat yaratadi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan dastlabki davlatlardan hamda mamlakatimizning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvarda shonli sana – O‘zbekistoin bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida diplomatik

munosabatlar o‘rnatilganligining 25 yilligi munosabati bilan Koreya Respublikasi rahbariyatini tabriklar ekan, ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro ishonch, ochiqlik va hamfikrlik qaror topganini, bu turli sohalarda, shu jumladan madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilayotganini katta mamnuniyat bilan ta’kidladi. O‘zbekistonda koreys tili, madaniyati, adabiyoti, tarixiga bo‘lgan qiziqish kundan kunga o‘sib borayotganini ham aynan shu bilan izohlash mumkin. “O‘zbekiston madaniyati singari, Koreya madaniyati ham umuminsoniy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning an’anaviy, ma’naviy qadriyatlari insonni kamolot cho‘qqilariga ko‘tarish, uni dunyoning rang-barangligini anglab yetayotgan va shu asosda o‘z dunyoqarashi va borliq haqidagi tasavvurlarini takomillashtirayotgan shaxs sifatida kamol toptirish uchun imkoniyat yaratadi. Koreya madaniyati o‘z ildizlari bilan uzoq moziyga borib taqaladi, bu esa o‘z-o‘zidan bitmas-tuganmas bu madaniy merosni o‘rganish, uning mohiyatini yoritib berish vazifasini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, koreys madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan adabiyot, xususan, o‘rta asr mumtoz adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi ”.

Ma’lumki, har qanday adabiyot shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy bo‘ladi. Ya’ni, umuminsoniy g‘oyalarni milliy vositalar orqali aks ettiradi. Bino-barin, badiiy asar asosida muayyan xalqning turmushi yotadi. Milliylik – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o‘zigagina xos xususiyatlari majmuyi. Ularni u yoki bu millatning ma’naviy faolioyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklar deb, ikkiga ajratib qarash mumkin. Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, pazandachilik, ismlar kabilardan iborat .

L.K.Latishevning qarashicha, muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sababi “asliyat tili sohibiga yaxshi tanish bo‘lgan hodisani ifodalovchi, mazkur tilning leksik tarkibidan barqaror o‘rin olgan leksik birlik bo‘lib, u tarjima tili sohibi uchun mutlaqo notanish yoki juda kam tanish bo‘lgani uchun va tarjima tilining leksik tarkibida aks etmaganligida deb ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turli madaniyat va etnik hamjamiyatlar tomonidan olamni o‘zgacha ko‘rish tarzidir. Bu, xususan, tarjima tilida har doim ham asliyat tilida qayd etilgan leksik birliklar o‘zining tushuncha va ma’nosida qayd etilmasligida namoyon bo‘ladi”.

Demak, ekvivalent bo‘lmagan lug‘at deganda, biz boshqa tilning leksik birliklari orasida na to‘liq, na qisman ekvivalentiga ega bo‘lmagan leksik birliklari (so‘zlar va so‘z birikmalari)ni tushunamiz. Bunga asosan quyidagi so‘z turkumlari kiradi:

1) tegishli nomlar, geografik nomlar, muassasalarning nomlari; leksikada doimiy mos kelmaydigan tashkilotlar, gazetalar, kemalar va boshqalar;

2) realiyalar, ya’ni obyektlar, tushunchalar va boshqa tilda gapiradigan odamlarning amaliy tajribasida mavjud bo‘lmagan holatlar. Bunga turli xil moddiy va ma’naviy narsalarni bildiruvchi so‘zlar kiradi. Faqat shu xalqqa xos madaniyatlar, masalan, milliy taomlarning nomlari oshxonasi (rus. щи, борщ, рассольник, квас, калач; ingliz. muffin, haggis, toffee, butter-scotch, sundae), xalq kiyimi va poyabzali turlari (сарафан, душегрейка, кокошник, лапти), xalq raqslari (ruscha trepak, hopak; inglizcha, pop-gocs-the-weasel), xalq og‘zaki ijodidan (ruscha ditties; inglizcha, limericks) va boshqalar. Shunga qaramay, qay holatda bo‘lmasin, u yoki bu so‘z, yoki iborani voqelikni bildiruvchi ekvivalent bo‘lmagan lug‘at soniga bog‘lanishi mumkinligini aniqlash har doim ham oson emas.

3) leksik birliklar, ularni tasodifiy bo‘shliqlar deb atash mumkin. Biz tillardan birining lug‘atining boshqa tilning leksik tarkibida (so‘zlar yoki iboralar ko‘rinishida) biron-bir sababga ko‘ra (har doim ham aniq emas) mos kelmaydigan birliklarini nazarda tutamiz”.

Butun dunyo xalqlari tillari orasida o‘zaro farqlar mavjud bo‘lib, asosan madaniyatlar orasidagi farqlarga asoslanandi. Bu farqlar tilning leksik va frozeologik qatlamida yuzaga chiqadi, binobarin, tilning nominativ birliklari aksariyat hollarda nolisoniy omillar bilan bog‘langan bo‘ladi. “Muqobilsiz leksika muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko‘pincha mahalliy xalqqa xos pul birligi, ro‘zg‘or-ashyo buyumlari, kiyim-kechak, yegulik-ichimlik va h.k tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topadi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonning eng muhim xususiyati global-lashuvdir. Va bugungi kunda, globallashuv sharoitida, tarjima nuqtayi nazaridan madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari mavzusi dolzarb bo‘lib bormoqda. Muvaffaqiyatli muloqot har ikki tomonning bir-birini tushunishini talab qiladi. Muqobilsiz leksikani uzatish muammosi, madaniyatlararo muloqotni ta’minlash masalalariga ham tegishli. Bunday lingvistik hodisa ko‘pincha badiiy adabiyotda uchraydi, bu esa, boshqa tillarga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar yildan yilga yaxshilanmoqda. Bu, o‘z navbatida, ushbu ikki mamlakat o‘rtasidagi lingvomadaniy munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Adabiy asarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri koreys va o‘zbek tillariga tarjima qilinmoqda. Afsuski, tarjima jarayonidagi bir qancha muammolar haligacha hal qilinmagan. Ana shu muammolardan biri bu – realiyalarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish yo‘llaridir. Maqolada, koreys tiliga tarjima qilingan o‘zbek hikoyalarida uchragan, kiyimlar nomlari tarjimasi muammosi xususida so‘z boradi. Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarning koreys tiliga tarjimasi tahlilga tortildi. “Dahshat” hikoyasi tahlili:

Asliyat: Umsin uyiga kirdi, paranji chimmatini yopindi, qumg‘onga suv to‘ldirib, choynakka choy soldi-yu, jo‘nadi .

Koreyscha tarjimasi: 운슨은 자신의 방으로 돌아와서 머리에 바란지를 썼다 .

Paranji – ko‘pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘n shaklidagi, soxta yengli yoping‘ich hisoblanadi. Paranji kabi liboslar koreys xalqida uchramaydi, shu sababli ham, paranji so‘zi tarjimon tomonidan transkripsiya yo‘li bilan tarjima qilinib, havolada paranji o‘zbek ayollarining ko‘chaga chiqayotgan paytda, boshiga yopib oladigan yopinchig‘i ekanligi to‘g‘risida izoh qoldirilgan. Tarjimon, kitobxon tasavvurida milliy libosimiz bo‘lgan paranji haqida tasavvur uyg‘ota olgan, tarjima muvoffaqiyatli amalga oshirilgan.

“To‘yda aza” hikoyasi tahlili:

Asliyat: Mish-mish rost bo‘lib chiqdi: domla bozor qilishni, magazinga kirishni jinidan battar yomon ko‘rar edi, kimdir uni univermagda ochered kutib turganini ko‘ribdi, ertasiga choyxona oldidan chamandagul do‘ppi kiyib o‘tdi .

Koreyscha tarjimasi: 소문은 사실이었다. 선생은 장을 보거나 가게에 가는 것을 무척 싫어했다. 그런대 누군가 그가 백화점에서 계산대 앞에 줄을 서 있는 것을 보았다고 했다. 다음 날 선생은 새 모자를 쓰고 찻집 앞을 지나갔다 .

Har bir millatning etnik xususiyatlarini, an’anaviy liboslarning bosh kiyimi kabi ajralmas qismi yoritib beradi. Bunday bosh kiyimlardan biri do‘ppi bo‘lib, uning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunday bosh kiyimlarning tasvirlarini arxeologik topilmalar, freskalar va miniaturalarda ko‘rish mumkin. Do‘ppi turkiy so‘zdan olingan bo‘lib, “tepalik”, “cho‘qqi” degan ma’noni anglatadi. Har bir mintaqaning do‘ppilari rangi, dekoratsiyasi va ishlab chiqarish texnikasi bilan ajralib turadi. Do‘ppi orqali uning egasi qaysi viloyat va hatto qishloqdan ekanligini aniqlash mumkin edi. 1940-yillarda Toshkent do‘ppilari baxmaldan tiqilgan butalar bilan bezalgan bezagi bilan ajralib turadi. Bunday bezak “chamanda gul” deb nomlangan .

Milliy bosh kiyimlarimizdan biri bo‘lgan chamanda gul do‘ppi tarjimon tomonodan 새 모자 (Se moja) – yangi bosh kiyim so‘zini qo‘llab tarjima qilingan. Chamanda gul do‘ppi koreys xalqi uchun yot tushuncha va shu kabi bosh kiyimning koreyslar madaniyatida uchramaganligi bois, tarjimon so‘z almashtirish usuliga murojaat qilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, xalqning madaniyati milliy xos so‘z (realiya)larda yorqin o‘zini ko‘rsatadi. Realiyalar muqobili bor va muqobilsiz guruhlarga bo‘linadi. Albatta, tarjimon bu kabi so‘zlarni tarjima qilishda, koreys madaniyatini ham mukammal bilishi zarur hisoblanadi. Ushbu tarjima noto‘g‘ri degan xulosaga kelish ham noo‘rin. Biroq, shuni ta’kidlab o‘tish

joizki, Ko‘p hollarda tarjima jarayonida, tranletiratsiya yoki transkripsiya yo‘li bilan tarjimaga ko‘chgan so‘zlar anglatgan ma’no yoki tushunchani o‘quvchi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, havola izohlari va tushuntirishlaridan foydalaniladi. Tarjimon ham o‘zbek milliy bosh kiyimining turlaridan biri hisoblangan “chamanda gul do‘ppi” so‘zini shu yo‘l bilan tarjima qilganida kitobxon tasavvurida milliy bosh kiyim haqida tasavvur uyg‘ota olgan bo‘lar edi.

“Yillar” hikoyasi tahlili:

Asliyat: – Ha biz shu yerda, – dedi Orziqul, to‘nining yengini kiyib .

Koreyscha tarjimasi: 얼주쿨은 옷 소매 속으로 손을 놓으며 계속 말했다 .

To‘n oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon hisoblanadi. Mazkur jumlada keltirilgan, to‘n so‘zini tarjima qilishda, 옷 (o‘t) kiyim so‘zini qo‘llab, qismni butun bilan anglatish orqali, generalizatsiya usuliga murojaat qilingan. Generalizatsiya – konkretlashtirishning aksi bo‘lib, asliyatdagi tor ma’noli so‘zni tarjima tilidagi keng, umumlashtiruvchi so‘z bilan umumlashtirishni ko‘zda tutadi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, koreys milliy liboslari orasida, ko‘rinish va vazifaviy jihatdan to‘nga o‘xshagan milliy libos mavjud bo‘lgan va bu kiyim 두루마기 (durumagi) deb nomlangan. 두루마기 koreys milliy liboslaridan hisoblangan. Va bu libosni Choson sulolasi davrida oddiy kutubxonachilar kiyishgan. Yenglari tor va tekis, old qismi yopiq turishi uchun ikki tomonda bog‘ichi bor bo‘lib, uzunligi esa to‘piqdan 20–25 cm balandroqda bo‘lgan. “Realistik tarjima nazariyasi u yoki bu xalqning milliy obidasi ekanligi nuqtayi nazaridan har qanday asarda o‘z aksini topgan milliy xususiyatlar, tarjimada ham aks etishi shart deya qat’iy xulosa chiqarib qo‘ygan. Ushbu xulosa nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, ko‘rinish va vazifa jihatidan o‘xshash bolsa-da, to‘n so‘zini 두루마기 (durumagi) deb tarjima qilishimiz noto‘g‘ri degan xulosaga kelamiz. Tarjimon generalizatsiya usuliga murojaat qilib, to‘n so‘zi o‘rnida kiyim so‘zini qo‘llab tarjima qilganligini to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Agar tarjimon so‘zni transletiratsiya usuli bilan tarjima qilib, havolada tarjima qilinayotgan so‘zga izoh qoldirilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asliyat: Juda soz bo‘libdi-da, Hojim! Ko‘p yaxshi qilibsiz. Qani kirsinlar. Yo‘q, yo‘q kavushni ichkariga yechadilar .

Koreyscha tarjimasi: 잘하셨어요, 허지씨. 정말 오랜마니네요. 들어오세요. 아니, 구두는 방 안에서 벗으시면 됩니다 .

Mazkur tarjimada so‘z o‘z aksini topmagan. Kavush milliy oyoq kiyim hisoblansa, tarjimon ushbu so‘zni zamonaviy oyoq kiyimlardan biri 구두 – tufli so‘zi bilan tarjima qilgan. Kavush – charmdan tiqilgan va odatda mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi hisoblanadi. Koreys xalqida ham ko‘rinish jihatdan kavushga o‘xshagan milliy oyoq kiyimlar bo‘lgan. Va ular 태사혜 (tesaxye) deb nomlangan, shakliga ko‘ra u to‘piq ko‘rinib turadigan va to‘piqni yopadigan turlari bo‘lgan. Xususan, ipak yoki teridan tayyorlangan, yuqori sifatli oyoq kiyim

hisoblangan. Bezatilgan naqshlariga qarab erkak va ayollar oyoq kiyimi ekanligi ajratilgan. Oyoq kiyimning old va tovon qismida oq chiziqlar bilan bezak berilgan bu erkaklar uchun mo‘ljallangan bo‘lgan va u 운혜 (unxye) deb nomlangan. Ayollar poyafzali uchun esa, old qismida bulut naqshli tovon qismida zarang daraxti naqshlari tushirilgan bo‘lgan va bu oyoq kiyim 당혜(tangxye) deb nomlangan. Badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish kerakmi yoki o‘zgartirish – tarjima tili mansub xalq yashayotgan zaminga ko‘chirish kerakmi, degan masala hali-hanuz o‘zining uzil-kesil yechimini topmagan. Shunday ekan, bu kabi so‘zlarni tarjima qilish tarjimon oldiga bir qancha muammolarni ko‘ndalang qiladi. Mazkur jumlada ham tarjimon, kavush so‘zini tarjima qilishda qiyinchilikka yuz tutganining guvohi bo‘lamiz. Koreys milliy oyoq kiyimlari o‘xshashlik jihatidan kavushni eslatsa-da, lekin, tarjimada koreys millatiga xos ushbu kiyim nomlarini kavush so‘zining muqobili sifatida qo‘llash noto‘g‘ri deb hisoblaymiz. Bunday vaziyatda tarjimon bor mahoratini, bilimini ishga solib kitobxon tasavvurida milliy o‘ziga xoslikni yaratib bera olishi kerak. Agar tarjimon kavush haqida havolada izoh qoldirgan holatda tarjima qilganida edi. Tajima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo‘lar edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, asar tarjimasi jarayonida, tarjimondan milliy koloritni saqlagan holatda tarjima qilish talab etiladi. E.Ochilov, N.Xodjayevaning “Tarjima nazariyasi” kitobida asar tarjimasida milliy koloritni saqlab qolishga bag‘ishlangan qismini “Muammolar muammosi” deb nomlashlari ham bejizga emas, albatta. Shunday ekan, tarjimon asar tarjimasi jarayonida, tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qilish, ayniqsa ahamiyatlidir.

BERDIYEV UMID
Tayanch doktorant, o‘qituvchi, TDSHU

Xitoy tilidagi paremiologik birliklarda “odam” konseptining talqini

Annotatsiya: *Maqolada xitoy xalqi milliy mentatilteti, tafakkuri, mafkurasini ifoda etuvchi, xalq og‘zaki nutqida muntazam qo‘llaniladigan maqol va matallarning talqini beriladi. Dunyo tillari xaritasiga nazar tashlanar ekan, jahon xalqlari tillari o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi. Xitoy tilidagi paremiologik birliklarni o‘zbek tiliga o‘girish o‘ziga yarasha sermashaqqat va mas’uliyatli mehnat hisoblanadi.*

Yer sharining u yoki bu mintaqasida istiqomat qilayotgan xalqlar tevarak muhitga ijtimoiy talluqlilik masalasida tengdirlar. Shuningdek, borliqning inson ongiga ta’siri masalasi ham insonlarning qanday tabiiy va ijtimoiy muhitlarda yashayotganligi bilan bog‘liqdir.

Xitoy maqol va matallarining tuzilish formalari tildagi iyeroglifik o‘lchovlar bilan me’yorlangan bo‘lib, ularda o‘ziga yarasha murakabliklar kuzatiladi, jumladan, paremiologi-yalar aksariyat qadimgi Venyan til normalari asosida turg‘un birikmalar shaklida paydo bo‘lgan. Tarkiban ular ikki iyeroglifli, uch iyeroglifli bo‘lishi kamroq uchraydi. Ko‘pchilik maqollar va matallar asosan to‘rt iyeroglifdan tuzilganligi ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, paremiologik birliklar, odam, konsept, inson, empirik bilim, xitoy yozuvi, venyan, bayxua, maqol, matal.*

Annotation: *The article provides an interpretation of proverbs and sayings that express the national mentality, thinking, and ideology of the Chinese people and are regularly used in the folk speech. Looking at the map of the world's languages, it can be seen that the languages of the world's nations are closely related to each other. Translating paremiological units from the Chinese language into Uzbek is a laborious and responsible work.*

The peoples living in one or another region of the globe are equal in terms of social belonging to the surrounding environment. Also, the question of the effect of existence on human consciousness is related to the natural and social environments in which people live.

The structural forms of Chinese proverbs and sayings are standardized by the hieroglyphic dimensions of the language, and they have their own complexities, including paremiologies, which mostly appeared in the form of stable compounds based on the norms of the ancient Wenyan language. It is less common for them to have two hieroglyphs and three hieroglyphs. It seems that most proverbs and sayings are composed mainly of four hieroglyphs.

Key words: *paremiology, paremiological units, man, concept, human, empirical knowledge, Chinese writing, wenyan, baihua, proverb, matal.*

Аннотация: *В статье дается толкование пословиц и поговорок, выражающих национальный менталитет, мышление, мировоззрение китайского народа и регулярно употребляемых в народной речи.*

Глядя на карту языков мира, можно увидеть, что языки народов мира тесно связаны друг с другом. Перевод паремиологических единиц с китайского языка на узбекский – кропотливая и ответственная работа.

Народы, проживающие в том или ином регионе земного шара, равны по социальной принадлежности к окружающей среде. Также вопрос влияния существования на сознание человека связан с природной и социальной средой, в которой живут люди.

Структурные формы китайских пословиц и поговорок стандартизированы иероглифическими размерами языка, имеют свои сложности, в том числе паремиологии, которые чаще всего выступали в виде устойчивых соединений, основанных на нормах древнего вэньянского языка. Реже у них встречаются два иероглифа и три иероглифа. Похоже, что большинство пословиц и поговорок состоят преимущественно из четырех иероглифов.

Ключевые слова: *паремиология, паремиологические единицы, человек, понятие, человек, эмпирическое знание, китайская письменность, вэньян, байхуа, пословица, матал.*

Kirish. Hozirgi davrda jahon tilshunosligida xitoy tilining nozik qirralarini o‘rganishda xayrli ishlarga qo‘l urilmoqda. Xususan, o‘zbek sharqshunoslik maktabi vakillari tomonidan paremiologiya yo‘nalishida Li Yamey va O. Ochilovlar hammuallifligida “O‘zbekcha-xitoycha, xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati”. 2011-yil[1] va frazeologiya yo‘nalishida T. Akimov va J. Kirauboyevlarning hammualliflikda yaratgan “Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at” ini aytib o‘tish mumkin[2].

Xitoy tilida asrlar davomida yaratilgan paremiologik materiallar borasida qator xitoylik va chet ellik olimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Xitoylik tilshunos olim Ven Duanchjen “Maqollarning katta lug‘ati” nomli asarida shunday yozadi: “Xitoy maqollarining asosiy belgisi–ularning pand-u nasihatlardan tashkil topganligidir. Xitoylik olimlar maqollar va matallarni bir-biridan ajratishmaydi. Ularni o‘zaro ayri fenomen sifatida qarashmaydi. Xitoy maqollari va matallari bitta maqsadga, ya’ni ta’lim-tarbiya berishga qaratilgandir.”[4][3]

Shuningdek, bu sohalarda Xitoyning o‘zida ham e’tiborli tadqiqotlar borligi ko‘rinadi. Quyidagi xitoy olimlari paremiologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar:

Chen Ya fan (2007).

Xuan Suxua (1995,1996,2003,2011).

Xao Xueymin (2009).

Yan I lin (2003).

Ye Fanlay (2005).

Bi Yuyxuy (1995).

Szyuy Chuantin “Семасиологическая структура паремий с компонентом зоонимов в русском и китайском языках” Челябинск. 2019.[5] [4] nomli dissertatsiya ishida rus va xitoy tillaridagi maqollarda hayvonot olami komponenti ishtirokini tahlil etgan. Maqolada mazkur olimlarning nazariy qarashlari asosida xitoy tilidagi maqollar hamda matallar va ulardagi “Odam” konseptiga tahliliy yondashildi. “Odam” konseptini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan bu tadqiqotda xitoy tili maqollari va matallaridan va Internetdagi materiallardan foydalanildi.

Dunyo tillari xaritasiga nazar tashlanar ekan jahon xalqlari tillari o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi. Xitoy tilidagi paremiologik birliklarni o‘zbek tiliga o‘girish o‘ziga yarasha sermashaqqat va mas’uliyatli mehnat hisoblanadi.

---

[1] Li Yamey, O. Ochilovlar. “O‘zbekcha-xitoycha, xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati” Pekin: 2011.

[2] T. Akimov, J. Kirauboyev. “Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at” Toshkent: 2002.

[3] Sao Szyatsi. “Drujba” i “vrajda” v russkix poslovitsax (na fone kitayskogo yazыka): lingvokulturologicheskiy i funksionalno-semanticheskiy aspektы. Sank-Petrburg. 2017. Str 6.

[4] Szyuy Chuantin “Семасиологическая структура паремий с компонентом зоонимов в русском и китайском языках” Челябинск. 2019.

Tilshunos va tarjimon Xayrulla Hamidovning “Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari” nomli kitobida o‘zbek tarjimashunoslik fanining yetuk ustozlaridan biri– tilshunos olim G‘. Salomovning “Maqol, matal va idiomalarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasiga doir” nomli kitobida quyidagi fikrni keltirganligini yozadi: “Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa–undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g‘oyat murakkab va muhim ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy muammolari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda”.[6][1]

Qadimgi xitoyliklar ham boshqa xalqlar kabi o‘z yozuvlariga ega bo‘lishgan. Eski xitoy yozuvida bitilgan asarlar Venyan (文言) tilida yozilgan. Venyan tili to XX asrning boshlariga qadar ishlatib kelingan, biroq fan-texnika taraqqiyoti tilda yangi reformatsiyalarni talab etdi. Hozir Xitoyda Bayxua (白话)[1][2] tili asosiy hisoblanadi.

Venyan tilida paremiologiyaga oid katta materiallar saqlab qolingan, biroq hozir bu til normalari amaliy qo‘llanilmayotganligi sababli xitoyliklarning o‘zlarida ham Venyanni tushunish muammoga aylangan.

Eski Venyan tilidagi iboralarni ular o‘sha davrlarga oid she’rlar va hikoyalar asosida tushunadilar. Xitoyliklarning olam va odam munosabatlari bo‘yicha yaratgan qadimiy paremiologiyalari Xitoy tilining durdonalari sifatida o‘rganib kelinadi.

Yer sharining u yoki bu mintaqasida istiqomat qilayotgan xalqlar tevarak-muhitga ijtimoiy taluqlilik masalasida tengdirlar. Shuningdek, borliqning inson ongiga ta’siri masalasi ham insonlarning qanday tabiiy va ijtimoiy muhitlarda yashayotganligi bilan bog‘liqdir.

Aytaylik, Afrika sahrolarida yashovchi xalqlar uchun Inson va Sahro, Sibir taygalarida yashovchi kishi uchun Inson va O‘rmon, Dengiz bo‘yida yashovchi odamlar uchun Inson va Ummon mavzulari tafakkur asoslari sanaladi. Insonlar dunyoni, olamni bilishda empirik bilimlarga tayanadilar. Bunda insondagi his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, katta narsalar oldidagi vahima, qo‘rquv hissi muhim hal etuvchi omillardan hisoblanadi. O‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan hodisalar, o‘z qulog‘i bilan tinglab, eshitib turgan ovozlarga javoban tasavvurlar subyekt ongida mujassamlanadi. Tafakkur mahsuli hisoblangan inson miyasi ushbu tashqi olam to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sintez va analiz qiladi.

Paremiologiyalarda Inson va Dunyo, Inson va Tabiat, Inson va Inson o‘rtasidagi munosabatlar aks ettirilgan.

[1] X. Hamidovning “Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari” -T., 2017. 3 b.

[2] Зограф И.Т. Венян и байхуа: Взаимодействие двух форм изолирующэго языка. –М. 2008. Стр. 125.

Xitoy xalqining milliy-madaniy-ma’rifiy merosi ana shu paremiologik birliklarda o‘ziga xos xitoycha tafakkur tarzining ramzi sifatida jamlangan.

Xitoy xalq maqollarida “Odam” va tabiat munosabatlarining ifoda etilishi.

Albatta, har bir xalq o‘z fikrlarini, dunyoqarashlarini, falsafiy qarashlarini aynan shu xalqqa xos bo‘lgan jihatlarini saqlagan holda tuzadi. Yevropaliklarning yaratgan paremiologiyalarida g‘arbcha tafakkur tarzi ko‘rinsa, Sharq xalqlari paremiologiyalarida ko‘hna Sharqning aksi uning baland tog‘lari, tezoqar daryolari, go‘zal va so‘lim tabiati o‘z aksini topadi.

Xitoy maqol va matallarining tuzilish formalari tildagi iyeroglifik o‘lchovlar bilan me’yorlangan bo‘lib, ularda o‘ziga yarasha murakabliklar kuzatiladi, jumladan, paremiologiyalar aksariyat qadimgi Venyan til normalari asosida turg‘un birikmalar shaklida paydo bo‘lgan. Tarkiban ular ikki iyeroglifli, uch iyeroglifli bo‘lishi kamroq uchraydi. Ko‘pchilik maqollar va matallar asosan to‘rt iyeroglifdan tuzilganligi ko‘rinadi. Asosiy e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihati shuki, iyerogliflarning leksik-semantik ma’nolari alohida-alohida qaralganda ildiz ma’nolari nutqda ko‘chma ma’nolarni ifodalash uchun namoyon bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Paremiologik birliklarning tarkibiy tartibini almashtirib ishlatish asl ma’noni buzib qo‘yishi aniqlandi. Bunday turg‘un birikmalarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash tavsiya etiladi.

Tog‘-toshlar va odam munosabatlari aks etgan paremiologiyalar:

靠山山会倒，靠水水会流，靠自己永远不倒 – Ishongan tog‘laring qulaydi, suyangan suvlaring oqib ketadi, ishonching o‘zingga tirgak bo‘ladi.[7][1]

靠山 – Kàoshān– Qo‘llab-quvvatlash

山会倒–Shān huì dào–Tog‘ni qulatmoq

靠水–Kào shuǐ– Suvga suyanmoq

水会流–Shuǐ huì liú– Suv oqadi

靠自己永–Kào zìjǐ yǒng–O‘z-o‘ziga ishonmoq

远不倒–Yuǎn bù dǎo– Yiqilishdan yiroq

Ushbu matal orqali insonning ichki dunyosi sirli tilsim ekanligi anglaniladi. Bu paremiologik birlikning birinchi va ikkinchi bo‘laklarida tabiatda zohir obyektlar nazarda tutiladi. Tog‘, dengiz kabi katta kuchli voqeliklar timsolida katta odamlarga ishonib, suyanib yoki orqa qilib yashash tarzining xato ekanligi uqtiriladi, biroq inson o‘z - o‘zini anglab, o‘z imkoniyatlariga ko‘ra ish qilsa, hayotda qoqilmasligi kabi fikrlar jamlangandir.

Bu paremik iboradan ko‘rinadiki, xitoyliklar o‘z vatanlaridagi tog‘-u daryolarga alohida hurmat hissi bilan yo‘g‘rilgan tafakkur egalaridir. Bu tuyg‘u o‘z yurtini sevish, tabiatga gumanistik munosabatda bo‘lish qadriyatlariga

[1] Словар китайских пословис и поговорок. https://www.google.com/

bog‘lanadi. Insonlar o‘z atroflaridagi muhitga beparvo emasliklari bunda namoyon bo‘ladi.

愚公移山–Tog‘ni sura olgan kishi ishni avval tosh tashishdan boshlagan.

1-愚公– ahmoq chol

2- 移–harakatga keltirmoq

3- 山–tog‘

Bu matal qadimgi bir hikoyaga ishora qilinib yaratilgan. Hikoyada keltirilishicha, Yu Gong ismli kishi uyiga kirib-chiqishda qiynalib yurgan va kunlardan bir kun unga xalaqit berayotgan shu tog‘ni surib tashlashga qaror qilgan. Bu ishni haligi kishi mayda toshlarni terib uzoqroqqa olib borib tashlashdan boshlagan. Yu Gong kecha-yu kunduz o‘zi qo‘ygan maqsadi sari intilavergan, ya’ni toshlarni tashiyvergan. U kishining qilayotgan ishlarini hatto farishtalar ham kuzatib turishgan va Xudoga yetkazishgan. Shunda Xudo bu bandaning sabrini hisobga olib unga farishtalarni yordamga jo‘natgan va nihoyat tog‘ nariroqqa surib qo‘yilgan.

Bu qadimgi hikoya ushbu hikmatli matalning yaratilishiga asos bo‘lgan. Mataldagi asosiy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jihat shuki, uni o‘qigan o‘quvchi o‘zidagi bardoshga e’tibor qaratadi hamda o‘zida sabr kuchini shakllantiradi. Yosh avlodni matonatli, bardoshli bo‘lishga chaqiruvchi bu paremik jumlada nafaqat xitoy xalqiga, balki barcha odamlarga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, chidamlilik sifatlari ulug‘lanadi.

一人一双手，做事没帮手(十人十双手，拉着大山走)[1] – Bir odamda ikki qo‘l bor, ish qilganda qo‘l yordam bermaydi (o‘nta odamda o‘n juft qo‘l, tog‘ni ham sura oladi).

Bu maqol o‘zbek tilidagi “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”,”Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas”,”Kuch birlikda” kabi maqollarga hamohangdir.

滴水穿石–Tomchi tosh teshar.[2]

Bu maqolada odamdagi sabr-bardosh va uni avlodlar ongida shakllantirish maqsadida yaratilganligi kuzatiladi. Inson sabri masalasi ko‘tarilgan bu xitoy maqoli chidamli kishi hayotda hamma qiyinchiliklarni yengib o‘ta oladi, degan fikrni majoziy shakl orqali ifodalaydi. Sabrlilikning yaxshi fazilat ekanligiga urg‘u beriladi.

Matal ma’nosini o‘zida mujassam etgan bu ibora tabiatni kuzatish jarayonida paydo bo‘lganligi shubhasiz, chunki uzoq vaqtlar davomida toshga yuqoridan kelib tushayotgan suv tomchilari uni yemiradi va teshib o‘tadi. Bu tabiiy omilni kuzatgan dono xalq suvning tomchilarini sabrga, toshni bajariladigan mashaqqatli

[1] 中国谚语 上海 1989 年 1 页

[2] Mirzayev T. Musaqulov A. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. T. 2005. 386 b.

ishga taqqoslaydi. Uzoq vaqt sabr-u bardosh bilan bajariladigan ishlarning samarasi albatta bo‘lishini ta’kidlash orqali yoshlarga hayotiy tarbiya beriladi.

Tabiat hodisalari va odam munosabatlari borasidagi paremiologiyalar:

无风不起浪– Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.[8][1]

无风– Wú fēng–shamol yo‘q

不起浪–Bù qǐ làng–qo‘l silkitishga qodir emasman

Inson ongi katta miqyosdagi tabiat hodisalariga nisbatan o‘ziga xos tasavvur hosil etadi. Bu tasavvurda uning katta tabiat voqeyligi oldida kuchsizligi, o‘sha katta kuchni ko‘rib, eshitib undan ta’sirlanishi aks etadi. Inson o‘z jismoniy kuchi orqali bajarishiga aqli yetmagan narsalarini obrazli tafakkur talqini bo‘lmish poetik shaklli maydonga ko‘chiradi. Endi unda o‘zgacha afsonaviy quvvat, shuuriy bir qudrat paydo bo‘ladi va xayolan tabiatni o‘zgartirishga kirishadi.

Shamolning daraxtni mavjlantirishi unga ilhombaxsh muza bo‘ladi. Ehtimol bu borada she’rlar bitadi. Insonning bir lahzada yaratgan go‘zal misrasi, zukko gapi asrdan asrga osha boqiy paremiya bo‘lib qoladi.

Tabiat bilan bog‘liqlikda yaralgan hikmatli maqollardan biri–大树木大影– Katta daraxtning soyasi ham katta bo‘ladi paremiyasidir.

大树木 – katta daraxt 大- 树 - 木 bu gapda keyingi iyeroglif birikib “daraxt” ma’nosini anglatib keladi. 大 “katta” o‘zining tub ma’nosida keladi. Keyingi to‘rtinchi va beshinchi iyerogliflar 大 –“katta” 影 –“soya”, “aks” ma’nolarida kelib 大 bilan 影 ning birikishi natijasida “soyasi katta” ma’nosini hosil qiladi. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, ushbu paremiyada 大 o‘zining tub asl ma’nosini saqlab qolmoqda. Matalning ma’nosiga keladigan bo‘lsak, mazmuni quydagicha bo‘ladi.

Baland bo‘yli, sershox daraxtlarni kuzatilganda, kunduzu kechalarda uning soyasi ham keng maydonga yastanishini hammamiz yaxshi bilamiz. Mana shu tabiat jarayoniga falsafiy yondashilganda, katta daraxt misolida ijtimoiy turmushdagi katta aloqalar, aqliy salohiyatlarning ahamiyati to‘g‘risida gapiriladi. Bundan tashqari, xitoy falsafiy fikrlariga tayanilsa, odam o‘z tor fikrlari doirasidan chiqishga, katta ruhiy oqimga ulanmoqqa intilmog‘i lozim. Tor doira – bu insonning jismoniy, moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlash, qorin to‘ydirish, bola-chaqa boqish kabilar bo‘lsa, katta ruhiy olam deyilganda insonning ruhiy dunyosi nazarda tutiladi. Yuqoridagi maqolda keltirilgani kabi katta soyaga erishish uchun inson katta ishlarni amalga oshirishi kerak. Bunda kishining katta bilim olishga intilishi, farzandlariga ularni o‘rgatishi, kelajak avlod

[1] Ochilov O. O‘zbekcha—xitoycha, xitoycha—o‘zbekcha maqol, matal va iboralr lug‘ati. Pekin 2011. 230 b.

uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishi, ya’ni avlodlar xotirasida katta chinor kabi uzoq davrlar saqlanib qolishga intilishi nazarda tutiladi.

寒从脚上起,病从口中入– Sovuq oyoqdan kelsa, kasal og‘izdan kiradi.

Xitoy xalqining bu paremiologik fikri yaratilganiga ko‘p bo‘lgan, albatta, biroq bu matalning zamiriga qaralsa, uning bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagani ko‘zga tashlanadi. Bu paremiologiya hozirgi butun dunyo pandemiya sharoitlarida inson o‘z salomatligini asrashi xususida foydali fikrlarni o‘zida mujassam etgan pand-nasihatlarni o‘zida jamlaganligi bilan ibratlidir.

Dengiz, daryo, suvlar va odam munosabatlariga oid paremiologiyalar:

人山人海–Odamlar dengiz suvlaridek ko‘p.

Azaldan ko‘pmillatli xalqligi bilan alohida ajralib turgan xitoyliklar “XXI asrga kelib yer yuzi aholisining to‘rtdan birini tashkil etmoqda. Xitoy xalqining bu maqoli ham demografik masala o‘sha ilgarigi vaqtlarda ham jiddiy bo‘lganligini bildiradi.

Maqolda odamlarning dengiz suvlari yoki dengiz to‘lqinlari kabi ko‘pligiga etibor qaratilishi jiddiy insoniy, demografik, moddiy-ma’naviy, ekologik-tabiiy muammolarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘rgandek tashvish bildirilgan. Sayyoramizning sharqiy qismida, ya’ni Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Singapur, Malayziya kabi davlatlarda fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda texnik chiqindilar atmosferani zaharlayotganligi muammosi butun dunyo hamjamiyatini qattiq tashvishga solib turgan bugungi kunda Xitoyning Uxan shahridan tarqalib keng jahonga yoyilib ketgan Sovid-19 pandemiyasi yer sharidagi sog‘liqni saqlash bo‘yicha vaziyatning naqadar qaltisligini ko‘rsatib turibdi.

Odam konsepti bilan bog‘liq bu paremiyada inson o‘zini, o‘z uyini, ya’ni Yer sayyorasini asrab qolishga intilishi shartligiga e’tibor qaratilgan.

远水不救近火。——《韩非子·说林上–Uzoqdagi suv bilan yaqindagi o‘tni o‘chirib bo‘lmas.[1]

Bu maqol xitoy xalqining hayotiy tajribalari asosida yaratilgan paremiologik birlik bo‘lib, unda xalqning vatanga muhabbat, o‘z yurtini asrab-avaylash, ardoqlash kabi g‘oyalari jamlangan. Darhaqiqat, kishi o‘z uyidagi muammolarini o‘zi hal qilib olmagunicha boshqa odamlar unga yordam bera olmaydi.

Xitoy tilidagi paremiologik birliklarning an’anaviy xitoy ta’limotlari bilan hamohangligi.

Xitoy qadimiy madaniyat va an’analar mamlakati hisoblanadi. O‘tmish ta’limotlarini modernizatsiya, qilib hozirgi zamon voqeyligiga moslashtirish orqali Xitoy xalqi katta yutuqlarga erishayotganligi sir emas. Xitoy xalqining

[1] Ochilov O. O‘zbekcha—xitoycha, xitoycha—o‘zbekcha maqol, matal va iboralr lug‘ati. Pekin 2011. 248 b.

turmushi mazkur an’anaviy ta’limotlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Konfutsiylik, daosizm, buddaviylik va diniy sinkretizm qarashlari xalqning mental tafakkuriga chuqur singib ketgan va asrlar davomida yaratilgan maqollar, matallar, idiomalar kabi paremiyalarda mujassamdir.

Rus xitoyshunosi U.N. Reshetneva o‘zining “Этнопоэтика китайских пословис и поговорок” nomli ilmiy ishining 3-bob, 2-paragrafini “Maqol va matallarda asosiy konfutsiylik tamoyillarining aks etishi” deb nomlagan va quyidagi fikrlarni bayon etgan:”Xitoy mentalitetining asosiy uchta falsafiy-diniy yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular: Konfutsiylik; Daosizm; Buddaviylik va diniy sinkretizmlardir.

Olimlar uzoq vaqtlardan buyon mazkur ta’limotlarning qay biri ustuvorroqligi borasida bahslashib keladilar. Hozirgi davrda Xitoyda konfutsiylik ta’limoti an’analari asosiy g‘oya beruvchi va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi, deyish mumkin.

Konfutsiylikning bosh an’analaridan biri “Oliyjanob erkak” tushunchasi bo‘lib, u odamning besh xulqiy xislatlarini o‘z ichiga jamlaydi. Bu xislatlar quyidagilar:

–insoniylik;
–yaxshi xulqlilik;
–odillik;
–donolik;
–sodiqlik.

Bu sifatlar Xitoy sivilizatsiyasining madaniy konseptlarini tashkil etadi.”[7]

靠山山会倒，靠水水会流，靠自己永远不倒 – Ishongan tog‘laring qulaydi, suyangan suvlaring oqib ketadi, ishonching o‘zingga tirgak bo‘ladi.[7][1]

Bu iboraga xitoy ta’limotlari nuqtayi nazaridan yondoshilsa, undagi insoniy kamolotga intilishni ko‘rish mumkin. Bu intilish Xitoy falsafiy ta’limotlarida, jumladan, konfutsiylikda va daosizmda odamning ichki dunyosini axloqiy-ma’naviy tarbiyalash bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Konfutsiy qarashlarida odamning ijtimoiy o‘rni, insoniyatning turli jamiyatlaridagi vazifasi masalasi chuqur tahlil etilgan. Uzoq davrlardan beri o‘zining sotsialligini asrab kelayotgan ushbu ta’limotning bosh maqsadi jamiyatda, bu o‘rinda Xitoy ijtimoiy turmushida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mukammallashtirish vazifasini bajarish hisoblanadi.

Konfutsiy falsafiy qarashlarida komil inson (Szyun-szi) g‘oyasi yaratilgan bo‘lib, uning mohiyati quyidagi fikrlarni o‘z ichiga oladi: “Szyun-szi, ya’ni yuksak ma’naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

–insoniylik;
–mas’uliyatni his qilish.

[1] Словар китайских пословис и поговорок. https://www.google.com/

Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo‘lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o‘zini ayamasdan o‘z ishonchi, hukmdori, o‘z otasi va o‘zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur”.[1]

Zhihui shi zui da de caifu

智慧是最大的财富–Aqldan ortiq boylik yo‘q![8][2]

Bu ibora qadimgi faylasufona fikr bo‘lib, unda insoniyat e’tiqod qiladigan barcha dinlar, ta’limotlar, nazariy qarashlarda Yaratganning insonga bergan aql-u zakovati eng katta boylik ekanligi uqtiriladi. Darhaqiqat, zamonaviy XXR davlatining bugungi kunda jahon iqtisodi va siyosiy mavqeyi jihatidan ilg‘or texnologiyalar va peshqadam modernizatsiyalashtirish natijasida qoloq bir mamlakatdan taraqqiy topgan buyuk davlatga aylangani inson aql-zakovatining cheksiz imkoniyatlari naqadar serqirra ekanligining isboti bo‘ladi, deyilsa yanglish bo‘lmaydi.

“Konfutsiy ta’limotining uzoq vaqtlardan buyon Xitoy jamiyatida ustuvor bo‘lib kelishining asosiy siri uning etik-estetik qarashlaridagi madaniyat ustuvorligidadir, deb yozadi xitoyshunos tadqiqotchi U.N. Xitoy Reshetneva jamiyatining bugungi nufuzida Konfutsiy ta’limoti g‘oyalarining xalq turmushiga chuqur singib ketganligi ko‘zga tashlanadi. Xitoy taraqqiyotidagi an’anaviylik o‘tmish Konfutsiy qarashlarini puxta o‘rganish va hozirgi zamonga to‘g‘ri tatbiq eta olishdadir.

O‘z fikrlarini davom ettirarkan U.N. Reshetneva ta’kidlaydi: Shunday qilib, Konfutsiy tamoyillari g‘oyalarni o‘zida singdirganligi jihatidan konseptlar darajasiga ko‘tarilgan va ularning qadriyat tarkibi paremiyalardagi aksional xarakterni ochib bera oladi.”

Maqolamizda Xitoy xalq paremiologik birliklaridagi o‘ziga xosliklarni tahlil etishga urindik. Xitoy maqollari va matallaridagi struktur shakl ichidagi mazmunni ochib berish ushbu maqsadga erishish uchun asos bo‘ldi. Xalqning uzoq asrlar davomida yaratgan dono pand-u nasihatlar bilan boyitilgan bu durdonalarining ma’nolariga, semantik jihatlariga, badiiy-ko‘chma obrazlilik xususiyatlariga e’tibor qaratish barobarida maqollar va matallarda mujassam etilgan falsafiy fikrlarni ilg‘ashga urindik. Zero har bir xalqning paremiologik jamlanmalarida ayni xalqning o‘ziga xos bo‘lgan, qolaversa umumbashariy ezgu fikrlari, olam va odamga munosabat tamoyillari hamda bu kabi axloqiy normalarning xalq tilida qay yo‘sinda mangulik kasb etganligi, to‘planganligi e’tibor markazida bo‘ldi.

Xitoyda qadimiy madaniyat va falsafiy qarashlar e’tiborli o‘rinda bo‘lgan hamda o‘zining hayotiyligi bilan xalq dili va tilidan joy egallagan. Xalqimiz

[1] arxiv.uz

[2] O.Ochilov. Xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati. 人民出版社 2011. 5-bet.

ta’biri bilan aytganda: “Yaxshi so‘z jon ozig‘i”. Xitoy maqollarida ham shu xislat markaziy o‘rinda turuvchi mazmun ekanligi ushbu birliklarning jozibasini yanada oshiradi. Xitoy paremiologik manbayini o‘rganish o‘z tilimizdagi o‘zbek xalq merosiga yanada e’tiborliroq bo‘lishimizni taqozo etadi.

DAVLATOV ZOIRJON
O‘qituvchi, TDSHU

Tugallik va oniylik semali ko‘makchi fe’llarning leksik-semantik xossalari (*gitmek, vermek*) xususida

Annotatsiya: *Gitmek, vermek fe’llarining qo‘llanilish doirasi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu fe’lning turk tilida yordamchi fe’l sifatida qo‘llanilishi borasida misollar bilan yoritib beriladi. Jumlalarda fe’lning vazifaviy shakllari bilan qo‘llanilib, turli xil ma’no anglatishi yoritib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilida nechta ma’no anglatishi qiyosiy tahlil bilan ochib beriladi. Ham asosiy fel, ham ko‘makchi fe’l vazifasida kelishi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *bilmek, leksema, sema, bosh ma’no, mustaqil ma’no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so‘z.*

Annotation. *Information is provided about the scope of the verbs of opportunity (gitmek, vermek). The use of these verbs as auxiliary verbs in Turkish will be explained with ehamples. Different meanings of the verbs are explained in the sentences using functional forms. Also, its meaning in the Uzbek language will be revealed by comparative analysis. Both the main verb and the auxiliary verb are revealed.*

Key words: *gitmek, vermek, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal verb.*

Аннотация. *Предоставляется информация о сфере применения глаголов возможности (гитмек, вермек). Использование этих глаголов в качестве вспомогательных в турецком языке будет объяснено на примерах. Различные значения глаголов поясняются в предложениях с использованием функциональных форм. Также путем сравнительного анализа выяснится его значение в узбекском языке. Раскрываются как основной глагол, так и вспомогательный глагол.*

Ключевые слова: *гитмек, вермек, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o‘rganish, o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o‘z navbatida, bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni yetishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkam-

lash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiystlari turk va xorijlik tilshunoslar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan. Quyida turk tilidagi **bulunmak** fe’lining semantik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Asosiy qism. Gitmek–ketmoq fe’li turk tilidagi ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llanuvchi fe’l leksemalardan biri hisoblanadi. Yo‘llanma harakat ma’nosini ifodalovchi bu fe’lning semalari maxsus o‘rganilgan. Ushbu fe’l mustaqil fe’l bo‘lsa-da, konteksda qo‘shimcha ustama ma’noni ifodalash imkoniga egadir. Bu fe’lning mustaqil leksema sifatidagi bosh semasi “bir tomonga yo‘nalmoq”dir[1]. Masalan: *Maksadı Fikret’e **gitmekti** (R.N.G.). Maqsadi Fikratnikiga ketish edi.*

Gitmek - ketmoq ko‘makchi fe’li yetakchi fe’lga ikki xil yo‘l bilan birikadi:
1. **–(y)ip** ravishdosh yasovchi yordamida birikadi: *Ihtiyacım olursa dükkana uğrayıp parayı alacağımı söyledim, geldiği gibi kayıtsızca **çeklıp gitti*** (R.H.K.). *Ehtiyojim bo‘lsa, do‘konga uchrab pulni olishimni aytdim. Kelgani kabi sassiz qaytib ketdi.*
2. Hech qanday grammatik vositalarsiz birikadi: *İstersen her şeyi **bırakır gideriz** (H.E.A.). Istasang, hamma narsani tashlab ketamiz.*

Gitmek – ketmoq leksemasi fe’lga birikib kelganida, har doim ham ko‘makchi fe’l vazifasida kelavermaydi. O‘rganilyotgan fe’l qo‘llangan matnga, konteksga qarab ko‘makchi fe’l vazifasida kelishi mumkin. **Gitmek–ketmoq** fe’li o‘zi bog‘lanib kelgan fe’lning bajarish xarakteristikasini anglatganida, ko‘makchi fe’l bo‘lib keladi, ammo bu fe’l matndagi asosiy ish-harakatning bajarilishini bildirganida, ko‘makchi fe’l bo‘lmaydi.

Masalan:

1.*Bir kısmı kasketini **alıp gidiyor** bir kısmı ihtiyar avukatla Meleğin etrafına toplanıyordu (R.H.K.). Odamlarning bir to‘dasi kepkalarini olib ketishayotgan, bir qismi esa keksa advokat bilan Melekning yoniga to‘planishyotgan edi.*

2.*Bir haftalık büyüklüğü **savrulup gitmişi** Fikretin (B.K.). Fikretning bir xaftalik manmanligi izsiz yo‘q bo‘lib ketgan edi.*

Birinchi gapda **alıp gitmek – olib ketmoq** birikmasi ishlatilgan. Bu gapda har ikki fe’l ham o‘zining bosh ma’nosida ishlatilgan, ya’ni **almak–olmoq** fe’li biror-bir predmetga qo‘lga kiritish harakatini, **gitmek–ketmoq** fe’li harakat bajaruvchining ish-harakatni amalga oshirish yo‘nalishini ko‘rsatadi. Bu holda **alıp–olib** ravishdoshi holat holi vazifasini bajargan. Binobarin, keltirilgan gapdagi **gitmek – ketmoq** fe’li tushirib qoldirilsa, gap mazmuniga putur yetadi. Demak, bu o‘rinda **gitmek–ketmoq** fe’li ko‘makchi fe’l vazifasini bajarmagan.

[1] Türkçe Sözlük. C.I. — S.78.

Ikkinchi misolda **savrulup gitmek – sovrulib ketmoq** (yo‘q bo‘lib ketmoq) birikmasi keltirilgan. Matnga ko‘ra **savrulmak–sovrulmoq** fe’li asosiy harakatni ifodalaydi. Ya’ni, **gitmek –ketmoq** fe’li matndan tushirib qoldirilganida ham mazmun o‘zgarmaydi.

Solishtiring: *Bir haftalik büyüklüğü **savrulmustu** Fikretin.*
Fikratning bir haftlik manmanligi izsiz yo‘q bo‘lgan edi.
*Bir haftalik büyüklüğü **savrulup gitmişti** Fikretin.*
Fikratning bir haftlik manmanligi izsiz yo‘q bo‘lib ketgan edi.

Bu ikki gap qiyosiga e’tibor qilsak, o‘rganilyotgan fe’l asosiy, yetakchi fe’lning xarakteristikasini – qanday bajarilyotganligining qo‘shimcha ottenkada ifodalanishini ko‘ramiz, ya’ni **gitmek** fe’li tahlil etilayotgan gapda yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning to‘la bajarilganligi ma’nosini anglatgan.

Gitmek–ketmoq fe’li ko‘makchi fe’l vazifasini bajarganida, quyidagi ma’nolarni ifoalaydi.

Gitmek–ketmoq fe’li o‘zi bog‘lanib kelgan yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning to‘la bajarilganligi ma’nosini bildiradi: *Artık bu hayaller kafamdan **silinip gitti** (R.N.G.). Endi bu xayollar meni tark etib uchub ketdi.*

*Vah zavallı Kasımpaşa çocuğu! Avustralya’nın güneyinine kadar mi **sürüklenip gitmişsin!** Acaba kaç yıldır Türkçe konuşmadın? (R.H.K.). Voy bechora Qosimpasha! Avstraliyaning janubigacha sudralib ketibsan! Ajabo, qancha vaqt turk tilida gaplashmading.* Keltirilgan gaplardagi **gitmek** fe’li silinmek – o‘chirilmoq, yo‘q bo‘lib ketmoq, sürüklenmek–sudralmoq fe’llari bildirgan harakatning to‘la bajarilganligini, bajarilib nihoyalanganligini bildirgan. Umuman olganda esa, **gitmek** ko‘makchi fe’lining bu semasi boshqa turkiy tillarda, masalan, qozoq tilida ham asosiy ma’nodan biri tarzida tilga olinadi.

Gitmek – ketmoq ko‘makchi fe’li ish-harakatning to‘la bajarilishi ma’nosi bilan birga yana bir qator qo‘shimcha ma’nolarni anglatishi mumkin. Masalan, o‘rganilyotgan ko‘makchi fe’l yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning bajarilishi yo‘nalishini, ya’ni nari tomonga qarata bajarilishini bildiradi. Bunday hollarda **gitmek – ketmoq** fe’lining bosh ma’nosi ma’lum ma’noda saqlanib qoladi: *Duşun sağanağı dinliorum; vücudunu döverek **akıp giden** sağanağı (R.H.K.). Dush suvining shovqinini tinglayapman, vujudimni urib-urib oqib ketayotgan suvlar shovqini! Bu insan canına kıymış timsahtır, öyle olmasaydı gene bana ilişmez, fakat usulca **döner giderdi** (R.H.K.). Bu inson joniga qasd qilgan timsoxdir, agar shunday bo‘lmaganida edi, menga yana ilakishmas, sekingina qaytib ketardi.* **Akıp gimek**–oqib ketmoq, **dönüp gitmek**–qaytib ketmoq fe’llari harakatning so‘zlovchi tarafiga emas, balki qarama-qarshi tarafga – narigi tomonga yo‘nalganini angladi. Demak, **gitmek–ketmoq** fe’li ko‘makchi fe’l bo‘lib kelganida, yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning to‘la bajarilishi ma’nosi bilan

bir o‘rinda subyektning yoki obyektning o‘z o‘rnida boshqa tarafga qarab harakatlanishi mazmunini ifodalaydi.

Gitmek–ketmoq ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatdagi me’yordan ortiqlikni, yuqorilikni anglatishi mumkin. Masalan: *Kazanıyordum; ara vermeyen bir şans* ***sürüp gidiyordu*** *(R.H.K.). Yutib olayotgan edim, to‘xtovsiz omad kelayotgan edi. Sesi de hülyalı derinden akışı bellı olmayan bir dere gibi yavaşlık içinde* ***kayıp gidiyor*** *(R.H.K.). Ovozi ham xayolchan, noma’lum chuqurlikda oqayotgan anhor kabi sukunat ichida g‘oyib bo‘lib ketyapti.*

Mazkur gaplardagi **kayıp gitmek, sürüp gitmek** qo‘shma fe’llari tarkibidagi **gitmek–ketmoq** fe’li ish-harakatning bajarilishi miqdori-darajasidagi kuchlilik, ziyodlik, ortqlilik ma’nosini anglatadi. Birinchi keltirilgan misolda harakat bajaruvchining omadi yuqori darajada yurishayotgani ma’nosini ifodalaydi. Ikkinchi gapdagi **kayıp gitmek–g‘oyib bo‘lib ketmoq** qo‘shma fe’li ayni harakatning amalga oshirilishidagi yuqori darajani bildiradi. Ya’ni, bunda so‘zlovchi **gitmek** ko‘makchi fe’lini ishlatilganda ham, u nazarda tutgan ma’no anglashilardi, biroq **gitmek** leksemasi qo‘llanilishi orqali yetakchi fe’l – leksemalar ma’nosi urg‘u beriladi, shu orqali, ayni harakatlarning yuqori darajada bajarilganini bildiradi.

Gitmek–ketmoq yordamchi fe’li kuchaytirish mazmunini quyidagi ma’nolarga nisbatan bildiradi:

a) vaqtga nisbatan kuchaytirish ma’nosini bildiradi, bunda yetakchi fe’ldan

ifodlangan ish-harakatning gapirilyotgan paytdan ancha oldin bajarilganligi ma’nosi anglashiladi: *Ayşe cevap vermedi, zihni başka bir noktaya* ***dalıp gitmişti*** *(R.H.K.). Oysha javob bermadi, aql-u hushi boshqa joyda edi.* Keltirilgan misolda harakat bajaruvchining –Oyshaning hayoli boshqa joydaligiga uzoq vaqt bo‘lganligi ma’nosini bildirish uchun **gitmek- ketmoq** fe’li ishlatilgan. *Ne bekliyorsuz? Nasıl de en güzel dakikalarımız bu bekleme ile boşuna* ***hiç olup gidiyor*** *(R.H.K.)! Nimani kutayapmiz? Qanday qilib eng go‘zal daqiqalarimiz kutish bilan bekordan bekorga o‘tib ketyapti.*

Bu gapda o‘tayotgan vaqt kutish bilan tezlashyotgani ma’nosi anglashilmoqda.

b) kuchaytirish ma’nosi masofaga, makonga nisbatan bo‘lishi mumkin.

Masalan: *Peri kızı odama geldi ve masallardaki gibi tan yeri ağarırken gene aynanın içinde* ***kaybolup gitti*** *(R.H.K.). Pari qizi xonamga keldi va ertaklardagi kabi tong otyotganida, yana oynaning ichida yo‘q bo‘lib ketdi.*

Kaybolup gitmek–yo‘q bo‘lib ketmoq qo‘shma fe’li ish-harakatning masofaga nisbatan yanada uzoqlashtirilishini ifoda etadi, ayni ma’no **gitmek** ko‘makchi fe’li yordamida yuzaga chiqqan.

d) **gitmek** fe’li harakat-holatning bajarilishi darajasiga ko‘ra kuchaytirish ma’nosini bildiradi: *Adi bir suçtan mahkum imis. Aff çıkmadıkça memlekete dönmeyeceğine göre kendisini burada kaldırmağa çalişacağım. İşi serseriliğe vurmazsa gül gibi yaşar gider (R.H.K.). Oddiy bir ayb sababli mahkum etish. Afv chiqmaguncha mamlakatga qaytmasligiga qaraganda, uni bir yerda ishga joylashtirishga harakat qilaman. Sarson-sargardonlikda yurmasa, gulday yashaydi. Güneş çekmeyen ocaktaki bir kütük parçası gibi tüte sönerek öbür yana kayıp gidecek (R.H.K.). Quyosh tushmaydigan bir to‘nka parchasi kabi tutay-tutay boshqa tomonda g‘oyib bo‘lib ketadi.* Keltirilgan misollardagi o‘rganilyotgan ko‘makchi fe’l o‘zi birikkan yetakchi fe’ldan anglashilgan ish-harakat ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab ifodalash imkonini bergan.

e) **gitmek** yordamchi fe’li yetakchi fe’lning semantikasiga bog‘liq ravishda ish-harakatning bir onda tezda bajarilishi ma’nosini anglatishi mumkin: *Başları fosforlu bir küme kuş oraya konmuş da yem yiyormuşçasına karanlığı gagalamakta. Birdenbire **uçup gidecekler**, görünmez olacaklar: ışıktan eser kalmayacak gibi bir iğretilik цезиũorum (R.H.K.). Boshlari fosforli bir to‘da qush u yerga qo‘ngan va yem yeyayotganday qorong‘ilikda g‘og‘olamoqda. Birdaniga uchib ketsalar, ko‘rinmay qolsalar, nurdan asar ham qolmaydigandek jirkanyapman. Silecek kullanmağa gerek kalmadan, vücudumun ıslaklığı bir anda **kuruyup gidiyor** (R.H.K.). Artinishga zaruriyat qolmay vujudimizning ho‘lligi bir onda qurib ketyapti.* Ish-harakatning bir onda tezda bajarilishi ma’nosi **birdenbire–birdaniga, bir anda–bir** onda ravishlari yordamida ham anglashilgan.

Gitmek ko‘makchi fe’li masofa, makonga nisbatan kuchaytirish ma’nosini ifoda etishi kontekstga ko‘ra ham reallashishi mumkin. Ayni ma’no gapdagi **gitmek** ko‘makchi fe’lining ish-harakatning nariga qarab yo‘nalganligi semasi asosida reallashadi. Masalan: *handan bir şeyden bahsetmeşçesine sakin **yürüyüp gitti** (R.H.K.). Xandan bir narsa haqida gapiryotganday sekin yurib ketdi. Vapurun saldığı yüzlerce ışıktan sütunlar üzerine **kayıp giden** bir masal sarayındayız (R.H.K.). Paraxod taratgan yuzlarcha nurdan ustunlar uzra yoyilib ketgan ertak saroyidamiz.*

Demak, **gitmek–ketmoq** ko‘makchi fe’lining ma’nolaridan biri ish-harakatning to‘la bajarilishi hisoblanadi, lekin bunda harakatning bajarilib tugallanishi ma’nosi ifodalanmaydi. Ba’zi fe’llar bilan birikib kelgan o‘rganilyotgan ko‘makchi fe’l yetakchi fe’l bildirgan harakat-holatning ma’zmuniga qarab, ish-harakatning bajarilishining boshlanishi va bir maromdagi davom etishi ma’nosini anglatadi. Masalan: *Keşke gelmeseydi ve bu hayat Nil’in şakaları, hemen açığa vurulan yalanları, sevimli hırçınlıkları, derhal barışma ile biten kavgalarımız, tuhaflıklarla dolu bir operet, bir revü gibi renkler, ıцıкır, palmiyeler ve Hindistan cevizi ağaçları arasına **sürüp gitseydi!** Nerede? (R.H.K.). Koshki kelmasa edi va bu hayot Nilning hazillari, darrov fosh bo‘ladigan yolg‘onlari, sevimli arazlashlari,*

darhol yarashuv bilan tugagan janjallarimiz, g‘aroyibotlar bilan to‘la bir operetta, revyu kabi rang-barangliklar, oydinlik, palmalar va Hindistonning yon-g‘oq daraxtlari orasida davom etib ketsaydi! Dilbeste ile arkasında ta yanında duruyoruz. Hayır, sendelemiyor. Sendelemek şöyle dursun, dimdik ve akıcı adımlarla ***geçip gidiyor****: Biz ona oranla daha sarsak durumdayız (R.H.K.). Dilbesta bilan uning orqasida, shunday yonginsida turibmiz. Yo‘q, gandiraklamayapti. Gandiraklamoq u yerda tursin, tikka va tep-tekis qadam tashlab ketyapti. Biz unga qaraganda, gandiraklayapmiz.* **Gitmek** fe’lining qayd etilgan semasi yetakchi fe’l vazifasida kelgan leksemalarning spetsifik semasi (yoki muayyan grammatik shakllar) asosida reallashadi. Masalan, keltirilgan gaplarning birinchisida ishtirok etgan **sürmek– davom etmoq** leksemasi mohiyatan davomli ish-harakatni bildirsa, ikkinchi gapda ko‘makchi fe’l hozirgi zamon ko‘rsatkichini olgan va shu sababli tugallanmagan ish-harakat ma’nosini bildiradi.

Yetakchi fe’ldan anglashilgan ish-harakatning davomli bajarilishining ma’lum bir muddatgachaligi ma’nosi ko‘makchi fe’l vositasida anglashiladi, lekin shu bilan birga ayni ish-harakatning uzoq vaqt davom etishi, tugallanmaganligi mazmuni ham ifodalanadi. Chunki **gitmek**–**ketmoq** ko‘makchi fe’li kuchaytirsh ma’nosini ifodalaydi, bu ma’no qayd etilga holatda ham saqlanadi: *Şimdi işte evlilik hayatımın bu ilk ayı tatlı, biteviye, ılık bir rüya gibi* ***uzanıp gidiyor*** *(H.E.A.). Hozir, mana oilaviy hayotimning bu ilk oyi shirin, bir maromda, iliq bir ro‘yo kabi davom etib ketmoqda.*

Turk tilidagi ko‘makchi fe’l vazifasida kelishi mumkin bo‘lgan fe’l leksemalardan biri **vermek**–**bermoq** so‘zi hisoblanadi. **Vermek**–**bermoq** fe’lining bosh ma’nosi “üzerinde veya yakınında olan bir şeyi birisine eriştirmek, iletmek” – “ustida yoki yaqinida bo‘lgan bir narsani birovga olib bormoq, yetkazmoq”dir [1]. Masalan: *Halbuki bizde modern kadın, böyle değil, en çok süslenen, daima eğlence yerinden çıkmayan, çay ziyafetleri, kabul günleri, dans akşamları icin, bir de buralarda arkadaşlarından iyi giyinmek emeliyle yasayan kadına bu ismi* ***verirler*** *değil mi (H.E.A.)? Vaholanki, bizda zamonaviy ayol bunday emas, eng ko‘p o‘ziga oro bergan, doimo ko‘ngilxushlikdan boshi chiqmagan, ziyofatlar, qabul kunlari, raqs oqshomlari uchun dugonalaridan yaxshiroq kiyinish maqsadi bilan yashagan ayolga shunday nom* ***berishadi,*** *shunday emasmi?* **Vermek**–**bermoq** fe’li yetakchi fe’lga **–(y)i** shaklli ravishdosh yasovchi affiks orqali bog‘lanadi: *Planımı bir anda* ***hazırlayıverdim*** (Y.K.K.). *Rejamni bir onda hozirladim. Fakat bu dakikada istemeden gözünden iki damla yaş* ***akıverdi*** *(R.N.G.). Faqat bu daqiqada beixtiyor ko‘zidan ikki tomchi yosh oqib ketdi.*

[1] Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004. – C.3.-S.2.

Ko‘makchi fe’l vazifasida kelgan **vermek**–**bermoq** fe’li yetakchi fe’l bildirib kelgan ish-harakatning tezda, bir zumda bajarilganligi ma’nosini bildiradi: *Giriniz. Gürültü etmeyelim. Sultan uyuda. Istediği zaman bir dakikada* ***uyuyuverir*** *(R.H.K.). Kiring. Shovqin solmaylik. Sulton uxladi. Istagan paytida bir daqiqada uxlab qoladi.* Bu gapdagi **uyuyuvermek** fe’li tarkibidagi **vermek** leksemasining ustama ma’nosi orqali uxlash harakatning tezda amalga oshgani ma’nosi ro‘yobga chiqqan. Bu ma’noga **bir dakika** – **bir daqiqa** miqdor daraja holi orqali urg‘u berilgan.

Vermek–**bermoq** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning to‘la bajarilishi ma’nosini bildiradi: *Bulunduğum bir pencereden dışarıyı gözetmekteyim; lüks kamara tarafina bakmadan duramıyorum. Geliyorlar mı diye… Belki kavgamızdan sonar fikrinden* ***vazgeçivermiştir*** *(R.H.K.). O‘tirgan joyimdagi derazadan tashqarini kuzatmoqdaman, luks kayuta tarafiga qaramay turolmayapman. Kelyaptilarmi, deb…Balki janjalimizdan so‘ng fikridan voz kechib ketgandir. Ama birdenbire, bir senli benli* ***oluverişleri*** *vardi ki bu hal tipki prensesin tarzına uyardi (R.H.K.). Ammo birdaniga san-manga borishlari bor ediki, bu hol xuddi malikaning xatti-harakatlariga o‘xshardi.* Keltirilgan gaplarda **vazgeçivermek** – **voz kechib ketmoq** (yubormoq), **oluvermek**–**bo‘lib ketmoq** fe’llarini o‘tgan zamonda bajarish kuzatilgan. Qisq muddatda to‘la tugallangan ish-harakat, holat ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan. O‘rganilyotgan ko‘makchi fe’l meyoriy holatdan kuchlilikni, yuqorilikni bildirishi mumkin: Bu ma’no harakat-holatga nisbatan bo‘ladi; *Ondan mahrum kalınca Nil’i* ***kuruvermiş*** *mısır gibi çorak, ıssız, hazin bir çöle döneceğine inaniyorum (R.H.K.). Undan mahrum bo‘lgach, Nilni qurib ketgan makkajo‘xori kabi unumsiz, egasiz, hazin bir cho‘lga aylanishiga ishonyapman.*

Kuchaytirish vaqtga nisbatan bo‘lishi mumkin. Bunda kuchaytirish yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning ancha uzoq vaqt oldin bajarilganligi va nihoyalanganligi ma’nosini beradi: *Nişanı neden yardımıma gerek görmeden* ***satıverdi*** *(R.H.K.)? Nishonni nima sababdan yordamimni so‘rashni lozim ko‘rmay* ***sotib yubordi?*** Kuchaytirish ma’nosi masofaga nisbatan bo‘lishi mumkin. Bunda masofaning me’yoridan uzoqligi, uzunligi ma’nosini bildiradi: *Fakat içime gene bir şüphe sokmuştu. Ya dedikleri doğru, Watkens’in haber alması yanlışsa? Ya hakikaten* ***dönüp gidiverirse?*** *Ya son dansım, son görüşümse? Usulcacık inledim (R.H.K.)? Faqat ichimga bir shubha tushdi. Agar aytganlari to‘g‘ri, Uotkinsning xabar olishi yanglish bo‘lsa-chi? Haqiqatan ham, qaytib ketib qolsa-chi? So‘nggi raqsim, so‘nggi uchrashuvim bo‘lsa-chi? Sekingina ingradim.* Bu gaplardagi **satıvermek**–**sotib yubormoq** qo‘shma fe’li tarkibidagi ko‘makchi fe’l ish-harakatning uzoq o‘tgan zamonda bajarilib, tugallanganligi semasini ifodalagan. Ushbu misoldagi **gidivermek** fe’li harakat bajaruvchining so‘zlovchidan ancha nariga qarab yo‘nalganiga urg‘u beriladi.

Vermek ko‘makchi fe’li bu holda masofaga nisbatan uzoqroq mo‘ljal qilingani mazmunini yuzaga chiqargan.

Tezda, bir onda bajarilishi mumkin bo‘lgan harakat-holat m’nosini bildiruvchi fe’l leksemalarga birikib kelgan **vermek**–**bermoq** ko‘makchi fe’li kuchaytirish ma’nosini tezlikka nisbatan ifoda etadi. Bunda yetakchi fe’l bildirgn ish-harakatning yuqori tezlikda bajarilganligi ma’nosi bildiriladi: *Çıkarılan, getirilen elbiselerle soyunan vücut, kuytu küçük salonu bir kış parçasına* ***çevirivermişti;*** *çeşitli ılık kokular nefes almamı güçleştiriyor; zevkli bir boğulma halindeyim (R.H.K.). Yechilgan, keltirilgan liboslardan bo‘shangan vujud kimsasiz kichik zalni bir qish parchasiga aylantirib yuborgan ediki, turli iliq iforlar nafas olishimni qiyinlashtiryapti, zavqdan bo‘g‘ilish darajasidaman.*

Lekin **vermek**–**bermoq** ko‘makchi fe’li harakatning to‘la bajarilishini bildirshi bilan bir paytda, harakatning tamom bo‘lishi, tugashi ma’nolarini bildirmaydi. Bu ko‘makchi fe’l ish-harakatning to‘la bajarilishi, ba’zan ortiq darajada bajarilishini bildiradi. Masalan, quyidagi gapda harakat bajaruvchining **sertleşmek**– **qat’iylashmoq** harakatining yuqori darajada bajarilganligi, biroq nutq onida u holat sifatida namoyon ekanini bildirgan: *Deminki sarılama sahnesini hatırladığım için son cümlede sesime ve bakışıma cevap verdı (R.H.K.). Yaqindagi quchoqlashuv sahnasini eslaganim uchun oxirgi gapimda ovozim ham, qarashim ham qat’iylashgan ediki, Nilgun: O‘ylamang u narsani, deb ovozimga va nigohimga javob berdi.*

Ba’zi fe’llar bilan birikib kelgan **vermek**– **bermoq** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish-harakat bajarilishining boshlanishi va gapirilayotgan vaqtda davom etishi ma’nolarini bildiradi: *Gülümsemeği bırakarak gülmeğe başladı. Ben de gülüyordum, Dilbeste Hanım da... Birdenbire hepimiz* ***çocuklaşıvermiştik*** *(R.H.K.).Jilmayishdan kulishga o‘tdi. Men ham kulayotgan edim, Dilbasta xonim ham... Birdaniga hammamiz* ***bola bo‘lib qolgan edik.***

Vermek– ***bermoq*** ko‘makchi fe’li davomlilikni ifodalashi va harakatni kuchli ottenkada bildirishi bilan bir paytda, bu harakatning avval bo‘lmaganligi, keyin yuzaga kelganligi va shu maromda davom etishi ma’nolarini anglatadi: *Birdenbire eğilsem ve Dilbeste’ yi, ünvanları, onurumu, terbiyemi hiçe sayarak o gözleri* ***öpüversem*** *mi (R.H.K.)? Birdaniga egilsam va Dilbastani, unvonlarini, g‘ururimni, tarbiyamni yo‘qqa chiqarib o‘sha ko‘zlarni* ***o‘paversammi?*** Bu ko‘makchi fe’l davomlilikni ifodalaganida, odatda, gapirayotgan vaqtda muntazam bajariladigan va ma’lum vaqtdan keyin to‘xtashi ko‘zda tutilgan harakatni bildiradi. Masalan: *Bunlar değil mi beni macereci yapan? Evet, bunlarla kadınlar çarçabuk* ***tutulu- veriyorlardı;*** *körpecik yaşımda bır kadınlar sevgilisi oldum (R.H.K.). Bular emasmi meni mojarochi qilgan? Ha, bularga ayollar tezda tutilishardi, kichik yoshligimdanoq ayollarning sevgilisi bo‘lgandim. Öğleye doğru, vapurumuza dönmek için rıhtıma gelince bir anda*

koca bir toz bulutlu karadan deniz yönünde üzerımıze koştu; çevrintisine tutulduk; göz gözü görmüyordu, Bu durup dururken ***oluşuveren*** *ve iki üç dakika süren bır rüzgardır, bir samyeli ... Hava gene* ***durgunlaşıverdı*** *(R.H.K.). Peshinga yaqin paraxodimizga qaytish uchun pristanga kelganimizda bir onda katta, chang aralash bulutli ko‘rinayotgan quruqlikdan dengiz tarafga, biz tomon yugurdi, bo‘ronga tutildik, ko‘z-ko‘zni ko‘rmayotgan edi. Bu turib-turib vujudga kelgan va ikki-uch daqiqa davom etgan bir shamoldir, bir samum shamoli ... Havo yana tinchlandi.*

Vermek–**bermoq** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning bajarilishi uchun monelikning, to‘sqinlikning, qarshilikning yo‘qligi ma’nosini ifodalaydi. *Kim okuyor bunu? Diye sormamak ustalığını gösterdim va bir aralık, Dilbeste’ye farkettirmeden kitabı, divan üstüne bırakmış olduğum çeketimin cebine* ***sokuverdim****(R.H.K.). Kim o‘qiyapti buni? deb so‘ramaslik uchun ustalik qildim va bir muddat Dilbastaga sezdirmay, kitobni divan ustiga tashlab qo‘ygan kastumimning cho‘ntagiga tiqib qo‘ydim.* Ushbu gapda harakat bajaruvchining **sokuvermek**–**tikib qo‘ymoq** harakatining amalga oshirish uchun hech qanday monelik bo‘lmagani, bu harakatning tez va to‘la bajarilgani, ma’nosi **vermek**–leksemasi orqali ifodalanadi.

Xulosa. Turk tilidagi **gitmek** fe’li faol qo‘llaniluvchi ko‘makchi fe’llardan biri ekani to‘plangan faktik materiallar tahlili natijasida ma’lum bo‘ladi. **Gitmek** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’lga uch xil usul bilan birikadi: **-a, -e** ravishdosh yasovchilari orqali, **-ip, ip, -up** ravishdosh ko‘rsatkichlari yordamida hamda hech qanday grammatik ko‘rsatkichlarsiz bog‘lanishi mumkin. **Gitmek** ko‘makchi fe’li ish-harakatning to‘la bajarilishi, harakat bajarilishidagi yuqori darajalilik, kuchlilik, ziyodlilik (bu sema masofa, vaqt, ish-harakatning amalga oshirilishi darajasiga oid bo‘lishi mumkin) kabi ma’nolarni ifoda etishi mumkin.

Vermek–**bermoq** fe’li yetakchi fe’lga **–(y)ı** shaklli ravishdosh yasovchi affks orqali bog‘lanadi. Ko‘makchi fe’l vzifasida kelgan **vermek**–**bermoq** fe’li yetakchi fe’l bildirib kelgan ish-harakatning tezda, bir zumda bajarilganligi ma’nosini bildiradi. Ushbu ko‘makchi fe’li yetakchi fe’li bildirgan ish-harakatning to‘la bajarilishi, shuningdek, ayni harakat amalga oshirilishi ma’nosidagi me’yoriy holatdan kuchlilik, yuqorilikni bildirishi mumkin. Kuchaytirish vaqtga yoki masofaga nisbatan bo‘lishi mumkin. **Vermek**–**bermoq** ko‘makchi fe’li harakatning to‘la bajarilishini bildirishi bilan bir paytda, harakatning tamom bo‘lishi, tugashi ma’nolarini bildirmaydi. Ba’zi fe’llar bilan birikib kelgan **vermek**–**bermoq** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish-harakatning bajarilishining boshlanishi va davom etishi ma’nolarini bildiradi. **Vermek**– **bermoq** ko‘makchi fe’li yetakchi fe’l bildirgan ish- harakatning bajarilishi uchun monelikning, to‘siqlikning, qarshilikning yo‘qligi ma’nosini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova M. O‘zbek va turk tillarida ot kategoriyalarining talqini: Filol.fan. nomz . dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b.
2. Айляров Ш.С. Развёрнутые члены предложения в современном туречком языке .-М.: Изд. МГУ, 1974. – 227 с.
3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözçük Türleri. - Ankara: Ankara Ünıversteti basımevi, 1976. S.
4. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Sözdizimi.-İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
5. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. – М. “Наука”, 1952. –С. 381–382.
6. Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. –S. 268.
7. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul:İnkilap, 1986. –754 s.
8. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkilap:19 -s.
9. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, –C.3. –S.2159.
10. Türkçe Sözlük. C.I. –S.54.

HAKIMOVA BARNO
O‘qituvchi, TDSHU

Zamonaviy tilshunoslikda konsept masalasi va koreys lingvokulturologiyasida “ayol” konseptining ifodalanishi

Annotatsiya. *XX –XXI asr tilshunosligida kognitiv lingvistikaning rivojlanishi o‘ziga xos tomoni hisoblanadi. Konseptni asosiy shakli chet el olimlarining hamda mamlakatimiz olimlarining tadqiqot predmetlariga aylandi. Bizga ma‘lumki, konsept lisoniy birliklar (so‘z, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq sifatida, predmet va hodisalar haqida ma’lumot, tushuncha, tasavvurlarni o‘zida tashishi, saqlashi, o‘zgaga yetkazib berishi bilan jamiyat a’zolarining predmet va hodisalarga bo‘lgan munosabatini qayd etishi bilan o‘ziga xosdir.*

Demak, turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi . Keltirilgan yondashuvlardan tashqari, yana bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikda konseptning lingvomadaniy talqini ham mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ta‘kidlash joizki, lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi sifatida hisoblanib, uning tarkibiga esa belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kabilar kiradi. Demak, kognitiv va til strukturasini bog‘lab turuvchi birlik konsept deb ataladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept leksik hamda frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotimizning obyekti “ayol” konseptidir. “Ayol” konseptining mazmuniga va uning badiiy hikoyalar singari til vositalaridagi obyektiv ifodasiga nazar tashlaymiz. V.N.

Teliya fikriga ko‘ra, badiiy asar tilining tarkibi – bu “lingvomadaniy birlik o‘zining milliy o‘ziga xosligini namoyon etadigan ko‘zgudir”, aynan badiiy asarlar til tashuvchilariga dunyo, vaziyat haqidagi alohida tasavvurlarni “yuklaydilar” . Koreys madaniyati vakillarining tafakkurida ayolning tashqi fazilatlari eng avvalo ojizlik, itoatkorlik, go‘zallik, nafosat va nazokat bilan bog‘lanadi. Pak Vansoning hikoyalaridagi qahramonlarda bunday fazilatlar aks etmaydi. Koreys ayolini yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida, shuningdek, ayol fe’l-atvoriga xos bo‘lgan xususiyatlarni Pak Vanso o‘z hikoyalarida quyidagicha tavsiflagan“…u xuddi takabbur aslzoda ayol singari manmanlik qila boshladi…”, “uning ichiqora, maydakash tabiatini namoyon etdi”, “g‘ayriinsoniy xulq-atvor”, “sovuq va mulohazakor”, “tabiatan hokimiyatsevar”, “qari ayol o‘z sha’ni va qadr-qimmatini yerga urmasdi” .

Kalit so‘zlar: *konsept, qatlam, ayol, kognitiv, til, Pak Vanso, lingvomadaniyatshunoslik, obraz.*

Аннотация: *Развитие когнитивной лингвистики в лингвистике XX-XXI веков считается уникальным аспектом. Основная форма концепции стала предметом исследования зарубежных учёных и учёных нашей страны. Мы знаем, что концепт – это результат мыслительного процесса, происходящего посредством языковых единиц (слова, предложения, текста). Концепт как предметная сущность, отражающаяся в нашей психике, переносит, хранит, передает информацию, понятия и представления о предметах и событиях и фиксирует отношение членов общества к предметам и событиям.*

Итак, мир понятий по-разному отражается в разных культурах. Возможности понятий обогащаются носителями языка в результате индивидуального эмоционального и культурного опыта. Помимо упомянутых подходов, мы видим, что сегодня в современном языкознании существует и лингвистическая трактовка понятия. Следует отметить, что с лингвокультурологической точки зрения концепт рассматривается как основная единица культуры, а в его состав входят символы, этимология, история концепта, современные ассоциации, отношение к нему или его оценка. Итак, единица, связывающая когнитивную и языковую структуру, называется концептом. В лингвистике и культурологии концепт выражается в лексических и фразеологических единицах.

Объектом нашего исследования является понятие «женщина». Давайте рассмотрим содержание понятия «женщина» и его предметное выражение в таких языковых средствах, как художественная литература. В.Н. По мнению Телиа, состав языка художественного произведения является «зеркалом, показывающим языковое и культурное единство его национального самосознания», именно художественные произведения «навязывают» говорящим особые представления о мире и ситуации. языка. В сознании представителей корейской культуры внешние качества женщины прежде всего связаны со слабостью, послушанием, красотой, элегантностью и деликатностью. Такими качествами персонажи рассказов Пак Вансо не обладают. Кореянку как личность высокой духовности, а также особенности женского характера Пак Ван Со в своих рассказах описывал так: «...она стала зазнаваться, как высокомерная дворянка...», «показав свою внутреннюю, мелочную натуру», «бесчело-

вечное поведение», «холодная и задумчивая», «властолюбивая по натуре», «старуха не бросила на землю свою честь и достоинство».

Ключевые слова: *Концепт, женщина, когнитивный, язык, Пак Вансо, лингвистика, образ.*

Abstract. *The development of cognitive linguistics in 20th-21st century linguistics is considered a unique aspect. The main form of the concept has become the subject of research of foreign scientists and scientists of our country. We know that the concept is the result of the thought process that occurs through linguistic units (word, sentence, text). The concept as an objective entity reflected in our psyche, carries, stores, and conveys information, concepts, and ideas about objects and events, and records the attitude of society members to objects and events. is typical.*

So, the world of concepts is reflected differently in different cultures. Concept possibilities are enriched by language speakers as a result of individual emotional and cultural experience. In addition to the mentioned approaches, we can see that there is also a linguistic interpretation of the concept in modern linguistics today. It should be noted that from the linguistic and cultural point of view, the concept is considered as the main unit of culture, and its composition includes symbols, etymology, history of the concept, modern associations, attitude to it or its evaluation. So, the unit connecting the cognitive and language structure is called a concept. In linguistics and cultural studies, the concept is expressed in lexical and phraseological units.

The object of our research is the concept of "woman". Let's look at the content of the concept of "woman" and its objective expression in language tools such as fiction. V.N. According to Telia, the composition of the language of an artistic work is a "mirror that shows the linguistic and cultural unity of its national identity", it is the artistic works that "impose" special ideas about the world and the situation on the speakers of the language. In the thinking of representatives of Korean culture, the external qualities of a woman are first of all associated with weakness, obedience, beauty, elegance and delicacy. The characters in Pak Wanso‘s stories do not have such qualities. The Korean woman as a person of high spirituality, as well as the characteristics of a woman's character, were described by Pak Wan-so in his stories as follows: "...she began to be conceited like an arrogant noblewoman...", "showing her inward, petty nature did", "inhuman behavior", "cold and thoughtful", "power-loving by nature", "the old woman did not throw her honor and dignity on the ground".

Key words: *Concept, stratum, female, cognitive, language, Pak Wanso, linguistics, image.*

Kirish. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda konsept masalasi chet el olimlarining hamda mamlakatimiz olimlarining tadqiqot predmetlariga aylandi. Bu muammoni tadqiq qilishda quyidagi olimlarni eslash joizdir: B. Fon Gumbald, E. Sepira, B. Uorf, Dj. Lakoff, M. Minskiy, R.I. Pavlichenko, Ch. Fillmor, A. Vejbitskaya, A.A. Potebnya, S.A. Askoldov, V.V. Vinogradov, D.S. Lixachev, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanov, E.S. Kubryakova, A.P. Babushkin, Z.D. Popova, I.A. Sternin, V.V. Kolesov, V.I. Karasik, S.G. Vorkachev va boshqalar.

Bundan tashqari, konsept tushunchasi tilshunoslikda (Dj. Lakoff, R. Djekendorf, R. Lankager, M. Djonson, Ch. Fillmor, E.S. Kubryakova, A.P. Babushkin va b.), psixo-

lingvistikada (A.A. Leontev, A.A .Zalevskaya va b.), linvomadaniyat (N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik, V.V. Farxuddinova, V.V. Vorobev, V.V. Kolesov, G.G. Slishkin, S.X. Lyalin va b.) hamda sinkret nazariyalar tadqiq qiladilar.

Bizga ma‘lumki, konsept lisoniy birliklar (so‘z, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq sifatida, predmet va hodisalar haqida ma‘lumot, tushuncha, tasavvurlarni o‘zida tashishi, saqlashi, o‘zgaga yetkazib berishi bilan jamiyat a‘zolarining predmet va hodisalarga bo‘lgan munosabatini qayd etishi bilan o‘ziga xosdir.

Demak, turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi .

Konsept ma‘nosi juda murakkab tuzilgan. Shuning uchun olimlar tomonidan konseptga tizimli hodisa sifatida qaraladi. Bu tizim qatlam so‘zi bilan yuritilib, talqin qilinadi. Demak, qatlam nuqtayi nazaridan konseptni turlarga ajratish mumkin. Asosan bu turlar ikkita asosga qaratilgan bo‘ladi:

1) Birinchi asos - diaxronik.

2) Ikkinchi asos– sinxronik.

Diaxronik nuqtayi nazariga ko‘ra konseptlar zamonaviy va tarixiy qatlamga ajratiladi. Sinxronik nuqtayi nazarida konseptlar ostida yotgan obraz asosiga qaraladi.

Mana shu murakkabliklar tadqiqotchi V.A.Maslova ishlarida ham o‘rganilib chiqilgan. V.A.Maslova konsept ma‘nosiga ko‘p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o‘ylanadigan, balki ular o‘zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi hamda konsept tuzilishida o‘zgacha nuqtayi nazar borligini ta‘kidlaydi. Konsept markazida qadrlilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrlilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg‘unligi, ma‘noviy tuzilishdan tashqari insonning ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o‘z ichiga oladi, deb ta‘kidlaydi .

Umuman olganda, konsept tuzilishini o‘rganish borasida boshqacha qarashlar ham mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, konsept tuzilishiga doir fikrlarni tadqiqotchi Yu.S.Stepanov ishlarida ham kuzatamiz. Yu. S. Stepanov bir tomondan, konsept tuzilishida hamma turg‘un tushunchalarni ajratadi, boshqa tomondan konseptni madaniyat asosiga aylantiradigan ichki tuzilish-etimologiyasini ko‘rsatadi .

Yana olimlardan Z.D.Papova hamda I.A.Sternin konsept tuzilishini uch xil komponenti: obraz, ma‘lumotlar saqlovchisi, tahlil maydoni haqidagi fikrlarini olg‘a suradi. Konseptda obrazni mavjudligi hamda umumiy predmet kodini xarakterlash bilan tushuntiradi. Ma‘lumot saqlashda esa konsept alohida kognitiv belgilarni kiritadi, predmet yoki holatni asosiy xususiyatlarini aniqlashtiradi.

Tahlil maydoni u yoki bu aspektda ma‘lumotlar orqali konseptni tahlil qilib, undan xulosaviy bilimlar oladi yoki unga baho beradi - deydilar.

Olimlar fikricha, konseptni ma‘no va tuzilishidan tashqari xususiyatlari ham mavjuddir. Konseptni barcha qabul qilgan xususiyati ko‘p ma‘noligidir. Uning bu xususiyati uch pog‘onada ko‘rinishini tushuntirib o‘tishadi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

1. Sistemada asosan simvol madaniyat tashuvchisi, madaniyatda esa leksikografiyadan yozib olingan lingvistik holat saqlovchi;
2. Til vositasida madaniyat asosan saqlovchi;
3. Matnda esa namoyon bo‘luvchi .

Ushbu keltirilgan yondashuvlardan tashqari yana bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikda konseptni lingvomadaniy talqini ham mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuni ta‘kidlash joizki, lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi sifatida hisoblanib, uning tarkibiga esa belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kabilar kiradi. Demak, kognitiv va til strukturasini bog‘lab turuvchi birlikka konsept deb ataladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida o‘z ifodasini topadi:

a) leksik hamda frazeologik birliklarda;
b) nutq birliklarida (so‘z birikmasi, gap), grammatik tuzilishda.

Umuman, keltirilgan til birliklarida konsept o‘z mazmunining ma‘lum qismini bera olishini ko‘ramiz. Qolaversa konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni asosan, so‘z munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhim hisoblanadi.

Leksik va frazeologik birlik esa til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni to‘liq anglash uchun bir-biriga o‘xshash kategoriyalarni tushunish lozim bo‘ladi.Asosan, bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til ma‘nolari kiradi .

Lingvomadaniyatshunoslikda asosan konseptni bir tomondan so‘z, ikkinchi tomondan esa tushuncha bilan munosabati o‘rganiladi.

Olim D.S.Lixachov fikriga ko‘ra, konsept so‘zni leksik-semantik turi bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi. So‘z ma‘nolari esa asosan, belgilar bilan o‘ralgan konseptni tashkil etadi. Konsept obyektiv olam obrazi, tashqi dunyo bilan esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador, so‘z esa faqat o‘z semantikasida odatda konseptni ochib berishini aytadi. Ammo, olimlar fikricha konsept va tushuncha o‘rtasida sinonomik munosabatlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikda konsept logik tushuncha ekanligi hamda leksik ma‘noda esa har xil ma‘noviy tuzilishni olishi tushuntirib beriladi.

Jumladan, tushuncha va konsept kategoriyalari ikki xil yo‘nalishga egadir:

a) Tushuncha falsafa va mantiqqa;

b) konsept esa matematik mantiq, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyat, kognitiv lingvistika yo‘nalishlariga tegishli .

Konsept ko‘rinmas tafakkur kategoriyasi bo‘lib, bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, konsept bir-biriga bog‘liq, bir butun qoidaga ega g‘oyalar yig‘indisidir. Yana konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko‘rinishda namoyon bo‘lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birika oladilar. Shu sababli ham konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e‘tirof etish ma‘qul hisoblanadi. Konseptning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo‘la oladi.

Konsept – bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi hamda inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabati, bir millatning nimadir haqidagi o‘y-fikrlari, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan termindir. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo‘lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Demak, konsept insonni o‘rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig‘indisi hamda tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Yu. S. Stepanovning fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo‘lagi hisoblanib, bunday holatda konsept insoniyat olamining mental birligi bo‘lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi hamda madaniyatga kirib, ba‘zi vaqtda madaniyatga ta‘sir ko‘rsatadi.

Mana shunday qarashlarga tadqiqotchi olima N.D.Artyunova tomonidan quyidagicha aniqlik kiritilgan. Olimaning fikricha, konsept bir qancha omillarning o‘zaro aloqa natijasi: folklor, milliy urf-odatlar, din, hayotiy tajriba, obraz, qadrlilik tuyg‘usi kabilarni o‘z ichiga olishini aytadi. Konsept o‘ziga xos madaniy qatlam, inson va olam o‘rtasidagi aloqa tasviri.

Shunday ekan turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks atadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi.

Lingvomadaniy konsept asosan etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan hamda borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatib beradigan madaniyatning asosiy birligi hisoblanar ekan. Konsept madaniy universaliyalarni ifodalab ko‘rsatadi. Lingvomadaniy konsept asosan tafakkurda mavjud bo‘lib, u

o‘zida asosan kognitiv-ratsional hamda emotsional-psixologik mazmunni biriktira oladi. Umuman, lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun asosan dunyoqarash modeli vazifasini o‘tash uchun xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, har doim ham lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Lingvokulturologiyada esa asosan madaniyat konseptlari alohida tadqiq etib kuzatiladi. Shuning uchun ham madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb eta oladi. Demak, madaniyatning asosiy konseptlari deganda: mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va hokazolar tushuniladi.

Jumladan, madaniyat konseptlarini olim A. Ya. Gurevich ikki guruhga ajratadi:

a) “fazoviy”, falsafiy kategoriyalar, ya‘ni madaniyatning universal kategoriyalari vaqt, makon, sabab, o‘zgarish, harakat;

b) ijtimoiy kategoriyalar, ya’ni madaniyat kategoriyalari erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulkka ajratadi.

Olima V.A. Maslova bunga yana bir guruhni – milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi .

Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o‘ziga xos konseptlarning ko‘pligi aniqlanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, kartoshka konsepti madaniy o‘ziga xos bo‘lgan konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni сидеть на одной картошке frazeologizmi misolida ham ko‘rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki yana bir misolni olaylik: non konsepti tushunchasini olsak, o‘zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblanadi, boshqa koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun esa muhim ozuqa hisoblanmasligini kuzatamiz. Bu xalqlar uchun guruch eng asosiy ozuqa etaloni hisoblanadi .

Demak, konsept asosan ikki tomonli xususiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kira olsa-da, boshqa bir tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kirishadi hamda ba‘zan unga ta‘sir ko‘rsata oladi. Demak, inson o‘zining individual, betakror bo‘lgan madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali butun xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qila oladi.

Turli olimlar fikriga nazar soladigan bo‘lsak:

Konsept − o‘zida abstrakt, aniq assotsiatsiyaga ega, emotsional baholovchi belgilar hamda tushunchaning zichlangan tarixini aks ettiruvchi g‘oya, − deydi Stepanov.

Konsept − aniq bir maishiy mohiyat asosida yaratilgan ilmiy, abstrakt tushuncha, – deydi Solomonik.

Konsept − tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyati, – deydi Kolesov.

Konsept − madaniyatning genotipiga kiruvchi o‘ziga xos madaniy gen, − deydi Lyapin.

Demak, konseptga doir lisoniy birliklar orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasi kabi ko‘plab ta‘riflar berilgan.

Ma‘lumki, har bir xalqning lug‘at boyligida o‘sha xalqning turmush tarzi, ma‘naviy qiyofasi, dunyoqarashi, mehnatga, insonga, hayotga, tabiatga munosabati to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Shuning uchun ham rus yozuvchisi L.N. Tolstoy til xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to‘xtalib: “Har bir tilda men shu konseptni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman”, deb yozadi. Adib M. Sholoxov esa “Konsept qanotlanib asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga ko‘chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko‘rinmaydi”, deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Koreys lingvokulturologiyasida ham konsept masalasi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri deb aytish mumkin. Masalan, birgina “ayol” konsepti haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, koreys lingvokulturologiyasida bu konsept turlicha ma‘nolarni o‘zida aks ettira oladi. Demak, tadqiqotimiz obyekti “ayol” konseptidir. Bir tomondan, bu dunyoning barcha mental manzaralariga xos bo‘lgan universal kontseptdir, boshqa tomondan esa, u dunyoning koreys tilidagi manzarasiga xos bo‘lgan sof milliy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Koreys tilining izohli lug‘atida “ayol” so‘ziga quyidagi ta‘rif berilgan: “Ayol. 1. Jins jihatidan erkakka qarama-qarshi shaxs; bola tug‘adigan va ularni ko‘krak suti bilan boqadigan odam. 2. Qiz boladan farqli o‘laroq, balog‘at yoshiga to‘lgan shaxs. 3. Nikoh munosabatlariga kirishgan ayol jinsiga mansub shaxs. U ayol bo‘lgan”. Ko‘rib turganimizdek, izohli lug‘atning mazkur maqolasida “ayol” konseptiga, birinchi navbatda, uning fiziologik va yosh xususiyatlariga ko‘ra tavsif berilgan, ijtimoiy maqom belgisiga bu yerda faqat oilaviy holat nuqtayi nazaridan yondashilgan.

“Ayol” konseptining mazmuniga va uning badiiy hikoyalar singari til vositalaridagi obyektiv ifodasiga nazar tashlaymiz. V.N. Teliya fikriga ko‘ra, badiiy asar tilining tarkibi – bu “lingvomadaniy birlik o‘zining milliy o‘ziga xosligini namoyon etadigan ko‘zgudir”, aynan badiiy asarlar til tashuvchilariga dunyo, vaziyat haqidagi alohida tasavvurlarni “yuklaydilar” .

70-yillarda Koreya Respublikasi adabiyoti diqqat markazida erkaklarni tanqid qilish o‘rin olgan edi. Ularning aksariyatini ayol yozuvchilarining ijodida uchratish mumkin edi. Asarlarda davr ruhidan kelib chiqqan holda, erkaklarning jamiyatdagi va oiladagi kuchi va o‘rnini ochib berishga harakat qilingan. Ko‘pchilik jamiyatda o‘rni bo‘lmagan, jiddiy e’tiborga loyiq bo‘lmagan, ijodiy

erkinligi yo‘q ayol yozuvchilarning asarlari tan olinmaydi. Adibalarning ilk asarlari tanqidlarga duchor bo‘ldi. Pak Vansoning asarlarida esa, asosan hikoyalari emas, balki romanlari qarshiliklarga uchradi.

Koreys ayolini yuksak ma‘naviyatli shaxs sifatida, shuningdek, ayol fe‘l-atvoriga xos bo‘lgan xususiyatlarni Pak Vanso o‘z hikoyalarida quyidagicha tavsiflagan birinchi guruhga quyidagi parchalarni kiritamiz: “…u xuddi takabbur aslzoda ayol singari manmanlik qila boshladi…”, “uning ichiqora, maydakash tabiatini namoyon etdi”, “g‘ayriinsoniy xulq-atvor”, “sovuq va mulohazakor”, “tabiatan hokimiyatsevar”, “qari ayol o‘z sha’ni va qadr-qimmatini yerga urmasdi”.

Til materialining tahlili ayol fe‘l-atvorini tavsiflaydigan jihatlar asosan salbiy tusga ega ekanligini ko‘rsatadi. Pak Vanso yaratgan barcha hikoyalarning qahramoni – sevish qobiliyatidan mahrum bo‘lgan baxtiqaro ayol. Yangi hayot sharoitlari undan sevishga bo‘lgan ehtiyojni siqib chiqargan, uni hayotdan quvonish qobiliyatidan mahrum etgan, sovuq, jonsiz mavjudotga aylantirgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, ko‘rib chiqilgan hikoyalarda “baxtli ayol” masalasi umuman qo‘yilmaydi.

O‘sha zamon ayollarini tavsiflaydigan hikoyalarda pulga va mansabga o‘ch bo‘lgan ayol obrazi yaratilgan. Boshqa his-tuyg‘ular muhim emas deb hisoblanadi, muallif erkaklarning kamchiliklari ustidan kuladi, ayolning erkakdan ustunligini ko‘rsatadi: “Ayol mening norasolik kompleksimdan xabardor edi”, “xotinning yuzida eriga hurmat ham, g‘am-hasrat ifodasi ham yo‘q edi”, “u bilan insoniy hissiyotlar haqida gaplashish mumkinligini tasavvur qilish ham mumkin emasdi”.

Ayol fe‘l-atvorining salbiy tomonlarini tavsiflaydigan salbiy konnotatsiyali holatlar ijobiy baholanadigan holatlarga qaraganda ancha ko‘p va buni jamiyat, madaniyat, tilda shakllangan ayol ko‘p sonli nuqsonlar xos, degan stereotip bilan izohlash mumkin.

Koreys madaniyati vakillarining tafakkurida ayolning tashqi fazilatlari eng avvalo ojizlik, itoatkorlik, go‘zallik, nafosat va nazokat bilan bog‘lanadi. Pak Vansoning hikoyalaridagi qahramonlarda bunday fazilatlar aks etmaydi.

Ayolning tashqi fazilatlarini tavsiflaydigan iboralarga quyidagilarni kiritish mumkin: “qari xotin”, “terisi ustixoniga yopishgan, ko‘kraklari qurib qolgan, qorni xunuk…”, “oliyjanob ayol”, “ko‘chada savdo qiladigan ayolning yoqimsiz tashqi ko‘rinishi, betavfiqligi va qo‘rsligi”, “ayolning tanasi yosh va chiroyli edi”, “bu erkakmi yoki ayolmi – farqlash mushkul edi” .

Ko‘rib turganimizdek, “ayol” konseptining mazmuni Pak Vanso asarlarida ifodalangan ko‘rinishda bir tusli va ziddiyatli xususiyatga ega. Belgilarning bir qismi patriarxal jamiyat axloqi va ma’naviy negizlarini aks ettiradi, ikkinchi qismi esa ayol zotining ijobiy xislatlari bilan bog‘liq. Binobarin, “ayol” konsepti koreys lingvomadaniyati xususiyatlarini aks ettiradi.

Koreyslarning til madaniyatida “ayol” konseptining o‘rni va ahamiyatini ochib berish uchun koreys tilining izohli lug‘atiga nazar tashlaymiz. Lug‘at ma‘lumotlari til tashuvchilarining ijtimoiy-tarixiy xotirasi haqida tasavvur hosil qilish va savolga javob topishga yordam beradi.

“Koreys tilining izohli lug‘ati” ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, “ayol” so‘z-stimuliga asosiy reaksiyalar quyidagilardir: chiroyli; ona; yosh; xushro‘y; aqlli; mehribon; xotin, sevikli, jozibali; ishchan, qiziqarli, qari, bolali; qiz, dono, jozibador, odam, nazokatli; jumboq, ona, to‘ladan kelgan, go‘zal, yoqimli, yoqimtoy va h.k.

Shunday qilib, “ayol” konseptida ayolning tashqi jozibadorligi, aqli va o‘z yaqinlariga g‘amxo‘rligi bilan bog‘liq nomlar ayniqsa yorqin kognitiv belgilar hisoblanadi. Ular mazkur konseptning o‘zagini hosil qiladi va koreys millatining tafakkuri uchun ayniqsa muhim bo‘lgan ayolga xos fazilatlardan dalolat beradi. Koreys kognitiv tafakkurida “ayol” konseptiga umuman olganda ijobiy urg‘u beriladi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Milliy ongda konseptni farqlashda uning tarkibida, eng avvalo, bir nechta avlodning hayot faoliyatida kuzatish mumkin bo‘lgan elementlarni farqlash zarur. Bunda tilning yagonaligi, tarixiy o‘tmish, madaniy o‘ziga xoslik haqidagi tasavvurlar doirasi, o‘zaro munosabatlar psixologiyasi elementlar hisoblanadi. Konseptning mazmuni uning muayyan tashuvchilari faoliyatida aktuallashadi, tashqi va ichki voqea sharoitlari o‘zgarishi natijasida ongda ham o‘zgaradi.

Olim I.Sternin fikricha, so‘zning ichki shaklini quyidagicha ta’riflash mumkin:

−“So‘zning “botiniy shakli”, so‘zning mohiyati yoki uni ishlatish negizida yotgan obraz faqat ushbu so‘z yoki so‘zlar birikmasida vujudga kelgan yoxud shaklga kiruvchi moddiy hamda ma‘naviy madaniyat, til tizimi fonidagina aniqlanishi mumkin”.

−So‘zning leksik ma‘nosi hamda konseptning farqi ularning kategorial mavqeyida ko‘rinadi, ya‘ni so‘zning leksik ma‘nosi tilning semantik maydoni birligi hisoblanadi, konsept esa inson tafakkuri mahsuli bo‘lib, nutq orqali fikrni bayon qilish jarayonini amalga oshirishda ishtirok etadigan ifoda formasi hisoblanadi.

Demak, so‘zning leksik ma‘nosi va konsept tafakkur hamda kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasi hisoblanadi. Shunday ekan, konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma‘nosi lisoniy ong mahsulidir.

Umuman, konsept bilan so‘zning leksik ma‘nosi o‘rtasidagi farq shundan iboratki, konsept konseptosfera birligi hisoblansa ham, so‘zning leksik ma‘nosi tilning semantik maydoni birligidir.

Tadqiqotlarga ko‘ra, koreyslarning tilda aks etadigan tafakkurida ayol obrazi erkak obraziga qaraganda ijobiy baholanadi. “Koreys ayoli ikkala jins

informantlari bilan koreys erkagiga qaraganda ijobiy baholanishi aniqlangan. Koreys ayoliga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlashda bunday qiyinchiliklar qayd etilmagan”. Bunda ayolga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar ojizlik bilan emas, balki kuchlilik, qat’iyatlilik, sabr-toqatlilik, chidamlilik, muhabbat (eng avvalo, ona muhabbati), aqllilik va go‘zallik bilan bog‘lanadi.

Koreys ayolining mazkur obrazi koreys madaniyatining vakili – Pak Vanso asarlarida ayol obraziga berilgan yuksak baho bilan uyg‘unlashadi. “Ayol” kontsepti o‘ta serqirra va rang-barang, ba’zan qarama-qarshi konnotatsiyalarni o‘z ichiga oladi va bu ayol tabiatining sirliligidan, koreyslarning tilda aks etuvchi tafakkurida unga berilgan bahoning murakkabligidan dalolat beradi.

Ko‘rib turganimizdek, “ayol” konseptining mazmuni Pak Vanso asarlarida ifodalangan ko‘rinishda bir tusli va ziddiyatli xususiyatga ega. Belgilarning bir qismi patriarxal jamiyat axloqi va ma‘naviy negizlarini aks ettiradi, ikkinchi qismi esa ayol zotining ijobiy xislatlari bilan bog‘liq. Binobarin, “ayol” konsepti koreys lingvomadaniyati xususiyatlarini aks ettiradi.

Darhaqiqat, til madaniyatsiz, madaniyat esa aslo tilsiz mavjud bo‘la olmaydi. Albatta, shunday ekan mazkur ikki sohani hech qachon bir-birisiz tasavvur qilish mushkul. Demak, konsept aynan mana shu sohalar tutashgandagina yaqqol namoyon bo‘la oladi. Shuningdek, asosan konseptlar leksik birliklar hamda frazeologizmlar, xalq maqollari, ya‘ni xalq madaniyati ta‘sirida yuzaga kelgan til birliklari orqali tadqiq qilinadi. Shuning uchun ham konsept va so‘z o‘rtasidagi asosiy farqni ajrata bilish kerak bo‘ladi. Shunday ekan so‘z lisoniy ma’no birligi bo‘lsa, konsept esa konseptosfera birligi hisoblanadi. Chunonchi, har qanday konsept so‘zda o‘z ifodasini topadi, lekin har qanday so‘z esa konsept bo‘la olmaydi.

Bugungi kundagi globallashuv jarayonida zamonaviy lingvokulturologiyada konsept eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shunga ko‘ra konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalab beradi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o‘ziga xos konseptlarning ko‘pligi aniqlangan.

Bir so‘z bilan aytganda, so‘z hamda konsept yuqoridagi fikr va mulohaza-lardan kelib chiqqan, alohida-alohida hodisa deb qaralsa, ular doimo bir-birini to‘ldirish uchun xizmat qilganligini ko‘ramiz. Tasavvurda paydo bo‘lgan konseptlar so‘zda o‘z ifodasini topgandagina, so‘zlar idrok qilinishi orqali ongda konsept hosil bo‘ladi yoki mavjud tushunchalar jonlanadi.

Konsept konsept bir millatning nimadir haqida o‘y-fikrlar, qarashlari, konsept inson ongidagi madaniyat bo‘lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamining mental birligi bo‘lib madaniyatga kirgan.

Xulosa qilib aytganda, konsept termini so‘z ma‘nosining mohiyatidan kengroq bo‘lib, konseptlar har bir millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham o‘z strukturasi hamda shu strukturani tashkil qiluvchi belgilarini yo‘qotmaydi. Shuni ta‘kidlash

joizki, ya‘ni oila tushunchasi asrlar oldin boshqacha so‘zlar orqali yuritilgan bo‘lishi mumkin, lekin konsept sifatida asrlar osha davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbek tilida:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1979. – 245-b.
2. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent, 1986. – 341-b.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent,1979. – 56-b.
4. Hamdam Ulug‘bek. Yangi o‘zbek she‘riyati. – Toshkent: “Adib”, 2012. – 304-b.
5. Kim. V.N., Saydazimova U.T., Shakirova N.B. Koreys adabiyotidan xrestomatiya. – Toshkent, 2009. – 123 b.
6. Quljonov A. G‘oyaviylik va badiiylik. –Toshkent, 1965. – 156 b.
7. Saydazimova U.T. Choy So Yong va bosh. Koreys adabiyoti. – Toshkent, 2015. – 221-b.
8. Saydazimova U., Cho So Yong, Xvan L., Shakirova N., Kim O., Kim Ye. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent: “Istiqlol”, 2013. – 504 b.
9. Saydazimova U., Choi So Yong, Kim V.N., Xvan L., Shakirova N., Kim Ye., Kim T. Koreys adabiyoti. – Toshkent: “Istiqlol”, 2015. – 376 b.
10. Saydazimova U, va bosh. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. – Toshkent: “Istiqlol”, 2014. – 520 b.
11. Saydazimova U. Koreys adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Istiqlol”, 2014. – 148 b.

Rus tilida:

12. Аманова А.Г. Становление современных форм корейской поэзии (конец XIX – середина XX в.). – Москва, 2010. – 367 с.
13. Белинский В.Г. Собрание сочинения в 3-х томах. Т. 2. – Ташкент: ОГИЗ ГИХЛ. – Москва, 1948. – 234 с.
14. Ким Б. Мучнистые росы корейского Ренессанса. – Ташкент, 2007. – 209 с.
15. Воробьёв М.В. Древняя Корея.– Москва, 1961. – 386 с.
16. Лю Г. Золотое перо Кореи. – Ташкент: Ижод дунёси, 2004. – 244 с.
17. Галкина Л.В. Корейская поэзия 20-х годов XX века. – Москва, 1988. – 168 с.
18. Емеренко Л., Иванова В. Корейская литература. – Москва, 1964. – 197 с.
19. Из истории литературных связей XX в. – Москва, 1962. – 385 с.
20. История Кореи. – Сеул., 2002. – 201 с.
21. История всемирной литературы. – Москва, 1989. – 471 с.
22. История современной корейской литературы. – Москва: ГРВЛ, 1989. –
23. 1949.Т. 3. – 379 с.
24. Чо Юн Дже. История современный корейской литературы. –Сеул., 1962. – 241 с.
25. Чо Тоныль. Общая история корейской литературы. – Сеул,1989. – 192 с.
26. Цой Джонхо. Горы в жизни корейцев. – Сеул, 1994. – 159 с.
27. Энциклопедия мировой истории. – М., 1997. – 859 с.

Koreys tilida:

28. 이인나. 조명희 문학 연구. – 서울., 2006 년. – 304 p.
29. 백운박. 조명희의 시 연구. 인문과학연구., – 서울., 1996 년. – 87 p.

30. 너상래. 조녕희 연구. – 서울.,1992 년. – 109 p.
31. 권영민. 한국현대문학사. 1.민음사 – 서울., 2002 년. – 371 p.
32. 조로대사전. 제 1.2 권. 모스코바., 1976 년. . – 851 p.

Ingliz tilida:

33. O‘Rourke, Kevin. The Korean Short Story of the 1920’s and Naturalism. Korean journal.– Vol.17. – Seoul, 1977, No.3. – 62 p.

Internet resurslari

34. www.hompi.sosang.ac.kr
35. www.mybox.happycampus.com
36. www.arirang.ru
37. www.orientalstudies.ru

SAIDORIPOVA DILOROM
O‘qituvchi, TDSHU
ORCID ID:0000-0001-9884-2764

Fors tilida sifat yasovchi prefiksal allomorflar

Annotatsiya: *Tilshunoslikda lug‘at boyligining kengayishida xizmat qilayotgan affiksatsiya hodisasi hamda shu usul orqali leksema yasashda allomorflarining qaysi o‘rinlarda ishlatilishi katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada allomorf tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o‘rni atroflicha o‘rganildi hamda unga dunyo tilshunoslarining nazariya va ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Unga ko‘ra, allomorf morfemaning varianti bo‘lib, alohida morf sifatida o‘ziga mos, muvofiq keladigan so‘z shakli tarkibidagina ishtirok etishi, shu tushuncha sifatida kuzatiladigan har bir morfning qo‘llanilish imkoniyati chegaralangan bo‘lishi hamda qulay bo‘lgan sharoitda yuzaga chiqishi kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan. Qolaversa, morf va allomorflar birining o‘rnida ikkinchisi ishlatilmasligi ilmiy isbotlangan. Shu asosda eronlik tilshunos olim Iron Kalbosining nazariy qarashlariga tayangan holda fors tilidagi sifat yasovchi allomorflarning tabiatini aniqlashga kirishilgan. Tahlillarga asoslanib, so‘z yasovchi allomorflar ikki guruhga, ya’ni asos tarkibida o‘zaro o‘rin almasha oladigan hamda o‘rin almasha olmaydigan allomorflarga taqsimlanib o‘rganildi. Affiksal allomorflarning xususiyatlarini yoritish maqsadida fors tilidagi sifat yasovchi prefiksal allomorflarning funksional-semantik xususiyatlari hamda kontekstda ishlatilish masalalarini ko‘rib chiqish maqsadida نا [nā] va uning نه [na] prefiksal allomorfi manbalar va badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar orqali tadqiqqa tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Allomorf, morfologik alternatsiya, fonemaning variantlashuvi, prefiksal allomorf, hozirgi zamon fe’l negizi, o‘tgan zamon fe’l negizi, affiksatsiya, affiksal paralellizm, dublet va yasama sifat.*

Abstract. *In linguistics, the phenomenon of affixation, which serves to expand the vocabulary, and in which places allomorphs are used in the creation of lexemes through this method, are of great importance. In this article, the concept of allomorph and its role in linguistics were thoroughly studied, and the theoretical and scientific views of world linguists on it were analyzed. According to this, an allomorph is a variant of a morpheme, and as a separate morph, it participates only in the composition of the corresponding word form, and the possibility of use of each morph observed as this concept is limited and convenient. issues such as the emergence of conditions are covered in detail. In addition, it has been scientifically proven that morphs and allomorphs cannot be used interchangeably. Based on the theoretical views of the Iranian linguist Iron Kalbosi, the nature of adjective-forming allomorphs in the Persian language was determined. Based on the analysis, word-forming allomorphs were divided into two groups: allomorphs that can exchange places in the structure of the base and non-exchangeable allomorphs. In order to shed light on the properties of affixal allomorphs, the functional-semantic properties of adjective-forming prefix* نا *[nā] and its allomorph* نه *[na] and the issues of their use in the context were studied through ehamples from sources and literary books.*

Key words: *Allomorph, morphological alternation, variation of phoneme, prefixal allomorph, present tense verb stem, past tense verb stem, affixation, affixal parallelism, doublet and derivative adjective.*

Аннотация. *В языкознании большое значение имеет явление аффиксации, служащей для расширения словарного запаса и местами использования алломорфов при создании лексем этим методом. В данной статье подробно изучено понятие алломорфа и его роль в лингвистике, а также проанализированы теоретические и научные взгляды мировых лингвистов на него. По его мнению, алломорф — это вариант морфемы, и как отдельный морф он участвует только в составе соответствующей словоформы, а возможность использования каждого наблюдаемого морфа в качестве этого понятия ограничена и удобна. Подробно рассмотрено возникновение условий. Кроме того, научно доказано, что морфы и алломорфы не могут использоваться как взаимозаменяемые. На основе теоретических воззрений иранского лингвиста Ирона Калбоси определена природа прилагательных-алломорфов в персидском языке. На основе анализа словообразовательные алломорфы были разделены на две группы: алломорфы, способные меняться местами в структуре основы, и необменные алломорфы. С целью освещения свойств аффиксальных алломорфов на примерах из источников и литературных источников изучены функционально-семантические свойства прилагательной префиксы* نا *[на] и ее алломорф* نه *[на] и вопросы их употребления в контексте. книги.*

Ключевые слова: *Алломорф, морфологическое чередование, вариация фонем, префиксальный алломорф, основа глагола настоящего времени, основа глагола прошедшего времени, аффиксация, аффиксальный параллелизм, дублет и производное прилагательные.*

Kirish. Tilshunoslik ilmida o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab masalalar mavjud. Xususan allomorflik hodisasi ham dunyo tilshunoslarining diqqatini tortib kelmoqda.

“Allomorf” tushunchasi ilm-fanga birinchi marta 20-asr boshlarida amerikalik tilshunos Leonard Blumfild[1] tomonidan kiritilgan bo‘lib, keyinchalik bu masala boshqa olimlarning diqqatini tortgan. K.A. Timofeyev [2] , Diuf Aliu [3] , L.S. Peysikov[4], Yu.A. Rubinchik[5], B.Ya. Ostrovskiy[6], Iron Kalbosi[7], Parviz Notel Xonlari[8], Hasan Anvari va Hasan Ahmadi Givi[9], Q. Sapayev[10], M. Irisqulov[11], M.B. Abdiyev[12], A.A. Vohidov[13] kabi tilshunoslar morfologiya, morfemika, so‘z yasovchi morfemalar va ularning variantlari yuzasidan turli yondoshuvlari mavjud. Ushbu olimlarning fikrlarini o‘rganib, tahlil qilish hamda fors tilidagi periksal allomorflar yuzasidan xulosa chiqarish maqolaning tadqiqot obyektini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolada struktur tahlil, qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil, tavsiflash, funksional tahlil va semantik tahlil usullari qo‘llaniladi.

Natijalar. Fors tilida suffiks orqali sifat yasash sermahsul usul ekanligi tahlillar orqali ko‘rib chiqildi. Asosan L.S. Peysikov hamda Iron Kalbosining forsiy suffikslar bo‘yicha nazariy yondashuvlariga tayanilib, allomorfi mavjud bo‘lgan ba’zi suffikslar tanlab olindi hamda ularning o‘zaro o‘rin almashinib kela olish xususiyatiga ko‘ra 2 guruhga ajratildi:

1) O‘zaro o‘rin almashib kela oladigan suffiksal allamorflar;

2) O‘zaro o‘rin almashib kela olmaydigan suffiksal allamorflar.

Tadqiqot mobaynida **نا** *[nā]* prefiksi uchun quyidagi modellar aniqlandi:

نا *[nā]* + sifatdosh; **نا** *[nā]* + HZFN; **نا** *[nā]* + O‘ZFN, **نا** *[nā]* + sifat **نا** *[nā];* **نا** *[nā]* + olmosh.

نا *[nā]* prefiksining **نه** *[na]* allomorfi uchun quyidagi modellar aniqlandi:

نه *[na]* + HZFN; **نه** *[na]* + O‘ZFN; **نه** *[na]* + ot.

Ushbu prefikslar orqali yasalgan sifatlarning funksional-semantik xususiyatlari hozirgi fors tili materiallari asosida tahlil qilindi. Unga ko‘ra, sifat yasovchi

---

1 Leonard Bloomfield. Language. 1933. USA.

2 Тимофеев К.А. Вариантные отношения в лексике. - Новосибирск, 1986

3 Алиу Д. Диссертация по филологии на тему 'Морфонология русских префиксов и суффиксов'. Москва.2011.

4 Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973

5 Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001.

6 Островский Б.Я. Чередования алломорф в персидском языке. 1977

7 دکتر ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه. تهران. 1371

8 پرویز ناتل خانلری. دستور زبان فارسی. توس. 1388

9 دکتر حسن انوری و دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. 2 تهران-فاطمی. 1385

10 Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (Morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). T.,-2009.

11 Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. T.,- 2009

12 Abdiev M.B. O‘zbek tilida shaxs nomlarining affiksal usul bilan yasalishi: Fil.f.nomz. ... dis. – Toshkent, 1991

13 Vohidov A.A. Fors tilida so‘z yasalishi. T.,-2010

prefiksal allomorflar orqali hosil qilingan yasalmalar fors tili lug‘at fondini boyitish hamda fonetik va stilistik variantlarini faollashtirishi kuzatildi.

Muhokama. Tilshunoslikda allomorf tushunchasiga tuli xil qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zi olimlar allomorfni *bir morfemaning variantlari* shaklida o‘rganishsa, ba’zilar *morfologik alternatsiyalar*, yana boshqa olimlar *leksik morfemaning alternantlari* yoki *fonemaning variantlashuvi* hodisasi kabi tushunchalar bilan atashadi. Ba’zi o‘rinlarda esa affiksal sinonimiya, affiks-variant, affiksal parallellizm, dublet kabi nomlar bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin. Tilshunoslikdagi mazkur tafovutlar, avvalo, allomorf tushunchasiga olimlarning yondashuvlarini qiyosalash orqali munosabat bildirishni taqozo etadi.

Allomorf tushunchasiga o‘zbek tilshunos olimi A. Hojiyev *morfemaning variantlari* sifatida qaraydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Morfemaning har qanday qurshovda ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘makchi morfema morfemaning variantlari hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *-day, -dek* morflari erkin qo‘shilaveradi. Demak, variant holatida gulday-guldek kabi affiksning variantlari affiksning fonetik tovush tarkibi jihatidan turlari hisoblanadi”[1].

Olimning ushbu munosabatiga R. Rasulov quyidagicha ta’rifni beradi: “Allomorf morfemaning varianti bo‘lib, alohida morf sifatida o‘ziga mos, muvofiq keladigan so‘z shakli tarkibidagina ishtirok etadi. Allomorf sifatida kuzatiladigan har bir morfning qo‘llanilish imkoniyati chegaralangan bo‘lib, u faqat o‘zi uchun qulay bo‘lgan sharoitda yuzaga chiqadi, tanlab qo‘shiladi”[2]. Shuningdek, R. Rasulov Morfning – allomorfning biri o‘rnida ikkinchisi ishlatilmasligini takidlab, tonggi – tongki, kechki – kechgi[3] kabi misollar bilan isbotlaydi. Bu holatga fonetik vaziyat, fonetik shakl va semantika yo‘l qo‘ymasligi bilan xulosalaydi. Umuman olganda, allomorflar qo‘llanadigan so‘z formalari qanday qabul qilingan bo‘lsa, shunday shaklda namoyon bo‘lishi haqida ko‘rsatib beradi.

A. Hojiyev va R. Rasulovlarning fikrlariga nisbatan M. Irisqulov morf va morfema hamma vaqt bir-biriga teng kelavermasligini, til birligi hisoblangan morfema nutqda bitta morf orqali va ba’zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkinligini, o‘zbek tilida yo‘nalish ma’nosi - *ga, - ka, - qa* qo‘shimchalar bilan amalga oshirilishini isbotlab bergan[4]. Yuqoridagi fikrlarni bayot etarkan, M. Irisqulov bir morfema uchta morf orqali namoyon bolishini, odatda bir morfemaga kiruvchi morflar shu morfemaning variantlari yoki allomorflari hisoblanishini qayd etgan. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, allomorf - turli shaklga ega bo‘lgan lekin bir xil m a’no anglatadigan va bir morfemani tashkil etadigan morf hisoblanadi. Bunga

[1] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: 2002. – B. 21
[2] Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T.: 2010. – B. 221
[3] O‘sha asar – B. 222
[4] Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. T.: 2009. – B. 144

qo‘shimcha tarzda olim misol tariqasida rus tilidagi *[и], [ы], [а], [я]* kabi ko‘plikni ifodalovchi suffiksal allomorflarni keltiradi.

Rus tilshunosi D. Aliu allomorflar uchun *variantlar almashinuvi* terminini qollab, asos morfonologiyasi va ko‘makchi morfonologiyasini bir-biriga oppozitsiyaga qo‘yadi hamda o‘z nazariyasining isboti tariqasida rus tilidagi shaxs oti yasovchi щ ч suffikslari (*свар-щик*, lekin *налет-чик),* нн/н ravishdosh qo‘shimchasi *(влюбл-енн-ая,* lekin *влюбл-ен-а)”*[1] kabi almashinuvlarni misol tariqasida keltiradi.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy fikrlardan anglashiniladiki, allomorf bu bir morfemaning variantlari hisoblanadi, lekin shu o‘rinda affiksal allomorflar o‘zaro o‘rin almashina olishi yoki faqat o‘z muayyan o‘rinlariga ekanliklari to‘g‘risidagi bahsli mavzu tadqiqotning diqqat markaziga chiqadi.

Yevropa tilshunosligida allomorf tushunchasiga biroz boshqacharoq yondashuv mavjud bo‘lib, V. Yarstseva *morfema almashinuvi* termini qo‘llagan holda quyidagi ta’rifni keltiradi: “Morfologiyaning asosiy birligi bo‘lgan morfema aniq variant – morf (allomorflar) ko‘rinishida keluvchi mavhum invariantga o‘xshab, fonema kabi anglanadi: morfemaning har xil variantlarda ishlatishi turli pozitsiyalar – Grammatik pozitsiya kabi (bu hollarda Grammatik yoki morfologik variantlar ko‘rinishlarida keladi) fonetik pozitsiya (bu hollarda morfema fonetik ko‘rinishida keladi) bilan ham bog‘liq. Masalan, rus tilida *“писать”* - *“пишу”* asos morfema grammatik pozitsiya (invariant formasi-haqiqiy variant formasi)ni hamda turli morfema almashinuvi ingliz tilidagi otlarning ko‘plik qo‘shimchalari *[s] - [z] - [iz]* fonetik shartli pozitsiyada uchraydi”[2]. Olim o‘z fikrlarini quyidagi misollar orqali isbotlaydi: *bats* – ko‘rshapalaklar, *birds* – qushlar, *boxes* – qutilar”.

Demak, V. Yartseva ham har bir allomorflarning o‘z pozitsiyasi borligi fikrni ilgari surgan. Maqolaning asosiy obyekti - fors tilidagi sifat yasovchi allomorflarning tabiatini aniqlash uchun eronlik tilshunos Iron Kalbosining nazariy qarashlariga yuzlanamiz. Olim o‘zining fors tili grammatikasiga oid kitoblarida morfni *vāž* deb atab unga quyidagicha ta’rif beradi: “Tilning ma’noli yoki shaklga ega bo‘lgan eng kichik birligi morf deb ataladi va tilning grammatik birliklari sifatida so‘z yasalishida ishlatiladi. Morf mavhum ma’noga ega tushunchadir, uning obyekti, ya’ni yozuvdagi ifodasi واژک ***vāžak*** **‘morfema’, uning variantlarini** گونه های واژک ***gunehā-ye važak*** **‘allomorf’ deb ataladi”**[3]**.** Shuningdek olim morfemalarni ikki turga taqsimlaydi:

1) واژک آزاد ***vāžak-e āzād*** **yetakchi morfema - mustaqil ma’no anglata oladigan, tub holatdagi morfemadir. Masalan,** کار ***kār,*** مهر ***mehr.***

[1] Диуф Алиу. Диссертация по филологии на тему “Морфонология русских префиксов и суффиксов”. Москва. 2011., – Б. 18.

[2] Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь.: В.А. М. 1990., – Б. 313

[3] دکتر ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه. تهران. 1371. ص 21.

2) واژک مقید ***vāžak-e moqayyed*** **ko‘makchi morfema mustaqil ma’no anglata olmaydi va boshqa yetakchi morfemaga qo‘shiladi. Masalan,** مند ***mand*** **yasovchi morfemasi** کارمند ***kārmand*** **leksemasi,** بان ***bān*** **yasovchi morfemasi** مهربان***mehrebān*** **leksemasi tarkibida.**

Aniqlanishicha, har bir olimning allomorf bo‘yicha o‘z nazariy-ilmiy qarashlari hamda fikrlarining isbotlari mavjud.

Fors tilidagi allomorflar va ularning tasnifi masalasini L. Peysikov chuqur o‘rganib chiqqan hamda fors tilidagi misollari orqali ilmiy yondoshuvlarini bayon qilgan. Olim allomorf tushunchasiga *leksik morfemaning alternantlari* deya ta’rif berib, unga quyidagicha izoh beradi: “Bir morfemaning allomorfi bo‘lishi uchun ularda birlashtiruvchi asosiy belgi, ya’ni umumiy funksional-semantik xususiyat mavjud bo‘lishi lozim. Ma’no va функция umumiyligi bir allomorfema tarkibida joylashsa, qolgan mezonlar nisbiy xarakterga ega bo‘lib, o‘xshashlik masalalarini aniqlashda yordamchi vazifani bajaradi. Ma’no va vazifalar umumiyligi turli allomorflarni birlashtirish imkonini beradi. Demak, ikki yoki undan ortiq elementlar bir morfemaning allomorfi bo‘lishi mumkin”[1]. Shuningdek olim allomorflik hodisasi uchun quyidagi talablarni qo‘yadi:

1) bir ma’no va vazifaga ega bo‘lsalar;

2) o‘xshash qurilmalarda o‘zaro o‘rin almasha olsalar;

3) faqat o‘zi ishlatiladigan o‘rinlarga ega bo‘lsalar;

4) umumiy va o‘xshash tashqi ko‘rinishga, nisbiy fonetik umumiylikka ega bo‘lsalar[2].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda allomorflarni 2 turga bo‘lish mumkin[3]:

1) *Asos tarkibida o‘zaro o‘rin almashib kela oladigan affiksal allomorflar.* Affiksatsiya jaroyonida nafaqat stilistik uslubi, balki fonologik moslashuviga qarab birining o‘rnida boshqasini qo‘llash imkoni mavjud bo‘lgan affiksal allomorflar. Bunda bir affiksal morfema ilmiy yoki badiiy uslubga xos so‘z yasasa, ikkinchi affiksal allomorf og‘zaki uslubni ifoda etuvchi variant yasaydi. Masalan: بر *–bar prefiksi va uning allomorfi* رو *–var*. Ushbu prefikslar bir asos tarkibida o‘rin alamasha oladi: برانداز *[barandāz]* – ورانداز *[varandāz]* – boshdan oyoq kuzatish.

2) Asos tarkibida o‘zaro o‘rin almashib kela olmaydigan affiksal allomorflar. Fonologik jihatdan so‘z yasash jarayonida bir-birining o‘rnida kela olmaydigan affiksal allomorflar. Bunda ba’zan asos va affikslar qo‘shilmasida

[1] Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973. Б. 29

[2] Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973. Б. 29

[3] Taqsimot muallifga tegishli.

ikkita unli ketma-ket kelsa, u holda bo‘shliq paydo bo‘lib, uni to‘ldirish uchun bir undosh tovush orttiriladi. Natijada bir affiksal morfemaning boshqa variantlari hosil bo‘ladi. Masalan: آنه *[āne]* suffiksining گانه *[gāne]*, یانه *[yāne]* hamda وانه *[vāne]* allomorflari. Ushbu suffikslar bir asos tarkibida o‘rin almasha olmaydi. Ularning asosga qo‘shilish uchun alohida o‘z o‘rinlari mavjud. Jumladan, روزانه *[ruzāne]* – kunlik, بچگانه *[bačegāne]* – bolalarga xos, سالیانه *[sāliyāne]* – yillik va آهوانه *[āhuvāne]* – ohuga xos, ohuvash.

Eronlik tilshunos olim Muhammad Javod Mashkur forsiy sifatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Ot so‘z tukumidagi so‘zlarning qanday ko‘rinishda ekanligini hamda qanday holatdaligini bildiruvchi so‘z turkumi sifat (صفت) deyiladi, masalan: مرد بزرگ *[mard-e bozorg] – katta odam,* اسب راهوار *[asb-e rāhvār],* سنگ سفید *[sang-e sefid]* – oq tosh. Bu yerda birinchi kelayotgan so‘zlar موصوف *[mosuf],* ya’ni aniqlanmish bo‘lsa, keyin ikkinchi bo‘lib kelayotgan so‘zlar sifatdir”[1], - deya ta’rif beriladi**.**

Aslida sifatlar fors tilida quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. صفت فاعلی *[sefat-e fāeli]* - Hozirgi zamon sifatdoshi
2. صفت مفعولی *[sefat-e maf’uli]* – O‘tgan zamon sifatdoshi
3. صفت صاده *[sefat-e sādde]* – Sodda sifat
4. صفت مرکب *[sefat-e morakkab]* – Murakkab sifat
5. صفت نسبی *[sefat-e nesbi]* – Nisbiy sifat
6. صفت اشاره *[sefat-e ešāre]* – Ishora sifati
7. صفت مبهوم *[sefat-e mabhum]* – Noaniq sifat
8. صفت جامد *[sefat-jāmed]* – Jamlovchi sifat
9. صفت مشتق *[sefat-e moštaγ]* – Yasama sifat[2]

Ushbu turlar orasida صفت مشتق ***[sefat-e moštaγ]*** yasama sifatlar quyida alohida tadqiq qilinadi. Fors tilida yasama sifatlar ot, sifat, o‘tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, hozirgi zamon fe’l negizi, o‘tgan zamon fe’l negizi hamda olmosh so‘z turkumidagi o‘zaklarga qo‘shimcha qo‘shish orqali vujudga keladi. Tadqiqot davomida fors tilidagi prefikslar orasidan **نا *[nā]* va uning نه *[na]*** prefiksal allomorfi tanlab olindi ular yasagan sifatlarning funksional-semantik xususiyatlari, kontekstda ishlatilishi o‘rganib chiqildi. Unga ko‘ra, **نا *[nā]* prefiksi (نه *[na]* allomorfi)** juda keng valentlikdagi o‘zaklarga, jumladan, ot, sifat, sifatdosh, HZFN (hozirgi zamon fe’l negizi), O‘ZFN (o‘tgan zamon fe’l negizi) hamda olmoshlarga qo‘shilib, “inkor” ma’nosini beruvchi sifatlarni yasaydi.

نا *[nā]* + HZFN modeli asosida:

ناپسند *[nāpasand]* – yoqimsiz, tutruqsiz, be’mani, jirkanch

[1] دکتر محمد جواد مشکور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. تهران. 1346

[2] مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. کورس. 1369

فراهانی تاکید کرد: لذا در صورت عدم عذرخواهی رسمی خانم سحر قریشی، به عنوان نماینده مردم قدرشناس تهرانی پیگیر شکایت مدیریت حقوقی شهرداری تهران از خانم سحر قریشی خواهم بود تا اینگونه رفتارهای ***ناپسند*** تبدیل به هنجار جامعه نگردد.

*Farāhāni takid kard: Lezā dar surat-e adam-e ozrxāhi-ye rasmi-ye xānom-e Sahar γoreyši, be onvān-e namāyande-ye mardom-e γadršenās-e tehrāni peygir-e šekāyat-e modiriyyat-e hoγuγi-ye šahrdāri-ye Tehrān az xāne Sahar γoreyši xāham bud tā ingune raftārhā-ye **nāpasand** tabdil be hanjār jāme' nagardad*[1].

'Farohoni ta'kidladi: agar Sahar Qoreyshi xonim rasman uzr so'ramasa, insoniy qadriyatlarni yaxshi anglaydigan Tehron xalqi vakili sifatida men Sahar Qoreyshi xonimga nisbatan Tehron hokimiyatining huquqiy boshqarmasi ilgari surgan shikoyat bilan shugullanaman, to bunday ***be'mani*** xatti-harakatlar jamiyatda odatiy holga aylanib qolmasin'.

Bu o'rinda ناپسند *[nāpasand]* - **نا** *[nā]* inkor yasovchi prefiksi +**پسند** *[pasand]* hozirgi zamon fe'l negizi yasalmasi shaklida hosil qilingan hamda jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Huddi shu haklda boshqa misollar ham yasalganini kuzatish mumkin. Xususan,

نافهم *[nāfahm]* – befahm, farosatsiz
ناشناس *[nāšenās]* – notanish
ناپزیر *[nāpazir]* – tayyor emas
نادان *[nādān]* – nodon
ناتوان *[nātavān]* – nogiron, kuchsiz, holsiz, jismoniy kamchiligi bor
نازا *[nāzā]* - tug'mas bepusht va boshqalar.

نا *[nā]* + O'ZFN modeli asosida:

نابود *[nābud]* – nobud bo'lgan, ko'zdan yo'q bo'lgan
ناشایست *[nāšāyest]* – noloyiq, nomaqbul

البته خوشبختانه این اتفاق رخ نداد و در ادامه دیاباته هم خودش را کنترل کرد تا واکنش تندی به این رفتار *ناشایست* نداشته باشد.

*Albatte xošbaxtāne in ettefāγ rox nadād va dar edāme-ye diyābāte ham xodeš rā kontrol kard tā vākoneš-e tondi be in raftār-e **nāšāyest** nadāšte bāšad*[2].

'Yaxshiyamki, bu hodisa ro'y bermadi va dibat davomida bu ***nomaqbul*** xatti-harakatga qattiq munosabat bildirmaslik uchun o'zini nazorat qildi'.

Yuqoridagi jumlada ناشایست ***[nāšāyest]*** - **نا** ***[nā]*** inkor yasovchi prefiksi **+شایست** ***[šāyest]*** o'tgan zamon fe'l negizi yasalmasi shaklida hosil qilingan hamda jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda.

نا *[nā]* + O'tgan zamon sifatdoshi modeli asosida:

ناآزموده *[nāāzmude]* – tajribasiz
ناخوانده *[nāxānde]* – savodsiz, o'qimagan
ناشناخته *[nāšenāxte]* – tanilmagan, noma'lum

[1] https://www.javanonline.ir/fa/news/999708/
[2] http://www.isna.ir/news/98110402437/

نا *[nā]* + sifatdosh modeli asosida:

نابینا *[nābinā]* – ko‘r, ko‘zi ojiz

آموزش مهارت های اجتماعی به کودکان ***نابینا*** و کم بینا، با آموزش به کودکان درخود مانده (اوتیستیک) یا دارای دیگر معلولیت ها تفاوت دارد، چون مشکل بزرگ این کودکان کمبود اطلاعات درباره ی نشانه های دیداری رفتارهای اجتماعی است.

*Āmuzeš-e mahārathā-ye ejtemāi be kudakān-e **nābinā** va kambinā, bā āmuzeš be kudakān–e darxord mānde (autistik) yā dārā-ye digar ma’luliyatha tafāvot dārad, čun moškel-e bozorg-e in kudakān kambord-e ettelāāt darbāre-ye nešānehā-ye didāri-ye raftārhā-ye ejtemāyi ast*[1].

‘Ko‘zi ojiz va qisman ko‘rish qobiliyatiga ega bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish autizm yoki boshqa nogiron bolalarni o‘qitishdan farq qiladi, chunki bu bolalar uchun katta muammo ijtimoiy xatti-harakatlarning vizual usullari to‘g‘risida ma’lumotlarning yetishmasligidir’.

Ushbu o‘rinda نابینا *[nābinā]* - **نا** *[nā]* inkor yasovchi prefiksi +***بینا*** *[binā]* hozirgi zamon sifatdoshi yasalmasi shaklida hosil qilingan. Jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda.

نا *[nā]* + sifat modeli asosida:

نامرتب *[nāmorattab]* – betartib

وضع اتاق **نامرتب تر** از قبل نیست. به جز روی تخت و لباس های کف اتاق که از دیروز تعدادشان بیشتر شده چیزی تغییر نکرده است.

*Vaz’-e otāy **nāmorattabtar** az γabl nist. Be joz’e ru-ye taxt va lebās hā-ye kaf –e otāy ke az diruz te’dādaš bištar šode čizi taγiir nakarde ast*[2].

‘Xonaning holati oldingidan ko‘ra ***betartibroq*** emas. Faqat karavat va pol ustidagi kiyimlarning kechagiga nisbatan ko‘payganini hisobga olmaganda boshqa hech narsa o‘zgarmagan’.

Bu yerda نامرتب *[nāmorattab]* - **نا** *[nā]* inkor yasovchi prefiksi + مرتب *[morattab]* tub sifat modeli asosida hosil qilingan hamda jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Huddi shu haklda boshqa misollar ham yasalganini kuzatish mumkin. Jumladan,

نادرست *[nādorost]* – noto‘g‘ri

نامرد *[nāmard]* – nomard

ناپایدار *[nāpāydār]* – beqaror, dardoshsiz, chidamsiz

ناراض *[nārāz]* – norozi

ناپاک *[nāpāk]* – nopok

نا *[nā]* + ot modeli asosida:

ناراحت *[nārāhat]* – besaranjom, behalovat, halovati buzilgan

کار که به اینجا کشید مرد کاسب **ناراحت** شد و پایش را محکم کشید تا خودش را از آن چیزی که نمی دانست چیست، رها کند.

[1] https://amoozak.org/content/

[2] مهدی اله یاری. سه روز آخر. پاریس. 2015

Kār ke be injā kešid mard-e kāseb ***nārāhat*** *šod va pāyaš rā mahkam kešid ta čizi ke nami dānest čist rehā konad*[1].

‘Ish shu darajaga borib yetdiki, kosib yigit ***behalovat*** bo‘la boshladi, o‘zi ham bilmaydigan bu narsadan xalos bo‘lish uchun oyog‘ini mahkam tiray boshladi’.

Yuqoridagi ناراحت *[nārāhat]* – **نا** *[nā]* inkor yasovchi prefiksi +راحت *[rāhat]* – ot modeli asosida hosil qilingan bo‘lib, jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Huddi shu haklda boshqa misollar ham yasalganini quyidagi yasalmalarda kuzatish mumkin:

ناجان *[nājān]* – kuchsiz

ناشکر *[nāšokr]* – noshukr

ناامید *[nāomid]* – noumid

ناارام *[nāārām]* – beorom, oromsiz

ناخوش *[nāxuš]* – noxush, xafa

چون می دانست عمر آدمیان توی این دو روزهٔ زندگی به هر حال خوش یا***ناخوش*** و خاک نشینی و کاخ نشینی می گذرد.

Čun mi dānest omr-e ādamiyān tu-ye in do ruze-ye zendegi be har hāl-e xoš yā ***nāxuš*** *va xāk nešini va kāj nešini mi gozarad*[2].

‘Chunki u shu ikki kunlik hayotda odamzot umrini har qanday holatda xursand yoki ***xafa*** holatda, ba’zan tuproq ustida ba’zan esa saroyda o‘tkazishini bilardi’.

ناصواب *[nāsavāb]* – savobsiz, savob ish qilmaydigan

با دیدن گوهری پیدا کرده بودم به او گفتم که اگر من اهل کار **ناصواب** بودم خیلی راحت این سنگ قیمتی را می فروختم و خودم را این طور انگشتنمای خاص و عام نمی کردم.

Bā didan-e govhari peydā karde budam be u goftam ke agar man ahle kār-e ***nāsavāb*** *budam xeyli rāhat in sang-e γeymati rā mi foruxtam va xodam rā in tour angoštnamāi xās va ām nami kardam*[3].

‘Gavhar topib olganimni ko‘rib unga dedim: agar men ***savob ish qilmaydigan*** odamlardan bo‘lganimda, bu toshni osongina sotardim va bunchalik sarson-u sargardon bo‘lib yurmasdim’.

Yuqoridagi ناصواب *[nāsavāb]* – **نا** *[nā]* inkor yasovchi prefiksi +صواب *[savāb]* – ot modeli asosida hosil qilingan bo‘lib, jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda.

نا *[nā]* + olmosh modeli asosida:

ناچیز *[nāčiz]* – ahamiyatsiz, qadrsiz

ناکس *[nākas]* - yaramas, nakas, past

نه *[na]* prefiksal allomorfi ham HZFN, O‘ZFN, ot, sifat hamda sifatdoshlarga qo‘shilib, salbiy ma’no beruvchi sifatlarni yasashda keng qo‘llaniladi. **نه** *[na]*

[1] محمد میرکیانی. قصه های شب چله. تهران. 1337

[2] O‘sha asar. B. 45.

[3] محمد میرکیانی. قصه های شب چله. تهران. 1337

prefiksi asosga qo‘shilgan paytga qo‘shimcha tarkibidagi ه*[e]* yozuvda tushib qoladi, ammo talaffuzda saqlanib qoladi. Masalan:

نه *[na]* + HZFN modeli asosida:

نزا = نه + زا *[nazā]* - bepusht

نفهم *[nafahm]* – befahm

من از دست این شاگرد***نفهم*** تو شکایت می کنم، من پدرش را در می آورم.

*Man az dast-e in šāgerd-e **nafahm**-e to šekāyat mi konam, man pedaraš rā dar miyāvaram*[1].

‘Men sening bu ***behafm*** shogirding ustidan shikoyat qilaman, dadasini chaqirtiraman’.

Bu jumlada نفهم *[nafahm]* – befahm – **نه** *[na]* inkor yasovchi prefiksi +فهم *[fahm]* – hozirgi zamon fe’l negizi shaklida hosil qilingan bo‘lib, jumla tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Huddi shu model asosida boshqa misollar ham yasalganini kuzatish mumkin. Jumladan,

ندار *[nadār]* – kambag‘al bechora, faqir

نسوز *[nasuz]* – yonmaydigan, yonmas, kuymas

نه *[na]* + O‘ZFN asosida:

نپخته *[napoxte]* – pishmagan, tayyor emas, tajribasiz

در رژیم غذایی خام خواری ، تنها از غذاهای***نپخته*** و غذاهایی که در طبیعت وجود داشته و کسی آنها را آماده مصرف نکرده است استفاده می کنند.

*Dar režim-e γazāi-ye xāmxori, tanhā az γazāhā-ye **napoxte** va γazāhāyi ke da tabiat vojud dāšte va kasi ānhā rā āmāde masraf nakarde ast estefāde mi konand*[2].

‘Xom oziq-ovqat ratsionida faqat ***pishmagan*** ovqatlar va tabiiy va hech kim tayyorlamagan ovqatlardan foydalaniladi’.

Bu o‘rinda نپخته *[napoxte]* - **نه** *[na]*inkor yasovchi prefiksi + پخته *[poxte]* o‘tgan zamon sifatdoshi modeli asosida yasalgan va kantekstda aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Huddi shu model asosida boshqa misollar ham yasalganini kuzatish mumkin. Jumladan,

ندیده *[nadide]* – misli ko‘rilmagan, mislsiz

نسنجیده *[nasanjide]* – mulohazasiz, yengiltak, o‘ylamasdan ish qiladigan (odam)

نتراشیده *[natarāšide]* – soch-soqoli olinmagan

نخراشیده *[naxorāšide]* – 1)malakasiz, tajribasiz; 2) yoqimsiz, qo‘pol; 3) tarbiyasiz,

نه *[na]* + Ot modeli asosida:

نستوه *[nasotuh]* – charchamas, tolmas, bardoshli

Ba’zan **نا** *[nā] hamda* **نه** *[na]* prefiksal allomorflari o‘zaro o‘rin almashib kelishlar mumkin. Masalan:

[1] رسول ارونقی کرمانی. امشب دختری می میرد.تهران. ۱۳۴۸

[2] http://daneshnameh.roshd.ir/mavara/mavara-index.php?page

نا *[nā] va* **نه** *[na]* + O‘ZFN modeli asosida:

ناپخته *[nāpoxte]* – **نپخته** *[nāpoxte]* – xom, pishmagan

نا *[nā] va* **نه** *[na]* + HZFN modeli asosida:

نازا *[nāzā]* - نزا *[nazā]* – bepusht, tug‘mas

نادار *[nādār]* – ندار *[nadār]* – kambag‘al

نادار *[nādār]ga misol:*

پیرمرد ***نادار*** است ولی ایمان کامل و عاقبت بخیری تنها آرزوهایی هستند که دارد.

Pirmard ***nādār*** *ast vali imān-e kāmel va āγebat-e bexeyri tanhā ārzuhāyi hastand ke dārad*[1].

“Mo‘ysafid ***kambag‘al***, lekin komil iymonli va faqat yaxshi yakundan umidvor kishi edi”.

ندار *[nadār] ga misol:*

مرد *ندار* به این کار تن نداد و در نتیجه کار آنها به دادگاه افتاد و هر دو به راه افتادند به‌طرف شهر.

Mard-e ***nadār*** *be in kār tan nadād va dar natije kār-e ānhā be dādgāh oftāde va har do be rāh oftādand be taraf-e šahr*[2].

‘Kambag‘al kishi bu ishni qilishni xohlamadi, natijada ularning ishlari sudga o‘tdi va ikkalasi ham shaharga yo‘l olishdi’.

نا *[nā]* prefiksi **نه** *[na]* prefiksal allomorfidan ko‘ra nisbatan ko‘proq ishlatiladi. Ammo har ikkisining vazifasi hamda ishlatilishi bir xildir. Ya’ni vazifa jihatdan har ikki qo‘shimcha “salbiy” va “inkor” ma’nodagi sifatlarni yasash uchun xizmat qiladi hamda har ikki prefiksal allomorflar yasagan so‘zlar qo‘llanilish doirasi stilistik jihatdan farq qilmaydi va turli uslubdagi matnlarda bemalol qo‘lanila oladi. Ushu prefiksal allomorflar ba’zi o‘rinlarda bir-birining o‘rnida almashinib kela oladi. Jumladan, ناپخته *[nāpoxte]* – نپخته *[napoxte]* – xom, pishmagan, نازا *[nāzā]* - نزا *[nazā]* – bepusht, tug‘mas, نادار *[nādār]* – ندار *[nadār]* – kambag‘al kabi so‘zlar aynan bir uslubga tegishli bo‘lgan matnlarda o‘rin almashib kela oladi. نا *[nā]* prefiksi va uning نه *[na]* prefiksal allomorfi bir-biriga semantik jihatdan allomorfligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Allomorflar tilshunoslik jihatidan tahlil qilinganda, bir mofemaning variantlari hisoblanadi. Allomorflar vazifasiga ko‘ra turli bo‘lishi mumkin, jumladan, asos allomorf va affiksal allomorf. Affiksal allomorflar ham o‘z o‘rnida 2 turga bo‘linadi: so‘z yasovchi affiksal allomorf va shakl yasovchi affiksal allomorf. Ushbu maqolaning asosiy obyekti bo‘lmish so‘z yasovchi affiksal allomorflarni tahlil qilish uchun tanlab olingan prefiksal allomorflar, ya’ni **نا** *[nā]* prefiksi va uning **نه** *[na]* prefiksal allomorfi bilan yasalgan sifatlar universal bo‘lib, hamma uslublardagi matnlarda uchratish mumkin. Bu qo‘shimchalar ma’noviy jihatdan allomorf hisoblanadi hamda ushbu

[1] http://shahraraonline.ir/news/86542

[2] https://vista.ir/m/c/f7kb0/

prefiksal allomorflar orqali yasalgan sifatlar fors tili lug‘at boyligini boyitishga va turli stilistik variantlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati

1. Abdiev M. (1991) O‘zbek tilida shaxs nomlarining affiksal usul bilan yasalishi: Fil.f.nomz. ... dis. – Toshkent.
2. Aliu D. (2011) Morfonologiya russkix prefiksov i suffiksov. Moskva.
3. Anvari H., Ahmadi G. (2006) Dastur-e zabon-e forsi. 2. Tehron.
4. Bloomfield L. (1933) Language. (USA).
5. Eleyori M. (2105) Se ruz-e oxar. Parij.
6. Hojiyev A. (2002) Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent.
7. Irisqulov M. (2009) Tilshunoslikka kirish. Toshkent.
8. Kalbosi I. (1992) Soxt-e eshteqoqi-ye voje. Tehron.
9. Kermoni R. (1995) Emshab do‘xtari miravad. Tehron.
10. Mirkiyoni M. (1994) Qesseho-ye shab-e chelle. Tehron.
11. Moayniyon M. (1990) Dastur-e zabon-e forsi. Tehron.
12. Ostrovskiy B. (1977) Cheredovaniya allomorf v persidskom yazike.
13. Peysikov L. (1973.) Ocherki po slovoobrazovaniyu persidskogo yazika. Moskva
14. Rasulov R. (2010) Umumiy tilshunoslik. Toshkent.
15. Rubinchik Yu. (2001*)* Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazika. Moskva
16. Sapayev Q. (2009) Hozirgi o‘zbek tili (Morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). Toshkent.
17. Timofeev K. (1986) Variantnie otnosheniya v leksike. Novosibirsk
18. Vohidov A. (2010) Fors tilida so‘z yasalishi. Toshkent.
19. Xonlari P. (2009) Dastur-e zabon-e forsi. Tus.

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

AMONOV MEXROJIDDIN
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Tasavvuf ta’limotiga oid manbalar tahlili (Zarafshon vohasi XV–XIX asrlar)

Annotatsiya: *Maqola XV–XIX asrlarda Zarafshon vohasi tasavvuf tarixiga oid manbalardagi qimmatli ma’lumotlar mujassamdir. XV–XIX asrga kelib Samarqand va Buxoroda tariqat shayxlarining faolligi birmuncha susaygan bo‘lsa-da, ildizi xojagon tariqatiga borib taqaladigan naqshbandiya tariqati vohada keng tarqala boshladi. Bu tariqatning mazkur hududda yetakchi tariqatga aylanishi XV–XIX asrlarda yashab o‘tgan tariqat peshvolari Xoja Alouddin Attor, Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A’zam Dahbediy, Muhammad Husayn kabi tariqat namoyandalari nomi bilan bog‘liq. Afsuski, ularning hayoti va ma’naviy merosi, tariqatdagi faoliyatlari hanuzgacha alohida tadqiqot mavzusi sifatida to‘liq o‘rganilmagan.*

XV–XIX asrlarda Zarafshon vohasi tasavvuf tarixiga oid “Kashful mahjub va rashful matlub”, “Silsilayi sharif Hazrat Naqshbandiya”, “Nasabnomayi Hazrat Xoja Buzurg”, “Silsilayi sharif Hazrat Qodiriya” va “Silsilayi sharif Hazrat Chishtiya”, “Silsilatul orifin va tazkiratus siddiqin”, “Sirojus solikin va latoyiful orifin”, “Hujjatul komilin fiy atvorus solikin”, “Miftohut tolibin”, “Irshodul muridiyn”, “Muxtasari odobul muridin”, “Bo‘stonul muhibbin” kabi yozma manbalarda ishqiya, kubroviya, naqshbandiya va yassaviya tariqatiga oid nodir birlamchi manbalar hisoblanadi.

Zarafshon vohasida ishqiya, kubroviya, naqshbandiya, yassaviya kabi tasavvuf tariqatlari tarixiga oid nodir manbalarni o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, tariqat tarixiga oid nodir qo‘lyozmalar muhim o‘rin tutadi. Maqolada tariqatlar tarixiga oid bir qator yozma manbalar tahlil qilinadi.

Turli tarixiy manbalarni tadqiq etish orqali o‘tmishning noma’lum jihatlarini ochib beradi, tarix fanining manbashunoslik, tarixshunoslik, islomshunoslik xronologiya kabi tarmoqlari uchun muhim materiallarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: *Ishqiya, kubroviya, naqshbandiya, yassaviya, silsila, qo‘lyozma, muhr.*

Аннотация: *Статья содержит сенные сведения об истории суфизма Зеравшанского оазиса в XV–XIX веках. К XV–XIX векам активност шейхов тарикаты в Самарканде и Бухаре несколко снизилас, но в оазисе стала широко распространятся тариката Накшбанди, корни которой восходят к тарикате*

Ходжаган. Превращэние этой тарикаы в ведущую тарикату в этом регионе связано с именами таких лидеров тарикаты, как Ходжа Алауддин Аттар, Ходжа Ахрор Вали, Махдуми Азам Дахбеди, Мухаммад Хусейн, живших в 15-19 веках. К сожалению, их жизн и духовное наследие, деятелност в тарикате до сих пор не изучены в полной мере как отделная тема исследования.

«Кашфул махджуб ва рашфул матлуб», «Силсилаи шариф хазрат Накшбандия», «Насабномай хазрат Ходжа Бузург», «Силсилаи шариф хазрат Кадирия» и «Силсилаи шариф хазрат Чиштия», «Силсилатул орифин ва тазкиратус» об истории суфизма Зеравшана оазис в XV–XIX вв. сиддикин», «Сирожус соликин ва латойифул орифин», «Худжатул комилин фий атворус соликин», «Мифтохут талибин», «Иршодул муридин», «Мухтасари одобул муридин», «Бўстонул мухиббин» к тарикаты Ишкия, Кубровия, Накшбанди и Яссавия являются редкими первоисточниками.

В Зарафшанском оазисе важно изучать редкие источники, связанные с историей суфийских тарикат, таких как Ишкия, Кубровия, Накшбандия и Яссавия. Особое значение имеют редкие рукописи, связанные с историей тарикаты. В статье анализируется ряд письменных источников по истории тарикат.

Путем исследования различных исторических источников она раскрывает неизвестные аспекты прошлого, дает важные материалы для таких отраслей исторической науки, как источниковедение, историография, исламоведение, хронология.

Ключевые слова: *Ишкия, кубровия, накшбандия, яссавия, силсила, рукопис, тюлень.*

Abstract: *The article contains valuable information about the history of Zarafshan oasis mysticism in the XV-XIX centuries. By the 15th-19th centuries, the activity of the sheikhs of the tariqa in Samarkand and Bukhara decreased somewhat, but the Nakshbandi sect, whose roots go back to the Khojagan tariqa, began to spread widely in the oasis. The transformation of this sect into the leading tariqa in this region is connected with the names of tariqa leaders such as Khwaja Alauddin Attar, Khwaja Ahror Vali, Makhdumi Azam Dahbedi, Muhammad Husain, who lived in the 15th–19th centuries. Unfortunately, their life and spiritual heritage, activities in the tariqa have not yet been fully studied as a separate research topic.*

"Kashful mahjub wa rashful matlub", "Silsilai sharif Hazrat Nakshbandiya", "Nasabnomai Hazrat Khoja Buzurg", "Silsilai sharif Hazrat Qadiriya" and "Silsilai sharif Hazrat Chishtiya", "Silsilatul orifin wa tazkiratus siddiqin", about the history of Sufism of the Zarafshan oasis in the XV–XIX centuries. "Sirojus solikin wa latoyiful orifin", "Hujjatul komilin fiy atvorus solikin", "Miftohut talibin", "Irshodul muridin", "Mukhtasari odobul muridin", "Bo'stonul muhibbin" to the Ishqiya, Kubroviya, Nakshbandi and Yassawiya sects are rare primary sources.

In the Zarafshan oasis, it is important to study rare sources related to the history of Sufi tariqas, such as Ishkiya, Kubroviya, Nakshbandiya and Yassaviya. Rare manuscripts related to the history of the tariqa are of particular importance. The article analyzes a number of written sources on the history of the tarikat.

Through the research of various historical sources, it reveals unknown aspects of the past, provides important materials for branches of historical science such as source studies, historiography, Islamic studies, and chronology.

Key words: *Ishqiya, kubroviya, nakshbandiya, yassaviya, silsila, manuscript, seal.*

Kirish. XV–XIX asrlarda Zarafshon vohasida faoliyat olib borgan tasavvuf tariqatlari tarixini yorituvchi yozma kitoblar va tarixiy hujjatlarda voqealar aynan muayyan bir murshid yoki uning avlod-u shogirdlari tomonidan voqealar bayon etilganligi bilan ahamiyatlidir. Tariqat tarixiga oid manbalar orqali hududlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi holati haqida aniq faktlarni tadqiq etish mumkin.

Maqsad va vazifa. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad XV–XIX asrlarda Zarafshon vohasida tasavvuf ta'limotiga oid manbalarni aniqlash hamda ularning tarixini o'rganish va hududlar kesimida shaxsiy fondlarda saqlanayotgan manbalarni o'rganishdan iborat

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, taqqoslash, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy, mikrotarixiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar. Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi qo'lyozmalar xazinasida 606 jild qo'lyozma, 795 jild toshbosma kitob va 114 ta tarixiy hujjatlar mavjud. Jami 1189 ta asar XIV–XX asrlarga oid arab, fors, turk, tatar, ibron va boshqa Sharq xalqlari tillarida yozilgan. Shundan, Tasavvufga oid 57 ta qo'lyozma asar mavjud.

Markaz qo'lyozmalar fondida MR 283 raqam ostida saqlanayotgan "Majmua"da ikkita asar mavjud: "Lubob ul-hadis" (Sara hadislar) va "Kashf ul-mahjub va rashf ul-matlub" (Qalb sirlarining kashf etilishi).

"Lubob ul-hadis"da odob-axloqqa oid hadislar jamlangan. Asar muallifi hadis, tafsir, fiqh, tilshunoslik kabi ko'pgina ilm sohalarining mohir bilimdoni taniqli olim Jaloliddin Suyutiydir.

Kitob qirq bobdan iborat bo'lib, har bir bob o'nta hadisni o'z ichiga olgan. Qo'lyozma nusxani Muhammadamin ibn Shayx Abulhasan ibn Shayx Abu Yazid (Boyazid) 824/1421-yilda ko'chirgan. Asar 21 varaq (1^{b}-21^{a}). 15 qator; mistara; poygir; siyohi qora; bob va fasllari qora siyohda; sharq qog'ozi; kurrosa 8; matn o'lchami: 13×10 cm.; varaq o'lchami: 17×12,5 csm.

"Lubob ul-hadis" hadis ilmiga oid manba bo'lsa-da, ammo tasavvuf ta'limotining asosiy manbayi hadisdir. Shu asosda, asarning bu nusxasi 1421-yilda Muhammadamin tomonidan ko'chirilgani ahamiyatlidir. Kotib Shayx Abulhasan Ishqiy ibn Shayx Abu Yazid, ya'ni ishqiya tariqati shahzodalaridan hisoblanadi.

2. MR 283/II – "Kashf ul-mahjub va rashf ul-matlub".

Asarni Abu Bakr ibn Xoja Hoji 802/1399-yilda yozgan (Xoja hoji, Abu Bakr (XV)– 24^{a} varaq).

Kitob muqaddima, 10 bob va xotimadan tarkib topgan. Shayx Mahmud ibn Shayx Abulhasan ibn Shayx Boyazid ibn Shayx Muxtor Ishqiy va ishqiya tariqati namoyandalari maqomotiga bag'ishlangan asarning nodir nusxalaridan biri hisoblanadi.

Asar 69 varaq (24^a-93^b). 13 qator; mistara; poygir; siyohi qora; bob va fasllari qizil siyohda; Sharq qog‘ozi; kurrosa 8; matn o‘lchami: 10,8×8,1 cm; varaq o‘lchami: 17×12,5 cm.

Kitob 24^a varaqdan boshlangan bo‘lsa-da, asarning *“basmala”* qismi mavjud emas.

Ushbu asarning yana bir nusxasi Eron Malik milliy kutubxonasida saqlanadi. Muzey fondi (inv № 1393.04.04137/068)da Muhammad Sharif tomonidan 1044/1634-yilda ko‘chirilgan. Kitob (va fonddagi 15000 mingdan ortiq manbalar)ni Hoji Husayn Oqo Malik hadya qilgan.

“Kashful mahjub va rashful matlub” asari muqaddimasida istilohlar haqida so‘z yuritilgan; birinchi bobda tavba, muhosaba, inobat, tafakkur, tazakkur, e’tisom, firor, riyozat, samo‘; ikkinchi bobda xavf, as’hof, xushu’, axnob, zuhd, vara’, rijo haqida; uchinchi bobda duo, muroqaba, hurmat, ixlos, istiqomat, tavakkul, siqa, taslim; to‘rtinchi bobda sabr, rizo, shukr, hayo, sidq, iysor, xulq, tavozi’, futuvvat; beshinchi bobda qasd, azm, irodat, adab, yaqin, zikr, faqir, murod; oltinchi bobda ehson, ilm, hikmat, basirat, farosat, ta’zim, ilhom, sakina, himmat; yettinchi bobda muhabbat, g‘ayrat, shavq, vujud, zavq; sakkizinchi bobda lahza, vaqt, safo, surur, sar, nafs, g‘urbat, g‘iybat, tamkin; to‘qqizinchi bobda mukoshafa, mushohada, qabz, sukr, ittisol, fazoil; o‘ninchi bobda ma’rifat, fano, baqo, haqiqat, tajrid, tafrid, jam’, tavhid; xotimada tavajjuh bayoni zikr etilgan.

Miyon Fazl Ahmad naqshbandiya-mujaddidiya maktabi tarbiyalanuvchilaridan biri bo‘lib, yoshligi Peshovar shahrida va asosiy faoliyati Buxoroda o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan, umrining oxirini yana Peshovarda o‘tkazib, mazkur shaharda 1232/1816-yilda vafot etgan.

Amir Shohmurod va Amir Haydar Miyon Fazl Ahmadni o‘zlariga pir tutganligi e’tiborga olinsa, u naqshbandiya-mujaddidiya tariqatidagi yetuk murshidlardan biri ekanligi ma’lum bo‘ladi. Uning ustozi Shoh Muhammad Raso, uning ustozi Muhammad Porso, uning ustozi Hujjatulloh Naqshbandi Soniy, uning ustozi Miyon Ma’sum va ul zotning ustozi (va otasi) Imom Rabboniydir.

Miyon Fazl Ahmadning otasi shayx Niyoz Ahmad[1], o‘g‘li Miyon Buzurg Fazl Ahad Ma’sumiy (vaf. 1286/1870)[2], yana bir o‘g‘li Miyon G‘ulom Qodir[3] va nabirasi Miyon Fazl Quddus (1324/1904) Xo‘qandda yashaganligi aytiladi.

Shoh Fazl Ahmad Ma’sum ibn Shayx Niyoz Ahmad ibn Shayx Mir Sag‘ir Ahmad ibn Muhammad Fazlulloh ibn Shayx Abdulqodirning nAQSHbandiya, qodiriya va chishtiya tariqatlari silsilasi quyidagicha: Ahmad Sirhindiy, Muhammad Ma’sum, Xoja Muhammad Naqshband, Muhammad Ubaydulloh,

[1]Abdusattor Jumanazar. Mashrab. – T.: “Akademnashr”, 2015. – B. 179.

[2] Necdet Tosun. Orta Asya’da tasavvuf // Orta Asya’da ıslam (temsilden fobiye). Cılt:I. Ankara-Türkistan, 2012.

[3] Abdusattor Jumanazar. Mashrab. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 179–180.

Xoja Muhammad Porso, Shoh Muhammad Raso va Miyon Fazl Ahmad orqali qodiriya va chishtiya silsilasi qayd etilgan.

Risolaning “Nasabnomayi Hazrat Xoja Buzurg” bo‘limida Xoja Bahouddin Naqshband ibn Amir Sayyid Jaloliddin ibn Amir Burhon ibn Amir Sayyidxon ibn Amir Sayyid Abdulloh ibn Amir Zaynulobiddin ibn Amir Sayyid Qosim ibn Amir Sayyid Sha’bon ibn Amir Sayyid Burhoniddin Qilich ibn Amir Sayyid Mahmud Rumiy ibn Amir Sayyid Buloq ibn Amir Sayyid Naqib ibn Amir Sayyid Xilvatiy ibn Amir Sayyid Faxriddin ibn Amir Sayyid Mahmud Ali Akbar ibn Imom Hasan Askariy ibn Imom Ali Naqiy ibn Imom Muhammad Taqiy ibn Ali Muso Rizo ibn Imom Muso Kozim ibn Imom Ja’far Sodiq ibn Imom Muhammad Boqir ibn Imom Zaynulobidin ibn Imom Husayn ibn Ali karramallohu vajhahu shajarasi berilgan.

Risola Basmala bilan boshlangan, “Silsilayi sharif Hazrat Naqshbandiya”, “Nasabnomayi Hazrat Xoja Buzurg”, “Silsilayi sharif Hazrat Qodiriya” va “Silsilayi sharif Hazrat Chishtiya” nomli sarlavhalar qo‘yilgan. Risolaning oxirida “Ijozatnoma” sarlavhasi ostida, Basmala bilan Muhammad Dog‘istoniyga tegishli 13 qatorli irshodnoma matni keltirilgan. Asar olti misradan iborat bayt bilan yakunlangan.

Bahouddin Naqshband avlodlaridan No‘mon xoja O‘rta Zarafshon vohasida yashagani kuzatuvlardan ma’lum bo‘ldi. No‘mon xoja naqshbandiy ibn mulla Sayid Shodmon xoja ibn Sayid Hamid xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Sodiq xoja ibn Eshon Sayid Mahmud xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Ya’qub xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Amin xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Sodiq xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Yusuf xoja ibn Eshon Sayid Muhammad Avaz xoja ibn Eshon Sayid Abdurahmon xoja ibn Sayid Eshon Islom xoja ibn Eshon Sayid Hodi xoja ibn Eshon Sayid xoja Mahmud ibn Eshon Sayid Mirak Muhammad ibn Eshon Sayid xoja Mir Ali ibn Sayidatun niso Bibi Sarvar Xotun binti Hazrat Xoja Bahoul haq vad din Naqshband (alayhirrahma, quddisa sirruh). Ushbu shajara matni 1304/1886-yilda yozilgan. Bugungi kunda Paxtachi tumanida yashovchi mazkur avlod vakillari xonadonida saqlanmoqda. Fors tilida yozilgan hujjat yaxshi saqlangan. Hujjatning ikki yon hoshiyasida, yuqoridan pastga qadar 27 ta turli shakldagi muhr bosilgan. Matn 13 qatordan iborat.

Bahouddin Naqshbandning kichkina qizi Bibi Sarvar Xotun Mavlono Abulxayr Turkistoniyga[1] turmushga chiqqan.

Muhammad ibn Burhoniddin (Muhammad Qozi)ning “Silsilatul orifin va tazkiratus siddiqin” (*Dunyo qo‘lyozmalar fondlarida asarning bir qator nusxalari mavjud*) asari 885/1480-yilda yozilgan.

[1] Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy. Matlabut tolibin” (Toliblar matlabi) // Tarjimonlar: G‘.Karimiy, E.Mirkomilov –T.: “Movarounnahr”, 2016. – B. 59.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11413 raqam ostida saqlanayotgan nusxasi ko‘chirilgan yili va xattot noma’lum, qo‘lyozma 276 [a-b] varaqdan iborat.

Eron milliy kutubxonasi fondidagi nusxasi Zarafshon vohasining Dahbed mavzesida barot oyining 14-kuni ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 332 [a-b] varaqdan iborat bo‘lib, birinchi sahifasida qalam bilan keyinchalik 1112/1700 raqami ko‘rsatilgan. Albatta, bu raqam qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sanasi deb xulosa chiqarishga chaqirmaydi. Asarning kolofon qismida ikkita muhr urilgan, unda (bittasini o‘qish imkoni bo‘lmadi) Muhammad Husayniy ismi yozilgan. Sanasi ham berilgan, hijriy 12 asr oxirgi ikkita raqamini o‘qish imkoni bo‘lmadi.

Asar Xoja Ubaydulloh Ahrorga hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

Kitob muqaddima va uch fasl hamda xotimadan tarkib topgan. Birinchi fasl Hazrat Eshon (Xoja Ahror Valiy) va xojagon silsilasi azizlari haqida so‘z yuritilgan.

Zikr talqini Hazrat Rasulullоh sollollohu alayhi vasallamning muborak dillaridan Abu Bakr Siddiqqa o‘tdi. Keyin bu saodat Salmon Forsiyga o‘tdi. Undan Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr Siddiqqa o‘tdi. U kishidan Ja’far Sodiqqa, keyin Boyazid Bastomiyga o‘tdi. Undan shayx Abul Hasan Xaraqoniyga, undan shayx Abul Qosim Gurgoniy Tusiyga, undan shayx Abu Ali Farmadiy Tusiyga, undan shayx Abu Yusuf Hamadoniyga o‘tdi. U kishidan zikr talqini yanada quvvati oshib, to‘rt buzurgvor (xalifa-shogird)ni tarbiya qildilar. To‘rtoviga ham tariqat da’vatiga ijozat berdilar. Birinchisi Abdulloh Barraqiy, keyin Xoja Hasan Andoqiy, uchinchisi Ahmad Yassaviy va oxirgisi Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniydir.

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy esa Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Orif Revgariy va Xoja Avliyo Kalonga ijozat berdi.

Xoja Orif Revgariydan Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviyga o‘tdi. Undan Xoja Ali Romitaniyga, undan Xoja Muhammad Bobo Samosiyga o‘tdi. Undan Amir Kulolga, undan Xoja Bahouddinga o‘tdi. Va xufiya zikrga mashg‘ul bo‘ldi. Xoja Muhammad Bobo Samosiy Amir Kulolga: Men seni qanday tarbiyat etgan bo‘lsam, farzandim Bahouddinni ham xuddi shunday parvarish qilgin va shafqatni darig‘ tutmagaysan, deb tayinlaydi. Shu tariqa Bahouddin Amir Kuloldan zikr ta’limini oldi.

Mavlono Muhammad Qozi xojagon silsilasini shu yerga qadar Muhammad Hofiz Muhammad Porso yozishmalari orqali naql qilganini ta’kidlagan.

Ikkinchi fasl latif xabarlar va go‘zal majlislar to‘g‘risida; uchinchi fasl (Xoja) Eshondan zuhur bo‘lgan xoriq odat va karomatlar haqida bayon qilingan. Asarning xotimasida axloq sifatlari va bu toifa haqida turli hikoyatlar zikr etilgan.

Mavlono Ubaydulloh Samarqandiy “Sirojus solikin va latoiful orifin” asarining 1295/1877-yilda ko‘chirilgan nusxasi 297 varaqdan iborat. Asar naqshbandiya tariqati murshidi Mavlono Lutfulloh Chustiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

Mavlono Lutfulloh Chustiy haqida dastlabki ma’lumotlar rus sharqshunoslari izlanishlarida [1] uchraydi. Boshqa izlanishlarda [2] (Babajanov, Bakhtiyor. (1998) Babajanov, Bakhtiyor. (1999) bir qator birlamchi manbalar tahlil qilingan, o‘zbek tiliga tarjima qilingan[3] (Ohangaroniy, Muhammad Muftiy. (2002).

Mavlono Lutfulloh Chustiy faoliyatiga bag‘ishlangan Muhammad Muftiy Ohangaroniyning “Mavlono Lutfulloh manoqibi”, Ubaydulloh Naqshbandiy Samarqandiyning “Sirojus solikin va latoyiful orifin” (Soliklar yulduzi va oriflar haqida go‘zal latoiflar), Muhammad Rahim qayta ishlagan “Sirojus solikin” asarlari to‘g‘risida B.Bobojonov tadqiqotlarida yoritilgan.

Mavlono Lutfulloh Chustiy Abu Bakr Siddiq avlodidan ekani manbalarda qayd etilgan. 1509-yil Samarqandga, Xoja Ahror Valiy shogirdi Muhammad Qozidan tasavvuf ilmini o‘rganish maqsadida keladi. Ustozi vafoti (921/1515-yil)dan keyin Maxdum A’zam Dahbediyga shogird tushadi.

Asarning 244[a]-244[b] varag‘ida shogirdlari ro‘yxati keltirilgan: Xoja Do‘st (Xoja Mahdumzoda), Mavlono Nizomiddin Ahmad (kuyovi), Xoja Is’hoq (kuyovi), Bobo xoja (Xovand Tohur avlodi), Mavlono Darvesh Muhammad Marg‘inoniy, Mavlono Yusuf Ali, Qurbon G‘urumsoroniy, Mavlono Sayid Toshkandiy, Mulla Muhammad, Qozi Abdulkarim, Mahmud xoja Samarqandiy, Qozi Muhammad Amin Hisoriy, Shayx Zunnun Shikastiy, Mir Fozil Ali Kandbodomiy, Mavlono Shamsiddin, Mir Xorazmiy Samarqandiy, Hoji Shuhratiy Ohangaroniy, Mavlono Muhammad Qozoq, Mavlono Qosim Dehnaviy Hisoriy, Mavlono Abul Muslim, Shayx Fathulloh, Shayx Boqi O‘zbak, Mavlono Abdurahim Andakoniy, Muhammad Rabotiy, Mavlono Muhammad Buxoriy, Shayx Fathulloh Zangi Atoiy, Mavlono Tolib Toshkandiy, Mavlono Tursun Hofiz Buxoriy, Mavlono Abdurahim Axsikatiy, Xoja Muhammad Kobuliy, Mavlono Solih Badaxshoniy, Mavlono Jamoliddin Ohangaroniy va faqirul xaqir (ya’ni, ushbu risola muallifi) Muhammad Muftiy, ekani ta’kidlangan.

Bundan Mavlono Lutfulloh Chustiy orqali tariqat silsilasi Samarqand, Buxoro, Badaxshon, Hisor, Xorazm, Toshkent, Andijon, Kobul, Ohangaron, G‘urmsaroy, Kandbodom, Axsikat kabi hududlarga yetib borgan. Maxdumi A’zam Dahbediy, Shayx Xovand Tohur va Zangi ota avlodlari ham shogird bo‘lgani eslatib o‘tilgan. Xoja Is’hoq Valiy va Mavlono Nizomiddin Ahmad kuyovi bo‘lgani qayd etilgan.

---

[1] Бартолд В.В. Сочинения. – М, 1973 VIII Том.

[2] Бабажанов Б. Лутфуллах Чусти // – М: Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словар, 1998. Выпуск 1.; Бабажанов Б. Мавлоно Лутфуллоҳ Чустий (Ан оутлине оф ҳис ҳагиографҳи анд политисал активитй Зеитсчрифт дер Деутсчен Моргенландисчен геселлсчафт (ЗДМГ). Банд 149 / Маинз. 1999.

[3] Muhammad Muftiy Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh Mnoqibi // Fors tilidan Abdullohxo‘ja Ma’rufxo‘ja o‘g‘li va Shuhrat Sirojiddinovlar tarjimasi. – Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2002.

Mavlono Lutfulloh Chustiy shogirdlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ba’zilariga tariqat yuritishga ijozat bergani aytiladi. Xususan, Mavlono Sayid Toshkandiyga ruxsat xati yozib bergan. Mavlono Muhammad Qozoqqa Qozoq yerlariga hamda Mavlono Zunnunga Buxoro hududlarida silsilani yuritishga ijozat bergan. Xonaqoh mutvalliligini [1] kuyovi Mavlono Nizomiddin Ahmadga topshirgan. Bunday tartib tariqatning uzviy davom etishini ta’minlagan. Natijada hududlarda tariqatning turli tarmoq va markazlari shakllanib, silsila namoyandalari soni oshib borgan.

“Hujjatul komilin fiy atvorus solikin” (Komillar hujjati va soliklar qiyofasi) asari muallifi Alouddin Muhammad Buxoriy bo‘lib, Sayid Mir Jaloliddin Muhammad Husayniy Alaviy Buxoriyning o‘g‘lidir. Asar fors tilida naqshbandiya ta’limotiga oid mulohazalar bayon qilingan. Manbada muallifning tasavvuf silsilalari va ajdodlari shajarasi ham berilgan. Risola Buxoro hukmdori Amir Muzaffar davrida yozilgani aytib o‘tilgan. Manba (149^{a} varaq)da kitob 1278/1862-yil ramazon/mart oyida tasnif etilgani va 1279/1862-yil 13 safar/9-avgust payshanba kuni Sayid Muhammad Akobir Husayniy Buxoriy tomonidan kitob holiga keltirilgan. Asarning mazkur qo‘lyozma nusxasi Mulla Sharafiddin ibn Mulla Sayfidin Buxoriy tomonidan 1330/1912-yil jumadul avval oyida Buxoroning Hoji Sayid Habibulloh hiyobonida ko‘chirilgan.

Zarafshon vohasida yozilgan Abduxoliq G‘ijduvoniyning “Maqosidus solikin”, Saloh ibn Muborak Buxoriyning “Maqomoti naqshbandiya”, Abduaziz Xoja Amir Kuloliyning “Risola”, Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining “Maqomot Hazrat Xoja Buzurg”, Mir Husaynning “Mahozinut taqvo”, “Tazkirat-ul oshiqin” kabi naqshbandiylikka oid asarlar mavjud.

Mahmud G‘ijduvoniyning “Miftohut tolibin” asari kubroviya tariqatining namoyandasi Shayx Husayn Xorazmiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Asar muqaddima, to‘rt bob va xotimadan iborat. 949/1542-yili yozishni boshlagan bo‘lsa-da, ammo asarni ancha oldin, ya’ni 1517-yildan boshlab rejasi bo‘lganini, 1534-yillarda ham to‘xtab turgani ochiqlaydi. Asar Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tomonidan 1275/1859-yili[2] qirq to‘rt kun muddatda fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning tarjima qilingan nusxasi Basmala bilan boshlinib hamd va salavot hamda kubroviya silsilasi keltirilgan. Muqaddimada Anbiyo, avliyo, irshod ahllarining farqi haqida so‘z yuritilgan. Birinchi, ikkinchi bobda Husayn Xorazmiyning riyozat va mujohadasi, uchinchi bobda xavoriq odatlari,

[1] Ubaydulloh Samarqandiy. Sirojus solikin va latoiful orifin. IBXITM qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma. Inv № 401. – B. 245^{a} varaq.

[2] Mahmud G‘ijduvoniy. Miftohut tolibin // Ogahiy tarjimasi. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma inv. № 8473. – B. 208^{a} varaq.

to‘rtinchi bobda o‘tkazgan go‘zal majlislari haqida aytilgan. Xotimada ajdod-avlodlari haqida ma’lumotlar qayd etilgan.

Eron milliy kutubxonasida 10046 raqamdagi “Majmua” tarkibida uchta risola mavjud:

1. Husayn Xorazmiyning “Irshodul muridiyn” risolasi to‘rt fasldan iborat, birinchi faslda: Alloh va Uning ishqi haqida toliblarga mav’iza, soliklarga bu yo‘lda bardavom bo‘lishlari to‘g‘risida. Kishi dilni pok tutib, sidq-u ixlos bilan yursa, uning bu harakati go‘yoki olamni munavvar etadi, deb ta’kidlaydi. Tilsimlarning kaliti oliyhimmat bo‘lishda. Shu o‘rinda muallif o‘zini “Mazhabi mo savodi A’zam ast” deb, hanafiya mazhabida ekanini bildirgan. Keyingi vaqtlarda kubroviya tariqati vakillarini shiya oqimiga mansub ekanini aytadigan tadqiqotchilarning bu ma’lumoti o‘rinsizdir. Shu faslda kubroviya silsilasi ham bayon etilgan; ikkinchi faslda: komil shayxga bo‘lgan ehtiyoj haqida so‘z yuritilgan; uchinchi faslda: ma’rifatning yetti bosqichi haqida so‘z yuritilgan; to‘rtinchi faslda: odob va sharoiti suluk bayon qilingan. Avvalo murid Allohga, ya’ni Uning ahkomlariga itoat etmoqlik, keyin Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamga, ya’ni jami umri davomida Ul zotning sunnatlarini mahkam tutmoqlik. Yana nafl ibodat va suluk odoblari zikr etilgan.

2. Risola – 77^{b}-94^{b} varaq. Husayn Xorazmiyga tegishli baytlardan tarkib topgan.

3. Risola – “Muxtasari odobul muridin” 95^{b}-123^{b} varaq. 936/1529-yil 4-zulhijjada, Buxorodagi Fayzobod (Sayfiddin Boxarziy) xonaqohida yozilgan. Birinchi faslda murid odobi: xizmat odobi, suhbat odobi va xoslarning xilvat odobi va ikkinchi faslda darveshlarni hurmat qilish odobi to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ushbu risola Xoja Kamoliddin Husayn Xorazmiyga tegishli.

Tariqat tarixiga oid bir qator yozma manbalar o‘rganilgan. O‘zbek tiliga tarjima[1] qilingan.

Bo‘stonul muhibbin – asar muallifi Xudoydod ibn Toshmuhammad. Manbalarda muallif hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar kam uchrasa-da, Buxoroda yashab, yassaviya tariqatida[2] faoliyat ko‘rsatgani tadqiqotlarda aytilgan. U ustozi Lutfulloh azizon vositasida (uning ustozi Fayzulloh azizon, uning ustozi Muhammad Sharif Husayn Buxoriy, uning ustozi) Muhammad Olim shayx azizon orqali Ahmad Yassaviy silsilasiga ulangan.

Shayx Xudoydod Buxoro amiri Shohmurod (13-rajab/29-noyabr 1215/1800-yil)dan olti oy so‘ng, 1216/1801-yili muharram/may–iyun oyida[3] vafot etgan. Uning “Bahrul ulum” nomli asari “Majmua” *(“Majmua” tarkibida “Bahrul ulum”, “Pisandi zikri jahr” va “nomsiz risola” mavjud*) tarkibida saqlanadi. Asar

[1] Sayfiddin Sayfulloh. Ulug‘ Avliyo (Matn) / Shayx Xudoydod Valiy. – T: “O‘zbekiston”, 2017.
[2] Necdet Tosun. Türkistan dervişlerinden yadıgar. – İstanbul: İnsan yayınları, 2011. – S. 80–81.
[3] Ushbu joyda.

Shahobiddin Abu Hafs Suhravardiyning “Irshodul muridin” nomli risolasiga yozilgan sharh hisoblanadi. Qo‘lyozmaning deyarli barcha sahifasiga “Vaqf Eshon Xudoydod” deb yozilgan muhr urilgan. Muhrda 1279/1862-yil sanasi ko‘rsatilgan. Kotib sifatida Eshon Xudoydod ibn Toshmuhammad azizon nomi qayd etilgan. Bunga ko‘ra asarning ushbu nusxasi avtograf bo‘lib, ushbu nodir qo‘lyozma nusxasini keyinchalik avlod-shogirdlari Shayx Xudoydod nomidan vaqf qilgani oydinlashdi.

Shayx Xudoydod "Bo‘stonul muhibbin" kitobining ushbu nusxasi 520 sahifadan iborat bo‘lib, qo‘lyozma, nasta’liq xatida, dastlabki 426 sahifalari havo rangli qog‘ozda, qolgan 427–520 sahifalari esa sariq shildiroq, pishiq ishlov berilgan Qo‘qon va Samarqand qog‘ozida yozilgan. Poygirlari har bir sahifa ostida qo‘yilgan. Matn 15,5X10 cm hajmda, bir ustunli 15, 18 qatordan iborat. Uch tilda – turkiy, forsiy va arabiy tillarda berilgan. Asar 20 bob va fasllar bo‘lingan holda, bob, fasl, biling ey do‘stlar, va yana kabi so‘z (satr) boshlari qizil va asosiy matn esa qora siyohda yozilgan.

Kitobning kirish qismi yakunida 1221/1806-yil sanasi ko‘rsatilib, xaqirul faqir Mullo Muhammad Nazar ibn Mullo Muhammad Avaz ibn Mullo (Muhammad) Ya’qub ibn hoji Ko‘zluk ota deb, qayd etilgan. Kitobning 518 sahifasida, kitob juma kuni 1221/1806-yilda Mullo Abduazim ibn Abdulloh Maxdum ibn Nazar Maxdum G‘oyibiy tomonidan ko‘chirilgan. Kitobning so‘nggi ikki sahifasida “Farzi ayn”ga doir masalalar berilgan.

Asarning hoshiyasida ko‘pgina shoirlar qalamiga mansub g‘azal va hikmatli so‘zlar ham kiritilgan hamda keyinchalik ayrim sahifalar hoshiyasida asarning sharhi ham keltirilgan. Kotib Mullo Abduazimning qalamiga mansub bo‘lgan bir necha g‘azal va hikmatlar asarning hoshiyasida yozilgan bo‘lib, unda kotibning taxallusi “G‘oyibiy” ekanligi ko‘rsatilgan. Kitobda Sayid Jamoliddinning “At-ta’liq fiy sharhi sahihi Buxoriy”, “Sharhi sahihi Muslim”, Shayx Muhammad G‘azzoliyning “Ihyo ulumud din”, “Niqoya”, “Sharhi viqoya”, “Muhit”, “Qozixon”, “Raddul muxtor”, “Fusuli imodiy”, “Jome’ur rumuz”, “Kitobi xulosa” kitoblaridan foydalanilganligi, shuningdek, Ibn Mas’ud, Yahyo ibn Ma’oz, Hasan Basriy, Abu Bakr Varroq, Habib Ajamiy, Abdulloh Tustariy, Usmon Mag‘ribiy, Abu Ali Rudboriy, shayxulislom Ziyouddin Suhravardiy, Ahmad Yassaviy, Hakim ota, Amir Sayyid Ali Hamadoniy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Abu Lays Samarqandiy, Amir Nuriddin Ja’far, Bahouddin Naqshband, Shayx Muhammad Porso, Shayx Nizomiddin, Shayx Husayn Xorazmiy, Shayx Xudoydodi Valiy kabi tasavvufning mashhur shayx-u buzurgvorlarning tariqatdagi faoliyati, hikmatli so‘zlari va ibratli voqealar bayon etilgan.

Xulosa. XV–XIX asrlarda Zarafshon vohasi tasavvuf tarixiga oid nodir manbalarning aksariyati shaxsiy fondlarda saqlanishi kuzatildi. Hududlar

kesimida shaxsiy fond sohiblari roziligi bilan hamkorlikda manbalarni saqlash, ta’mirlash, tadqiq etish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Shaxsiy fondlarda mavjud yozma manbalarni elektron nusxalarini yaratish, xorijiy va mahalliy fondlar o‘rtasida umumiy-yaxlit tizimni ishga tushirib, maqsadli almashinuvi tizimni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nosiriddin Buxoriy. Tuhfatuz zoyirin.
2. Muhammad Muftiy Ohangaroniy. (2002). Mavlono Lutfulloh manoqibi.– Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi. Fors tilidan Abdullohxo‘ja Ma’rufxo‘ja o‘g‘li va Shuhrat Sirojiddinov.
3. Silsilayi sharif Hazrat Naqshbandiya. IBXITM qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma inv №464/1.
4. Silsilayi naqshbandiya. (1275/1859). Qo‘lyozma. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi qo‘lyozmalar fondi. Inv № 11475/II.
5. Silsilayi naqshbandiya. (1302/1884). Qo‘lyozma. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi qo‘lyozmalar fondi. Inv № 13101/11.
6. Sirojus solikin va latoiful orifin. IBXITM qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma. Inv № 401.
7. Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy. (2016). Matlabut tolibin (Toliblar matlabi) // Tarjimonlar: G‘.Karimiy, E.Mirkomilov. Toshkent. Movarounnahr.
8. Mahmud. Miftohut tolibin G‘ijduvoniy // Ogahiy tarjimasi. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma inv. № 8473.
9. Abu Bakr Hoji xoja. (XV). Kashful mahjub va rashful matlub. IBXITM qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma, inv. № MR 283/II.
10. А.А., Семенов. (1940). Уникалный памятник агиографической среднеазиатской литературы ХВИ века (част 1) // Известия Узбекистанского филиала АН СССР.
11. Бабажанов, Баҳтиёр. (1998). Лутфуллах Чусти // – Москва: Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словар. Выпуск 1.
12. Babajanov, Bakhtiyor. (1999). Mavlono Lutfulloh Chustiy (An outline of his hagiographi and political activity Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen gesellschaft (ZDMG). Band 149 / Mainz.
13. В.В., Бартолд. (1973). Сочинения. Москва: ТомVIII.
14. Jumanazar, Abdusattor. (2015). Mashrab. – Toshkent: “Akademnashr”.
15. Sayfiddin Sayfulloh. (2017). Ulug‘ Avliyo (Matn) / Shayx Xudoydod Valiy.– Toshkent: “O‘zbekiston”.
16. Tosun, Necdet. (2011). Türkistan dervişlerinden yadıgar. – İstanbul: İnsan yayınları.
17. Tosun, Necdet. (2012). Orta Asya’da tasavvuf // Orta Asya’da ıslam (temsilden fobiye). Cılt:I. Ankara-Türkistan,

SHOKIROVA HILOLA
Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi

Alisher Navoiy “Xamsa”sining XIX asrda kitobat qilingan ba’zi qo‘lyozma nusxalari

(Davlat adabiyot muzeyi fondi asosida)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining qo‘lyozmalar katalogi, qo‘lyozmalar saqlanadigan muzeyning fonddagi Alisher Navoiyga tegishli qo‘lyozma va toshbosma asarlarning umumiy soni va ular orasidan XIX asrga oid “Xamsa” dostonlari jamlangan qo‘lyozma nusxalar soni haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan. Ushbu qo‘lyozmalarni o‘rganishning dolzarbligi ham berilgan. Muzey fondidagi XIX asrga tegishli o‘n bir qo‘lyozma ajratib olinganligi va ulardan yettita qo‘lyozmaning to‘liq tavsifi, ba’zi kamchiliklari va bundan tashqari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida o‘qishingiz mumkin. Ba’zi o‘rinlarda qo‘lyozmaning rasmi ham keltiriladi. Maqolada to‘liq tavsifi keltirilgan qo‘lyozmalar orasida “Xamsa” dostonlarining ikkita “Farhod va Shirin” va “Sab’ayi sayyor” dostonlari kiritilgan hamda eng nodir qo‘lyozmalardan biri bo‘lgan miniaturali “Xamsa”ning to‘rtta dostonlari kiritilgan, ya’ni “Hayrat ul-abror” dostoni kiritilmagan nusxalari ham bor. Miniaturali qo‘lyozmaning tavsifini yoritishda jadvallardan ham foydalanilgan. Bundan tashqari, “Xamsa” ning to‘liq dostonlari kiritilgan nusxalardan uchta va bitta kulliyot to‘liq tavsif qilingan. XIX asrga tegishli Alisher Navoiyning “Xamsa” qo‘lyozmalarining qolgan beshtasi muzey fondining qo‘lyozmalar katalogidan foydalangan holda qisqacha tavsifi berilgan.*

Maqoladagi inventar raqami 151, 224/II bo‘lgan qo‘lyozma nusxalarining boshlangan va tugagan oxirgi baytlari ham ishimizda yozilgan. Tadqiqotimizda ular arab xatida berilgan. Qo‘lyozmalar orasidagi bir nechta nusxalarda dostonlarning tartibi ko‘chirilish jarayonida o‘zgargan, biz ham tavsif berishda xuddi qo‘lyozmadagi tartibni saqlab qolishga harakat qildik.

Kalit so‘z: *“Xamsa”, qo‘lyozma, inventar raqam, fond, nusxa, qisqa tavsif, to‘liq tavsif, kotib, sahhof, doston.*

Аннотация: *В данной статье дается краткий отчет о каталоге рукописей Ташкентского государственного литературного музея, общем количестве рукописей и литографических произведений, принадлежащих Алишеру Навои в фонде, где рукописи хранятся в музее, и количестве среди них рукописных списков эпоса «Хамса» XIX века. Также была отмечена важность изучения этих рукописей. Выбрано одиннадцать рукописей XIX века из музейного собрания, и вы можете прочитать полное описание шести рукописей, некоторые их недостатки и, кроме того, их уникальные особенности. В некоторых местах также приводится изображение рукописи. К числу рукописей, описанных в статье полностью, относятся два эпоса «Хамса», былины «Фархад и Ширин» и «Сабъай Сайёр», а также четыре эпоса миниатюры «Хамса», которая является одной из редчайших рукописей. то есть есть экземпляры эпоса «Хайрат уль-Аброр»,*

которые не включены. Таблицы также использовались для пояснения описания миниатюрной рукописи, кроме того, были полностью описаны три из списков, содержащих полные эпосы «Хамса» и один сборник.

Остальные пять рукописей «Хамса» Алишера Навои XIX века кратко описаны с использованием каталога рукописей музейного фонда.

Начало и окончание последних строф рукописных списков с инвентарными номерами 151, 224/II в статье также записаны в нашей работе. В нашем исследовании они даны арабской вязью. Среди рукописей порядок былин в нескольких экземплярах менялся в процессе переписывания, и мы старались сохранить тот же порядок, что и в рукописи.

Ключевые слова: *«Хамса», рукопись, инвентарный номер, фонд, копия, краткое описание, полное описание, писец, страница, эпос.*

Abstract: *In this article, there is a brief report about the catalog of manuscripts of the Tashkent State Museum of Literature, the total number of manuscripts and lithographic works belonging to Alisher Navoi in the fund where manuscripts are stored in the museum, and the number of manuscript copies of the 19th century "Xamsa" epics among them. information has been provided. The importance of studying these manuscripts was also given. Eleven 19th-century manuscripts from the museum collection have been selected, and you can read about the full description of six manuscripts, some of their shortcomings, and, in addition, their unique features. In some places, a picture of the manuscript is also provided. Among the manuscripts described in full in the article, two epics of "Xamsa" epics "Farhad and Shirin" and "Sab'ai Sayyor" are included, and four epics of miniature "Xamsa", which is one of the rarest manuscripts, are included. that is, there are copies of the epic "Hayrat ul-Abror" that are not included. Tables were also used to explain the description of the miniature manuscript. In addition, three of the copies containing the complete epics of "Xamsa" and one collection were fully described.*

The remaining five 19th century "Xamsa" manuscripts of Alisher Navoi are briefly described using the catalog of manuscripts of the museum fund.

The beginning and ending couplet of manuscript copies with inventory number 151, 224/II in the article are also written in our work. In our research, they are given in Arabic script. Among the manuscripts, the order of the epics in several copies changed during the copying process, and we tried to preserve the same order as in the manuscript.

Key word: *"Xamsa", manuscript, inventory number, fund, copy, short description, full description, scribe, bookbinder, epic.*

Kirish. Alisher Navoiy asarlari har davrda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki uning asarlari boshqa mumtoz asarlardan o‘zining xalqchilligi, ijtiomiy muammolar va ularning yechimlari xalq orasidagi turli xil inson toifasi haqida berilganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, asarlarining tili, fasohati va balog‘ati nihoyatda go‘zal. Shuning uchun uning asarlari har taraflama o‘rganilishi muhim masala. Har davrda uning asarlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi uchun asarlarining qo‘lyozma nusxalarini o‘zi yashagan davrdan boshlab hozirgi

kungacha ko‘plab davlatlarning fondlaridan topish mumkin. Uning noyob nusxalari O‘zbekistondagi barcha qo‘lyozma fondlarida mavjud. Shulardan biri O‘zbekiston Respulikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hisoblanadi. Muzey tarkibida qo‘lyozmalar saqlanadigan fond ham mavjud bo‘lib, qo‘lyozma va toshbosma asarlar orasida salmog‘i jihatidan tabiiyki, Hazrat Navoiy asarlari nusxalari yetakchilik qiladi. Qo‘lyozmalar 67 ta, toshbosma va fotonusxalar 72 tani tashkil etadi. Biz o‘z tadqiqtotimiz uchun ular orasida faqatgina XIX asrga tegishli 11 ta “Xamsa” dostonlari qo‘lyozmasini[1] tanlab oldik.

Tadqiqotning usullari. XIX asrga tegishli Alisher Navoiyning “Xamsa” qo‘lyozmalarining qisqa va to‘liq tavsifini yozishda, fond katalogini diqqat bilan o‘rganib, undan o‘n bir qo‘lyozmani ajratib oldik. Matnshunoslik nuqtayi nazaridan uning umumiy va xususiy belgilarini tadqiq qilishda Porso Shamsiyevning 1959-1960-yillarda chiqqan “Xamsa” dostonlari nashri hamda 20 jildlik Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” bilan qiyosiy solishtirib chiqdik.

Natija. Tadqiqotimiz natijasi shundan iborat bo‘ldiki, qo‘lyozmalar orasida bir dona kulliyot mavjud bo‘lib, uning tarkibiga “Xamsa”ning hamma dostonlari kiritilgan, yetita qo‘lyozma “Xamsa”ning barcha dostonlari kiritilgan to‘liq nusxalar. Bittasiga to‘rtta doston, bittasiga uchta doston va yana bittasiga ikkita doston kiritilgan. Qo‘lyozmalar tarkibida ba’zi dostonlarning tarkibi, ba’zi boblarning o‘rni almashtirib ko‘chirilganligi ma’lum bo‘ldi.

Muhokama. Tadqiqotimiz ostiga olganlarimiz Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining XIX asrga tegishli nusxalarining Toshkent davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanuvchi inventar raqamlari quydagicha: № 163, 151, 17, 229/ II, 224/II, 161, 162, 142, 23/II, 19, 65. Quyida ularning tavsifi keltiriladi[2]:

1. كليات نوائى 163 inventar raqamli qo‘lyozma. Tarkibida “Badoye ul-bidoya”ga muqaddima, “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Maxbub ul-qulub” kabilar bor. Qo‘lyozmani Mulla Ismoil Xoja ibn Muhammad Sharif Xoja Urganji (ملا اسماعل خواجه بن محمد شريف خواجه اورگانجى) ismli kotib hijriy 1266, milodiy 1849–1850-yillarda Qo‘qonda ko‘chirgan. Jami 406 varaqdan iborat bo‘lib, “Xamsa” dostnolari 134-sahifadan 386-sahifagacha (“Hayrat ul-abror” – 134–173-sahifalar, “Layli va Majnun” – 174–208 sahiflar, “Farhod va Shirin” – 211–267-sahifalar, “Sabayi sayyor” – 269–316-sahifalar, “Saddi Iskandariy” – 317–386-sahifalar) bo‘lgan qismni egallagan. Qo‘lyozma kitobning o‘lchami – 30x54 cm, matn o‘lchami esa – 19x36 cm. Ushbu kulliyotning muqovasida uchta muhr mavjud bo‘lib, tarkibidagi barcha asarlarining boshlanishidan oldin chiroyli naqshli unvon chizilgan. “Xamsa”

[1] Alisher Navoiy “Xamsa” qo‘lyozmalari. №163, 151, 17, 229/II, 224/II, 161, 162, 142, 23/II, 19, 65. Toshkent davlat adabiyot muzeyi fondi.

[2] Tavsifni keltirishda ba’zi ma’lumotlar Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining qo‘lyozmalar katalogidan olindi.

dostonlari matnlari to‘rt ustunli jadvalga joylashtirgan va har bir ustun 27 qatordan iborat. Dostonning dastlabki sahifasidagi jadval chetlari va ustunlar orasi pushti va oq rang bilan ajratib qo‘yilgan. Qolgan qismda matnlar ko‘k va qizil rangli chiziq bilan jadvalga olingan. Har bir bob sarlavhalari qizil rangli siyoh bilan ajratib ko‘rsatilgan. “Xamsa” asarining oxirida uchburchak shaklda kollofon berilib, Allohga hamd bilan yakunlangan. Qo‘lyozma sahifalari ostida poygirlar qo‘yligan. Ba’zi o‘rinlarda bo‘yalgan va xato joylari kotib tomonidan hoshiyada to‘g‘irlab ketilgan. Bundan tashqari, ushbu nusxada dostonlarning tartibi biroz o‘zgartirilgan tartib bo‘yicha doston tarkibida “Farhod va Shirin” ikkinchi doston, “Layli va majnun” uchinchi doston hisoblanadi. Ammo nusxada ikkisining o‘rni almashtirib ko‘chirilgan. Umuman olganda, ushbu qo‘lyozma ancha yaxshi saqlangan, nodir nusxalardan biri. Ichidagi matn nasta’liq xatida chiroyli xat bilan ko‘chirilgan.

2. 151 inventar raqamli Qo‘qonda hijriy 1243–1244, milodiy 1827–1828-yillarda ko‘chirilgan “Xamsa” dostonlari. 326 varaq, qo‘lyozma o‘lchami 30x49 cm. matn o‘lchami esa 22x36 cm. bo‘lib, uni ko‘chirgan kotib noma’lum. Muqovasi qora, muqovaning ichiga qirmizi rangli duxoba matosi yopishtirilgan. Muqova ustida 5 ta muhr bor. Matn ko‘chirilgan dastlabki sahifasi unvon va chiroyli naqshlar bilan tilla suvi yugirtirib chiqib bezatilgan. Dastlabki sahifada matn ikki ustun 13 qatorga ko‘chiriligan. Keyingi sahifalardan to‘rt ustun. Matn qora, sarlavhalar esa qizil siyohda ko‘chirilgan.

“Hayrat ul-abror” an’anaviy tarzda birinchi bo‘lib ko‘chirilgan. Boshi:

بسم الله الرحمن الرحيم

رشته غه چکتی نیچه در یتیم

Oxiri

تا انی کوب کوب آلیبان سیبقارای

کوب کوب ایجیب بر دم اوزوم دین بارای

“Farhod va Shirin” dostonining boshi chiroyli unvon bilan bezatilgan. 57-sahifadan 127-sahifagacha ko‘chirilgan. Boshi:

بحمدک فتح ابواب المعانی

نصیب ایت کونکلوما فتح اولماک انی

Dostonning oxirgi bayti kollofon uchun chizilgan jadvalning ichiga yozilgan.

منکا توتفیل که سوزنی کوته اتّیم

تینای بر لحظه جون منزلغه یتیم

“Layli va Majnun” dostoni 130-sahifadan boshlab, 175-sahifagacha davom etadi va hijriy 1243-yilda ko‘chirib tamomlangan. Boshi:

ای یخشی آتینک بیله سر آغاز

انجامیغه کیم یتار هر آغاز

Oxiri:

عصیانیما عفو بولغای آمین

یا رب که نوع بولغای آمین

“Sab’ayi sayyor” dostoni 176-sahifadan, 236-sahifagacha hijriy 1244-yilda ko‘chirilgan. Boshi:

ای سپاسینک دیماکدا ایل تیلی لال
ایلکا تیل سیندین اولدی تیلکا مقال

Oxiri:

تار رنج ایتارغا بی بضاعت میز
عزریمیز نی قبول ایلانک سیز

“Saddi Iskandariy” dostoni 238-sahifadan 326-sahifagacha davom etgan. Boshi:

خدایا مسلّم خدالیق سنکا
براو شهکه دأبی کدالیق سنکا

Oxiri:

اوزات تنکری شکری اواسیغه تیل
نوا آرتوق ایستار ایسانک شکر قیل



3. Navbatdagi “Xamsa” dostonlari qo‘lyozmasi muzey fondida 17 raqam bilan saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma 1832-yildan ko‘chirilishi boshlanib, 1837-yilda tugagan, ulardan “Hayrat ul-abror” dostonining ko‘chirilishi hijriy 1248 (milodiy 1833)-yilning zulhijja oyida, “Sab’ayi sayyor” dostoni hijriy 1251 (milodiy 1836)-yilda ko‘chirib tugatganligini kotib dostonning oxirida kelgan kollofonda yozib qo‘ygan. Sayyid Mahmud valadi Muhammad Turdi Sayyid (سید محمود ولد محمد توردی سید) tomonidan Xivaning Toshqa’la degan joyida ko‘chiriligan. Qo‘lyozma muqovasi jigarrangda bo‘lib, uning ustida bir qancha muhrlar mavjud, ikkita muhrga sahifalovchi Amal Abdu-l-Halil (عمل عبد الخلیل صحاف) ismi yozib qo‘yilgan. Qo‘lyozmada poygirlar ham mavjud bo‘lib, yozuv turining nasta’liq xatidan foydalanilgan. Qo‘lyozmaning o‘lchami 20x35.5 cm, matn esa to‘rt ustun, 19 qatorga joylashtirib, 12,5x23 cmli jadval ichiga ko‘chirilgan. Asosiy matnni yozishda qora va jadvallar va sarlafhalar uchun qizil rangli siyohdan foydalanilgan. Jami 356 varaqdan iborat bo‘lib, qo‘lyozma keyinchalik 318-sahifagacha raqamlab chiqilgan. Qolgan qismiga raqam qo‘yilmagan. “Hayrat ul-abror” 2 sahifadan 114 sahifagacha, “Farhod va Shirin” 116 sahifadan 277 sahifagacha, “Layli va Majnun” 278 sahifadan 377 sahifagacha, “Sab’ai sayyor” 378 sahifadan 516 sahifagacha, “Saddi Iskandariy” 518 sahifadan 715 sahifagacha o‘rin egallagan. Dostonlarning ketma-ketligi to‘g‘ri tartibda kelgan, hamma

boblari to‘liq ko‘chirilgan, lekin dostonlarni Alisher Navoiy asarlarining 20 jildlik to‘plami[1] bilan solishtirib chiqqanimizda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, 20 jildlik to‘plamda keltirilgan “Saddiy Iskandariy” dostonidagi “Basirat ko‘zlarin aynul-yaqin kuhli yorutqonlar bobi”dan keyin kelgan hikoyat va hikmat, ushbu qo‘lyozma nusxada o‘rni almashgan ekan. 169 joyda ba’zi bir so‘zlardagi xatoliklar kotibning o‘zi tomonidan qo‘lyozmaning hoshiya qismida to‘g‘irlab yozib qo‘yilgan. Shulardan 27 tasi “Hayrat ul-abror” dostoniga, 49 tasi “Farhod va Shirin” dostoniga, 18 tasi “Layli va Majnun” dostoniga, 31 tasi “Sab’ayi sayyor” dostoniga, qolgan 44 tasi esa “Saddi Iskandariy” dostonlariga tegishli.

4. XIX asrga tegishli Navoiyning “Xamsa” qo‘lyozmalaridan yana biri 229-II raqamli bo‘lib, “Xamsa”ning besh dostoniga qo‘shimcha tarzda “Lisonut-tayr” dostoni ham kiritilgan. 369 varaqdan iborat ushbu qo‘lyozma Abdu-l-Qodir ibn Mulla Bahodir Qoshg‘ariy (عبد القادر ابن ملا بهادر قاشغرى) tomonidan ko‘chirilgan. Kollofonda yozilishicha uning ko‘rib tugatilgan vaqti hijriy 1249-yil, robi’ ul-avval oyining o‘n birinchi sanasi, yakshanba (milodiy 1833-yilning 30-iyul seshanba) kuni ekan. Qo‘lyozma kitobning o‘lchami 26x38,5 cm, matn esa 18,5x25,5 cm li jadval ichida. Ko‘chirilgan joyi noma’lum. Boshidagi beshta sahifaning tepa qismida yirtilgan joyi bor bo‘lsa-da, matnga ziyon yetmagan. To‘rt ustun, 17 qator qilib matn yozilgan. Boblar qizil rangda ajratib yozilgan va dostonlardagi har bir bob boshlanishiga qizil rangli siyoh bilan chiziq tortilib, ketma-ket kelgan boblarning boshlanishi va tugashi bilinib turibdi. Matn atrofidagi jadvallar ko‘k, qizil va tilla rangda uchta ketma-ket chiziq chizilgan. Ushbu nusxada ham poygirlar mavjud. Keyinchalik qalam bilan raqamlab qo‘yilgan. Qo‘lyozmada avvalo “lisonut-tayr” dostoni yozilgan. U 2-sahifadan 56-sahifagacha o‘rinni egallagan. Doston so‘ngida hijriy 1242(milodiy 1826)-yilgacha ko‘chirib tugatilgan. 58-sahifadan boshlab “Xamsa” dostonlarining “Hayrat ul-abror” dostoni 113-sahifagacha ko‘chirilgan bo‘lib, bu doston ham o‘sha yili, ya’ni hijriy 1242 (milodiy 1826) - yilda tugatilgan. Dostonning dastlabki ikki misrasi asosiy matndan yuqorida, o‘rtada alohida yozib boshlangan. Ko‘chirib tugatilgan so‘ng, 115-sahifadan dostonlar joylashuvining ketma-ketligi buzulib, “Layli va Majnun” dostoni ko‘chirib boshlangan va 165-sahifada tugagan. “Farhod va Shirin” dostoni esa undan keyin keladi. Doston boshlanishida بسم الله الرحمن الرحيم kalimasi yozilmagan. 209, 229-sahifalaridagi varaqning hoshiyasi qaychi bilan qirqib olingan, biroq matnga zarar yetmagan. 250-sahifadan 317-sahifagacha “Sab’ai sayyor” dostoni ko‘chirilgan. 318-sahifadan 416-sahifagacha o‘rin egallagan “Saddi Iskandariy” dostonining 368a-sahifasida ikkita misra’ siyohi surkalib ketgan.

[1]Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (nashrga tayyorlovchilar: M.Hamidova, T.Ahmedov). ─T.: “Fan”. 1993, 478-b

5. Ko‘chirilgan joyi noma’lum bo‘lgan, kattagina qismi zararlangan bu qo‘lyozma 224/II raqam bilan muzey fondida saqlanadi. Ko‘chirgan kotib noma’lum bo‘lsa-da, sahhofning ismi qo‘lyozmaning muqovasida yozilgan: ملا ایشان قول Mulla Eshonqul. Ushbu nusxaning usti to‘q qirmizi rangda uchta muhr bor. Yuqori va pastki muhr ichiga sahhof ismi yozilgan. Varaqlar soni keyinchalik raqamlab chiqilgan. Qo‘lyozmaning boshidan olti varaq tashlab ketilib, “Lison ut-tayr” dostoni ko‘chirilgan. Raqamlar doston ko‘chirilgan joydan 1 raqami bilan boshlab yozilgan. Tarkibiga “Lison ut-tayr” dostoni ham kiritilgan. Ushbu qo‘lyozma 322 varaqdan iborat bo‘lib, 1–40 sahifalarda “Lisonut tayr” dostoni, 41-91 sahifalarda “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrar ul-abror”, 93-134 sahifalarda uchinchi doston “Layli va Majnun”, 134b–209 sahifalarda “Farhod va Shirin”, 210–272 sahifalarda “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy” 273–366 sahifalarda joylashgan. Sarlavhalar qizil, matn esa qora siyohda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma o‘lchami: 17x30 cm; matn o‘lchami: 13,8x24,6 cm. Matn 21 qator, 4 ustunli, sariq rangli jadvalga ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmadagi “Hayrat ul-abror” dostonining birinchi maqolat ichida[1]gi bir bayt tushib qolgan va u bayt uchun joy tashlab ketilgan[2]. Quyida tushirib qoldirilgan baytni keltiramiz:

Naqdini bu hodisa berohidin,

Balki o‘qush biym guzarohidin[3]

Bundan tashqari, ushbu dostonning “Salotin xaylining sarafrozi va xavoqin mulkining ganj pardozi muizzis-salatanati vad-dunyo vad-din Abdulg‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon xalladallohu mulkahu va sultonahu va avzaha alal-olamina birrahu va ehsonahu madhikim, go‘yo til bila madhin demak maholdurur, bataxsiskim qalam tili madhida lol durur” nomli XVI bobi qo‘lyozmaning hoshiya qsimiga ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmaning 88a sahifasida ikki qator siyohlari surkalgan, biroq sinchkovlik bilan qaralsa yozuvni o‘qish mumkin.

“Hayrat ul-abror” dostonining boshlanishi:

رشته غه جکتی نیجه در یتیم

هر در انکا جوهر جاندین فزون

Oxirgi bayti:

کم لیک ایاه نیجه منکا بولسه بیم

سین کرم ایلاکم ایرور سین کریم

“Layli va Majnun” dostonining “Ul risolat sipehrining quyoshi na’tidakim...” deb boshlanuvchi 3-bobining sarlavhasi tushib qolgan bo‘lsa-da sarlavha ostida

[1] Alisher Navoiy,“Xamsa” Davlat adabiyot muzeyi. 224-raqmli qo‘lyozma, 54-sahifa.

[2] Ilovada rasmi keltirilgan.

[3] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon) 7-jild, – T.: “Fan”. 104-b.

keluvchi matn to‘liq ko‘chirilgan[1]. 126-b sahifada varaqning o‘rtasiga suv yoki qandaydir suyuqlik to‘kilgan.

Boshi:
ای یخشی اتنک بله سرآغاز
انجامیغه کم یتار هر آغاز
Oxiri:
عصیان نامه عفو بولغای آمین
یا رب که بو نوع بواغای آمین

“Farhod va Shirin” dostonining 184b sahifasidagi varaqning tagida dostonning olti bayti hamda “Farhodning ishq shu’lasida kuyub ul o‘tni jon pardasida yashurmoqdin va hajr xunobasin yutub ul zahrni ko‘ngul ichinda singurmoqdin gulbargi ahmardek jamoli za’faroniy va naxli sanu-bardek niholi xayzaroniy bo‘lib asr hukamosi va dahr attibosi aning bahori sihhati xazoni marazg‘a yuzlangonining tashhisini savdog‘a qilib bu bila aning maqomi ta’yinin jazoyir bila daryog‘a a’zm qilg‘onlari va bu daryi safari savdosidin anga sud istab nasibalari ziyonbud bo‘lg‘oni” nomli 27-bobning sarlavhasi va “Xusravning Shirin soridin kelgan talx javoblaridin achchig‘lanib qalin siroh chekib, Arman viloyatig‘a sho‘ru g‘avg‘o solg‘oni va Mihinbonu Armaniya qo‘rg‘oninkim, har burji rif’atda sekizinchi hisorning o‘n ikki burjidin bosh o‘tkarib, har kungirasi to‘qquzunchi husn uchig‘a xisht yetkurub erdi berkitgoni va Xusrav qal’a tegrasin evrularda Farhodni qayo ustida kupub tutmoq xayoli qilib Farhodning til xaroshi bila aning bag‘rig‘a nish sonchib, ko‘ngliga tig‘ urmog‘I va ilik toshi bila boshidinxudin va alami boshidin mahchasin uchurmog‘I va Xusravning tug‘I boshsiz va boshi xudsiz o‘rdusig‘a surmoki va cherigin ko‘rg‘on sori ko‘churmoki” nomli 38-bob sarlavhasining bir qismi hoshiyaga yozilgan. 194a-sahifada bir qator, ya’ni 2 bayt ustiga qog‘ozcha yopishtirib qo‘yilgan. Quyida qog‘oz ostida qolgan misralarni keltiramiz:

Meni zoru zaifu roshikasta,
Boshimdin to ayoq a’zo shikasta.
Firoqing tig‘idin yuz pora jonim,
Ne jonim, balki jismi notavonim.
Kuyub hajr o‘tidin jonu ko‘ngul ham,[2]

Dostonning boshlanishi:
بحمدک فتح ابواب المعانی
نسیب ات کونکلومه فتح آالمک آنی
Tugashi:

[1] Alisher Navoiy, “Xamsa” Davlat adabiyot muzeyi. 224-raqmli qo‘lyozma, 94b-bet.

[2] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon) 8-jild, – T.: “Fan”. 411–412-b (595- bet)

مننکا توتغیل که سوزنی کوته اتم
تنای هر لحظه جون منزلغه یتیم

Sabba’yi sayyor” dostoni qo‘lyozmaning 210-sahifasidan boshlanib, 272-sahifasigacha davom etadi. Ushbu dostonning 227b sahifasida ikki bayt uchun joy ochiq qolgan. Tekshirib ko‘rilganda, hech qanday bayt tushib qolmagan. Oxiri:

یتی افلاک نی انکا یار ایت
یتی اقلیم ایلین خریدار ایت

“Saddi Iskandariy” dostoni 273-sahifadan boshlab ko‘chirilgan 23-bobning sarlavhasi va quyida keltirilgan baytdan boshqa qismi tushib qolgan[1]:

بو ینکلیغ دیدی موبد نکته سنج
که تاریح علمی غه کوب جکتی رنج

“Muxolifat mazzamatidakim, “mux” hasad bila “ulfat” durur va “muxl” andisha bila “ofat” ko‘rinurki, aksin tutsa, musodaqat yuz berur va tarkin tutsa, saodat sarmanzilig‘a yetkurur va soyir el muxolifati bobidakim, mujibi xonumon xaroblig‘idur va saloting‘a voqe’ bo‘lsa, jahon xarablig‘i” nomli 24-bob esa aksincha ilk bayti tushib qolib, ikkinchi baytdan boshlab ko‘chirilgan.

Boshi:
خدا یا خدالق مسلم سنکا
براو شه که دأبی کدالیق سنکا
Oxiri:

اولوس ینک اراسیدا مشهوردور
که البته مأمور معزوردور

Qo‘lyozma 1261-yilda ko‘chiririb tugatilgan.

6. Quyida yoziladigan 161 raqamli qo‘lyozmaning faqatgina yozilgan yili (1265–1268/1848–1852) va o‘lchami (30x53) ma’lum.

7. Keyingisi ham Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari qo‘lyozmasining nusxasi bo‘lib, muzey fondida 162 raqam ostida saqlanadi. Muhammad Rafi’ bin shayx Muhammad Solih Samarqandiy (محمد رافع بن شیخ محمد صالح سمرقندی) tomonidan hijriy 1265–1268, milodiy 1848–1852- yillarda ko‘chirilgan va u 273 varaqni tashkil qiladi. O‘lchami 30x52,5 cm. Ko‘chirilgan joyi noma’lum, lekin u Sayyid Muhyi Xoja (سید محی خواجه) ismli sahhof tomonidan muqovalangan.

8. Muzeydagi XIX asrga tegishli Navoiy “Xamsa” qo‘lyozmalarining hozircha so‘nggisi bo‘lgan nusxa 142 inventar raqam bilan saqalanib, uni Muhamad Kabul bin Mulla Avazbadal Arabxonagiy (محمد کابل بن ملا عوض بدل عربخانه گی) ko‘chirgan va Mulla Abdu-l-A’zim (ملا عبد العظیم) sahhoflik ishini qilgan. Ushbu qo‘lyozma hijriy 1272–1273, milodiy 1855–1857 yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 323 varaqni tashkil qiladi, o‘lchami esa 25x35 cm. Afsuski, ko‘chirilgan joyi ma’lum emas.

[1] Alisher Navoiy, “Xamsa” Davlat adabiyot muzeyi. 224-raqmli qo‘lyozma, 291a-bet.

9. Endi “Xamsa”ning to‘rt dostoni kiritigan nusxalardan biriga to‘xtaladigan bo‘lsak, muzeydagi ushbu 23/II raqamli qo‘lyozma juda noyob hisoblanib, boshqa qo‘lyozmalardan o‘zining nafis ishlangan miniaturalari bilan ajralib turadi.

Ushbu qo‘lyozma Boqiy Nasriddinov tomonidan 1950-yilda Farg‘onaga borib olib kelinadi. Qo‘lyozma haqida birinchi marta “Guliston” jurnalida 1971-yilda ma’lumot beriladi. 1957-yilda esa G.A.Pugachenkova XIX asrda yaratilgan miniaturalar haqida gapirib, mazkur qo‘lyozmada miniaturalar berilganligi uchun mazkur asarni, shunchaki, eslatib o‘tadi[1]. 1965-yilda esa boshqa bir kitobida[2] mazkur qo‘lyozmani “Xamsa” deb ataydi va uni Farg‘onada ko‘chirilgan asarlar ro‘yxatiga qo‘shadi.

Ushbu qo‘lyozmada “Xamsa” dostonlarining 4 tasi, ya’ni “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabba’yi sayyor”, “Saddi Iskandariy” mavjud.

Nima uchundir qo‘lyozmada falsafiy doston hisoblangan asarning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” o‘rniga “Lison ut-tayr” dostoni ko‘chirilgan. Buning sababi haqida hali aniq ma’lumot hech qayerda uchramaydi. Shuning uchun bu qo‘lyozma “Xamsa” yoki Navoiy asarlari to‘plami ekanligi xususida ham turli fikrlar mavjud.

Dastlabki fikr yuqorida keltirib o‘tganimiz G.A.Pugachenkovaga tegishli. Biroq 1973-yilda nashr qilingan “Adabiy meros” nomli manba va tadqiqotlardan iborat kitobdagi Sharofat Qambarovaga tegishli maqolada boshqacha fikrga ko‘zimiz tushadi, “dostonlarni sinchiklab o‘rganish natijasida bu to‘plam “Xamsa” emas, balki Navoiy dostonlari to‘plami ekanligi va uning Qo‘qonda ko‘chirilganligi aniqlandi”[3]. Roppa-rosa 10 yildan so‘ng M.Hakimovning “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi”da ushbu qo‘lyozmani “Xamsa”ning to‘rt dostoni kiritilgan nusxalar qatoriga qo‘shadi[4]. Bizning fikrimizcha ham, ushbu qo‘lyozma “Xamsa”ning 4 dostoni kiritilgan nusxalar qatoriga qo‘shish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ushbu qo‘lyozmada yozilishicha, Mulla Ro‘zi ismli “Kotib” taxallusli inson tomonidan 1240-xijriy (1824-milodiy) ko‘chirilib, payshanba kunida tugatilgan. Shundan bilishimiz mumkinki, ushbu qo‘lyozma nusxasi XIX asrga tegishlidir.

Qo‘lyozma o‘lchami 30,5x17,5 cm bo‘lib, ichidagi matn esa 24,5x13 cmli jadval ichiga yozilgan. Asosiy matn yirik, hoshiyadagi matn esa mayda Qo‘qon uslubiga xos nasta’liq yozuvida qora siyoh bilan ko‘chirilgan. Sarlavhalar esa qizil siyoh bilan ajratib yozilgan. Qo‘lyozmaning boshqa nushlarda uchramaydigan xususiyati shun-

[1] Изобразительное искусство Советского Узбекистана, Коллектив, Ташкент. “ГИХЛ”, 1957 – С. 49.

[2] Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель. История исскуств Узбекистана. –М., “Искусства”, 1965 – С. 392.

[3] Адабий Мерос, Ўзбекистон ССР – Т.: “Фан” 1973. – Б.241.

[4] Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи, Ўзбекистон ССР– Т.: “Фан”, 1983 – Б.143.

dan iboratki, qo‘lyozmaning bu nusxasida asar matniga mos tarzda miniaturalar chizilib, juda nafis bezaklardan foydalanilgan. Bu esa, qo‘lyozmaning bahosini va qadrini yana-da oshiradi. Bundan tashqari, asar matniga chizilgan jadvalning ikki burchagida uchburchak shakl ichiga chiroyli gul chizilib, bezak berilgan..

O‘rta asr san’ati tasvir va bo‘yoqlarga boyligi, qat’iyligi, keng va asar sujetiga mutanosibligi bilan alohida ajralib turadi[1]. Ayni shu qo‘lyozma miniaturalari to‘g‘risida bildirilgan quyidagi fikrlarga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q: “Dostonlarga ishlangan miniaturalar matndan ko‘ra talqin uchun yana-da jiddiyroq va chuqurroq falsfiy ma’no beradi”[2].

Qo‘lyozmada umumiy hisobda 46 ta miniatura kiritilgan bo‘lib, har bir dostonga eng ko‘pida 13 tagacha miniatura chizilgan. Shunisi afsuslanarliki, bunday noyob san’at asari kim tomonidan chizilganligi haqida aniq ma’lumot yo‘q. Lekin M.Hakimovning kitobida[3] Muhammad Amin Kosoniy (Munshiy) ushbu miniaturalarni chizgan degan gipoteza mavjud. Buning sababi, tazkiranavis Fazliyning bergan ma’lumotiga qaraganda, XIX asrning birinchi choragida Qo‘qonda Muhammad Amin Kosoniy (Munshiy) nomli mashhur xattot, naqqosh va musavvir yashagan ekan.

Qo‘lyozmadagi miniaturalar tilla suvi yugurtirilgan nafis jadval ichiga chizilgan hamda aksriyat rasmlarning chetidagi jadvalning o‘lchami 11,5x8,5 cm. Chizilgan miniaturalarning o‘zini ham bezatishda yorqin ranglardan va tilla suvidan mahorat bilan foydalanilgan. Undagi tilla suvi qo‘lyozmaga qaraganda insonga o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi. Rasmlar yaxshi saqlanishi uchun rasmlar o‘lchoviga mos ravishda qog‘ozchalar tikib chiqilgan. Bundan tashqari, bu qog‘ozchalar rasm bo‘yoqlari bilan yozuv siyohi aralashib ketmasligini ham ta’minlaydi. “Hayrat ul-abror” dostoni o‘rniga ko‘chirilgan “Lison ut-tayr” dostoniga 8 ta miniatura chizilgan. “Farhod va Shirin” dostoniga 9 ta, “Layli va Majnun” dostoniga 7 ta, “Sab’ayi sayyor” dostoniga 10 ta, “Saddi Iskandariy” dostoniga 13 ta miniatura chizilgan bo‘lib, barchasi asar matniga mos. Quyidagi jadvalda qo‘lyozmalarda kelgan miniaturalar sahifalarini keltirganmiz:

T/r	Dostondagi miniatura tartib raqami	Miniatura kelgan sahifa raqami
	“Lison ut-tayr”	
1.	1 miniatura	4a sahifa

[1] Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV– XX аср боши). – Т.: “ТАМАДДУН”, 2018. – Б.243.

[2] Исмаилова Э.М. Искусство оформления среднеазатской рукописной книги XVIII–XIXвв. – Т.: “Фан”,1982. – Б.95.

[3] М.Ҳакимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи, Ўзбекистон ССР. – Т.: “Фан”. 1983 – Б.144.

2.	2 miniatura	23a sahifa
3.	3 miniatura	30б sahifa
4.	4 miniatura	36a sahifa
5.	5 miniatura	39a sahifa
6.	6 miniatura	42a sahifa
7.	7 miniatura	48б sahifa
8.	8 miniatura	52a sahifa
“Farhod va Shirin”		
9.	1 miniatura	112б sahifa
10.	2 miniatura	116a sahifa
11.	3 miniatura	120a sahifa
12.	4 miniatura	122б sahifa
13.	5 miniatura	126a sahifa
14.	6 miniatura	152a sahifa
15.	7 miniatura	153a sahifa
16.	8 miniatura	159б sahifa
“Layli va Majnun”		
17.	1 miniatura	179a sahifa
18.	2 miniatura	189a sahifa
19.	3 miniatura	197a sahifa
20.	4 miniatura	204б sahifa
21.	5 miniatura	211б sahifa
22.	6 miniatura	217a sahifa
23.	7 miniatura	218б sahifa
24.	8 miniatura	223б sahifa
“Sab’ai sayyor”		
25.	1 miniatura	241б sahifa
26.	2 miniatura	243б sahifa
27.	3 miniatura	248a sahifa

28.	4 miniatura	249б sahifa
29.	5 miniatura	253б sahifa
30.	6 miniatura	266б sahifa
31.	7 miniatura	274a sahifa
32.	8 miniatura	281б sahifa
33.	9 miniatura	290a sahifa
34.	10 miniatura	295a sahifa
“Saddi Iskandariy”		
35.	1 miniatura	348б sahifa
36.	2 miniatura	354б sahifa
37.	3 miniatura	360a sahifa
38.	4 miniatura	371a sahifa
39.	5 miniatura	374a sahifa
40.	6 miniatura	380б sahifa
41.	7 miniatura	386б sahifa
42.	8 miniatura	391a sahifa
43.	9 miniatura	399a sahifa
44.	10 miniatura	405a sahifa
45.	11 miniatura	409б sahifa
46.	12 miniatura	411б sahifa

Umuman olganda, tadqiqotimiz ostidagi qo‘lyozmada keltirilgan miniaturalardan biz XIX asrlarda yurtimizda miniatura san’ati juda yaxshi rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu qo‘lyozma nusxasidagi barcha rasmlarga tilla suvi bilan bezak berilganligi o‘sha davrlarda kitobat san’tiga e’tibor katta bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Eng mo‘tabar, shohona qo‘lyozmalar hoshiyasi va matni asosi zarafshon, halafshon qilib oltin suvi bilan bezatiladi. “Xamsa” dostonlari va “Lison ut-tayr” dostoni kiritilgan ushbu mo‘tabar qo‘lyozmaning ham podshohlar, shahzodalar uchun yaratilgan eng noyob nusxalar qatorida yaratilgan yuksak badiiy saviyada kitobat qilingani XIX asrda markaziy Osiyoda kitobat san’ati yuksak darajada

tarqqiy topganini ko‘rsatadi va bunda Alisher Navoiy dostonlari kitobati san’ati hali ham o‘z mavqeyini yoqotmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

10. Navbatdagi 19 raqamli qo‘lyozma nusxasiga “Xamsa”ning uch dostoni kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilar: “Farhod va Shirin”, “Sabbai sayyor”, “Saddi Iskandariy”. Ushbu nusxa hijriy 1278, milodiy 1861–1862-yillardan ko‘chirilgan va u 369 varaqdan iborat. O‘lchami 16,5x26 cm.

Muzeydagi XIX asrga tegishli navbatdagi 65 raqamli qo‘lyozma nusxasiga “Xamsa”ning “Farhod va Shirin”, “Sab’ayi sayyor” dostonlarigina kiritilgan, xolos. U 1239/1823-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, umumiy hajmi 332 varaqni tashkil qiladi. Sahhof Muhammad Sharif G‘olib ushbu qo‘lyozmaning sahhofi hisoblanadi. Muqovasi to‘q qizil rangda va ustiga uchta muhr bosilgan. Bundan tashqari, keyinchalik muqovaning o‘ng burchagiga arab xatida kiritilgan dostonlarning nomi va inventar raqami yozilgan kichik qog‘ozcha yopishtirilgan. 2-sahifadan 187-sahifagacha “Farhod va Shirin”, 188-sahifadan 333-sahifagacha “Sabba’yi sayyor” dostoni o‘rin olgan. Kitobning o‘lchami 15x25,5 cm, matn esa 8x16,5 cmli jadval ichiga ikki ustun, 17 qator qilib ko‘chirilgan. Jadvallar qizil va yaltiroq rang bilan chizilgan bo‘lsa, sarlavhalar faqat qizil rangda. Kitobning hoshiya qismiga, nogoh qilingan xato so‘z va jumlalarni kotibning o‘zi to‘g‘irlab qo‘ygan. Qo‘lyozmada poygirlar ham mavjud.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy qo‘lyozmalari hali juda ko‘p izlanishlarga, tadqiqotlarga muhtoj. Ushbu maqolada o‘n bir qo‘lyozmadan oltitasi to‘liq tavsif qilindi. Boshqa ishlarimizda qolganlarini ham tadqiqotimiz ostiga olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy “Xamsa” qo‘lyozmalari. №163, 151, 17, 229/II, 224/II, 161, 162, 142, 23/II, 19, 65. Toshkent davlat adabiyot muzeyi fondi.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (nashrga tayyorlovchilar: M.Hamidova, T.Ahmedov). – T.: “Fan” nashriyoti, 1993.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon) 7-jild, – T.: “Fan”. 1991.
4. Изобразительное искусство Советского Узбекистана, Коллектив, Ташкент. “ГИХЛ”, 1957.
5. Пугаченкова.А., Л.И.Ремпель. История исскуств Узбекистана, –М., “Искусстова”, 1965.
6. Адабий Мерос, Ўзбекистон ССР – Т.: “Фан”. 1973.
7. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Ўзбекистон ССР., –Т.: “Фан”. 1983.
8. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Т.: “ТАМАДДУН”, 2018.

9. Исмаилова Э.М. Искусство оформления среднеазатской рукописной книги XVIII–XIX вв. – Т.: “Фан”,1982.

10. Хакимов. М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Ўзбекистон ССР. –Т.: “Фан”.1983.

TURSUNALIYEVA MUSLIMABONU
O‘qituvchi, tayanch doktarant, TDSHU
ORCID ID: 0000-0001-5127-8713

Ogahiy tarixiy asarlari qo‘lyozmalarining o‘ziga xos xususiyatlari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ogahiyning tarixiy asarlari qo‘lyozmalaridan “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshan davlat”, “Shohidul iqbol” hamda “Rahimqulixonning dushman toyifalari ustida qilgan yurishi” larning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilib, unga bugungi kun qadar Ogahiyshunos olimlar tomonidan berilmagan ayrim xususiyatlar keltirib berilgan. Qo‘lyozmalarning hamd va na’t qismiga ko‘proq e’tibor berilib, uning xususiyatlari ham ochib berilgan. Umumiy xususiyatlaridan har bir asar qo‘lyozma nusxalarining xattotlari, inventar raqamlari, o‘lchami, xat turi, siyoh turlari, qog‘oz turi, saqlanish holati haqida ma’lumot berilishi bilan bir qatorda, asar qo‘lyozmalarining fondlari, qo‘lyozmalardagi o‘xshashlik va farqli tomonlari o‘rganilib chiqildi, undagi har bir qo‘lyozma ko‘chirilgan yili, undagi o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlar mazmunga ta’siri yoritib berildi. Asar qo‘lyozmalarida arab harflari ifodalanishi, so‘zlardagi xatoliklar, sarlovhalarining berilishi qanday tarzda ekanligi qayd etildi. Adabiy janr nomlari, atoqli otlar, sarlovhalari va baytlari talqinidagi o‘ziga xosliklar keltirib o‘tilgan. Qur’on Karim oyatlari, Hadisi Sharif namunalari hamda arabiy duolarning ifoda qilishish holatlari ham berilishi, uning matnda qanday aks etishi, o‘quvchi aynan bu narsa jalb etishuchun ajratilish holatlari haqida ham ma’lumot berildi. Asardagi basmaladan to hotimagacha qanday berilganligi, poygirlarning ifodalanishi, qo‘lyozma matnidan tashqari matnlarni yozilishining sabablari keltirib berildi. Ayrim qo‘lyozmalarida keyinchalik qo‘shimchalar kiritilishi, ularning matn ma’no qirralariga ta’siri o‘rganildi. Harflardagi chalkashliklar, so‘zlarning ifoda etishdagi murakkabodlar talqin etildi.*

Kalit so‘zlar. *“Firdavs ul iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”,“Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidu iqbol”, qo‘lyozma, xattot*

Abstract. *In this article, from the manuscripts of Agahi's historical works, "Firdavs ul-Iqbal", "Riyaz ud-Dawla", "Zubdat ut-Tawarikh", "Jome ul-Waqeoti Sultani", "Gulshan davla", "Shahidul Iqbal" and " Rahimquli Khan's campaign against enemy groups" The specific characteristics of "walks on categories" are considered, and some features that have not been given to it by the scientists of Agahi until today are given. More attention is paid to the praise and praise part of the manuscripts, and its features are revealed. In addition to the general characteristics of the manuscripts, inventory numbers, size, type of letters, types of ink, paper type, and preservation status of each*

work, the fund of the manuscripts of the work, The similarities and differences are explored, the year each manuscript was copied, the changes in it, and the effect of these changes on the content. In the manuscripts of the work, the expression of Arabic letters, errors in the words, and how the titles were given were noted. Peculiarities in the interpretation of the names of literary genres, nouns, titles and stanzas are mentioned. The verses of the Qur'an, examples of Hadith Sharif and cases of expression of Arabic supplications, how it is reflected in the text, and the cases where it is separated in order to attract the reader, were also given information. The reasons for writing the texts other than the manuscript text were given, from the basmala to the hatima in the work. Later additions were made in some manuscripts and their effect on the meaning of the text was studied. Confusions in letters, difficulties in expression of words were interpreted.

Key words*. "Firdavs ul Iqbal", "Riyaz ud-Dawla", "Zubdat ut-Tawarikh", "Jome ul-Waqeoti Sultani", "Gulshani State", "Shahidu Iqbal", manuscript, calligraphy*

Аннотация. *В данной статье взяты из рукописей исторических трудов Огахи «Фирдавс уль-Икбал», «Рияз уд-Давла», «Зубдат ут-Таварих», «Джоме уль-Вакеоти Султани», «Гульшан давла», «Шахидул Икбал». и «Поход Рахимкули-хана против вражеских группировок». Рассмотрены специфические характеристики «прогулок по категориям», а также приведены некоторые особенности, не приданные ему учеными Агахи до сегодняшнего дня. Больше внимания уделяется хвалебной и хвалебной части рукописей, раскрываются ее особенности. Помимо общей характеристики рукописей, инвентарных номеров, размера, вида букв, видов чернил, типа бумаги и сохранности каждого произведения, рукописного фонда произведения, исследуются сходства и различия, год копирования каждой рукописи, изменения в ней и влияние этих изменений на содержание. В рукописях произведения отмечено выражение арабских букв, ошибки в словах, способах давания названий. Отмечаются особенности интерпретации названий литературных жанров, существительных, заглавий и строф. Также были даны сведения о аятах Корана, примерах хадисов Шарифа и случаях выражения арабских молений, о том, как это отражается в тексте, а также случаях, когда оно разделяется с целью привлечения читателя. Приведены причины написания иных, чем рукописный текст, текстов от басмалы до хатимы в произведении. Позднее в некоторые рукописи были внесены дополнения и изучено их влияние на смысл текста. Толковались путаницы в буквах, трудности в выражении слов.*

Ключевые слова*. «Фирдавс уль Икбал», «Рияз уд-Давла», «Зубдат ут-Таварих», «Джоме уль-Вакеоти Султани», «Гульшани Давлат», «Шахиду Икбал», рукопись, каллиграфия*

Ogahiy keng tarmoqli ijodkor bo‘lib, uham tarix, ham tarixiy-badiiy, ham tarjima yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z asarlarini qoldirgan. Uning ilk tarixiy asarlar ishidan ustozi Munis boshlab qo‘ygan, ammo, tamomlay olmagan tarixiy “Firdavs ul-iqbol” asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid “Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” va “Qasidai nasihat” nomli tarixiy asarlar yozdi. Ushbu asarlar qo‘lyozmalarining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p ilmiy ishlarda talqin qilingan, biz

ushbu ilmiy ishda uchraman qismlarini keltirib o‘tishga harakat qildik va ularni quyidagicha berdik.

1. “Firdavs-ul iqbol” (“Baxt bog‘i” yoki “Baxt-saodat bog‘i”)

Munis va jiyani Ogahiy qalamiga mansub bo‘lib, u afsonaviy rivoyatdan boshlanib, 1825 yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Munis bu asarni yozib tugata olmagan, u qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon (1806-1825) hukmronligining 7-yili, ya’ni 1813 yilgacha bo‘lgan voqealarni yozib ulgurgan, 1813- yildan 1825-yilgacha bo‘lgan voqelar Ogahiy qalamiga mansub bo‘lib, hijriy 1255 (milodiy 1839) yili yozib tugallangan. Asar Xiva xonligi hududida yashovchi o‘zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Asarni mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo‘lyozmasiga mansub bo‘lib 613 bet, asar Samarqand qog‘oziga, qora siyoh bilan nastaliq xatida yozilgan.

“Firdavs ul iqbol”ning mazkur nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasining, Sankt-Peterburg bo‘limida KP-938 raqami bilan saqlanmoqda, uni rus sharqshunosi A.Kun 1874 yilda topshirgan. Asar keyinchalik, 1856 yilda mulla Nurniyoz ibn mulla Muhammadniyoz tomonidan ko‘chirilgan. Asarga 1879 yilda Muhammad Rizo Oxund ibn Muhammad Karim devon tartib bergan.

“Firdavsu-l-iqbol”ning to‘qqizta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib {Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи.– Тошкент: Фан, 1986}, ulardan ikkitasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari intitutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-1 (590 ov), oltitasi O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1), yana bir nusxasi esa Xelsinkida{Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи.– Тошкент: Фан, 1986} saqlanmoqda.

Asarning O‘zb FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan qo‘lyozmalari haqida quyidagicha ma’lumotlar mavjud{ O‘zbFA Sharqshunoslik instituti asasiy fondidagi 821/I, 5364/I, 9979/1, 5071, 7422 raqamli qo‘lyozmalar }

- Birinchi qo‘lyozma inventar raqami 821/1 bo‘lgan qora rangli bo‘lib, jami 422 betni tashkil qiladi va unda ushbu asarni 1-259 betigacha aks ettirgan. Razmeri 26,5x43,5 smni tashkil etadi. Ushbu qo‘lyozma saqlanish jihatdan yaxshi saqlangan.

Qo‘lyozma qora siyoh bilan yozilgan, lekin ichida qizil rangli yozuvlar ham mavjud. Har betida 26 qatorli matn kiritilgan. Nuqtalar o‘rniga uch qizil nuqtadan foydalanilgan. Qur’on oyatlari va hadislardan namunalar qizil rangda bitilgan. Poygirlari ham mavjud bo‘lib, bir qatorga sig‘magan so‘zlar bo‘lsa, o‘sha qatorni ust qismiga ham yozgan joylari bor. Yuqoridagi ma’lumotlar bugungi qadar Ogahiyshunos olimlar tomonidan berilgan ammo quyidagilarni o‘rganib chiqdik.

1. Matn berilishda zich berilgan bo‘lib, tugallangan fikrni o‘quvchi diqqat bilan o‘qimasa, topishi qiyin.



2. Qo‘lyozmada harflar nuqtalari ham chalkash berilgan bo‘lib, ba’zan “t’ harfining nuqtalari pastda berilishi ham kuzatilgan.

3. Sin, nun harflari ham juda o‘xshash keltirilgan. “G” va “K” harflari ham deyarli o‘xshash yozilgan, ularni farqlab olish uchun o‘quvchi eski turkiy tilni mahorat bilan bilishi talab etiladi.



4. Matn ham nazmiy, ham nasriy usulda yozilganligi, asardagi she’riy parchalar berilishi, baytlar orasi uch nuqta bilan ajratilganligida ko‘rish mumkin.



5. Ba’zi o‘rinlarda so‘zlar keyingi so‘z bilan ulanib ketilgan. Matndagi so‘zlarning harflari uch satrli qilib yozilgan o‘rinlari ham juda ko‘p.



- Ikkinchi qo‘lyozma inventar raqami 5364/1 bo‘lib, mazkur asarning 1-246 betlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘lyozma jildi qizil hisoblanib, sarlovhalari ham qizil rangda qilib erilgan. Qo‘lyozmada qatorlar soni 25 ta tashkil etadi, 1322 hijriy yilda ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma matni 27 qatordan iborat bo‘lib, matn berilishi zich tarzda. Qora siyohda asosiy matn berilgan bo‘lsa, she’riy janrlar nomlari qizil bilan ajratilgan. She’riy baytlar orasi uch qizil nuqta bilan alohida holatga keltirilgan bo‘lsa, Qur’oni Karim oyatlari va hadisi shariflardan namunalarning tagiga qizil chiziq tortililgan. Yuqoridagi umumiy ma’lumotlar bugungi kunga qadar o‘rganilgan, biz quyidagilarni qo‘shimcha qilamiz:

1. Sartlardagi so‘zlar o‘sha qatorda sig‘masa, bo‘g‘inlari, hatto bir harf ham, satr tepasiga yozilgan.

2. Nuqtali harflar berilishida bir qancha qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ba’zan ikki yonma yon kelgan nuqtali harflarning nuqtalari bittasini ustiga yozilganligini ham ko‘rish mumkin.

3. “G” harfi k harfi tarzda berilib ketaverilgan.

4. Qur’on oyatlari arabiy tilda berilgan bo‘lib, unga hech qanday tarjima va sharh berilmagan.

5. Qo‘lyozma matnida turkiy so‘z bilan bir qatorda arabiy va forsiy so‘zlar tengma teng qo‘llanilgan.

6. Hamd va na’t qismida arabiy leksemalar juda ham ko‘p uchraydi.
7. Dal va wow harflari juda o‘xshash bitilgan bo‘lib, diqqat bilan o‘qish talab qilinadi.
8. Mim va ha (hoyi havvas) harflari ham judayam o‘xshash berilgan.
9. So‘zlar qatorlarda ustunma ustin yozilganligi sababli ba’zan nuqtali harflar nuqtasi boshqa bir so‘zning ostidagi so‘zga tushib qolganligini ham uchratish mumkin. (qo‘lyozma rasmi)



- Uchinchi qo‘lyozma inventar raqami 9979/1 bo‘lgan qo‘lyozma bo‘lib, bosh betlari mavjud emas. Sarlovhalari va Qur’oni karimdan keltirilgan oyatlar katta-katta qizil rang bilan berilgan. Biz tomonimizdan quyidagilar aniqlandi:

1. Qo‘lyozmaning ayrim betlarida joylar tashlab ketilgan, masalan, 250a betida.
2. U 1321 hijriy yilda ko‘chirilgan. Qo‘lyozmani boshlanishi mavjud emas.
3. She’riy baytlar qizil uch nuqta bilan ajratilgan.
4. Matnlar har bir betga 17 qatordan berilgan bo‘lib, matn tushunarli yozilgan.
5. Ayrim betlarda matnlar tagi qizil bilan chizilgan.
6. Qur’on oyatlari harakatlari bilan ko‘chirilgan.
7. Harflar aniq va nuqtalari aynan o‘sha harf ostida qo‘yilgan. (qo‘lyozma rasmi)



- To‘rtinchi qo‘lyozma inventor raqami 5071 bo‘lib, 312 betni tashkil etadi. Biz uning quyidagi xususiyatlarini keltirib o‘tamiz.

1. Qo‘lyozma matnlaridan tashqari chetlariga izohlar ham keltirilib o‘tilgan.
2. Qatorlar soni 23 tani tashkil etadi, ushbu qo‘lyozma ilk betlarida kimlar o‘qib o‘rgangan bo‘lsa ismlari yozib qo‘yilgan.
3. Ushbu qo‘lyozmada 2020 yilning dekabr oyida asarning bir neha sahifalari (284b, 295, 295b) ustida boshqa qog‘oz yopishtirilib, unga ham matn yozilgani, tagidagi birinchi matn o‘qish uchun yaroqsiz ekanligi aniqlanganligi haqida keltirib o‘tiladi. Keyinchalik taqiqotchilar qog‘oz ostidagi matnga qiziqishlari tufayli, asosiy sahifa ustiga yopishtiilgan qog‘ozlarni har ikki matnga ham zarar yetkazmagan holda ko‘chirib olishgan va sahifalar orasiga tikib, o‘rnatib qo‘yishgan. Shu tufayli kitobda qo‘shimcha 3 sahifa (394b/2, 395a/2, 395b/2) paydo bo‘lgan. Ushbu amaliy jarayonlar M.Salimov va B.Xodjayeva tomonidan o‘tkazilgan.

4. Qo‘lyozma matni asosan qora siyohda bitilgan, ammo nazmiy janrlar nomlari qizil bilan berilib, baytlar orasi uch nuqta bilan ajratilgan. Qur’on Karim oyatlari va Hadisi sharif namunalari tagiga qizil siyoh bilan chizilgan. Ayrim betlarida matndan tashqari izohlar keldirilgan, masalan, 3b, 5a, 14 b,15b, 16b, 45b, 163b shu kabilarda. Matndagi voqea yillari ham matndan tashqari chet tomonlarida yozilgan. Ayrim tarixiy voqealiklar qizil siyoh bilan bitilgan.

5. Qo‘lyozma matnida xattot tomonidan biror so‘zda hato ketib qolgan bo‘lsa, ustida chizib qo‘yilgan va to‘g‘ri so‘z o‘sha chizilgan so‘z ustiga yozilgan. Buni 311b, 274b, 266b shu kabilarda ko‘rish mumkin.

6. Ba’zi betlarda siyohrang bilan chizilgan joylari ham mavjud, masalan 9a. Sarlovhalar ham matndan qizil siyoh bilan bitilib ajratilgan.

7. Asardagi inson, ya’ni qahramonlar ismlari ham goh qizil siyohda bitilgan bo‘lsa, goh ikki tomondan qo‘shtirnoqdek “mim” harfi bilan ajratilgan. Yozuvda harflar noaniq yozilgan joylari ham ko‘p uchraydi.

8. Qo‘lyozma ustida tamg‘a bo‘lib, saroy kutubxonasi uchun yozilgan.

- Beshinchi qo‘lyozma inventar raqami 7422 bo‘lib, 168 sahifani tashkil qiladi. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Yozuvlari keng berilgan. Kitob ham nisbatan katta bo‘lib, saroy ahli uchun ko‘chirib yozilgan. Biz uning ya’na quyidagi xususiyatlarini berib o‘tamiz:

1. Qo‘lyozmani boshlanish betlari, ya’ni hamd qismi mavjud emas, ammo so‘zlari aniq yozilgan. Qo‘lyozma na’t qismdan boshlangan.

2. Qo‘lyozma atrofiga qora qalamlar bilan izoh bitilgan. Qo‘lyozma matni asosan qora siyohda bitilgan bo‘lsa, adabiy janr nomlari va sarlovhalarigina qizil siyoh bilan yozilgan. Nazmiy jarndagi baytlar orasi uch qizil nuqta bilan ajratilgan. Qur’on Karim oyatlari va hadishi sharif namunalari tagiga qizil chiziq bilan ajratilgan. Poygiri mavjud. Matn har bir betiga 17 qatordan berilgan.

3. Ayrim so‘zlarning oxirgi harflari o‘sha so‘z ustiga chiqqanligini ham ko‘rish mumkin, (12a, 13b bet kabilarda).

4. Ayrim arabiy matnlarda harakatlar ham qo‘yilgan, buni 18b, 55b betlarda uchratish mumkin.

5. Qo‘lyozmada 35bdan 38a betlarigacha hech qanday matn mavjud emas. Ba’zi o‘rinlarda poygirlar qator matniga qo‘shilib ketish holati ham bor, buni 54a betdagi آ ميزنا so‘zi misolida ko‘rish mumkin.

6. Qo‘lyozmadagi ayrim so‘zlar qator so‘zlarining tepasida ham yozilgan.

7. Nazmiy baytlar orasini ba’zi o‘rinlarda خ“xo” harfi bilan ham ajratilganini ko‘rish mumkin. (82a,b betlar kabi).

8. Ba’zi betlarda matndan tashqari yon tomonlarda ayrim so‘zlar eslatma sifatida yozib qo‘yilgan.

9. Matnda asar qahramonining duolardagi so‘zlar matnda yaqqol ko‘zda tashlanishi uchun, harflar chozibroq va aniq katta- katta, keng qilib yozilgan, buni 100a betida uchratish mumkin.

10. Ba’zi o‘rinlarda xattot matndagi so‘zlarni tashlab ketgan bo‘lsa, tashlab ketilgan joydan tepaga qarab nuqtachalar chiqarib, tashlab ketilgan so‘zlarni yozib ketgan. (104b betda buni ko‘rish mumkin).

11. Qo‘lyozma oxirida nazmiy baytlar orasi naqshkor belgi bilan ajratilganligi ham bor, buni 155b betdagi nazmiy baytlarda ko‘rish mumkin.

12. Qo‘lyozma ayrim betlari yirtilgan, ammo matn asliyatiga putur yetmagan.

- Oltinchi qo‘lyozma inventar raqami 275 hisoblanadi { O‘zbFA Hamid Sulaymonov fondi). Qo‘lyozmada matnlar tiniq berilgan, sarlovhalar qizil rang bilan ajratib berilgan. Ushbu qo‘lyozma judayam kata o‘lchamda bo‘lib, qog‘ozi ham ancha eskirganligini ko‘rish mumkin. Qo‘lyozma betlari yirtilgan joylari ham bor. Matn har bir betga 29 qatordan yozilgan. Matn qora siyohda yozilgan bo‘lib, adabiy janr nomlari, sarlovha nomlari qizil siyohda yozilgan. Arabiy matnlar, ya’ni oyatlar va hadislar tagiga qizil chiziq tortilgan. Nazmiy baytlar orasi uch nuqta bilan ajratilgan. Matndagi nuqtali harflar nuqtalari ba’zi o‘rinlarda boshqa harflar ostiga va ustiga tushib qolish holatlari bor. Matn tagiga poygirlar berilgan. Qo‘lyozmada betlar kitobdan ajralib qolgan holati ham mavjud. Ushbu ma’lumotlarga biz tomonimizdan quyidagilarni berib o‘tamiz:

1. Ba’zi joylardagi matn qora siyohda, to‘q shaklda yozilgan, masalan, 8a qismning 15 qatordagi “Ya Nuh alayhi salom” so‘zi. Asardagi payg‘ambarlar ismlari va podshoh ismlari qizil siyoh bilan ajratib yozilgan.

2. So‘zlar orasida bo‘yalib ketgan joylari ham mavjud, masalan, 28b betidagi 28-29 qatorlar, 107a 27-qatori yoki 42a 3-4 qatorlarida ko‘rish mumkin.

3. Betlar arabiy raqamlar bilan qo‘yilgan.

4. Qo‘lyozma matnidan tashqari yon tomonlarida eslatmalar ham mavjud, 109b, 135b, 152a.

5. Xato ketib qolgan so‘zlar ustiga qizil siyoh bilan chiziq tortilgan, bu holatni 76b 14 qatorida, 147b 2 qatorida ko‘rish mumkin.

6. Qatorlar oxiridagi harflar cho‘zibroq yozilgan. 149b va 150a qatorning 19-20 qatorda siyoh to‘kilgani sabablimi, matn so‘zlari mushkuldur.

7. Asarning xotimasida asar ko‘chirilib o‘tilgan yil 1327 hijriy yil yozib qo‘yilgan.

“Riyoz ud-davla” (“Davlat riyozatlari”)

Ushbu 1825 yildan 1842 yilgacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu asar Ogahiy tarafidan hijriy 1260 (milodiy 1840) yilda yozilgan. Ogahiy bu asarni yozishda o‘sha davr tarixchilarining an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlaydi. Dastlab o‘z hayoti haqida qisqacha gapirib, Xiva xoni Olloqulixonga maqtovlar bag‘ishlaydi. Undan so‘ng tarix ilmiga ta’rif berib, bu asarning yozilishiga

sababchi bo‘lgan shaxslar haqida gapiradi. So‘ngra Olloqulixonning tug‘ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni bayon etadi.

Asar orqali Ogahiyning hayot yo‘li va ijodiy faoliyatini ham o‘rganish mumkin. Bu asarning bir necha nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida, shuningdek, bir necha nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. { O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 821/II, 5364/II, 7474 raqamli qo‘lyozmalar}

- Birinchi qo‘lyozma O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 821/II raqamlik nusxa yaxshi saqlagan bo‘lib, nasta’liq xatida, qora siyoh bilan ko‘chirilgan. Matn 25 satrdan iborat. Boblar nomlari va ajratilgan so‘zlar qizil siyohda o‘sha davr an’anasiga xos ravishda kitobat qilingan. Asar 1298/1880-81 yili ko‘chirilib, 117 varaqdan iborat, o‘lchovi 26,5x43,5 sm. Kotibi Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon. Ushbu asar qo‘lyozmaning 269-385 betlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlar bilan bir qatorda quyidagilarni havola etamiz:

1. Matn judayam zich berilgan.
2. Ayrim nuqtali harflarning nuqtalari tushub qolgan. Adabiy jarnlardan qit’a, ruboiy, munojaat, musanna va boshqalar qizil harflar bilan yozilgan bo‘lib, baytlar orasi qizil uch nuqta bilan ajratilgan.
3. Qur’on oyatlari qizil rang bilan arabiy tilda yozilgan, ammo uning sharh va tarjimasi berilmagan.
4. Poygir mavjud.
5. Harflar va so‘zlar judayam chalkash berilgan.



- Ikkinchi qo‘lyozma 5364/II raqamli mazkur asarning nusxasi ham yaxshi nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Qora siyohda Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan, matni 25 satrdan iborat. Qo‘lyozma Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug‘iga ko‘ra 244 varaqda ko‘rsatilishicha 5 rajab 1321-1904 yil 27 sentyabrda ko‘chirilgan.

Mazkur xususiyatlariga biz tomonimizdan quyidagilarni keltirib o‘tamiz:

1. Boblar nomi va ajratilgan so‘zlar qizil siyohda berilgan.

2. Kotibi Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon. Biroq 345 varaqdan boshlab, xat biroz o‘zgargan, bundan asarning davomini boshqa kotib ko‘chirgan, degan xulosaga kelish mumkin.

3. Qo‘lyozma basmala bilan boshlangan, hamd va na’t qismi berilgan.

4. She’riy janrlarning nomlari qizil harflar berilgan bo‘lib, baytlar orasi qizil uch nuqta bilan ajratilgan. Qur’on oyatlari va hadisi sharif namunalari qizil bilan chizilgan. Poygir ham mavjud. Qo‘lyozma matni ham nasriy, ham nazmiy shaklda yozilgan.

5. Ayrim joylarida so‘zlar qizil bilan yozilgan bo‘lib, masalan “amma baad” kabi so‘zlar.

6. Hamd va na’at qismlarida eski turkiy tildan tashqari arabiy, forsiy so‘zlar bir xil shaklda qo‘llanilgan.



- Uchinchi qo‘lyozma 7474 raqamli bo‘lib, hijriy 1321 (milodiy 1903) yilda ko‘chirilgan. Nasta’liq xatida yozilgan. 191 sahifadan iborat. Har sahifa 13 qatorni, 15,5x25 smni tashkil etadi. Ushbu qo‘lyozma boshida izoh yozilgan bo‘lib, bunda ushbu asarning boshqa qo‘lyozmalari haqida yozilgan. Qo‘lyozma judayam yaxshi saqlangan bo‘lib, undagi yozuvlar aniq va harflar yaqqol yozilganligi bilan boshqa qo‘lyozma matnlaridan farqlanib turadi. Sarlovha, arabiy matnlar, adabiy janr matnlari, nazmiy baytlar orasi uch nuqta qizil siyoh bilan yozilgan. Har bir varoqda poygir berilgan. Olimlarimiz tomonidan berilgan xususiyatlarga biz quyidagilarni qo‘shimcha qilamiz:

1. Matn berilish davomida 47b varoq bo‘sh qoldirilgan.

2. Asar matnida bo‘yalib ketgan, xato qilib chizilgan, yon tomonlaridagi izohlar keltirish kabilar mavjud emas.

3. Matn so‘zi agar qatorga sig‘masa ustiga yozib qo‘yishlik holati bor.
4. Qo‘lyozmaning matnni yakunidan so‘ng qo‘shimcha ikki varoq ajratilgan.
5. Matn nazm va nasriy aralash usulda berilgan.

- To‘rtinchi qo‘lyozma 275 raqam bilan {O‘zb FA Hamid Sulaymonov fondi} saqlanadi. Ushbu asar “Firdavs ul-iqbol” asaridan keyin 201b betdan boshlanadi. Asosiy matn 202a betdan boshlanib, betning o‘rtaroq qismida basmala bilan boshlangan. Matn har bir betiga 29 qatordan berilib, poygirlari mavjud. Matn qora siyohda yozilgan bo‘lib, adabiy jarn nomlari, baytlari orasidagi uch nuqtalar qizil siyoh bilan ajratilgan. Arabiy matnlar tagiga qizil siyoh bilan chiziq tortilgan. Asar hamd, na’t qismlardan boshlanilgan. Ushbu umumiy xususiyatlarga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki:

1. Matnda ayrim xato berilgan so‘zlarni ustiga qizil siyoh bilan chiziq tortililgan, 203a betining 26 qatorida, 219a betning 10qatorda uchratish mumkin.
2. Qo‘lyozma matnidan tashqari yon tomonlarida eslatmalar yoki izohlar mavjud, 205b, 206b, 207a betlarda.
3. Matnda sarlovhalar ham aniq qizil siyoh bilan ajratib yozilgan. Agar matnda biror bir so‘zning harfi o‘sha qatorning tugallashida sig‘may qolsa, matning yuqori qismiga yozib ketilgan, 217b betning 1-qatorida ko‘rish mumkin.
4. “Kaf” va “gaf” harfi ajratilmagan, bir xil shaklda “kaf” kabi yozilib keltirilgan.
5. Ba’zi o‘rinlarda so‘zlar boshqa so‘zlar ustida yozilganligini uchratish mumkin.
6. Nuqtali harflarda ham chalqashliklar mavjud.
7. So‘zlar orasida bo‘yalgan holatlarini ham uchratish mumkin.
8. Yil nomlari hijriyda matndan tashqari berilgan joylari mavjud.
9. Qo‘lyozma jildidan ajralib ketgan betlari mavjud. Asar qo‘lyozmaning 300a betida yakunlangan. Uning oxirida hijriy 1327 yil yozilganli berilib ketilgan.

Mazkur asarning yana ikki nusxasi Rossiya FA qo‘lyozmalar instituti fondida saqlanadi. Ularning birinchi 113 varaq, ikkinchisi 256 varaqdan iborat. Ikkovi ham nasta’liq xatida yozilgan.

“Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”)

XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qo‘lyozma manbalardan yana biri 1262 (1845-1846) yili Ogahiy tarafidan yozilgan “Zubdat ut-tavorix” nomli asardir. Bu asar “Riyoz ud-davla” asaridan keyingi davrni, ya’ni 1843 yildan 1846 yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi.

“Zubdatu-t-tavorix”ning besh qo’lyozma nusxasi yetib kelgan bo’lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo’lyozmalari institutida (Ye 6 – V (590 ob) ashyo raqami ostida, yana biri Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida (sobiq S. Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida) T.N.S. – 22 ashyo raqami bilan, uchtasi O’zb FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik institutida (821/111, 5364/111, Hamid Sulaymonov fondi, 275/11) saqlanadi.

Asarning Toshkentdagi nusxalari qisqacha tavsifi quyidagicha:

- Birinchi qo‘lyozma O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida bu asarning ikki to‘liq nusxasi saqlanmoqda. Bu asarning 821/III raqamli nusxasi yaxshi nasta’liq xatida qora siyoh bilan qo‘qon qog‘oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. “Zubdat ut-tavorix” tarixiy asar bo‘lsa-da, yuksak badiiy mahorat bilan yozilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Matn har bir betda 25 qatordan berilgan. Qur’on oyatlari va Hadisi sharifdan namunalar qizil rang bilan berilgan. Poygir berilgan. Yuqoridagi ma’lumotlar olimlar tomonidan berilgan, biz unga quyidagilarni qo‘shimcha qila olamiz:

1. Yozuvda so‘zlar va harflardagi nuqtali harflarda chalqashlik bor.
2. Qatorlardagi matn so‘zlari uch sartli berilishi ham o‘quvchini biroz chalg‘itish yuz beradi.
3. Sin, pa, ba, mim harfi uzun shaklda berilgan .



Asarning avvali: «Siposi vofir tuhfasi ul sultoni azamat nishon ostonig‘a nisordurkim...», so‘zlari bilan boshlanib, oxiri: . «Donish ahlining xotiri xatirlariga ma’lum bo‘lsinkim, bu muxtasarning (Zubdat ut-tavorix) ta’lifi (Rahimqulixonning) vafotidan so‘ng sanai hijriya 1262 yilda ilon yili rabi ul-avval oyining to‘rtida, dushanba kuni [1845 2 mart] ihtimom topdi. Sahvu xato va nuqsonin ayb qilmay ma’zur tutsinlar, balki lutf va karam ko‘rguzib, isloh bersinlar... Tammat ul-kitob sanai 1279 /1879-80. Roqimi in kitob Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon marhumiy» so‘zlari bilan tamom bo‘ladi. Asar 50 varaqdan (386b-435a) iborat. Asarning 821/ II raqamli nusxasi ham nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, 50 varaqdan iborat. Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devoni tomonidan qo‘lyozma Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug‘iga ko‘ra 1279/1879-80 yili saroy kutubxonasi uchun ko‘chirilgan.

- Ikkinchi qo‘lyozma 5364/III raqamli nusxa bo‘lib, u hijriy 1260 yil (milodiy 1844 yil) yozilgan. Hijriy 1321 yil (milodiy 1903 yil) ko‘chirilgan. Asar 54 sahifani tashkil etadi. 418-365 sahifalarni o‘z ichiga oladi. 25 qator, 28x43 sm tashkil etadi. Biz bularga quyidagilarni qo‘shimcha qilamiz:

1. Matn judayam zich berilgan.
2. Qur’on Karim oyatlari va Hadisi sharif namunalari berilgan bo‘lib, uni tagi qizil bilan chizilgan.

3. Nazm qismida baytlar orasi uch nuqta bilan ajratilgan.
4. Nasriy qismida asosan Qur’on oyatlari berilgan bo‘lib, izohlari ham nasrda berilgan.



- Uchinchi qo‘lyozma Hamid Sulaymonov fondida bo‘lib, u inventar raqami 275 II ostida saqlanib, Mulla Xudoyi Birkon tomonidan hijriy 1329-yil ko‘chirilgan. O‘lchami 27,5x48 sm tashkil etadi. Sahifalar soni 300-332 varaqdan iborat. Har sahifada 29 yo‘l matn berilgan. Yozuvi nasta’liq. Asar matni basmala bilan boshlangan. Hamd qismi yarim betcha berilib, na’at qismiga o‘tilgan. Asarning matni asosan qora siyoh bilan bitilgan, Adabiy janr nomlari, atoqli otlar, sarlovhalari va baytlari orasidagi uch nuqta, hamda arabiy matnning tagidagi chiziqlar qizil siyoh bilan bitilgan. Ushbu xususiyatlar bilan bir qatorda:

1. Matn so‘zlari bir muncha qiyinroq yozilgan bo‘lib, ba’zi o‘rinlarda so‘zlar bir birini ustida yozilganligini, ba’zi o‘rinlarda nuqtali harflarni chalqash shaklini ko‘rish mumkin.
2. Dal, waw va ro harflari deyarli o‘xshash bo‘lsa, kaf va gaf harflari kaf shaklda yozilgan.
3. Matnda ruboiy, g‘azal, munojaat qit’a kabi adabiy janrlarni uchratish mumkin. Matnda xato ketgan so‘z ustiga qizil siyoh bilan chizib qo‘yilgan, (312b betning 14-qatorida).
4. Matndagi ayrim so‘zlar judayam to‘q yozilgan bo‘lib, bu ba’zan so‘zlarni bo‘yalishiga olib kelgan.
5. Poygir bu asar matnida ham berilgan.
6. Asarda asosiy mavzu matnlari ham qizil siyohda bitilgan, buni 314b betning 13-16 qatorda hamda, 315b betning 23-28 qatorgacha, 334b 16-21 qatorgacha berilgan matnda ko‘rish mumkin.
7. Ushbu asar matni yozilgan betning jildidan ajralish holatlari bor.
8. Matnda yana alif harfi so‘zlarda ajralgan holatda ham yozilgan.
9. Sin, sa, shin harflari esa cho‘zilibroq yozilgan.
10. Qo‘lyozma oxiriga kelib qog‘ozlar yopishitirilgan bo‘lib, matnga teskari ravishda yopishitirib qo‘yilgan.

11. Asar matni nazmiy baytlar bilan xotima topib, albatta ko‘chirilgan hijriy 1328 yil bitilgan va saroy tamg‘asi qo‘yilgan.

“Jome ul-voqeoti Sultoniy” (“Sultonlik voqealarini jamlovchi”)

Ushbu asar 1856 yili yozib tugallangan bo‘lib, unda uch nafar Xiva xoni – Muhammadaminxon (1846-1855), Sayid Abdullaxon (1855) va Qutluqmurodxon (1855-1856) davri tarixi hikoya qilinadi. Mavjud tarixnavislik an’anasiga muvofiq, asarda xonlarning harbiy yurishlariga keng o‘rin ajratilgan. Ayni paytda, biz bu yerda qo‘shni davlatlar bilan elchilik almashish, turli shaxslarning mansablarga tayinlanishi, tavallud va vafot sanalari, xonlikda amalda oshirilgan bunyodkorlik ishlari (madrasalar qurilishi, kanallar chiqarish va hokazo) va boshqa qator mavzularga doir ma’lumotlarni topishimiz mumkin.

Matn asarning Sankt Peterburg va Toshkentda saqlanayotgan ikkita mavjud qo‘lyozmasi asosida tuzilgan. Shuni ta’kidlash joizki, barcha qo‘lyozmalarni sinchiklab tadqiq qilgan N. Toshev O‘zbn FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Toshkent nusxasi Ogahiyning dastxati ekanligini isbot qildi. Bu hol esa matnning ishonchliligini oshirishi barobarida Ogahiy ijodini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun ham juda muhimdir.

Mazkur nashr adabiyotshunoslarga Ogahiyning nazmiy merosini ham yanada to‘liqroq tadqiq qilish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. “Jome ul voqeoti sultoniy”da jami 160 ta o‘zbek va fors tillaridagi she’riy parchalar keltirilgan bo‘lib, bularning aksariyati muallifning o‘z qalamiga mansubdir.

Matn olti turdagi ko‘rsatkichlar (shaxs ismlari, joy nomlari, toifalar, mansablar, Qur’on oyatlari, hadislar ko‘rsatkichlari)dan tuzilgan bo‘lib, ular kitobdan foydalanishni ancha qulaylashtiradi.

Asarning 9786 raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozma - nasta’liq yozuvida yozilgan bo‘lib, 310 sahifani tashkil etadi. Har bir sahifada 17 qatorli matn berilgan. Poyriqlari ham mavjud. Asar o‘lchami 14,5x25,5 smni tashkil etadi. Qo‘lyozma yaxshi saqlanmagan. Mazkur xususiyatlarga biz quyidagilarni qo‘shamiz:

1. Qo‘lyozma matni qora bilan, Qur’on oyatlari va nazm aks etgan joylari qizil bilan aks etgan.
2. Matn yozuvlarida chalqashlik bor, qog‘ozlarida qorayishlar mavjud.
3. Nuqtali harflar nuqtalari bir birini ustiga chiqish aks etgan. Ayrim betlarida matnni yon tomonlarida so‘zlar aks etgan. So‘zlardagi sin, gaf, kaf, mim, dal va waw harflari judayam chalkash berilgan.
4. Matnni o‘qishga qulay tomoni undagi so‘zlar ajratilib, aniq qilib berilganligi bo‘lib, o‘quvchi diqqat bilan o‘qisa, matn mazmuni tushunishi osonlashadi.
5. Qo‘lyozma judayam yomon saqlangan bo‘lib, qog‘ozlari sarg‘aygan bo‘lsa ham ushbu asarni hozirda bitta qo‘lyozmasi sifatida ko‘rish mumkin.

6. Matnda so‘zlardagi qo‘shimchalar ba’zi joylarda so‘zlardan ajratilganligini ko‘rish mumkin. Bir qatorga to‘rt va besh so‘zlardan iborat.

7. Qo‘lyozma matni “Bismillahir rohmanir rohiim” kalomi bilan boshlanib, hamd, na’t qismlari, asosiy qism va xotimadan iborat.

8. Qator so‘zlari biror harfi o‘sha qatorga sig‘masa qatorning tepasiga o‘sha harf yozilgan joylari ham mavjud.

9. Qo‘lyozmada asosan kaf va gaf harflarini ajratish qiyin.

“Gulshani davlat”

“Gulshani davlat” 1865 yilda yozilgan bo‘lib, Sayid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan. Bu asarning uchta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ikkitasi Sankt-Peterburgda, bittasi O‘zb FAAbu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanayotgan qo‘l-yozma 7572 raqam ostida bo‘lib, hijriy 1321 (milodiy 1904) yilda ko‘chirilgan. Nasta’liq yozuvida yozilgan. Asar 283 sahifani tashkil etadi. Har bir sahifada 13 qator matn berilgan. Asar kitobining o‘lchami 15x23,5 smni tashkil etadi. Mazkur xususiyatlarga quyidagilarni qo‘shimcha qilib o‘tamiz:

1. Asarni matni basmala bilan boshlanadi.

2. Arabiy harflarning yozilishida bir muncha qiyinchilik mavjud. Yozuv, asosan, qora siyoh bilan yozilib, adabiy janr nomlari, baytlar orasidagi uch nuqta va arabiy matnlar ostidagi chiziqlar qizil siyoh bilan yozilgan. Asar har bir bobining matni ham nasriy, ham nazmiy usulda yozilgan bo‘lib, unda munojat, bayt, fard kabilardan tashqari, Qur’on oyatlari va hadishi sharif namunalari ham keltirilgan. Matn tagiga poygir berilgan. Asarning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi matnga yetganda, uning sarlovha qismini masnaviy usulda qizil siyoh bilan yozilgan. Ayrim joylarda harflar ustida siyoh bo‘yalib ketish holati ham mavjud, buni 90a betining 7 qatorida ko‘rish mumkin.

3. Matndan tashqari yon tomonlarida matnda chalkash berilgan so‘z va so‘z birikmalarni qo‘lyozma yozilgandan keyinroq to‘g‘ri shakli aks ettirganini uchra-tish mumkin, masalan, 223 b betning 10 qatoridagi **ارنا شین غازی آباد** so‘zlarining ushbu shalkda chet qismida yozib qo‘yilgan.

4. Qo‘lyozmaning 279 a betidan boshlab faqat she’riy masnaviy usulda matn yozila boshlangan bo‘lib, afsuski qo‘lyozmaning oxirgi varaqlari mavjud emas. Asarning xotima qismi yo‘q.

5. Qo‘lyozma matndagi so‘zlarning oxirigi harflari o‘sha so‘zning boshqa harflar ustiga chiqarib ham yozib qo‘yilgan.

6. Asar matni turkiy, arabiy va forsiy so‘zlardan tashkil topgan.

7. Asarning kirish qismi va asosiy qism matnining yozuvida har xillik mavjud. Kirish qismida matn xarflari cho‘zilibroq yozilgan bo‘lsa, asosiy qismda esa zichlik asosiy mezonni kasb etgan.

“Shohidi iqbol”

“Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asar Muhammad Rahimxon soniy davriga bag‘ishlangan bo‘lib, 1865-1873 yillar voqealarni yozish bilan uzilib qolgan, ayrim sahifalarida suv dog‘lari bor, Qo‘qon qog‘oziga, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko‘chiruvchining ismi va yili ko‘rsatilmagan, 227 varaq, 14-25 sm o‘lchamda. Asarda faqat Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonlarining Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan.

“Rahimqulixonning dushman toyifalari ustida qilgan yurishi”

Ushbu asarning nomi aniq emas, uni 9981 inventar raqam ostidagi qo‘lyozma izohida “Zubdatul tavorih” yoki “Jam' ul tavorih” larda ushbu mavzuda so‘z ketganligi, ammo aynan yo‘qligi haqida keltiriladi. Bu ham Ogahiy asari bo‘lib, nasta’liqda yozilgan. Sahifalari 124 varaq, 1-124 varaqqacha, 11 qatorli matn, o‘lchami 13,5x23 smni tashkil etadi. Biz uning quyidagi xususiyatlarini berib o‘tamiz:

1. Ushbu qo‘lyozma matni an’anaviy “basmala”siz boshlagan bo‘lib, och qizil siyoh bilan matn berib ketilgan. Matn hamd qismdan boshlangan va xulosa bilan tugallangan.
2. Asarning matni ham nasriy, ham nazmiy usulda yozilgan. Adabiy janr nomlari, baytlar orasidagi uch nuqta och qizil siyoh bilan ajratilgan.
3. Matndan tashqari qo‘lyozma chetlarida izohlar berilgan, 5a, 8a 26a va b betlari kabilarda.
4. Izohlarda asosan atoqli ismlar nomlari, tarixiy voqealik nomlari keltirilgan.
5. Qo‘lyozmaning 10b, 24b, 67b va oxirgi 125b betlarida ko‘k rangli muhr mavjud.
6. Matn so‘zlari aniq berilgan, ammo matn so‘zlari bir qatorga sig‘may qolsa, o‘sha qatorning so‘nggi so‘zi ustida yozilish holati mavjud. Asardagi harflar yozilishi ham bir muncha aniq berilgan, ammo ba’zida so‘nggi harfning so‘z ustida chiqarib yozilganligini ham ko‘rish mumkin. Ushbu asarning matnida sarlovhaga ajratish, degan narsa yo‘q. Unda matn bir tekisda berilib ketilgan.
7. Matnning yana o‘ziga xosligi- unda so‘zlar turkiy, arabiy va forsiy so‘zlardan tashkil topgan.
8. Asar qo‘lyozmasini o‘quvchi tomonidan bemalol o‘qish imkoniyati qo‘lyozma matni zarar yetkazmasdan saqlanganligidadir.

Ogahiy tarixiy asarlari matnlarining o‘ziga xosligi - u garchand tarixiy voqealikni aks etgan bo‘lsa ham, ham nasriy, ham nazmiy bilan badiiylikka urg‘u berib ketilganligidadir. Asarlarda nazmning qo‘llanishi Ogahiyning shoir sifatida ham o‘ziga hos yuksak qobilyat va iqtidor egasi ekanligiga dalolat qiladi. Uning har bir matndagi so‘zlarni chertib tanlashi, undagi har bir matn qurilishdagi voqealik yo biror bir she’riy janr bilan, yo arabiy matn, ya’ni Qur’on oyatlari,

hadisi sharifi, hikmatli so‘zlar bilan izohlanishi matn mazmuni yanada kuchayishiga olib kelgan. Uning tarixiy asarlarini ham badiiy asar kabi maroq bilan o‘qish mumkin, ushbu asarlarida ilmiy nuqta bilan badiiy nuqtaning kesishuvi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи.– Тошкент: Фан, 1986
2. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 821 raqamli qo‘lyozma
3. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 5364 raqamli qo‘lyozma
4. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 7474 raqamli qo‘lyozma
5. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 5071raqamli qo‘lyozma
6. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 7422 raqamli qo‘lyozma
7. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 9786 raqamli qo‘lyozma
8. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti H. Sulaymonov nomidagi fond 275 raqamli qo‘lyozma
9. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 7572 raqamli qo‘lyozma
10. O‘zb FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 9981 raqamli qo‘lyozma

TAG‘BAYEV AMIRBEK
O‘qituvchi, TDSHU

B. Karmisheva asarlarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida yashovchi tojiklar etnografiyasi yoritilishi

Annotatsiya. *Ma’lumki, Markaziy Osiyo hududi qadimdan turli qabila va elatlar o‘zaro aralashib istiqomat qilgan, doimiy etnomuloqot markazi bo‘lib, har bil xaql o‘zining o‘rni va ta’siriga ega bo‘lgan. Tojiklar ham o‘zbeklar singari hududning qadimiy tub aholi vakillaridan bo‘lib, doimiy ravishda boshqa mahalliy aholi vakillari bilan yaxshi madaniy aloqalarni o‘rnatgan. Natijada ushbu mintaqada Markaziy Osiyo uchun umumiy, tojik xaqli uchun xos bo‘lgan moddiy va madaniy qadriyatlar to‘plami shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmida ushbu hududga amalga oshirilgan dala ekspeditsiyalari esa mahalliy aholi vakillarining qadimiy urf-odat va marosimlari, xo‘jalik hayoti va kundalik faoliyat bilan bog‘liq marosimlarni aniqlash, Markaziy Osiyo xalqlari etnogarfiyasini boyitishga xizmat qilgan. Bu davrda to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali, bugungi kunda aholi turmush tarzi va marosimiy hayotidagi o‘zgarishlarni kuzatish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa aholi hayotiga zamon, makon va texnologiyaning ta’sirini baholash va mavjud qadraiyatlarni saqlab qolishga doir takliflarni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.*

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning qadimiy tub xalqlaridan biri hisoblangan tojiklar etnografiyasi sovet davri etnograf olimasi B.Karmisheva asarlari ma’lumotlari asosida ochib berishga harakat qilindi. Bundan tashqari, tojiklarning etnogenezi va etnik

tarixi, an'anaviy xo'jaligi, joylashuv areali, o'ziga xos urf-odatlari, o'zlikni anglash jarayoni, hududiy birliklar va ularning tarixi qiyosiy tahlilda yoritib berilgan. Ayniqsa, tojiklarning hududiy identiklikni yaxshi saqlab qolgani va uning sabablari ochib berishga harakat qilingani bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *tojiklar, etnogenez va etnik tarix, hududiy identiklik, B. Karmisheva, O'zbekiston va Tojikiston.*

Аннотация. *Известно, что территория Средней Азии издревле заселена разными племенами и народами, является постоянным центром этнодиалога, и каждый народ имеет свое место и влияние. Таджики, как и узбеки, являются представителями древнего коренного населения региона, и у них постоянно налажены хорошие культурные связи с представителями других местных популяций. В результате в этом регионе сформировался набор материальных и культурных ценностей, общих для Средней Азии и специфических для таджиков. Полевые экспедиции, проведенные в этом регионе во второй половине XX века, послужили выявлению древних традиций и обрядов местного населения, обрядов, связанных с хозяйственной жизнью и повседневной деятельностью, обогатили этнографию народов Средней Азии. Анализируя данные, собранные в этот период, можно проследить изменения в образе жизни и обрядовой жизни современного населения, определить их причины и последствия. Это важно при оценке влияния времени, пространства и технологий на жизнь населения и выработке предложений по сохранению существующих ценностей.*

В данной статье предпринята попытка раскрыть этнографию таджиков, являющихся одним из древних коренных народов Средней Азии, на основе работ Б. Кармышевой, этнографа советского времени. Кроме того, в сравнительном анализе освещены этногенез и этническая история таджиков, традиционное хозяйство, ареал проживания, специфические обычаи, процесс самореализации, территориальные единицы и их история. Особенно важно, что была предпринята попытка выявить причины хорошего сохранения территориальной идентичности таджиков.

Ключевые слова: *таджики, этногенез и этническая история, территориальная идентичность, Б. Кармышева, Узбекистан и Таджикистан.*

Annotation. *It is known that the territory of Central Asia has been inhabited by different tribes and peoples since ancient times, it is a permanent center of ethnodialogue, and each people has its own place and influence. Tajiks, like Uzbeks, are representatives of the ancient indigenous population of the region, and they have constantly established good cultural ties with representatives of other local populations. As a result, a set of material and cultural values was formed in this region, common to Central Asia and specific to Tajiks. Field expeditions carried out in this region in the second half of the 20th century served to reveal the ancient traditions and rituals of the local population, rituals associated with economic life and daily activities, enriched the ethnography of the peoples of Central Asia. Analyzing the data collected during this period, it is possible to trace changes in the lifestyle and ritual life of the modern population, to determine their causes and consequences. This is important when*

assessing the impact of time, space and technology on the life of the population and developing proposals for the preservation of existing values.

This article attempts to reveal the ethnography of the Tajiks, one of the ancient indigenous peoples of Central Asia, based on the works of B. Karmysheva, an ethnographer of the Soviet era. In addition, the comparative analysis highlights the ethnogenesis and ethnic history of Tajiks, traditional economy, area of residence, specific customs, the process of self-realization, territorial units and their history. It is especially important that an attempt was made to identify the reasons for the good preservation of the territorial identity of the Tajiks.

Key words: *Tajiks, ethnogenesis and ethnic history, territorial identity, B. Karmysheva, Uzbekistan and Tajikistan.*

Markaziy Osiyo xalqlari orasida qadimgi xalqlardan biri – tojiklar bo‘lib, ularning shakllanish jarayoni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va geografik sharoitlarda kechgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Pomir va Surxondaryo vohasiga ko‘chib kelib o‘rnashgan Hisor tojiklari – Temuriylar hukmronligi va undan oldingi davrlarda Movarounnahrning turli hududlarida yashagan, yerli o‘troq dehqon aholi bilan jadal aralashib ketgan bir qancha etnik guruhlarning avlodlari hisoblanadi.

Etnografik adabiyotlarda qadimgi davrdan mazkur hududning mahalliy aholisi sifatida asosan tojiklar ko‘rsatib o‘tilgan. XX asr ikkinchi yarmida tadqiqot olib borgan aksariyat tadqiqotchilarning ishlarida “urug‘larga bo‘linish tartiblariga ega bo‘lmaslik” aholining mahalliy o‘troq qismiga xos xarakterli xususiyatlardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Ilk bor 1924-yilda O‘rta Osiyo milliy hududiy chegaralanish komissiyasi materiallarida o‘rganilayotgan hududdagi o‘zbek va tojik tilli aholi alohida xalqlar sifatida ajratib ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, Chingizxon zabt etgan hududlarni o‘z o‘g‘illariga ulus sifatida bo‘lib bergan. Jumladan, Movarounnahr uning katta o‘g‘li Chig‘atoyning mulki hisoblangan. Mo‘g‘ullar bosqiniga qadar, bu yerda yashagan va madaniyati ancha yuksak bo‘lgan mahalliy o‘troq aholi ikki tilda – turkiy va forsiy tilda bemalol gaplashgan. Shu sababli, Chig‘atoy ulusi hududlarida yashagan tojik tilli aholi ham turkiy tilli aholi bilan bir qatorda – “chig‘atoy” nomi bilan atalganligini tadqiqotchilarning ishlarida uchratish mumkin.

Tadqiqotchi B.X.Karmishevaning tadqiqotlarida mahalliy xalq “vohanlar va sho‘g‘nonlar” nomi bilan o‘rganilgan. Olima ta’kidlab o‘tganidek, Movarounnahrning Ko‘lob, O‘ratepa va Xo‘jand hududlarida yashovchi o‘troq aholisi Temuriylar davlati tarix sahnasidan ketganidan so‘ng, o‘zlarini shu nom, ya’ni “tojiklar”, deb atay boshlaganlar.

Tojiklar zich holatda asosan O‘zbekistonning Buxoro va Samarqand shaharlari, Urgut, Surxondaryo, Sheroboddaryo, katta va kichik o‘rtadaryo bo‘ylari, Qashqadaryoning yuqori oqimi, Qarshi vohasi, Nurota tog‘lari, Jizzax shahri, Farg‘ona vodiy-

sining So‘x daryosi bo‘ylari, Farg‘ona, Qo‘qonning janubiy qismlari, Namanganning tog‘li hududlarida istiqomat qilib keladi. Qirg‘izistonning Tojikiston bilan chegaradosh hududlarida ham tojik qishloqlarni uchratish mumkin.

Markaziy Osiyoning boshqa ko‘plab xalqlari qatorida tojiklarning ajdodlari ham sak-massaget qabilalariga borib taqaladi. Davrlar o‘tishi bilan bu qabilalarga yangi urug‘ – qabilalar aralashib ketishi natijasida hozirgi mahalliy xalqlarning shakllanishi amalga oshgan. Sug‘diylar, parkanaliklar, qisman toxarlar tojik xalqi shakllanishida katta o‘rin egallashi, B.Karmisheva tomonidan alohida qayd qilingan. Taxminlarga ko‘ra Somoniylar davlati tashkil topgan vaqtga kelib (IX – X asrlarda) tojiklarning xalq sifatida shakllanishi boshlagan. Hozirgi “tojik tili” Somoniylar hukmronligi davrida qadimgi sug‘d va baqtriya tillari asosida vujudga kelgan degan qarashlar mavjud. O‘sha davrda tojiklarning adabiy tili (dariy) paydo bo‘ldi. Sug‘diy aholi, o‘z tili o‘rniga sekin-asta tojik tilida gaplashadigan bo‘lib qoladi. Tojiklar yashayotgan hududlarda tojik tili, boshqa sharqiy eroniy tillarni siqib chiqarishi natijasida, IX asr oxiri – X asr boshlarida tojik xalqi etnik tarkibiga kirgan barcha guruhlarning umumiy va yagona tiliga aylanadi.

Tojiklar o‘zlari yashaydigan joylariga qarab bir qancha guruhlarga bo‘linadi. Yaxsuv va Qizilsuv daryolari atrofida, tog‘ etaklari va tog‘larda qadimdan yashab kelayotgan tojiklar o‘zlarini “tojiki ko‘lobi” deyishadi. Yaxsuv daryosining yuqori qismidagi yerlarda joylashgan tojiklar “yaxsuvliklar” nomi bilan ataladi. Obimozor daryosi sohillaridagi tojiklar “xovalinglar”, Sho‘robdaryo atrofidagi tojiklar “sho‘robdaryoliklar”, Baljuvondagilar “baljuvonlilar”, Baljuvonning shimoli- sharqiy qismidagi daralarda yashayotgan tojiklar “darachilar”, Qizilsuv daryosining o‘ng irmog'i atrofida joylashgan tojiklar “dashtlilar”, Gazimalak tog‘ tizmasida joylashgan tojiklar “gazimalaklilar”, Vorzob havzasidagilar “vorzoblilar”, Qashqadaryo havzasining janubi-sharqiy qismidagi tojiklar “harduri tojiklari” deb yuritiladi. Shuningdek, “tromiti tojiklari”, “ko‘histon tojiklari”, “yag‘nob tojiklari”, “rog‘i tojiklari” farqlanadi. Ular bosib o‘tgan o‘z tarixi davomida tojik xalqi va uning madaniyati Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar bilan, jumladan, o‘zbeklar bilan etnomadaniy aloqalarda kengayib, rivojlanib borgan.

O‘rganilayotgan hududning mahalliy o‘troq aholisi o‘z etnik xususiyatlari bilan yarim o‘troq etnik guruhlardan alohida ajralib turadi. Ular shahar va qishloqlardagi aholining asosiy qismini tashkil qilib, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va qisman chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Ular ko‘pgina etnografik adabiyotlarda o‘zbek va tojik tilli guruhlarga ko‘ra farqlangan va yirik tarixiy-madaniy viloyat yoki kichikroq mintaqa yohud shahar va qishloqlarning hududiy o‘troq guruhlari bo‘yicha o‘rganilgan. Masalan, bular – shug‘non, vohan, sanglichi, yazgulom, ishkashim kabi hududiy birliklardir. Pomir tojiklari ham o‘sha davrdan buyon o‘z nomlarini saqlab qolmoqda. (Ko‘pgina etnografik adabiyotlarda yag‘nob va rog‘i tojiklari tarkibida ham o‘rganilgan). Ular odatda

aholining boshqa qatlamlari orasida uchraydi va yarim o‘troq aholi kabi ayrim mintaqa yoki shahar va qishloqlarda ko‘pchilik bo‘lib yashamaydi.

Ma’lumki, har bir viloyat yoki bekliklarning aholisi o‘zining mustaqil rivojlanish yo‘liga ega. Demak, har bir aholi joylashgan joyning geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zining shevasiga, moddiy va ma’naviy madaniyatiga, o‘ziga xos xarakteriga ega bo‘lgan. Masalan, yuqori tog‘ zonalarida joylashgan aholi tekislikdagi aholi bilan xo‘jaligida, turmush tarzida, moddiy madaniyatida o‘zaro farqlarga ega bo‘ladi.

Tojik xalqi orasida Pomir tojiklari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Pomir tojiklari o‘zlarini “pomiri”, deb atashadi. Tojikiston Respublikasi tarkibidagi G‘arbiy Pomirning baland tog‘ vodiysidagi Tog‘li Badaxshon viloyatida yashagan kichik xalqlar – yozg‘ulomlar (o‘z nomi – zgamik), ro‘shonlar (o‘z nomi – rixen, ruhni), xuflar (o‘z nomi–xufik) bilan birga, bartanglar (o‘z nomi–bartanj), shug‘nonlar (o‘z nomi–xugni, xununi), ishkashimlar (o‘z nomi–ishkoshumi, ishkashimi), vohanlar (o‘z nomi – hik, vaxi va vanjlar) va boshqa kichik qismlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, Pomir xalqlari, Afg‘oniston Badaxshoni (ro‘shonlar, shug‘nonlar, ishkashimlar, vohanlar, zebaklar, munjonlar)da, Pokistonning Chitrol mavzeyi (munjonlar, yidgalar)da va Xunza daryosi vodiysi (vohanlar)da, Xitoyning Sinszyan-Uyg‘ur viloyatida (shug‘nonlar va vohanlarga qarindosh sariko‘llar) yashaydilar.

Pomir xalqlari, katta yevropeoid irqiga mansub bo‘lib, hind-evropa tillar oilasining sharqiy eron tili, kichik guruhiga kiruvchi til va lahjalarda so‘zlashadilar. Ular G‘arbiy va Janubiy Pomir vodiylarida (Tojikistonning Tog‘li Badaxshon muxtor viloyatida va Afg‘oniston, Pokiston, Shimoliy Hindistonning unga tutash hududlarida) va Sariko‘l tog‘ tizmalarida (Xitoyning Sinszyan-Uyg‘ur muxtor tumanlarida tarqalgan). Pomir tillariga voxan, ishkashim, yozg‘ulom tillari hamda shug‘non, rushon, xuf, bartang, o‘ro‘tur, sariko‘l singari qardosh til va lahjalar kiradi. Hozirgi o‘lik til hisoblangan qadimiy vanj va sarg‘ulom tillari ham shu tillar guruhidan hisoblangan. Ayrim belgilariga ko‘ra, munjon va unga yaqin bo‘lgan iydgo tillari Pomir tillariga qo‘shilsa-da, bu masala munozarali bo‘lib qolmoqda.

Pomir xalqlarning tarixiy-genetik tavsifi, ularni boshqa sharqiy eroniy tillardan farqlanuvchi oila sifatida o‘rganish imkonini bermaydi. Bir qator shunday belgilar, turli Pomir tillarini boshqa sharqiy eroniy tillar bilan alohida-alohida yaqinlashtiradi. Barcha Pomir tillarining strukturaviy o‘xshashligi va katta umumiy lug‘aviy fondi, ularning muayyan til jamoasida o‘zaro yaqin, o‘xshash rivojlanganligini ko‘rsatadi. Pomir tili o‘z yozuviga ega emas. Pomir tilida so‘zlashuvchilarning ko‘pchiligi uchun yozuv va ta’lim tili–tojik tili, sariko‘l tilida so‘zlashuvchilar uchun esa uyg‘ur tili hisoblanadi. Dindorlari asosan islom dinining shia, qisman esa sunna mazhablariga e’tiqod qiladilar.

Pomir tojiklari yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda Rushan, Shug‘nan, Vohan nomli davlatlar bo‘lgan. Uzoq asrlar mobaynida bu joylarni qanchadan-qancha chet el istilochilari bosib olib, Pomir xalqlari ustidan hukmronlik qilib kelishgan. VII asrning oxiridan boshlab, Pomir va Pomir bo‘yi yerlari ikki asrdan ko‘proq vaqt tibetliklar qo‘l ostida bo‘lgan. X asrdan Pomir bo‘yidagi qadimiy davlatlar yana mustaqil bo‘lib oladilar. Keyinchalik bu yerlar bir qancha pod-shohlklarga bo‘linib ketgan. Qariyb 30 yilga yaqin vaqt mobaynida Badaxshon afg‘onlarga bo‘ysunib kelgan, 1878-yildan boshlab bu xalqlar Buxoro amirligi qo‘l ostiga o‘tadi, so‘ngra esa Rossiya tomonidan bo‘ysundirilgan.

Karmisheva tadqiqotlarida e’tirof etilishicha, tojiklar o‘rta asrlardagi turk-mo‘g‘ul kelib chiqishidagi etnonimlarga bog‘liq bo‘lmasdan, balki turklar kabi Movarounnahrning tub yerli aholisidir. Bu fikrni antropologik materiallar ham tasdiqlaydi. XX asr boshlarida tojiklarning etnik guruhlari o‘z nomlarini yaxshi saqlab qolgan edilar. Hozirgi davrda Ko‘lob, Xo‘jand, O‘ratepa viloyatlarida tojiklarning etnik nomlari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ammo Tojikistonning boshqa hududlarida esa etnotoponimlar shaklida ko‘plab uchratish mumkin. Ma’lumki, dastlabki davrdan ular o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanib, ziroatchilar tur-mush tarziga ega bo‘lgan. Ularning keyingi davrlarda o‘troqlashishiga sug‘orma dehqonchilikning mahsuldorligi kabi omillar sabab bo‘ldi. Shuningdek, o‘troq aholi istiqomat qilayotgan qishloqlar bilan bevosita tutash hududda bo‘lgan chorvador aholining bir qismida esa o‘troqlashuv jarayoni jadal kechdi. Tojik xalqi tarkibidagi yirik etnik guruhlardan biri – yag‘noblar umuman O‘rta Osiyo hududlarida, Tojikistonning Dushanbe, tog‘li Badaxshon, So‘g‘d, O‘ratepa, Hisor va Pomir tog‘li viloyatlarida tarqalganlar. Shuningdek, Turkmaniston, Eron, O‘zbekiston va Afg‘oniston hududlarida ham ko‘plab guruhlari yashaydi.

Hozirgi vaqtda Sug‘d, Xo‘jand viloyatlarida yashovchi etnik guruhlar garchi keyingi davrlarda assimilyatsiya (aralashuv) jarayoni kuchayib ketgan bo‘lsa-da, o‘z hududiy guruhlari xususiyatlarining ayrim ko‘rinishlarini saqlab kelgan.

Sheroboddaryo havzasida ham tojiklar uch joyda tarqalganlar: daryoning yuqori qismida, o‘rta oqimi havzasida va Sherobod vohasida, Sheroboddaryoning yuqori qismida yashaydilar. Ma’lumki, Machay qishlog‘ining o‘zi uch qismga – Yuqori Machay, O‘rta Machay va Quyi Machay qishlog‘iga bo‘linadi (o‘zbek – chig‘atoylar asosan Yuqori Machay qishlog‘ida yashaydi). Bu qishloqlarni kesib o‘tuvchi daryo Machaydaryo (Sheroboddaryoning yuqori qismi) deb ataladi. Axborotchilarning ma’lumotlariga qaraganda, daryo o‘tmishda Gurgandaryo deb atalgan. Machay qadimshunos tadqiqotchilar zikrida qadimiy odamlar makoni sifatida ko‘rsatiladi. Hatto o‘rta asrlarda bu yerda mustahkam qo‘rg‘on bo‘lgani va eski qishloq xarobasi – Oqqishloqda hunarmandchilik va dehqonchilik rivoj-langanligi arxeologik tadqiqotlarda ham eslatib o‘tiladi.

Machay qishlog‘i aholisi haqida shu qishloqlik kishilar bu yerdagi aholi har joydan turli davrlarda kelib qolgan o‘zbek, tojik va boshqa xalqlarning aralashmasi ekanligini aytishdi. Haqiqatdan ham, bu qishloq aholisi til xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek va tojik tillidir. O‘rta Machay qishlog‘ida yashovchi Umar Xolboyevning va Ahmad Ergashevning aytishicha, Machayda eroniylar ham bor bo‘lib, ular Yuqori Machay qishlog‘ining qishloq-mavzelaridan biri – Kodokda yashaydi.

Ular qishloq aholisi bilan o‘zaro nikoh munosabatlarida bo‘lib, aralashib ketgan. Demak, Yuqori Sheroboddaryo havzasida turli qabila va elat vakillari uzoq davr mobaynida aralashib, o‘ziga xos hududiy etnik birlikni tashkil qilgan holda istiqomat qilib kelmoqdalar.

XX asrning 30–90-yillari va XXI asrning boshlari davomida jamiyatda sodir bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida Pomir xalqlari etnomadaniy jihatdan asta-sekinlik bilan tojiklarga o‘zaro yaqinlashib, tobora singib bormoqda. Pomir xalqlarining asosiy an’anaviy mashg‘uloti chorvachilik, hunarmandchilik va qisman dehqonchilikdan iborat. Tojikistonning boshqa tog‘li yerlaridagi singari, Pomir bo‘yi tojiklarining ham asosiy mashg‘uloti chorvachilik va qisman dehqonchilikdan iborat. Juda qiyin geografik va iqlimiy shart - sharoitlar tufayli sug‘orib dehqonchilik qilinadigan yaroqli yerlar juda kamligi sababli, bu yerlarda dehqonchilikni keng rivojlantirishning iloji bo‘lmagan. Yeri omoch yordamida ho‘kiz bilan haydalgan. Ekin ekishdan oldin yerga o‘g‘it solingan. Haydalgan yerlarda arpa, bug‘doy, no‘xat, dukkakli ekinlar, zig‘ir, makkajo‘xori, ayrim joylarda esa paxta yetishtirilgan.

Tog‘ yonbag‘irlariga mevali daraxtlar o‘tqazib, bog‘lar yaratganlar, Vohan va Shohdaraning ustki qismlarida chorva mollari ko‘p boqilgan va aksincha, baland tog‘li yerlarda, chunonchi Huf atrofida chorva kamroq saqlangan.

Tojikistonda tog‘li joylar, dara, jar va toshqin daryolar ko‘p. Shu sababli, yaxshi yo‘llar kam edi. Faqat vodiylarda, katta qishloqlar, shaharlarda yaxshi yo‘llar qurilgan. Tog‘lardagi ko‘p qishloqlarda so‘qmoq yo‘llardan, osma ko‘priklardan o‘tib borish mumkin edi. Shuning uchun asosiy transport vositasi ot bilan eshak bo‘lgan. Tojikistonning shimoliy qismidagi yerlarda ikki g‘ildirakli aravada yuk tashilgan va manzilga yetkazilgan.

Badaxshon va Voxan aholisi bir necha oila bo‘lib, bir uyda yashaganliklarini (hatto oltita oilagacha) Vuda o‘z sayohati davomida guvoh bo‘lganligini qayd etadi. Qorategin va Darvozda esa qishlash uchun bir necha oila joylashadigan binolar bo‘lgan. Tog‘li tojiklar oilaning bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishardi, yerlari bo‘linmasligi uchun yangi oila otasining qaramog‘ida yashagan. Agar oila juda yiriklashib ketsa, yoniga yangi bino qurilgan, ammo ovqatlanish uchun barcha oila bir joyga yig‘ilgan.

Tog‘li tojiklarning urf-odatlari haqida gapirilsa, ularning juda ko‘p qismi o‘z mazmuni, ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Qadimdan qalinga asoslangan nikoh

o‘z ahamiyatini yo‘qotib, uning o‘rniga erkin tanlash, shaxsiy istak asosida turmush qurishga asoslangan nikoh kirib keldi. Sovchilik va u bilan bog‘liq urf-odatlar tuman va qishloqlarda bir-biridan farqli jihatlari bilan ajralib, saqlanib qolmoqda.

Sovchilik instituti tojiklarda “gapzani” – sulh tuzuvchilar, bitim tuzuvchilar yoki “asakoli” – oqsoqollar deb nomlanadi, sababi sovchilikka odatda hurmatli qariyalar borgan. Kelin tanlashda kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari bo‘lajak kelinni har tomonlama surishtirgan, qizning husni, yashash sharoiti, uy yumushlarini qay darajada uddalay olishi hisobga olingan va baholangan. Kelin tanlangandan so‘ng, sovchilarni jo‘natishga qaror qilingan. Sovchilik uchun eng yaxshi kun – payshanba, shanba yoki yakshanba, Xuf vodiysida esa chorshanba, payshanba, juma va shanba zarur ishlarni boshlash uchun ulug‘ kunlar sanalgan. Sovchilar o‘zlari bilan kichikroq patir non – katmol, tut, un va mevalardan iborat tugun olib borishgan. Mehmonlarni siylash uchun mezbon tomon tarafidan bir xil yegulik taom – mirraugan tortilgan.

To‘y marosimining keyingi bosqichida unashtirish – “fotiha to‘yi” (tui fotiha) bo‘lgan. Unashtiruvda kuyovning ota-onalari va qarindosh urug‘lari kelin tomonga boshdan oyoq sovg‘a tayyorlaganlar. Bu sovg‘alar sarupo deb nomlanadi. Kelinning uyiga kuyov otasi tomonidan un, yog‘, qo‘y to‘shi yuborilgan. Fotiha to‘yida mehmondorchilikdan so‘ng ikki yoshning baxtini so‘rab (fatiha) duo qilingan.

Pomir atrofidagi tojiklarda unashtirish dzaklay to‘y, ya’ni “kichik bayram” deyiladi. Unashtirishdan (fotiha to‘yi) to to‘ygacha kuyov va kelin bir-birlariga ko‘rinmasliklari lozim. Fotiha to‘ydan keyin kelin va bo‘lg‘usi kuyovning yangi qarindoshlaridan qochib yurishni boshlaydilar, tojiklarda u megurizan, ya’ni tarjima qilinganda “qochish” deb ataladi. Fotiha to‘yi bo‘lib o‘tgandan so‘ng ikkala tomon ham to‘y tantanasiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaganlar. Kuyov tomon kelishilgan qalinni va ikki yoshga uy-joy tayyorlashga harakat qilardilar. Qiz tomon esa kuyov tomon yuborgan sovg‘alarga munosib sovg‘a tayyorlaganlar. Shundan keyin qalinning miqdorini belgilash uchun ikki tomon oldi-berdisi boshlangan, bu “peshkashiburi” – “qalin miqdorini belgilash” deb ataladi.

Bundan tashqari, yana shunday urf-odatlar ham bo‘lganki, bu “osol” yoki “osol to‘yi” deb ataladi. Mazkur odatga ko‘ra, to‘y yaqinlashgan sari kuyov tomon belgilangan qalin o‘rnini bosuvchi buyum beriladi. Qalin tayyor bo‘lgandan so‘ng qizning otasi to‘y kunini belgilagan. Tojiklar to‘y marosimi odatda “to‘y”, “to‘y arusi” deyiladi. To‘y asosan kuz yoki qishning ilk kunlariga, ya’ni aholi dala ishlaridan bo‘shagan paytiga qarab o‘tkazganlar.

To‘y marosimining boshidan oxirigacha asosiy rolni “yasaul” bajaradi. To‘y kuni kechqurun 2 xonadonda ham bayram shodiyonasi boshlanadi, kuyov o‘z uyida o‘zining do‘stlari bilan o‘yin-kulgi qilsa, kelin o‘z uyida dugonalari bilan o‘tiradi. Bu shodiyona “shau to‘y”–“tungi bayram” yoki “bazm” deya nomlanadi.

Bazm vaqtida kuyov “sha”– “podshoh”, “shoh”, (“knyaz”, “sar”) nomini oladi. Bazmda hazil shoh rolini o‘ynayotgan kuyovga yaqinlari va do‘stlari sodiqlik bilan xizmat ko‘rsatadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tojiklar Matkaziy Osiyoning qadimiy tub yerli aholisidan biri, tojiklarning xalq sifatida shakllanishida yillar davomida turli hududlardan kirib kelgan qabila va elatlarning ta’siri katta bo‘lgan. Ammo tojiklarning ba’zi hudud vakillari o‘zlarining hududiy mansubligini qattiq himoya qilgan holatda, o‘zligini saqlashga harakat qiladi. Shu sababdan, hozirgi kunda ham O‘zbekistonning janubiy hududlari tojik aholisi bilan boshqa hudud tojiklari o‘rtasida bir qancha farqlar yaxshi saqlanib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedov B.A. O‘zbeklarning kelib chiqishi. – T.: “Fan”, 1964.
2. Bo‘riyev O. Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik va milliy g‘oya. – T.: “Akademiya”, 2001.
3. Ethnography of the Mongols and Related Peoples of Afganistan. The Hague. 1962.
4. Qayumov A. Mustaqillik yillarida o‘zbeklarning milliy o‘zlikni anglashi va mentaliteti. – T.: “Adabiyot uchqunlari nashriyoti”, 2015.
5. Бурхан-уд-Дин-хан-и Кушкеки. Каттаган и Бадахшан. Данные по географии страны, естественно-историческим условиям, населению, экономике и путям сообщения / Пер. с. перс. – Ташкент: 1926.
6. Гафуров Б.Г. Таджики (Древнейшая, древняя и средневековая история). Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989.
7. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976.

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

SALIYEVA MUXABBAT
Dotsent, filologiya fanlari nomzodi, TDSHU

Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati

Annatatsiya: *ushbu maqolada davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiyaning o‘ziga xos tizimilari haqida fikr yuritiladi.*

Siyosiy kommunikatsiya turli yo‘llar bilan, xususan, muayyan odamlar va jamoalarga siyosiy xabarlar yuborish orqali amalga oshiriladi. Xabarlar ularga nisbatan jamoatchilikning qiziqishini uyg‘otadigan faktlar bayoni yoki voqea-hodisalar mazmunini tushuntirish sifatida ko‘rinishi mumkin.

Xabarlarning tashabbuskori (kommunikator), qoida tariqasida, rahbar yoki siyosiy tashkilotdir. Aloqa sub'ekti axborotni shakllantirish va tarqatish mexanizmiga ega. Davlat hokimiyatning eng muhim instituti sifatida rasmiy ma'lumotlarni, xususan, og‘zaki (brifinglar, rahbarlar bilan suhbatlar va boshqalar tarqatish uchun kerakli miqdordagi kanallarga ega bo‘lishi kerak yoki qog‘ozga tegishli (gazeta va jurnallardagi nashrlar, hukumat byulletenlari), shuningdek, fuqarolar bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beruvchi vizual va elektron (davlat telekanallari va mintaqaviy aloqa tizimlari va boshqalar) tizimga ega bo‘lishi kerak.

Kalit so‘zlar: *Siyosat, jamiyat, fuqaro, hokimiyat, Ommaviy, kommunikatsiya, sub’ekt, mafkura, siyosiy elita, ijtimoiy, manipulatsiya*

Аннотация: *в данной статье размышляются специфические системы политической коммуникации в государственном и общественном управлении.*

Политическая коммуникация осуществляется различными способами, в частности путем отправки политических сообщений конкретным людям и сообществам. Сообщения могут выступать как констатация фактов или объяснение содержания событий, вызывающих к ним общественный интерес.

Инициатором (коммуникатором) сообщений является, как правило, лидер или политическая организация. Объект связи имеет механизм формирования и распространения информации. Как важнейший институт государственной власти он должен иметь необходимое количество каналов распространения официальной информации, в том числе устных (брифинги, интервью с руководителями и т.п.) или бумажных (публикации в газетах и журналах, правительственные бюллетени), а также так как те, которые позволяют осуществлять непрерывную связь с гражданами, должны

иметь визуальную и электронную (государственные телеканалы и региональные системы связи и т. д.) системы.

Ключевые слова: *Политика, общество, гражданин, власть, Масса, коммуникация, субъект, идеология, политическая элита, социальная, манипуляция.*

Abstract: *this article reflects on specific systems of political communication in state and public administration.*

Political communication occurs in a variety of ways, particularly by sending political messages to specific people and communities. Messages can act as a statement of facts or an explanation of the content of events that arouse public interest in them.

The initiator (communicator) of messages is, as a rule, a leader or political organization. The communication object has a mechanism for generating and distributing information. As the most important institution of state power, it must have the required number of channels for the dissemination of official information, including oral (briefings, interviews with leaders, etc.) or paper (publications in newspapers and magazines, government bulletins), as well as those that allow continuous communication with citizens must have visual and electronic (state television channels and regional communication systems, etc.) systems.

Key words: *Politics, society, citizen, power, Mass, communication, subject, ideology, political elite, social, manipulation.*

Davlat hokimiyati sohasida turli maqsadlar va usullar, tuzilmalar va siyosiy jarayonlar odamlar o‘rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko‘p qirrali kommunikatsiya shakllarini belgilaydi. Ommaviylikni kasb etgan mazkur siyosiy hodisa keng talqinga ega. “Bu hodisa turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar va mafkuralarni ifodalash uchun ishlatiladigan, ommaga murojaat etib, xalq orasida mashhur qadriyatlar va umidlarni manipulatsiya qilishga asoslangan siyosiy faoliyat” [1], degan gipotezani ilgari suradi rossiyalik olim, professor N.Baranov. Darhaqiqat, har qanday axborot jarayoni aloqaning tizimli tarmoqlariga asoslanadi, axborot almashinuvi jarayoniga xos bo‘lgan tahlil uning eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Amerikalik siyosatshunos Gerald Lassuellning fikricha, bunday tuzilmaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi savollarga javob berish zarur: “Kim gapirmoqda? Nima haqida? Qaysi kanalda? Kimga? Qanday ta’sir qiladi?” [2].

Siyosiy kommunikatsiya jarayonlarining yana bir murakkab tuzilishi ularning turli darajalarini hisobga olishni nazarda tutadi. Kanadalik olim Djozef Djon Tomson axborot-kommunikatsiyaning mohiyati va texnik ta’sir darajalarini farqlashni taklif qiladi. “Bu darajalar axborot-kommunikatsiya jarayonining eng muhim va sifat jihatidan farq qiluvchi tarkibiy qismlarini ajratib olishga imkon

[1] Баранов Н.А. Популизм как политическая деятельность. – СПб.: Изд – во СЗАГС, 2002. – С. 44.
[2] Лассуэлл Г.Д. Структура и функции коммуникации в обществе // Массовая коммуникация в современном мире: методология анализа и практика исследований. – М.: 2002. – С. 131.

beradi. Ikkinchi tomondan esa, siyosiy subyektlarning omma bilan o‘zaro samarali muloqot qilish imkoniyatlarni belgilaydi” [1], deb hisoblaydi.

Odamlar tomonidan uzatiladigan xabarlarning ma’nosini o‘z holatida saqlaydigan yoki saqlanishiga to‘sqinlik qiladigan va qabul qiluvchilar tomonidan real talqin qilinishini ta’minlaydigan vositalar, belgilar, tasvirlash qobiliyati bu o‘rinda hisobga olinishi kerak. Shu ma’noda turli siyosiy subyektlar tomonidan ma’lumotni yetkazishda, kommunikatsiyaga kirishishda og‘zaki nutq yoki imo-ishoralar, mimikalar, tana harakati, nutq diapazoni, kulgi va boshqalarning me’yorida bo‘lishi muhim.

Siyosatda axborot munosabatlarini amalga oshirishda tashkilotlar ixtiyoridagi texnik vositalar ham muhim rol o‘ynaydi, shu nuqtayi nazardan qaraganda, siyosiy subyektlarning axborot faoliyati maxsus tashkiliy tuzilmalar, kadrlar markazlari, ma’lumotlar banklari, axborotni saqlash va uzatish tarmoqlari va texnologiyalar faoliyati sifatida qaraladi. Bunday barcha texnik aloqa vositalarining ahamiyati va roli xabarni hech qanday o‘zgarishsiz, o‘z vaqtida va to‘g‘ri shaklda qanday darajada yetkaza olishi bilan belgilanadi. N.Baranovning ta’riflashicha, “davlat hokimiyati sohasida yoki funksiyalarni bajarishda o‘zlariga zarur bo‘lgan qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, shuningdek, ular bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirish uchun turli axborotlar oqimidan tanlab olinadigan ma’lumotlar siyosiy axborot, deb ataladi”[2], deyiladi.

Axborot almashinuvi har qanday siyosiy subyekt harakatlarining zaruriy sharti bo‘lib, rejadagi maqsadlarga erishish uchun siyosiy sohada o‘zaro samarali hamkorlik qilish imkonini beruvchi muhim vazifani bajaradi.

“Kim siyosat bilan shug‘ullansa, – deb yozadi Alfred Veber – u bergan obro‘-e’tibor hissidan bahramand bo‘lishga yoki hokimiyatga intiladi, yo boshqa (ideal yoki xudbin) maqsadlarga vositachi sifatida qaraydi” [3] degan edi. Muallif ushbu fikrini misollar bilan asoslaydi, bunday misollar hayotdagi barcha jarayonlarga to‘g‘ri keladi.

Rossiyalik olim P.Shvartsenberg fikrlariga ko‘ra “Aloqa – bu kelishuvga erishish uchun shaxslar va jamiyatning siyosiy kuchlari o‘rtasida doimiy siyosiy ma’no almashinuvi”[4] ekanligi, bu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirish uchun siyosiy subyektlar ma’lumotlarini taqdim etishning maqsadliligi, muayyan xabarlar auditoriya manfaatlari, xususiyatlariga mos bo‘lishi kerakligi haqida mulohaza yuritadi. S.Lennartning fikricha, “OAV axborot oqimlarida monopoliyalararo emas, balki shaxslararo muloqot bilan birgalikda harakat qiladi.

[1] Соловьев А. И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс. 2006. – С. 559.
[2] Баранов Н. Политическая коммуникация. – М.: 2020. – С. 233.
[3] Вебер А. Избранные произведения. – М.: 1990. – С. 646.
[4] Шварценберг П.Ж. Политическая социология. – М.: 1992. – С. 174.

Axborot o‘z ob'ektiga bevosita yoki bilvosita shaxslararo muloqot orqali yetib boradi, bu esa fuqarolarning munosabatini shakllantirishga ommaviy axborot vositalari ta’siriga teskari ta’sir ko‘rsatishi yoki o‘z-o‘zidan yangi axborot manbayi bo‘lishi mumkin” [1] . Har qanday holatda xabarlarni uzatish ma’lum texnik vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi, shuning uchun axborot jarayonlari muqarrar ravishda tegishli texnik qismlar bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Ya’ni, bunga axborot tarqatiladigan (efirga uzatiladigan) texnik kanallar, shuningdek, nafaqat uzatish va ishlov berish, balki axborotni to‘plash, nazorat qilish, saqlash va himoya qilish imkonini beradigan tuzilmalar ham kiradi.

Siyosiy kommunikatsiyani R.Shvarsenberg shunday ta’riflaydi: “Siyosiy kommunikatsiya – bu siyosiy axborotni uzatish jarayoni, deb ifodalagan, bu jarayon orqali u siyosiy tizimning bir qismidan ikkinchi qismiga, siyosiy tizim va ijtimoiy tizim o‘rtasida aylanib boradigan. Shu bilan birga, barcha darajadagi shaxslar va guruhlar o‘rtasida uzluksiz axborot almashinuvi jarayoni mavjud”[2], deya ifodalaydi.

O‘z navbatida, turli axborot, bilim va xabarlar almashuvchi va iste’mol qiluvchi kishilar o‘rtasidagi maqsadli aloqalar siyosiy tizimning turli darajalarini bog‘laydi. Siyosiy institutlarga davlat va jamiyatni boshqarish bo‘yicha o‘ziga xos funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

A.Doychning fikricha, “hukumat davlat boshqaruvining subyekti sifatida tizim va atrof-muhit o‘rtasidagi axborot oqimlari va aloqa o‘zaro ta’sirini, shuningdek, tizimning o‘zida alohida bloklarni tartibga solish orqali siyosiy tizimni safarbar qiladi, ya’ni siyosiy tizimdagi kommunikatsiyalarning uchta asosiy turi: 1) shaxsiy, norasmiy kommunikatsiyalar, masalan, deputatlikka nomzodning saylovchi bilan erkin muhitda shaxsiy aloqasi; 2) tashkilotlar orqali, hukumat bilan aloqa partiyalar, tashkilotlar va boshqalar orqali amalga oshirilganda; 3) postindustrial jamiyatdagi roli doimiy ravishda oshib borayotgan ommaviy axborot vositalari, bosma yoki elektron vositalar orqali aloqalar” [3], degan edi.

Zamonaviy siyosiy kommunikatsiya nafaqat saylovoldi tashviqotlari bilan bog‘liq, balki siyosiy boshqaruv va davlat siyosati bilan bog'liq keng ko‘lamli masalalarni ham qamrab oladi. Keng ma’noda siyosat jamiyatning hokimiyat masalalari bo‘yicha konsensus [4]ga erishishi uchun barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

---

[1] Lenart S. Shaping political attitudes. The impact of interpersonal communication and mass media. – Oxford: Thousand Oaks et al. 1994. – P. 15.

[2] Шварценберг Р.Ж. Политическая социология. 3 ч. – М.: 1992. – С. 81.

[3] Дойч А.А. Основы политической теории. – М.: Высшая школа. 1998. – С. 42.

[4] KONSENSUS (lot. consensus – yakdillik, kelishuv) – xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e'tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. Konsensus usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo‘lib, shu tashqilot doirasida o‘tkaziladigan xalqaro konferentsiyalar va kengashlarda qo‘llaniladi.

Gerbert Shiller shunday yozadi: “Siyosiy kommunikatsiyalar zamonaviy jamiyat barqarorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi, siyosiy miflarning shakllanishiga imkon beradi, uning yordamida zamonaviy davlatda siyosiy elitaning hukmronligini saqlab qolish mumkin”[1], deb hisoblaydi. U yerda siyosiy aloqaning ilk ko‘rinishlariga nisbatan ancha rivojlanganini ko‘ramiz.

Yu.Xabermas o‘z tadqiqotida siyosat vositachilik zanjiri vazifasini bajaruvchi kommunikativ harakatlar tizimida, masalan, kapitalizm va demokratiya o‘rtasidagi munosabatlarda aks etishini ko‘rsatgan. Xabermas hokimiyatni ikki asosiy turga ajratadi: “Birinchidan, jamiyat ichidagi siyosiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan va har qanday repressiya va zo‘ravonlikdan xoli, ikkinchidan, ma’muriy, uning doirasida siyosiy kommunikatsiyalar qonuniylikni ta’minlash uchun boshqariladi” [2], ushbu yondashuvga asoslanib, Habermas zamonaviy demokratiyaning samarali va barqaror mavjudligi uchun juda muhim element davlat siyosati sohasi ekanligini ta’kidlaydi.

Siyosiy aloqalar haqida gapirganda, Toronto aloqa tadqiqotlari maktabi vakili kanadalik tadqiqotchi, Garold Adams Innis aytganidek, “Aloqa vositalari, ijtimoiy tuzilish turini belgilaydi va ma’lum ijtimoiy-siyosiy ta’sirlarni yaratiladi. Shu bilan birga, hokimiyatda kim rahbar bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarini ham nazorat qiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalarining turiga qarab, davlat siyosatiga baho berish mumkin”[3], deydi. Ommaviy axborot vositalarida jamiyatga yetkaziladigan har qanday siyosiy kommunikatsiyaning uzatilishida, o‘sha muhitning asosiy muallifi tomonidan ishlab chiqilgan axborot ta’siri mavjud bo‘ladi.

O‘z navbatida, Richard Perloff aytganidek, “Milliy yetakchilar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar o‘z fikrini bildirish va davlat siyosatini olib borishga oid xabarlarning mazmunini muhokama qilish jarayoni, zamonaviy siyosiy kommunikatsiya, deb tushuniladi”[4], deydi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi axborot jarayonlarini boshqarishda, siyosiy kommunikatsiyaning rivojlanishi, demokratiya va fuqarolik qadriyatlarining tarqalishiga ta’sir qiladi va siyosiy kommunikatsiyaning ishlash modelini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Devid Svanson, siyosiy boshqaruvda kommunikatsion jarayonning rolini o‘rganar ekan, siyosiy-media tizimi tushunchasini, “Ommaviy axborot vositalari institutlari va davlat hamda siyosiy institutlar o‘rtasidagi ularning jamiyat bilan

[1] Шиллер Г. Манипуляторы сознанием. – М.: 1980. – С. 97..
[2] Хабермас Ю. Философский спор вокруг идеи демократии // Демократия. Разум. Нравственность. – М.: 1995.
[3] Innis Harold Adams. The Bias of Communication. – University of Toronto Press. 2008. – P. 226.
[4] Кастельс М. Галактика Интернет. Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург. 2004. – С. 11. Perloff R.M. Political communication: politics, press, and public in America. – Mahwah: NJ. 1998.

o‘zaro munosabatlari sohasidagi doimiy o‘zgaruvchan munosabatlar”[1], deya ta’riflagan. Odamlar axborotni turlicha idrok etishi, uning mazmunini ma’lum qoidalar, odatlar, idrok etish usullari asosida izohlashi sababli, axborot almashish jarayonida subyektning mazmunli xabarlarni anglash qobiliyati asosiy ahamiyatga ega. Axborotni subyektiv idrok etish, tahlil qilish va o‘zlashtirishning bu jihati aloqa yoki siyosiy axborotni jo‘natuvchilar, ya’ni kommunikatorlar va qabul qiluvchilar o‘rtasida mazmunli aloqalarni o‘rnatish jarayoni deb ataladi.

Siyosiy menejment aspektida muloqotning o‘rni va ahamiyati haqida gapirganda, M.Kastelsning ilmiy pozitsiyasini ta’kidlash lozim, u o‘z asarida, “Hokimiyatni amalga oshirish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish asosida sodir bo‘ladi va madaniy kodlar hamda ma’lumotlarni tarqatish, aloqa tarmoqlarini boshqarish manfaatlari va qadriyatlari inson xatti-harakatining yetakchi tamoyillariga aylanadi.”[2], deb yozadi. Bugungi axborot globallashuvi davrida innovatsion texnologiyalarni raqamlashtirish davrida turli axborotlarning kod orqali yetkazilishi inson uchun eng muqobil variant yoki yetakchi tamoyilga aylanib ulgurdi. O‘z navbatida, ommaviy axborot vositalari nazariyasining yana bir tarafdori, taniqli mutaxassis R. Deyberet o‘zining “Pergament, bosma OAV va gipermedia: dunyo tartibini o‘zgartirishdagi aloqalar” nomli kitobida yozadi:

“Aloqa usullaridagi har qanday o‘zgarishlar jamiyat ichidagi hokimiyat taqsimoti, shaxsiy va ijtimoiy ongni o‘zgartirish, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish uchun muhim oqibatlarga olib keladigan darajada siyosiy boshqaruvning asosiy maqsadlariga aloqa usullari va shakllarini o‘zgartirish orqali erishish mumkin” [3], degan xulosaga keladi.

M.N. Grachevning fikricha, “Siyosiy aloqa – bu axborot almashish jarayonlari, siyosiy axborotni uzatish, siyosiy faoliyatni tuzilmalash va unga yangi mazmun bag‘ishlash”[4], deydi, ya’ni axborotni yaratishda, ayniqsa, zamonaviy aloqa va telekommunikatsiya tizimlari sharoitida, axborot xavfsizligi muammolari hamda axborot tizimlarini, axborot texnologiyalarini va ularni qo‘llab-quvvatlash vositalarini yaratish va qo‘llash sohasi siyosiy kommunikatsiya tizimi orqali barcha sohalarning ehtiyojlari bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

O‘z navbatida, A.I. Solovyov “ommaviy kommunikatsiyalar siyosatning ajralmas qismidir”, deb yozadi: “... turli hokimiyat egalari, shuningdek, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi vositachilik aloqa shakllari va maxsus aloqa vositalarisiz

[1] Swanson D. The Political – Media Complex at 50: Putting the 1996 Presidential Campaign in Context // American Behavioural Scientist. 1997. N 40 (8). – P. 126.
[2] Кастельс М. Галактика Интернет. Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург. 2004. – С. 11.
[3] Deibert R.J. Parchment, Printing, and Hypermedia: Communications in World Order Transformation. N.Y.: 1997.
[4] Грачев М.Н. Политическая коммуникация // Вестн.Российск. ун–та дружбы народов. Сер.: Политология. 1999. № 1.

siyosatni amalga oshirish mumkin emas”[1], degan fikrga keladi. Ommaviy aloqa zamonaviy dunyoning ajralmas qismi bo‘lib, u orqali ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni ishlab chiqarish va almashish, turli guruhlarning o‘zaro ta’siri va shaxslarning ijtimoiy tizimga qo‘shilishi amalga oshiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, siyosiy reklama, tashviqot va jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari bevosita tashviqot tarmoqlari orqali, siyosiy subyektlarning to‘g‘-ridan to‘g‘ri muloqoti orqali, aloqani ba’zan bir yo‘nalishli bo‘lsa-da, amalga oshirishga asoslangan. Maqsadli auditoriyaga ega bo‘lgan kampaniyalar va ular-ning vakillari, bilvosita ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama orqali axborot aloqalarini tashkil qilish uchun texnik kanallarga ega bo‘lishga intiladilar. Davlat hokimiyatning eng muhim instituti sifatida rasmiy ma’lumotlarni, xususan, og'zaki (brifinglar, rahbarlar bilan suhbatlar va boshqalar) tarqatish uchun kerakli miqdordagi kanallarga ega bo‘lishi kerak yoki qog'ozga tegishli (gazeta va jurnallardagi nashrlar, hukumat byulletenlari), shuningdek, fuqarolar bilan uzluk-siz muloqot qilish imkonini beruvchi vizual va elektron (davlat telekanallari va mintaqaviy aloqa tizimlari va boshqalar) tizimga ega bo‘lishi kerak.

Amerikalik olim Ierom Bernard Koen 1963-yilda ommaviy kommunikat-siyaning bunday ta’sirining klassik ta’rifini “kun tartibidagi masalalarni belgilash” tartibi ma’nosida shakllantirdi. Bu ta’sir zamonaviy tadqiqot obyektiga aylandi. Uning mohiyati shundaki, deydi muallif, “Matbuot odamlarni ma’lum bir fikrga unday olmaydi, lekin u o‘z o‘quvchilariga nima haqida o‘ylash kerakligini aytib bera oladi, kun tartibidagi masalalarni belgilash – bu ommaviy axborot vosita-larida yoritilgan kun mavzulari haqida jamiyat o‘ylaydigan kognitiv jarayonni tavsiflovchi metafora”[2], ekanligini tushunarli shaklda ta’riflagan edi.

Baranovning ta’kidlashicha ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayon-larga sezilarli ta’siri tushunchasini qayta tiklash tarafdorlaridan biri J.Zeller quyidagicha ta’riflagan edi, “ommaviy axborot vositalari shaxs va jamoat ongiga, siyosiy munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi”[3], ya’ni kommunikatsiyaviy sohada, ommaviy axborot vositalarining haqiqiy qadr-qimmati huquqlarni mus-tahkamlashda emas, balki aniq shakllantirishda ekanligini ta’kidlaydi muallif.

Shuningdek, siyosiy jarayonlarning turli maqsadlari va usullari, tuzilmalari va ishtirokchilari, davlat hokimiyati sohasidagi aniq muammolarni hal qilishning boshqa parametrlarining mavjudligi odamlar o‘rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko‘p qirrali tuzilishini belgilash bilan bir qatorda, har

[1] Соловьев А.И., Пугачев В.П. Введение в политологию. – М.: 2000. – С. 41

[2] Bernard Cohen. The Triumph of Numbers: How Counting Shaped Modern Life. Norton. 2005. – P. 224. – P. 9.

[3] Баранов Н. Политические коммуникации. https://nicbar.ru/politology/study/kurs – teoriya – politiki/lektsii – po – kursu – teoriya – politiki – 2002 – 2007 – gg/95 – lektsiya – 26 – politicheskie – kommunikatsii.

qanday axborot jarayonlarining asosi bo‘lgan kommunikatsiyaning tuzilishi, uni tahlil qilish har qanday tizim va axborot almashinuvi jarayoniga xos eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Fransuz tarixshchisi Jyul Silven Zeller ta’rifiga ko‘ra, “ommaviy axborot vositalari shaxs va jamoat ongiga, siyosiy munosabat va saylovchilarning xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi”[1], bu ta’sir albatta siyosiy kommunikatsiya shakllarida namoyon bo‘ladi. Siyosiy jarayonlarning turli maqsadlari va usullari, tuzilmalari va ishtirokchilari, shuningdek, davlat hokimiyati sohasidagi aniq muammolarni hal qilishning boshqa parametrlarining mavjudligi odamlar o‘rtasidagi axborot va aloqa almashinuvining murakkab, ko‘p qirrali tuzilishini belgilaydi va uning eng muhim fundamental tomonlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Germaniyalik siyosatshunos olima Arendt Xannaning fikricha, “insonning erkinligi va siyosati bir mavzuning ikki tomoni sifatida bir-biriga mos keladi va bir-birini to‘ldiradi”[2]. Odamlar axborotni turlicha idrok etishi, uning mazmunini ma’lum qoidalar, odatlar, idrok etish usullari asosida izohlashi sababli, axborot almashish jarayonida subyektning xabarlarni mazmunli idrok etish qobiliyati prinsipial ahamiyatga ega.

Bir guruh olimlar R.Jeykobson, P.Lazersfeld, G.Lassuell qarashlari nuqtayi nazaridan muloqotning shaxslararo jihati o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aytiladi: “axborot manbayi sharhlovchi hodisaning mavjudligi bilan bog’liq; sharhlangan ma’lumot allaqachon xabardir; xabar konteksti ayniqsa ahamiyatlidir; axborot manbalari va kommunikator o‘rtasida, bir tomondan, xabar va auditoriya o‘rtasida, ikkinchi tomondan, sharhlovchi va tinglovchi tomonidan keladigan shovqinlar mavjud”[3] .

Axborotni subyektiv idrok etish, tahlil qilish va o‘zlashtirishning bu jihati aloqa yoki siyosiy axborotni jo‘natuvchilar (kommunikatorlar) va qabul qiluvchilar o‘rtasida mazmunli aloqalarni o‘rnatish jarayoni deb ataladi. Bunday tushuntirish shuni ko‘rsatadiki, hech qanday ma’lumot siyosiy subyektlar o‘rtasida tegishli aloqani keltirib chiqara olmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, axborot munosabatlarining kommunikativ jihatlari shuni ko‘rsatadiki, xabarlar almashinuvi siyosiy munosabatlarning haqiqiy ishtirokchilari sifatida qabul qiluvchilarning xususiyatlarini e’tiborsiz qoldiradigan yuzsiz texnik jarayon emas. Amalda ko‘p qarorlar, hatto davlat hokimiyati cho‘qqilarida ham, siyosiy rahbarlarning his-tuyg'ulari ta’sirida olingan ma’lumotlardan qat'i nazar, har qanday shaklda qabul qilinishi mumkin.

[1] Zeller J.S. Pie IX et Victor Emmanuel. 1979. – P. 94.
[2] Arendt H. What is Freedoom? // Between Past and Future: Eight Exercises in Political Thought. – N.Y.: 1993. – P. 149.
[3] Кретов Б.И. Современная российская политическая система. – М.: 1998. – С. 108.

Ta’kidlash joizki, odamlarning iste’mol darajasi va davlat hokimiyati sohasida turli xil ma'lumotlar almashinuvi nuqtayi nazaridan hokimiyatning barcha institutlari va mexanizmlari axborot oqimlarini qayta ishlash vositalari va axborot bozorida nisbatan mustaqil tuzilmalardan boshqa narsa emas. Bundan tashqari, ularning faoliyatining samaradorligi bevosita axborotni tashkil qilish va boshqa subyektlar bilan mazmunli aloqalarni o‘rnatish qobiliyatiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy subyektlarning o‘zi ham o‘z qiyofasini o‘zgartiradi, turli xil axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, siyosatni axborot-kommunikatsiya aloqalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqar ekanmiz, uning tuzilmalari va institutlari siyosiy subyektlar tomonidan turli harakatlarini amalga oshirishini belgilaydigan ma’lumotlarni ishlab chiqish, qabul qilish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan shunday ijtimoiy yaxlitlik sifatida tushunamiz.

Siyosiy tizimni axborot-kommunikatsiya tizimi sifatida birinchi marta fanga kiritgan olim Karl Doych bo‘lib, uning ta’kidlashicha, “Axborot almashinuvidagi texnik tarkibiy qismlarning roli nuqtayi nazaridan siyosatni ijtimoiy-texnologik tuzilma sifatida ko‘rsatish mumkin, uning institutlari axborotni maqsadli uzatish, almashish va himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi”[1], deydi, U siyosiy xabarlarni siyosiy xulq-atvorni belgilovchi omil sifatida ko‘rib, “hukumatning asab tizimi”, deb atagan edi. Karl Doychning fikricha, davlat boshqaruvi axborot oqimlari va jamoat muhiti o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ta’sirini nazorat qiladi va tartibga soladi, buning natijasida u siyosiy tizimni harakatga keltiradi. Karl Doychning yondashuvi keyinchalik nazariy jihatdan rivojlanib boradi. Nemis sotsiologi Yurgen Xabermas kommunikativ harakatlar va siyosatning tegishli elementlariga (qadriyatlar, me’yorlar, harakatlariga) e’tibor qaratib[2], ularni ijtimoiy va siyosiy tartibning asosi sifatida taqdim etdi. Bundan farqli o‘laroq, nemis sotsiologi Xelmut Shelski 1965-yilda hokimiyatni siyosiy tashkil etishning ijtimoiy emas, balki texnik jihatlarini ajratib ko‘rsatib, “texnik davlat” g'oyasini shakllantirdi[3] . Bunday yondashuvga muvofiq, davlat alohida fuqarolar va guruhlarning xohish-irodasi va manfaatlariga faqat kichik darajada rioya qilishi kerak. Shu bilan birga, zamonaviy texnika mantiqi, uning imperativ xususiyatga ega bo‘lgan talablari ham yo‘l-yo‘riq, ham faoliyat vositasi sifatida qaralishi kerak. “Apparatning kuchi”, texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish davlatni va umuman, butun siyosatni barcha ijtimoiy munosabatlarni oqilona va shubhasiz tartibga solish vosi-

[1] Электрон ресурс: https://studbooks.net/politologiya/.
[2] Wolfgang Lipp, Schelsky, Helmut, in: Wilhelm Bernsdorf / Horst Knospe, Internation. Vol. 2, Enke, Stuttgart. 1984. – P. 747.
[3] Хубецова З. Ф. Политическая коммуникация Теория, образование, опыт В 2 частях Часть 1. Исследование и преподавание политической коммуникации Учебное пособие. – М.: Санкт – Петербург, 2017. – С. 142.

tasiga aylantiradi. Keyinchalik, ushbu qarashlarning rivojlanishida va “axborot jamiyati”ning paydo bo‘lishini asoslash uchun bir qator olimlar (D.Michn, R.Jonson) siyosiy kommunikatsiyalarning giperratsionalistik talqinlarini taklif qildilar[1], bunda kompyuter texnologiyalariga hal qiluvchi o‘rin berildi.

Siyosiy tizimlar rivojlanishining zamonaviy tajribasi haqiqatan ham, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan mamlakatlarda siyosiy hayotni tashkil etishda texnik va axborot vositalarining rolini oshirishning ma’lum tendensiyalarini ko‘rsatdi. Bu, ayniqsa, ovoz berish uchun qo‘shimcha texnik imkoniyatlarning (xususan, elektron interaktiv aloqa tizimlari) paydo bo‘lishi, ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayondagi roli va ahamiyatini oshirish, davlat boshqaruvidagi ko‘plab sobiq iyerarxik aloqalarni yo‘q qilish, avtonomiyani mustahkamlashga taalluqlidir. Biroq bular faqat hokimiyat institutlari va subyektlari tomonidan manyovr qilish imkoniyatlarini kengaytiradigan shartlardir, chunki ular guruhlarning, siyosiy manfaatlarining yetakchi rolini, ular o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni bartaraf etmaydi.

Siyosat uchun ommaviy axborot-kommunikatsiyasi jarayoni muhim ahamiyatga ega. Axborot munosabatlarini tashkil etishning bunday darajasida, birinchi navbatda, jamoatchilik fikri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Qoida tariqasida, bu komponentlarga quyidagilar kiradi: davlatning rasmiy institutlari (ularning rahbarlari, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha axborot bo‘limlari vakili); davlat (milliy) ommaviy axborot vositalari; korporativ tuzilmalar (partiyalar organlari, jamoat birlashmalari, professional siyosiy reklama agentliklari va boshqalar); xorijiy ommaviy axborot vositalari.

Ularning o‘zaro ta’siri asosan axborot bozorini tashkil qiladi, bunda ularning har biri hokimiyat sohasida o‘z manfaatlariga erishishga bo‘ysunadigan o‘z siyosiy strategiyalarini amalga oshiradi. Siyosiy agentlar tomonidan o‘z kontragentlari bilan ma’lumot olish va aloqa o‘rnatish uchun qo‘llaniladigan bu xilma-xil texnika va usullarning barchasi asosan axborot makonida ikki turdagi harakatlarni ifodalashi mumkin: safarbarlik, shu jumladan tashviqot va jamoatchilik bilan aloqalar usullari bilan ifodalanadigan marketing, shuningdek, siyosiy reklama va PR.

Axborot orqali ta’sir qilishning ushbu usullari axborot makonida subyektlarning xatti-harakatlarini turli rakursda tavsiflaydi. Shu jihatdan targ‘ibot va tashviqot odamlar ustidan axborot nazorati va ularning siyosiy harakatlariga qat’iy ijtimoiy yo‘nalish berish usullaridir. Belgiyalik olim G.Toveronning fikricha, tashviqot odamlarga tanlash imkoniyatini taklif qilmaydi, ularning fikri, e’tiqodi va xatti-harakatlarida muayyan o‘zgarishlar yasaydi. Gebbelsning fikricha, tashviqot ta’siri “ijtimoiy nazorat” vositasi bo‘lib, bu–odamlarni ishontirishni emas, balki tarafdorlarni jalb etish va ularning harakatlarining bo‘ysunishini qat’iy

[1] Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии. – М.: Аспект Пресс. 2001. – С. 74.

ta’minlashni anglatadi. Bunday axborot o‘zaro ta’sirining sxemasi shunday: “kommunikator jo‘natadi – qabul qiluvchi qabul qiladi”. Jamiyatni xabardor qilishning bunday usullaridan bir tomonlama foydalanishning klassik misollarini shaxsiylashtirish va ongini manipulyatsiya qilish yo‘lini nazarda tutadi.

Asosan, hokimiyatga oid maqsadlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan biron-bir davlat, biror siyosiy subyekt jamoatchilik fikriga ta’sir qilishning tashviqot usullaridan foydalanmasdan qila olmaydi. Biroq axborot bozorida xatti-harakatlarning ushbu shakllaridan foydalanish doimo axborot va aloqa jarayonlarini sifat jihatidan o‘zgartirish xavfini keltirib chiqaradi. Fuqarolarning ongi va xulq-atvorini tizimli nazorat qilish istagi ommaviy ongni doimiy ravishda manipulyatsiya qilish, noxolis nayranglar va aholini to‘g'ridan to‘g'ri aldash bilan uzviy bog'liq bo‘lib, bu–muqarrar ravishda axborotni dezinformatsiya bilan almashtirishga olib keladi.

Hokimiyat va jamoatchilik o‘rtasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yishda ham xuddi shunday sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda. Targ'ibot va tashviqot ko‘pincha inson ongi uchun erkin raqobat chegaralarini kesib o‘tadi, uning mafkuraviy zabt etish usullarini unga oldindan dasturlashtirilgan baholar va munosabatlarni majburan singdirish, uni ongsiz ravishda idrok etish va o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan psixologik bosim usullari bilan almashtiriladi.

Inson ongini zabt etishning bunday usullaridan farqli o‘laroq, marketing strategiyalari axborotga bo‘lgan talab va taklif munosabatlariga muvofiq shakllantiriladi va subyekt uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni o‘z vaqtida va kerakli joyda uning ixtiyorida bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Ushbu muloqot marketing strategiyalari aqlni boshqarishga emas, balki ishontirishga qaratilgan, ular muayyan g'oyalar va xatti-harakatlar shakllarini to‘g'ridan to‘g'ri belgilash o‘rniga o‘yga soladi. Axborotning ishonchliligi va hamkorlarga hurmat tobora iliq, samimiy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va kommunikatsiyaning ajralmas shartiga aylanib borayotgan ushbu strategiyalar, birinchi navbatda, fikr-mulohazalarga, muloqotga, halol va o‘zaro hurmatga asoslangan siyosiy ishtirokchilarni xabardor qilishga qaratilgan.

“Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari axborotlashgan jamiyatda yoki unga o‘tish davrida yashamoqda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatga to‘liq o‘tish hamda institutsionallashuv jarayoni va uning tarkibiy tuzilmalari ma’lum darajada past samarada ishlayotganligi namoyon bo‘ladiki, bu, o‘z navbatida, innovatsion rivojlanishga to‘siq bo‘lib qolyapti. Institutsionallashuv jarayonlaridagi islohotlar va o‘zgarishlarning murakkab kechayotganligi islohotlardagi manfaatlar uyg'unligining hozircha to‘la-tekis ta’minlanmaganligi hamda zamon talablariga javob tarzida ularning amalga tatbiq etilmaganligidan kelib chiqmoqda”[1], deyiladi. Axborot bozoridagi xatti-harakatlarning bunday yo‘nalishi

[1] Ясин Е.Т. Модернизация и общество // Вопросы Экономики. – 2007. – № 35. – С. 8.

insonning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini va uning maxfiy ma’lumotlarini oldindan tushunish bilan uzviy bog'liq bo‘lib, u pirovardida uning siyosiy xulq-atvori yo‘nalishini ongli ravishda tanlashga qaratilgan. Bunday usullar, asosan, demokratik an’analari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda yoki masalan, muxolifat kuchlari hokimiyatga endigina kelgan, dastlab aholining ijtimoiy xulq-atvorining ma’naviy rag'batlariga ko‘proq tayanishga va ochiqroq siyosat olib borishga majbur bo‘lgan mamlakatlarda qo‘llanilgan.

Siyosiy aloqa vositalari, an’anaviy ravishda ijtimoiy-siyosiy tizimlar doirasida faoliyat yurituvchi ma’lum tashkilot va muassasalar tushuniladi, ular orqali axborot almashish jarayoni amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar axborot almashishga hissa qo‘shadigan kommunikativ harakatlar yoki vaziyatlar, guruhlar yoki shaxslar (to‘g'ridan to‘g'ri yoki bilvosita, vositachilik yoki zudlik bilan, yoxud vaqt bo‘yicha kengaytirilgan) vositalarni ham nazarda tutadilar.

Siyosiy aloqa vositalari orasida axborot uzatishning norasmiy vositalari alohida o‘rin tutadi. So‘nggi paytlarda ko‘plab tadqiqotchilar rasmiy ma’lumot manbalariga ishonchning pasayishini qayd etdilar, bu esa shaxslararo muloqot darajasida paydo bo‘ladigan xabarlarning ahamiyatini oshirishga olib keldi.

Rossiyalik olim Yuriy Irxinn aytganidek, “Siyosiy aloqa – bu hokimiyat uchun kurash yoki uni amalga oshirish jarayonida axborot almashish orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirining semantik jihati. Bu axborotni maqsadli uzatish va tanlab olish bilan bog'liq bo‘lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakatlanishi mumkin emas” [1], deyiladi.

Siyosiy kommunikatsiya – bu kelishuvga erishish uchun shaxslar va jamiyatning siyosiy kuchlari o‘rtasidagi, siyosiy muloqotning uzluksiz almashinuvi bo‘lib, tadqiqot natijalariga ko‘ra, siyosiy kommunikatsiya – siyosiy ma’lumotlarni uzatishning doimiy jarayoni sifatida, siyosiy tizimning turli elementlari, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy tizimlar o‘rtasida aylanadigan axborot ko‘rinishlari, usullari va shakllari hisoblanadi. Siyosiy kommunikatsiya jamiyatdagi siyosatga mutlaqo boshqacha ta'sir ko‘rsatadigan, siyosiy subyektlarning rasmiy va norasmiy o‘zaro ta’siri jarayonida amalga oshiriladigan axborot almashinuvi jarayoni, deb ta’riflasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamiyat hayotida uning ichida shakllanayotgan siyosiy kommunikatsiya unda mavjud siyosiy munosabatlar va kechayotgan siyosiy jarayonlarni tartibga solishga qaratiladi. Bu faoliyat siyosiy xarakterga ega bo‘lgan sinflar, boshqa ijtimoiy guruhlar, milliy jamoalarning siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan institutlar va tashkilotlarga tegishlidir. Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati ijtimoiy, mafkuraviy, axloqiy, diniy va hokazo munosabatlarning umumiyligi ta’sirida rivojlanib, o‘z navbatida, ularga juda muhim ta’sir ko‘rsatadi.

[1] Ирхин, Ю. В. Политология: учебник / Ю. В. Ирхин, В. Д. Зотов, Л. В. Зотова. – М.: Юрист. 2002. – С. 511.

Siyosiy aloqaning norasmiy vositalariga mish-mishlar, g'iybatlar, latifalar va graffiti[1]lar kiradi. Bu manbalar, eng avvalo, siyosiy yetakchilar va siyosiy institutlar faoliyatiga salbiy bahoning shakllanishiga ta’sir qiladi.

Mashhur amerikalik siyosatshunos M. Edelman “butun siyosiy hayot til yordamida yaratilgan o‘ziga xos konstruksiyadir”[2], deb hisoblaydi. Unda har bir muhim siyosiy fakt, har bir siyosiy voqea tavsifi yoki siyosiy arbobga munosabat aniq manbalarga asoslangan, siyosiy faoliyat ishtirokchilari va kuzatuvchilarining g'oyaviy-psixologik xususiyatlariga qarab tahlillarini o‘z ichiga oladi. Ya'ni, siyosiy fakt turli odamlar tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin, ammo bu siyosiy sohada kommunikatsiyaning amaliy modellari uchun asos bo‘la olmaydi.

Siyosiy kommunikatsiya turli yo‘llar bilan, xususan, muayyan odamlar va jamoalarga siyosiy xabarlar yuborish orqali amalga oshiriladi. Xabarlar ularga nisbatan jamoatchilikning qiziqishini uyg'otadigan faktlar bayoni yoki voqea-hodisalar mazmunini tushuntirish sifatida ko‘rinishi mumkin. Siyosiy aloqa asosan vertikal pastga qarab aloqa sifatida amalga oshiriladi. Xabarlarning tashabbuskori (kommunikator), qoida tariqasida, rahbar yoki siyosiy tashkilotdir. Aloqa subyekti axborotni shakllantirish va tarqatish mexanizmiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Баранов Н.А. Популизм как политическая деятельность. – СПб.: Изд – во СЗАГС, 2002. – С. 230.
2. Лассуэлл Г.Д. Структура и функции коммуникации в обществе // Массовая коммуникация в современном мире: методология анализа и практика исследований. – М.: 2002. – С. 131.
3. Соловьев А. И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс. 2006. – С. 559.
4. Вебер А. Избранные произведения. – М.: 1990. – С. 646.
5. Шварценберг П.Ж. Политическая социология. – М.: 1992. – С. 174.
6. Lenart S. Shaping political attitudes. The impact of interpersonal communication and mass media. – Oxford: Thousand Oaks et al. 1994. – P. 151.
7. Дойч А.А. Основы политической теории. – М.: Высшая школа. 1998. – С.142.
8. Шиллер Г. Манипуляторы сознанием. – М.: 1980. – С. 197..
9. Хабермас Ю. Философский спор вокруг идеи демократии // Демократия. Разум. Нравственность. – М.: 1995. – С.211

[1] Graffiti – san'at yoki vandalizm? Tor ma'noda graffiti ko‘cha san'atining muhim qismiga aylangan submadaniy hodisadiR.Bu o‘z ismingizni yoki jamoangiz nomini iloji boricha ko‘proq joyga yozishga asoslangan. "Bo‘lak" (ish) deb ataladigan joy qanchalik xavfli bo‘lsa, uning aylanishi shunchalik katta bo‘ladi. //Google.com/search?q=graffiti+vikipediya&oq=graffiti+ vikipediya&gs_.

[2] Эдельман М. Категоризация, восприятие и политика. Ч.1 // Политическая лингвистика. 2016. № 58. – С. 244.

10. Кастельс М. Галактика Интернет. Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург. 2004. – С. 112.
11. Swanson D. The Political – Media Complex at 50: Putting the 1996 Presidential Campaign in Context // American Behavioural Scientist. 1997. N 40 (8). – P. 126.
12. Deibert R.J. Parchment, Printing, and Hypermedia: Communications in World Order Transformation. N.Y.: 1997. – C. 122.
13. Грачев М.Н. Политическая коммуникация // Вестн.Российск. ун–та дружбы народов. Сер.: Политология. 1999. № 1.
14. Bernard Cohen. The Triumph of Numbers: How Counting Shaped Modern Life. Norton. 2005. – P. 224. – P. 190.
15. Zeller J.S. Pie IX et Victor Emmanuel. 1979. – P. 294.
16. Arendt H. What is Freedoom? // Between Past and Future: Eight Exercises in Political Thought. – N.Y.: 1993. – P. 149.
17. Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии. – М.: Аспект Пресс. 2001. – С. 174.
18. Ясин Е.Т. Модернизация и общество // Вопросы Экономики. – 2007. – № 35. – С. 180.
19. Ирхин, Ю. В. Политология: учебник / Ю. В. Ирхин, В. Д. Зотов, Л. В. Зотова. – М.: Юрист. 2002. – С. 511.
20. Эдельман М. Категоризация, восприятие и политика. Ч.1 // Политическая лингвистика. 2016. № 58. – С. 244.

GAFAROV ISLOMXON
Yetakchi ilmiy xodimi, Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti
ORCID ID: 0009-0002-8031-5151

Janubiy Osiyo mintaqasida AQSH tashqi siyosatining genezisi (1947–2022-yy.)

Annotatsiya. *AQSH tashqi siyosati Janubiy Osiyo mintaqasida o‘zgaruvchanligi va dinamik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolaning bosh maqsadi AQSHning ushbu mintaqadagi konstruktivist tashqi siyosiy jihatlarini aniqlashdan iborat. Bunda tarixiy, qiyosiy-siyosiy, induksiya va deduksiya ilmiy usullaridan foydalanilgan. Maqolada sovuq urush davridan to bugungi kunga qadar AQSH tashqi siyosati Janubiy Osiyoda ko‘tarilish va tushishlar, bog‘liqlik va uzoqlashishdan iborat bo‘lganligi, bundan tashqari, tashqi siyosat vektori goh Pokistonga, goh Hindistonga qaratilganligi hamda bugungi kunda aloqalar asosan Hindiston tomon yo‘nalganligi xulosa qilingan.*

Maqola o‘z ichiga AQSH tashqi siyosatining Janubiy Osiyo mintaqasidagi asosiy yetti davrini oladi. Xususan, 1947–1965-yillarda AQSHning mintaqadagi e’tibori Pokistonga qaratilgan bo‘lsa, 1965–1979-yillarda Vyetnam urushi tufayli mintaqadan uzoqlashish ro‘y beradi. 1979–1989-yillarda bo‘lib o‘tgan SSSRning Afg‘onistondagi

urushi yana Pokistonning ahamiyatini AQSH tashqi siyosatida kuchaytiradi. 1989–1998-yillarda AQSH global gegemoniyaga intilganligi sababli ham Hindiston, ham Pokiston bilan alohida-alohida tashqi siyosat olib bora boshlaydi. 1998–2001-yillarda Hindiston va Pokiston yadro qurollarining sinovini o'tkazganligi sababli AQSHning sanksiyalari ostiga tushadi. Binobarin, 2001-yilda Afg'onistonda boshlangan terrorizmga qarshi urush (War on Terror) Pokistonning ustuvorligini AQSH tashqi siyosatida yana oshiradi. Bu 2021-yil AQSH o'z kuchlarini Afg'oniston olib chiqib ketkunga qadar davom etadi. Prezident Barak Obama davridan boshlab Hindistonning AQSH tashqi siyosatidagi o'rni keskin osha boshlaydi. D.Tramp davrida ushbu davlatga rasman "Asosiy mudofaa hamkori" maqomi beriladi.

Maqola konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasi rakursida ochib berilganligi bilan ajralib turib, u soha mutaxassislarining faoliyatida foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: *Xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, AQSH, Janubiy Osiyo, Hindiston, Pokiston, Xitoy, konstruktivizm.*

Аннотация. *Внешняя политика США в регионе Южной Азии характеризуется изменчивостью и динамичностью. Основная цель данной статьи – выявить конструктивистские аспекты внешней политики США в этом регионе. В статье использовались исторический, сравнительно-политический, индукционный и дедуктивные научные методы. В работе приводятся такие выводы, что внешняя политика США в Южной Азии со времен Холодной войны до наших дней состояла из взлетов и падений, внешнеполитический вектор был направлен то в сторону Пакистана, то в сторону Индии, а насегодняшний день отношения в основном направлены в сторону Индии.*

В статье представлены семь основных периодов внешней политики США в регионе Южной Азии. В частности, в 1947-1965 гг. внимание США в регионе было приковано к Пакистану, а в 1965-1979 гг. в связи с вьетнамской войной отдалилось от региона. Война СССР в Афганистане, имевшая место в 1979-1989 гг., вновь усиливает значение Пакистана во внешней политике США. В 1989-1998 годах США начали проводить отдельную внешнюю политику как с Индией, так и с Пакистаном из-за стремления к глобальной гегемонии. В 1998-2001 годах Индия и Пакистан попали под санкции США из-за проведения ими испытаний ядерного оружия. Следовательно, война с терроризмом (War on Terror), начавшаяся в Афганистане в 2001 г., повышает приоритет Пакистана во внешней политике США. Это продолжалось до 2021 года, когда США вывели свои войска из Афганистана. Со времен президента Барака Обамы роль Индии во внешней политике США начинает резко возрастать. При Д. Трампе данной стране официально был присвоен статус «Основного оборонного партнера».

Статья отличается тем, что раскрывается с позиций теории международных отношений конструктивизма и может быть полезна в работе специалистов в данной области.

Ключевые слова: *Международные отношения, внешняя политика, США, Южная Азия, Индия, Пакистан, Китай, конструктивизм.*

Abstract. *US foreign policy in the South Asian region is characterized by changeability and dynamism. The main purpose of this article is to reveal the constructivist aspects of US foreign policy in this region. The article used historical, comparative*

political, inductive and deductive scientific methods. The paper concludes that the US foreign policy in South Asia from the Cold War to the present day has consisted of ups and downs, the foreign policy vector has been directed either towards Pakistan or towards India, and today relations are mainly directed towards India .

The article includes the main seven periods of US foreign policy in the South Asian region. In particular, in 1947-1965, the attention of the United States in the region was focused on Pakistan, and in 1965-1979, due to the Vietnam War, it moved away from the region. The war of the USSR in Afghanistan, which took place in 1979-1989, again strengthens the importance of Pakistan in the foreign policy of the United States. In 1989-1998, the United States began to pursue a separate foreign policy with both India and Pakistan due to its pursuit of global hegemony. In 1998-2001, India and Pakistan are subject to US sanctions due to their nuclear weapons tests. Consequently, the War on Terror, which began in Afghanistan in 2001, increases the priority of Pakistan in the foreign policy of the United States. This continued until 2021, when the United States withdrew its forces from Afghanistan. Since the time of President Barack Obama, the role of India in the foreign policy of the United States has increased dramatically. During the period of D.Trump, this country was officially given the status of "Major Defense Partner".

The article differs in that it is revealed from the standpoint of the theory of international relations of constructivism and can be useful in the work of specialists in this field.

Key words: *International relations, foreign policy, USA, South Asia, India, Pakistan, China, constructivism.*

Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashqi siyosati konstruktivist jihatlarga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, xalqaro munosabatlar material emas, balki ko‘proq mafkuraviy, madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liq. Undagi tartib - qoidalar aniq, to‘liq, abadiy hamda o‘zgarmas emas. Ular ma’lum bir davr va makonda vaqtincha mavjud va muqim emasdir. Xalqaro munosabatlardagi qoidalar vaqtincha va moslashuvchandir. Ba’zi mutaxassislar konstruktivizmni nazariya emas, balki ko‘proq siyosiy yondashuv deb atasa, ko‘pchilik uni to‘laqonli xalqaro munosabatlar nazariyasi deb ta’riflaydi. Konstruktivizm bu 1990-yillar va 2000-yillarning boshida xalqaro munosabatlar nazariyalari ichida ta’sir kuchi eng ko‘p bo‘lgan maktabdir. Sovuq urush natijasida AQSHda ijtimoiy harakatlar avj olib, ziddiyatni ijtimoiy omil sifatida tadqiq qilish rivoj topgandi. Shu asnoda ko‘proq sotsiologiya sohasidan kelib chiqqan konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasi shakllanadi [1] . Konstruktivizm asosini ijtimoiy omillar tashkil qilar va ular masala va muammolarning konstruktiv yechimiga taqalar ekan, ushbu qarashlar bugungi kunda qaror qabul qiluvchi elita hamda tadqiqotchilar o‘rtasida dolzarb hisoblanadi.

[1] Dunne T., Kurki M., Smith S. (2013) International Relations Theories. Oxford University Press. – 223-236p.

AQSH tashqi siyosatida ham ushbu qarashlar ahamiyatlidir. AQSH tashqi siyosati rivojlanish evolyusiyasi dinamik bo‘lib, u dastlab izolatsionistik tus olib, keyinchalik internatsionalizmga asoslanadi. Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng tashqi siyosatda avvaliga realizm ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik liberalizm, neorealizm va neoliberalizm dolzarblashadi. Jahon tartiboti va undagi jarayonlarga ham davlatning munosabati davr va vaziyatdan kelib chiqib o‘zgarib turishi ro‘y beradi. Zamonaviy davrda D.Tramp administratsiyasi tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va Prezident J.Baydenning bugungi kundagi tashqi siyosati AQSHda ushbu soha konstruktivistligidan dalolat beradi.

Yevropa, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalari kabi Janubiy Osiyo mintaqasida ham uning tashqi siyosati konstruktivist ruhda shakllanib rivojlangan. XX – XXI aslarda mazkur mintaqaga bo‘lgan yondashuv buning isbotidir. Agar sovuq urush vaqti mintaqa AQSH uchun kommunizmning “tiyib turish” siyosatining bir qismi bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so‘ng u global terrorizmga qarshi kurashish platformasiga aylandi. Oxirgi o‘n yillikda Xitoy omilining mazkur mintaqada kuchayishi, Janubiy Osiyoni AQSH uchun strategik mintaqalar qatoriga qo‘shdi. Bundan tashqari, mintaqa AQSHning ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalib ketmasligi siyosatining bir qismi bo‘lib kelmoqda.

AQSH tashqi siyosatini Janubiy Osiyo mintaqasida tarixiy tahlil qilsak, ushbu hududdagi ikki asosiy davlatga nisbatan, ya’ni Hindiston va Pokistonga Qo‘shma Shtatlarning yondashuvi turlicha bo‘lgan. Tashqi siyosiy fokus ustuvorligi ma’lum bir davrda Hindistonga, ma’lum bir vaqt Pokistonga berilgan. Ayrim davrlarda, xususan, 1990-yillarda ikki davlatga ham bir darajada ustuvorlik berilgan. Bugungi kunda Qo‘shma Shtatlar Pokiston va Hindiston bilan alohida-alohida siyosat olib bormoqda. AQSHning siyosati ushbu mintaqada yaxlit emas. Pokiston bilan aloqalarda urg‘u asosan xavfsizlikka taqalsa, Hindiston bilan aloqalar asosan iqtisodiydir. Mintaqa davlatlariga shu tarzda yondashish tarixiy rakursda AQSHning munosabati konstruktivist ekanligi, ya’ni davr va vaziyatdan kelib chiqib o‘zgaruvchan rivoj topganligini anglatadi.

Janubiy Osiyo mintaqasi G‘arb olami uchun kolonizatsiya davrida “Hind subkontinenti” amatasi bilan atalgan. Boburiylar saltanati uzra mustamlakachilik siyosatini o‘rnatgan Buyuk Britaniya (1858– 1947) hozirgi Hindiston va Pokiston hududlarini nazorat qilgandi. Ikkinchi jahon urushi vaqti Britaniya Hindistoni antigitlerchi koalitsiya tarkibida ishtirok etadi, biroq urush nihoyasiga ko‘ra, Buyuk Britaniya o‘z qudratini yo‘qotadi. Bu 1947-yilda mustaqil Hindiston va Pokiston davlatlari vujudga kelishiga zamin yaratadi. Din negizida shakllangan ushbu ikki davlat o‘rtasida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ziddiyat boshlanadi[1]. Natijada, 1947– 1948, 1965 va 1999yillarda ular o‘rtasida to‘qnashuvlar

[1] Paul T. V. (2005) The India-Pakistan conflict: An enduring rivalry. Cambridge: Cambridge University Press. – 6-8p.

bo‘lib o‘tadi[1]. Bu o‘z-o‘zidan ushbu mintaqaga bo‘lgan yondashuvda Hindiston–Pokiston, islom va hind sivilizatsiyalari qarama-qarshiligining inobatga olinishini taqozo qilardi. O‘ziga xoslik (identities), qadriyatlar, din va mafkuralar asosida vujudga kelgan Hindiston– Pokiston munosabatlari siyosiy konstruktivizmning yaqqol misolidir. Chunki davlatlar o‘rtasida aloqalarga g‘oyalar ta’sir etar ekan, ular konstruktivist shakllanganligini anglatadi.

Bundan tashqari, ushbu ikki davlat va butun mintaqaga bo‘lgan munosabatga diniy konfessiyalar omili inobatga olinar ekan, ilmiy tadqiqotlarda mafkuraviy yondashuvni o‘z ichiga olgan konstruktivizm siyosiy nazariyasi ustuvor bo‘ladi. Chunki 1947-yildan bugungi kunga qadar aksariyat davlatlarning Janubiy Osiyo mintaqasiga bo‘lgan tashqi siyosiy yondashuvi yuqoridagi mafkuraviy omillarni inobatga olgan holda rivojlangan. Misol, Hindiston bilan hamkorlik qilayotgan davlat, Pokiston bilan unchalik ham yaqin bo‘la olmaydi; Pokiston bilan ittifoq tuzgan davlat Hindistonning ishonchidan tashqarida bo‘ladi. Bundan shu kelib chiqadiki, mintaqaga yondashgan davlatlarda o‘ziga xos geosiyosiy tanlov vujudga keladi: Hindiston yoki Pokiston? Ushbu ikki davlatning ishonchida bo‘-lish, ularning tashqi siyosiy idroki (perceptions)ga mos siyosat olib borish mintaqa masalalarida konstruktivizm ustuvor bo‘lishini anglatadi.

Bugungi kunda ushbu mintaqaga ta’rif berganda, 1985-yilda tuzilgan iqti-sodiy-siyosiy ahamiyatga ega Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK / SAARC – South Asian Association for Regional Cooperation) tashkilotiga a’zo davlatlar tushiniladi – bular Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Bangladesh, Nepal, Butan, Shri-Lanka va Maldiv[2]. Jahonning 4,2 % yalpi ichki mahsuloti[3] hamda 25% aholisini tashkil etuvchi ushbu ulkan mintaqa qadimdan sivilizatsiyalar kesishgan hudud, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasi, zamonaviy davrda “Makon va Yo‘l” Tashabbusi, Xalqaro Shimol-Janub Transport Yo‘lagi (INSTC / The International North–South Transport Corridor), Yangi Buyuk ipak yo‘li, Termez– Mozari-Sharif– Kabul– Peshovar temir yo‘li, TAPI, CASA-1000 kabi yirik lohilarning fundamental qismi bo‘lib kelmoqda. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Xitoy, Janubi-sharqiy Osiyo va Hind okeani o‘rtasida joylashgan ushbu ulkan mintaqaning geosiyosiy ahamiyati zamonaviy xalqaro munosabatlarda vaznlidir[4]. Xitoy, Hindiston, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarining jahon

[1] Fair C. (2016) Pakistan’s strategic culture: Implications for how Pakistan perceives and counters threats. Washington: The National Bureau of Asian Research. – 3p.

[2] Irum Shaheen (2013) South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC): Its Role, Hurdles and Prospects. IOSR Journal of Humanities and Social Science (IOSR-JHSS) Volume 15, Issue 6. – 1p. file:///C:/Users/HP/Downloads/South_Asian_Association_for_Regional_Cooperation_S.pdf

[3] GDP – South Asia. The World Bank.
https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?end=2021&locations=8S&start=1960&view=chart

[4] Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment. University of Sargodha. Journal of Historical Studies. – 268p.

okeaniga chiqish masalasi Janubiy Osiyo mintaqasiga bog‘liq ekan, ushbu mintaqaning ahamiyati yo‘qolmaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining Janubiy Osiyodagi tashqi siyosati genezisiga to‘xtalsak, uning shakllanish va rivojlanish ssenariysi dinamik ekanligiga amin bo‘lamiz. Zamonaviy AQSH tashqi siyosati mazkur mintaqadagi Ikkinchi jahon urushi yakuni va mintaqadagi ikki asosiy davlat, Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishishi bilan boshlanadi. AQSHning Janubiy Osiyo mintaqasidagi zamonaviy tashqi siyosatini quyidagi yetti davrga bo‘lib tadqiq qilish mumkin:

- 1947– 1965-yillar;
- 1965– 1979-yillar;
- 1979– 1989-yillar;
- 1989– -1998-yillar;
- 1998– 2001-yillar;
- 2001– 2021-yillar;
- 2021-y.h.k.

1947– 1965-yillar. Ushbu davrda AQSH tashqi siyosati Janubiy Osiyo mintaqasida asosan xalqaro miqyosda rivoj topayotgan kommunizmni “tiyib turish”ga taqaladi. Mintaqa AQSH uchun iqtisodiy emas, balki ko‘proq strategik ahamiyat kasb etardi[1]. 1946-yildagi Buyuk Britaniya Bosh vaziri Uinston Cherchillning Fulton shahridagi kommunizmga qarshi qaratilgan nutqi, AQSHning Sovet davlatidagi elchi maslahatchisi Jorj Kennanning “Uzun telegramma”si, 1947-yilgi Trumen doktrinasi kabi siyosiy voqeliklar AQSH tomonidan butun dunyo bo‘ylab kommunizmning tarqalib ketmasligi yo‘lida tashqi siyosiy harakatlar amalga oshirilishini taqozo qilgandi. Bu natijada sovuq urush boshlanishi, Marshall rejasi amalga oshishi hamda NATO kabi tashkilotlar tuzilishiga olib kelgandi[2]. G‘arb-Sharq qarama-qarshiligi Janubiy Osiyoni ham chetlab o‘tmaydi. Trumen, Eyzenxauer va Kennedi administratsiyalari ushbu mintaqa kommunistik blok tomon o‘tib ketishiga qarshi edi. Bundan tashqari, Yaqin Sharq neft manbalarining asosiy yo‘lagi hisoblangan Fors ko‘rfazi uzra nazoratni saqlash AQSH uchun ustuvor hisoblangan.

Ushbu davrda iqtisodiy jihatdan katta salohiyatga ega va oyoqqa turayotgan Hindistonga Qo‘shma Shtatlar katta qiziqish bildiradi[3]. Binobarin, Hindiston-Pokiston geosiyosiy tanlovida AQSHning tanlovi Pokistonga tushadi. AQSH nazorati ostidagi Yaqin Sharq mintaqasiga tutashgan Pokiston kommunizm bilan kurashda ishonchli hamkor hisoblanardi. Bu Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bo‘ylab antikommunistik devor qurishga imkon yaratardi. Bundan tashqari, ateizmni targ‘ib qilayotgan SSSRga qarshi turishda din negizida birlashgan

https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia_An_Historical_Assessment

[1] Ibidem. – 269p.

[2] The Cold War (1945–1989). CVCE.EU by UNI.LU. 2016. https://www.cvce.eu/content/publication/2011/11/21/6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185/publishable_en.pdf

[3] Panagariya A. (2008) India: The emerging giant. Oxford: Oxford University press. – xiiip.

Pokiston davlati AQSHga qulay hamkor hisoblanardi[1]. Masalalar yechimida din omili inobatga olinishi o‘sha davrdagi isteblishment kommunizmning mintaqaviy “tiyib turish” siyosatiga konstruktivist yondashganligidan dalolat berardi.

Bu davrda AQSH–Hindiston aloqalari passiv darajada edi. Pokiston bilan ittifoq tuzgan AQSH, o‘zining ittifoqchisiga qarshi bo‘lgan davlat bilan yaqin bo‘la olmas edi (konstruktivizmning jihati). Bundan tashqari, Hindiston ko‘proq Sovet davlati tomon yon bosayotgandi. Natijada, Janubiy Osiyodagi Hindiston– Pokiston qarama-qarshiligida ham sovuq urushning ayrim jihatlari namoyon bo‘ladi. Ammo biroz vaqt o‘tgach, Hindiston G‘arb va Sharq bloklaridan uzoqlashgan holda mustaqil va neytral siyosat olib bora boshlaydi[2]. Hindinston, Misr va Yugoslaviya davlatlari 1950-yillarning o‘rtalari va 1960-yillarda vujudga kelgan Qo‘shilmaslik harakatiga yetakchilik qila boshlaydi. Bu davrda, o‘z navbatida, Pokiston Qo‘shma Shtatlarning Janubiy Osiyodagi eng yaqin ittifoqchisiga aylanadi. U AQSH tomonidan SSSRni tiyib turishga qaratilgan SENTO va SEATO harbiy bloklarining asosiy a’zo davlatlari qatoridan o‘rin egallaydi[3].

Shunday qilib, ushbu davrda AQSH o‘z tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasida ustuvorlikni Pokistonga taqdim etadi. Hindiston avvaliga SSSR bilan yaqinlashib, keyinchalik Qo‘shilmaslik harakatining lideriga aylanadi.

1965– 1979-yillar. Ushbu davrda AQSHning Janubiy Osiyodagi tashqi siyosatida passivlik namoyon bo‘ladi. 1965– 1973y. Vyetnamda kechgan urush AQSHning fokusi Janubi-Sharqiy Osiyoga ko‘chishini taqozo qiladi. Natijada, AQSH Janubiy Osiyo va Pokistondan uzoqlashadi. AQSH 1965-yil hamda 1971-yilda Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi urushlarga arashlamaydi. Ikki marta ham AQSH o‘zining ittifoqchisiga yordamga kelmaydi. Mag‘lub bo‘lgan va Bangladesh hududini yo‘qotgan Pokiston, AQSH siyosatidan norozi ekanligini namoyish qilish uchun 1971-yili SEATO harbiy blokidan chiqib ketadi[4]. Hissiyotga berilib, norozilikni namoyish etish va kuchli ittifoqchidan voz kechish realizm nuqtayi nazaridan irratsionalizmdir. Realizmga ko‘ra, davlatlar xalqaro munosabatlarda ratsional harakatlanadilar, binobarin, konstruktivizm davlatlarni g‘oya va

[1] Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment. University of Sargodha. Journal of Historical Studies. – 275p. https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia_An_Historical_Assessment

[2] Mahmud Ali S. (1999) Cold war in the high Himalayas: The USA, China and South Asia in the 1950s. London & New York: Routledge. – 4p.

[3] Moonis Ahmar (2021) Changing Dynamics of Pak-US Relations and the Challenge of Soft Power. LSE IDEAS | Jinnah Papers. – 15-16p.
https://eprints.lse.ac.uk/114516/1/Ahmar_changing_dynamics_of_pakistan_us_ published.pdf

[4] Munawar Hussain (2016) Pak-US Relations: An Historical Overview. Pakistan Journal of History and Culture, Vol. XXXVII, No. 2. – 69-71p. http://www.nihcr.edu.pk/Latest_English_Journal/Jul-Dec%202016%20No.2/5.%20PakUS%20Relations%20a%20%20Historical%20Review,%20Munawar%20Hussain%20footnotes%20corrected.pdf

hissiyotlar harakatlantirishini e’tirof etadi. Pokistonning ushbu keysdagi harakati bunga isbot bo‘la oladi.

Bundan tashqari, 1969–1979 AQSH va SSSR o‘rtasida davom etgan iliqlik munosabatlari (“detant” davri) hamda 1971-yildan AQSH va Xitoy Xalq Respublikasining aloqalari o‘rnatilishi va taraqqiy topishi[1], isteblishmentning e’tiborini boshqa vektorlarga qaratgandi.

1979–1989-yillar. Ushbu davr Sovet davlati va Afg‘oniston o‘rtasida kechgan urush bilan bog‘liq. Sovet davlatining Janubiy Osiyo mintaqasi, xususan, Afg‘onistonga kirishi AQSHning diqqatini ushbu mintaqaga yana tortadi. O‘n besh yil davomida namoyon bo‘lgan passivlik yo‘qoladi. AQSH ushbu mintaqada yana faollasha boshlaydi va bu uning tashqi siyosatida keskin dinamikani hosil qiladi. Ushbu mintaqadagi muhim bo‘lmagan tashqi manfaatlar yana ustuvor bo‘la boshlaydi. Afg‘onistonda SSSRga qarshi turish maqsadida Pokiston AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylanadi. AQSH-Pokiston munosabatlari yana rivojlana boshlaydi[2]. Manfaatlarning muqim emasligi va ular davr hamda vaziyatdan kelib chiqib o‘zgaruvchan bo‘lishi konstruktivizmning ko‘rinishidir. AQSHning ushbu davrdagi Janubiy Osiyodagi o‘zgaruvchan tashqi siyosati bunga misol bo‘la oladi.

1989– 1998-yillar. Ushbu davr Sovet davlati parchalanishi va sovuq urush o‘z nihoyasiga yetishi bilan ajralib turadi. Bu davrda AQSH global gegemoniyaga intilib, o‘z pozitsiyalarini barcha mintaqalarda mustahkamlay boshlagandi. Janubiy Osiyo mintaqasi ham AQSH nazaridan chetda qolmaydi. Ushbu davrda AQSH tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy dilemma, ya’ni Hindiston yoki Pokiston tanlovi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. AQSH Hindiston va Pokiston bilan alohida-alohida barobar diplomatiya olib boradi. AQSHni Hindistonning rivoj topayotgan iqtisodi qiziqtirsa, Pokiston hanuz strategik jihatdan muhim edi[3]. Bu davrda AQSH tashqi siyosati Janubiy Osiyoda o‘z pozitsiyalari uchun tashqi tahdidlardan ko‘ra ichki tahdidlar ko‘payganligini sezadi. Nega deganda, AQSH pozitsiyalariga asosiy raqib bo‘lgan Sovet davlati Afg‘onistonda mag‘lub bo‘lib, parchalanib ketgandi. Endi AQSHni Janubiy Osiyodagi ichki muhit ko‘proq tashvishga solardi. Ushbu mintaqa masalalarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida Davlat departamentida Janubiy Osiyo Byurosi ta’sis etiladi[4].

[1] U.S.-China Relations. Council on foreign relations. https://www.cfr.org/timeline/us-china-relations

[2] Lubna Sunawar, Tatiana Coutto (2015) U.S. Pakistan Relations during the Cold War. The Journal of International Relations, Peace Studies, and Development: Vol. 1. – 1p. https://scholarworks.arcadia.edu/ cgi/viewcontent.cgi?article=1006&context=agsjournal

[3] Gavrilova V.A. (2013) US Policy in South Asia since the end of the Cold War. Bulletin of Tomsk State University. – 80p. https://cyberleninka.ru/article/n/politika-ssha-v-yuzhnoy-azii-posle-okonchaniya-holodnoy-voyny/viewer

[4] Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment. University of Sargodha. Journal of Historical Studies. – 277p. https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia_An_Historical_Assessment

1998– 2001-yillar. AQSHning Janubiy Osiyoga bo‘lgan iliq munosabatlari 1998-yili barham topadi. Buning sababi 11-may sanasida Hindiston tomonidan yadro qurolining sinovi tashkil etilganligi va bunga javoban Pokiston tomonidan 28-may sanasida beshta yadro quroli sinovi bo‘lib o‘tganligidir. Mintaqaning bir-biriga qarshi bo‘lgan ikki davlatida yadro quroli paydo bo‘lishi mintaqadagi xavfsizlik masalalarini yanada oshirgandi[1]. O‘zini yakka superderjava deb qabul qilgan Qo‘shma Shtatlar uchun yadro qurolining tarqalishi ma’qul emasdi. Qolaversa, ayyorona yo‘llar bilan mahoratli olim Abdul Qodir Xon tomonidan yaratilgan Pokiston yadro quroli AQSHning xavotirini yanada oshirgandi. Pokiston AQSHning dushmanlari hisoblangan Shimoliy Koreya hamda Eron uchun namunali misol edi. Bundan tashqari, isteblishmentni kelajakda yadro quroli terroristik qo‘llarga tushib qolishi xavotirlantirardi. Buning natijasida, AQSH mintaqaga sanksiya qo‘yadi[2].

2001– 2021-yillar. 2001-yil 11-sentabr voqealari AQSHning e’tiborini yana Janubiy Osiyoga qaratadi. Global terrorizmga qarshi kurashish maqsadida AQSH o‘z kuchlarini Afg‘onistonga olib kiradi. Bunda Pokiston o‘ziga xos forpost vazifasini bajarib beradi. Natijada, AQSH tashqi siyosatining Janubiy Osiyo vektorida Pokistonning ahamiyati yana ustuvorga aylanadi. Afg‘oniston va Pokiston davlatlari chegaradosh ekanligi, bundan tashqari, o‘sha chegara hududi (Af-Pak) global terrorizm markaziga aylanganligi Pokistonning ahamiyatini yanada oshirardi. Af-Pak hududi Al-Qoida va boshqa terroristik kuchlarning markaziga aylanganligi AQSH tashqi siyosatida yo‘l qo‘yilgan katta xatolik edi[3]. 1991-yildan buyon ahamiyati tushgan va e’tibor qaratilmagan mintaqa 10 yil o‘tib AQSHning eng yirik muammosiga aylangandi. Af-Pak hududining ahamiyati oshishi Janubiy Osiyoda usturvorlik yana Pokistonga taqdim etilishiga olib keladi. Bu neytral aloqalardan iliqlashayotgan AQSH– Hindiston munosabatlarida yana probel hosil bo‘lishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, mintaqadagi geosiyosiy tanlov yana dolzarblashadi va AQSH bunda Pokistonni tanlaydi.

Pokiston AQSH tashqi siyosatida 2021-yil 31-avgustga qadar dolzarb bo‘lib turadi. Afg‘onistonda 20 yil mobaynida kechgan AQSH harbiy operatsiyasi buning asosiy sababi edi. Ammo 2021-yil 31-avgustdan so‘ng AQSH–Pokiston munosabatlarida katta tushish hosil bo‘ladi. Ushbu davlat AQSH uchun terrorizm, yadro qurolining tarqalish xavfi va boshqa muammolar markazi bo‘lib gavdalana boshlandi.

Prezident J.Bush-kichik administratsiyasi AQSH tashqi siyosatida neokonservatizmni olg‘a surib, Yaqin Sharq va Afg‘onistonda kuch bilan demokratiyani singdirish siyosatini olib borgandi. B.Obama davrida fokus boshqa mintaqalarga ham qaratila boshlanadi. Bu Janubiy Osiyoda aloqalar bir vaqtning o‘zida ham

[1] Zia Mian (2014) Nuclear Programs in India and Pakistan. Princeton, New Jersey: Princeton University. – 165-167p. https://sgs.princeton.edu/sites/default/files/2020-01/mian-2014.pdf

[2] Fair C. (2014) Fighting to the end: The Pakistan Army’s way of war. Oxford: Oxford University press. – 210-2013p.

[3] Asghar Khan (2022) Mainstreaming the Tribal Areas (ex-FATA) of Pakistan Bordering Afghanistan. Singapore: Palgrave Macmillan. – 3-6p.

Hindiston, ham Pokiston bilan olib borilishiga yo‘l ochadi. Hindiston bilan iqtisodiy sohada hamkorlik olib borilsa, Pokiston xavfsizlik sohasida muhim edi. Boshqacha qilib aytganda, o‘zgaruvchan manfaatlar Hindistonning ahamiyati yana AQSH tashqi siyosatida kuchayishiga olib keladi. Bundan tashqari, AQSH tomonidan Hindiston yadro dasturiga qarshilik qilish siyosati kun tartibidan olib tashlanadi [1]. Buning o‘z dolzarbligini yo‘qotganligi tashqi siyosatda muqim manfaatlar bo‘lmasligining isboti edi.

AQSH tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi hamda Hindiston ahamiyati oshishiga yana bir omil, ya’ni Xitoy kuchayishi sababchi bo‘ladi. Kuchi ortib borayotgan Xitoyda AQSH Hind-Tinch okeani, Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Janubiy Osiyo mintaqalarida yangi raqobatchini ko‘ra boshlaydi. Xitoyga kontrbalans yaratish maqsadida Hindiston ittifoqchi sifatida tanlanadi. Iqtisodiy, harbiy, siyosiy jihatdan kuchli Hindistonning Xitoy bilan uzoq yillik o‘zaro adovati mavjud edi, ular Janubiy Osiyo va Hind okeanida raqobat qilardilar. Shuning uchun ham Hindiston AQSH uchun Xitoyni “tiyib turish”da ideal hamkor hisoblanadi[2]. Xitoyning kuchayishomili nafaqat AQSH, balki Hind-Tinch okeani hamda Janubiy Osiyodagi aksariyat davlatlarni xavotirga solmoqda. Shu maqsadda 2007-yili Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe tomonidan Xavfsizlik bo‘yicha To‘rt tomon dialogi (QUAD / Quadrilateral Security Dialogue) platformasi olg‘a suriladi. Unga AQSH, Hindiston, Yaponiya va Avstraliya a’zo bo‘lib kiradilar. 2017-yili ushbu platforma qayta tiklanadi[3]. Shu tariqa AQSH va Hindiston yagona xavfsizlik platformasida ittifoqchilarga aylanadilar.

Hokimiyat tepasiga kelgan D.Tramp AQSH tashqi siyosiy ustuvorliklarini qayta ko‘rib chiqdi va e’tiborni Xitoyga qaratdi. Shu asnoda 2017-yili “Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani strategiyasi” qabul qilindi va AQSHning bosh diqqat markazi ushbu mintaqaga yo‘naldi. Mazkur Strategiya qabul qilinishi bilan G‘arb olamida “Osiyo-Tinch okeani mintaqasi” atamasi “Hind-Tinch okeani mintaqasi”-ga o‘zgartirildi. Yangi atamaga “Hind” so‘zining qo‘shilishi AQSH tomonidan Hindiston tomon diplomatik qadam edi. Ushbu Strategiyada Hindiston AQSHning “Asosiy Mudofaa Hamkori” sifatida e’tirof etildi. Binobarin, ushbu atama 2016-yilda B.Obama davrida ilk bor ishlatilgandi.

AQSH va Hindiston aloqalarining negizini yana bir konstruktivist aspekt, chunonchi, o‘xshash e’tiqodlar tashkil etadi. Demokratiya, liberalizm, inson huquqlari va tenglik kabi tushunchalar ikkala davlatda ham ulug‘lanadi. Umumiy bo‘lgan tushunchalar qaror qabul qiluvchi elita hamda xalq idrokiga bevosita ta’sir etadi. Bu yakunda ijobiy aloqalar rivoj topishiga olib keladi. Shu o‘rinda

[1] Riaz Khokhar (2018) The US-India Strategic Partnership: Pakistan’s Foreign Policy Response. Center for International Strategic Studies (CISS), Islamabad. – 3p. https://www.researchgate.net/publication/326331130_The_US-India_Strategic_Partnership_Pakistan%27s_Foreign_Policy_Response

[2] Grare F. (2017) India turns East: International engagement and US-China rivalry. London: Hurst & Co. – 59-61p.

[3] Istomin I. (2019) US policy in the Indo-Pacific region. RIAC, No. 49. Moscow. – 14p.

ta’kidlab o‘tish joizki, o‘z tarixida bir nechta harbiy inqiloblarni boshdan o‘tkazgan Pokistonga qaraganda Hindiston demokratiya indeksi bo‘yicha yuqori davlat hisoblanadi. Bundan tashqari, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Pokiston harbiylarining munosabati AQSHga qarshidir[1]. Pokiston tomonidan AQSH “yoqtirilmasligi” va shu paytning o‘zida AQSH tomonidan Pokistonga terrorizmning markazlaridan biri sifatida yondashilishi, ularning aloqalariga salbiy ta’sir etadi. Shuning uchun ham amerikaliklar demokratik g‘oyalarni olg‘a surgan Hindistonda ko‘proq ishonchli hamkorni ko‘rishadi.

Zamonaviy davrda AQSH tomonidan Hindistonga nisbatan quyidagi vazifalar belgilangan:

– Hindistonning xavfsizlik borasidagi salohiyatini oshirish va uni AQSHning Asosiy Mudofaa Hamkoriga aylantirish. Uning qurolli kuchlarini AQSH va uning ittifoqchilari bilan birgalikda harakatlana olishiga yo‘l ochish;

– Hindistonni Asosiy Mudofaa Hamkor sifatida eng oldi texnologiyalar bilan ta’minlash. Uning mintaqadagi liderligini oshirish hamda Hind okeanidan naridagi jarayonlarga jalb etish;

– Hindistonning jahondagi qudratli davlat bo‘lishga qaratilgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash;

– Hind okeanida AQSH va Hindistonning umumiy tartib-qoidalarini joriy etish;

– Axborot, dengiz xavfsizligi va razvedka sohalarida hamkorlikni kengaytirish;

– Hindistonning Janubiy Osiyo davlatlari bilan hamkorligini oshirish;

– Maldiv, Shri-Lanka va Bangladesh kabi davlatlar bilan AQSHning aloqalarini rivojlantirish[2].

Shu tariqa 20 yil davom etgan davrda AQSH tashqi siyosatining Janubiy Osiyo vektorida evolyusion dinamika hosil bo‘ladi. Avvaliga Pokiston ahamiyati keskin oshib (2001), keyinchalik keskin tushadi (2021). Hindiston bilan aloqalarda probel hosil bo‘lib, keyin 2017-yildan munosabatlar oliy darajaga ko‘tariladi. Davlatlar o‘rtasidagi aloqalarda shu kabi tushish va ko‘tarilishlar hosil bo‘lishi konstruktivizmga xosdir.

2021-y.-h.k. AQSH qurolli kuchlarining Afg‘onistondan chiqib ketishi xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassislar tomonidan AQSH tashqi siyosatida bir davr tugab, yangisi boshlanganligi e’tirof etiladi. Bu davrda Qo‘shma Shtatlarning manfaatlari Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarida keskin pasayadi. Bugungi kunda Pokiston omili AQSH tashqi siyosatida sezilarli darajada pasaygan. Afg‘onistondagi harbiy operatsiyadan so‘ng Pokiston Qo‘shma Shtatlar uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotgan. Bundan tashqari, Pokistonning Xitoy tomon diploma-

[1] Dwivedi Sh., Ahanger G. India in The United States South Asia Policy. Shodhasamhita, Vol. No IX. 2022. – 62-65pp.

[2] U.S. Strategic Framework for the Indo-Pacific. trumpwhitehouse.arlchives.gov. 2017. https://trumpwhitehouse.archives.gov/wp-content/uploads/2021/01/IPS-Final-Declass.pdf

tiyasi uning AQSHdan uzoqlashishiga olib kelyapti. AQSH tashqi siyosatida Hindiston ahamiyatini inobatga oladigan bo‘lsak, u 2022-yilgi Milliy Xavfsizlik Strategiyasida “Asosiy Mudofaa Hamkori” sifatida e’tirof etilyapti. Zamonaviy davrda AQSHning Janubiy Osiyodagi tashqi siyosati Hindistonga taqalmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bugungi kunda ushbu mintaqa isteblishment uchun asosan Hindistonni anglatadi. Binobarin, mintaqaning o‘zi Hind-Tinch okeani mintaqasi ichida o‘rganiladi, ya’ni Janubiy Osiyo ulkan Hind-Tinch okeani mintaqasining tarkibiy qismiga aylangan. Bu yana bir bor jahon siyosatida sun’iy va konstruktivist ravishda mintaqalarni joriy etish va ularni o‘zgartirish mumkinligining isbotidir.

Xulosa qilib, AQSH tashqi siyosatining Janubiy Osiyo mintaqasidagi genezisini tahlil qilar ekanmiz, u ko‘tarilish va tushishlar, bog‘liqlik va uzoqlashishdan iborat bo‘lganligini tushunamiz [1]. Sovuq urush davrida mintaqaga asosan kommunizmni “tiyib turish” siyosatining bir qismi sifatida yondashilib, Pokiston asosiy hamkor davlat bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy davrda barqaror iqtisod va demokratik tuzumga ega Hindiston, AQSH uchun qulay hamkorga aylanmoqda. Bundan tashqari, Xitoy kuchayishi omili AQSHni Hindiston tomon yaqinlashtirmoqda. 2007-yilda tuzilgan QUAD 2017-yili qayta tiklandi. 2017-yili Hindiston tomon diplomatik qadam tashlanib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi atamasi Hind-Tinch okeaniga o‘zgartiriladi. O‘sha yili AQSHning “Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani Strategiyasi” qabul qilinadi. Unda Hindiston “Asosiy Mudofaa Hamkori” sifatida e’tirof etilgandi. 2021-yilda AQSH Afg‘onistondan chiqib ketganligi mamlakat tarixida yangi sahifani ochadi. Bugungi kunda Pokistonning ahamiyati pasaygan bo‘lsa, Hindiston Janubiy Osiyodagi AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylangan. AQSH–Pokiston aloqalarida terrorizm va ekstremizga qarshi kurash hamda yadro qurolining tarqab ketmasligi ustuvor bo‘lsa, Hindiston bilan iqtisod va mintaqa xavfsizligi sohalarida aloqalar rivojlanmoqda.

Tarixiy genezis shuni ayon qiladiki, AQSHning Janubiy Osiyo mintaqasida muqim va doimiy manfaatlari yo‘q. Ular o‘zgaruvchan va moslashuvchandir. Ustuvorlik goh Pokiston, goh Hindistonga taqdim etilgan. Mintaqa yoki dolzarb, yoki ahamiyatsiz bo‘lgan. Muxtasar qilib aytganda, AQSHning ushbu mintaqadagi tashqi siyosatini ochib berishda, konstruktivizm siyosiy maktabi nazariy jihatdan to‘g‘ri deb ta’kidlasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, aynan, konstruktivizm davlatlarning xalqaro munosabatlarda shu tariqa harakatlanishini e’tirof etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dunne T., Kurki M., Smith S. (2013) International Relations Theories. Oxford University Press. – 223-236p.

[1] Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment. University of Sargodha. Journal of Historical Studies. – 285p. https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia_An_Historical_Assessment

2. Paul T. V. (2005) The India-Pakistan conflict: An enduring rivalry. Cambridge: Cambridge University Press. – 6-8p.
3. Fair C. (2016) Pakistan's strategic culture: Implications for how Pakistan perceives and counters threats. Washington: The National Bureau of Asian Research. – 3p.
4. Irum Shaheen (2013) South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC): Its Role, Hurdles and Prospects. IOSR Journal of Humanities and Social Science (IOSR-JHSS) Volume 15, Issue 6. – 1p. file:///C:/Users/HP/Downloads/South_Asian_Association_for_Regional_Cooperation_S.pdf
5. GDP – South Asia. The World Bank. https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?end=2021& locations=8S&start=1960&view=chart
6. Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment. University of Sargodha. Journal of Historical Studies. – 268p. https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia _An_Historical_Assessment
7. The Cold War (1945–1989). CVCE.EU by UNI.LU. 2016. https://www.cvce.eu/content/publication /2011/11/21/6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185/publishable_en.pdf
8. Panagariya A. (2008) India: The emerging giant. Oxford: Oxford University press. – xiiip.
9. Mahmud Ali S. (1999) Cold war in the high Himalayas: The USA, China and South Asia in the 1950s. London & New York: Routledge. – 4p.
10. Moonis Ahmar (2021) Changing Dynamics of Pak-US Relations and the Challenge of Soft Power. LSE IDEAS | JINNAH PAPERS. – 15-16p. https://eprints.lse.ac.uk/114516/1/Ahmar_changing_dynamics_of_pakistan_us_ published.pdf
11. Munawar Hussain (2016) Pak-US Relations: An Historical Overview. Pakistan Journal of History and Culture, Vol. XXXVII, No. 2. – 69-71p. http://www.nihcr.edu.pk/Latest_English_Journal/Jul-Dec%202016%20No.2/5.%20PakUS%20Relations%20a%20%20Historical%20Review,%20Munawar%20Hussain%20footnotes%20corrected.pdf
12. U.S.-China Relations. Council on foreign relations. https://www.cfr.org/timeline/us-china-relations
13. Lubna Sunawar, Tatiana Coutto (2015) U.S. Pakistan Relations during the Cold War. The Journal of International Relations, Peace Studies, and Development: Vol. 1. – 1p. https://scholarworks.arcadia.edu/ cgi/viewcontent.cgi?article=1006&context=agsjournal
14. Gavrilova V.A. (2013) US Policy in South Asia since the end of the Cold War. Bulletin of Tomsk State University. – 80p. https://cyberleninka.ru/article/n/politika-ssha-v-yuzhnoy-azii-posle-okonchaniya-holodnoy-voyny/viewer
15. Zia Mian (2014) Nuclear Programs in India and Pakistan. Princeton, New Jersey: Princeton University. – 165-167p. https://sgs.princeton.edu/sites/default/files/2020-01/mian-2014.pdf
16. Fair C. (2014) Fighting to the end: The Pakistan Army's way of war. Oxford: Oxford University press. – 210-2013p.

17. Asghar Khan (2022) Mainstreaming the Tribal Areas (ex-FATA) of Pakistan Bordering Afghanistan. Singapore: Palgrave Macmillan. – 3-6p.
18. Riaz Khokhar (2018) The US-India Strategic Partnership: Pakistan's Foreign Policy Response. Center for International Strategic Studies (CISS), Islamabad. – 3p. https://www.researchgate.net/publication/326331130_The_US-India_Strategic_Partnership_Pakistan%27s_Foreign_Policy_Response
19. Grare F. (2017) India turns East: International engagement and US-China rivalry. London: Hurst & Co. – 59-61p.
20. Istomin I. (2019) US policy in the Indo-Pacific region. RIAC, No. 49. Moscow. – 14p.
21. Dwivedi Sh., Ahanger G. India in The United States South Asia Policy. Shodhasamhita, Vol. No IX. 2022. – 62-65pp.
22. U.S. Strategic Framework for the Indo-Pacific. trumpwhitehouse.arlchives.gov. 2017. https://trumpwhitehouse.archives.gov/wp-content/uploads/2021/01/IPS-Final-Declass.pdf

ABDULLAYEVA RA'NOXON
Tayanch doktorant, JIDU

O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining transport tranzit sohasidagi hamkorligi

Annotatsiya. *Xalqaro munosabatlarga kirishish jarayonida barcha yo‘nalishlar o‘ziga yarasha muhim ahamiyatga ega. Jumladan, transport sohasidagi hamkorlik so‘nggi yillarda yanada dolzarb mavzuga aylanmoqda. Mintaqaviy mamlakatlar bilan bir qatorda, Janubiy Kavkaz davlatlaridan, Ozarbayjon Respublikasi bilan bu yo‘nalishda aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda Ozarbayjon Yevrosiyoning muhim transport-logistika markazlaridan biri bo‘lib, "Sharq-G‘arb" va "Shimol-Janub" xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutayotgani haqiqatdir. Dunyoda kechayotgan hozirgi murakkab siyosiy vaziyatda, O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining mustaqillik davridan transport tranzit sohasidagi hamkorligi tarixini o‘rganish, ularning rivojlanish holatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tarixiy retrospektiv va analiz ilmiy metodlaridan foydalangan holda ikki davlatning transport yo‘nalishida hamkorlik aloqalari keng tadqiq etildi. Milliy arxiv manbalariga tayangan holda ma'lumotlar keng keltirildi. Transport kommunikatsiyaviy aloqalarning shakllanishi O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi hamda bu yo‘nalish ikki mamlakat munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga ishonchli asos bo‘lmoqda. Transport tranzit sohasi bevosita iqtisodiy aloqalarning jadallashishiga olib keladi, savdo-sotiq imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri hududiy chegara yo‘qligiga qaramay, ikki davlatning yaxshi hamkorligi mintaqadagi keng ko‘lamli hamkorlikka*

ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tomonlarning transport yo‘nalishida samarali va manfaatli aloqalarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, 44 kunlik 2-Tog‘li Qorabog‘ urushi Janubiy Kavkaz mintaqasining landshaftini sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Ozarbayjonning ishonchli g‘alabasi mintaqaviy hamkorlik, o‘zaro bog‘liqlik va yo‘laklarni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Shuningdek, "Boku–Tbilisi–Kars" hamda Zangezo‘r yo‘lagining roli O‘zbekiston uchun o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik munosabatlarini o‘rganish jarayonida transport sohasi muhim yo‘nalishlardan bo‘lganligi va vaqt sinovidan o‘tgan munosabatlar yillar davomida mustahkamlanib, zamonaviylashib yangi bosqichga kelmoqda degan xulosaga kelindi.

Kalit so‘zlar: *transport, tranzit, Transkavkaz yo‘lagi, TRASEKA, O‘rta yo‘lak, Boku–Tbilisi–Kars, Zangezo‘r yo‘lagi.*

Abstract. *In the process of entering into international relations, all areas are important in their own way. In particular, cooperation in the field of transport has become an increasingly pressing topic in recent years. Along with the countries of the region, one of the main issues is to bring relations with the Republic of Azerbaijan with the countries of the South Caucasus to a new level. Indeed, today Azerbaijan is one of the important transport and logistics centers of Eurasia and plays an important role in the development of the East-West and North-South international transport corridors. In the current difficult political situation in the world, it is important to study the history of cooperation between the Republics of Uzbekistan and Azerbaijan in the field of transport and transit since the period of independence, and to analyze the state of their development. The article, using historical retrospective and analyze methods, extensively studies the relations of cooperation between the two countries in the field of transport. Information provided based on National Archives sources. The formation of transport communication is an important aspect of the foreign policy of the republics of Uzbekistan and Azerbaijan, and this direction is a reliable basis for the development and consolidation of relations between the two countries. The transport and transit sector directly leads to the acceleration of economic relations and expands trade opportunities. Despite the fact that there is no direct territorial border between Uzbekistan and Azerbaijan, good cooperation between the two countries has had a positive impact on large-scale cooperation in the region, as well as in the field of transport. At the same time, the 44-day 2nd Nagorno-Karabakh War significantly changed the landscape of the South Caucasus region. Azerbaijan's landslide victory opened up new opportunities for regional cooperation, interdependence and the formation of corridors. Also of particular importance for Uzbekistan is the role of the Baku-Tbilisi-Kars corridor and the Zangezur corridor. In the course of studying cooperation relations, it was concluded that the transport sector is one of the important areas and that relations that have stood the test of time are strengthened and modernized over the years, and are entering a new stage.*

Key words: *transport, transit, Trans-Caucasian corridor, TRACECA, Middle corridor, Baku-Tbilisi-Kars, Zangezur corridor.*

Аннотация. *В процессе вступления в международные отношения все направления важны по-своему. В частности, в последние годы все более актуальной темой стало сотрудничество в сфере транспорта. Наряду со странами региона, одним из главных вопросов является вывод на новый уровень отношений с Азербайджанской*

Республикой со странами Южного Кавказа. Действительно, сегодня Азербайджан является одним из важных транспортно-логистических центров Евразии и играет важную роль в развитии международных транспортных коридоров «Восток-Запад» и «Север-Юг». В нынешней сложной политической ситуации в мире важно изучить историю сотрудничества Республик Узбекистан и Азербайджан в сфере транспорта и транзита с периода независимости, проанализировать состояние их развития. В статье с использованием научных методов, исторической ретроспективы и анализа широко исследованы отношения сотрудничества двух стран в сфере транспорта. Информация предоставлена на основе источников Национального архива. Формирование транспортных коммуникационных связей является важным направлением внешней политики Узбекистана и Азербайджанской Республики, а также надежной основой для развития и укрепления отношений двух стран. Транспортно-транзитный сектор напрямую ведет к ускорению экономических отношений, расширяет торговые возможности. Несмотря на то, что между Узбекистаном и Азербайджаном нет прямой территориальной границы, хорошее сотрудничество между двумя странами положительно сказалось на широкомасштабном сотрудничестве в регионе, а также в сфере транспорта. В то же время 44-дневная 2-я Нагорно-Карабахская война существенно изменила ландшафт Южно-Кавказского региона. Убедительная победа Азербайджана открыла новые возможности для регионального сотрудничества, взаимозависимости и формирования коридоров. Также особое значение для Узбекистана имеет роль коридора «Баку-Тбилиси-Карс» и Зангезурского коридора. В ходе изучения отношений сотрудничества был сделан вывод, что транспортная сфера является одной из важных сфер и что отношения, прошедшие испытание временем, с годами укрепляются и модернизируются, и выходят на новый этап.

Ключевые слова: *транспорт, транзит, Транскавказский коридор, ТРАСЕКА, Средний коридор, Баку-Тбилиси-Карс, Зангезурский коридор.*

O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan yopiq davlat bo‘lganligi uchun transport tranzit yo‘llarini rivojlantirish masalasi har doim dolzarb bo‘lgan. Davlatimiz rahbari 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida[1] Mintaqamiz iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan transport-kommunikatsiya ko‘prigiga aylanib borayotganini ta’kidladi. Bu yo‘lda Yangi tashqi siyosiy yo‘limizni davom ettirib, hamkorlik aloqalarimizni kengaytirish, rivojlantirish va transport sohasidagi zamonaviy izlanishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, hozirda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar qabul qilinayotgan qaror va qonunlarda o‘z aksini topgan, umuman, transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida belgilangan vazifalar muhim va ularni amalga oshirish zarurligi qator hujjatlarda qayd etilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 2-dekabrdagi PQ-3422-sonli “2018 – 2022-yillarda transport

[1] https://president.uz/oz/lists/view/6679

infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagilar belgilangan: transport sohasidagi – temiryo‘l, avtomobil va aviatsiya transportini yanada rivojlantirish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yuk tashish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro logistika markazlarini barpo etish, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llarini, yo‘l bo‘yidagi zarur infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilish, yuk tashishda transportlarning o‘tkazish qobiliyatini ko‘paytirish, shaffof va raqobat muhitini yaratish, harakat tarkibi parkini kengaytirish va Davlat chegarasidagi o‘tish punktlarining maksimal darajada bexatar faoliyat yuritishi shart-sharoitlarini ta’minlash [1] kabi masalalar mamlakatimiz transport sohasini rivojlanishining asosidir. Bu, o‘z navbatida, transport tranzit yo‘lida xalqaro munosabatlarga kirishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda imzolangan PF-158 sonli ***“O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”***gi Farmonida II. *Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash* yo‘nalishining 53-maqsadida O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish islohotlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, 2023-yil 23–24 avgustda Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasiga tashrifi doirasida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan transport sohasida hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, Kaspiy dengizi orqali o‘tuvchi O‘rta yo‘lak bo‘ylab tranzit yuk tashish hajmini oshirish, logistika va port infratuzilmasini birgalikda rivojlantirishning eng muhim masalalarini muhokama qildilar. Ikki davlat o‘rtasida transport sohasida tuzilgan yangi kelishuvlar barqaror eksport tovar oqimini tashkil qilish uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi. O‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bu munosabatlar, nafaqat transport sohasida, balki iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar sohada mustahkam hamkorlikning asosini tashkil qiladi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari diplomatik hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, barcha yo‘nalishlarda munosabatlarga kirishishni boshlagan. Jumladan, transport tranzit sohasida hamkorlikni kengaytirish masalasi ham muhim hisoblangan.

Talex Ziyadov ta’kidlaganidek, Ozarbayjon quruqlikdagi o‘sib borayotgan kontinental savdo uchun tabiiy chorraha hisoblanadi va uning geostrategik joylashuvi Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va O‘rta yer dengizi mintaqasining transport tarmoqlari va bozorlarini bog‘lash uchun kalitdir. Ozarbayjon strategik chorraha sifatida Xitoy va Markaziy Osiyodan Yevropaga, Hindiston va Erondan

[1] 2018 – 2022-yillarda Transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q,.2017-yil 2-dekabrdagi PQ-3422-son https://lex.uz/docs/3436209#4730712

Rossiyaga tez o‘sib borayotgan tranzit yuk tashishlarini o‘z ichiga oladi[1]. Shuning uchun ham Ozarbayjon bilan transport sohasida hamkorlikning jonlanishi muhim hisoblanadi. E. Mexdiyev e’tirof etganidek, Ozarbayjon Yevrosiyo makonida yangi transport-logistika yo‘nalishlarini shakllantirishda faol ishtirok etib, Janubiy Kavkaz mintaqasining geosiyosat va geoiqtisodiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ozarbayjonda mamlakat tranzit salohiyatidan samarali foydalanish uchun barcha zarur transport imkoniyatlari yaratilgan [2] . Zamonaviy texnologik transport logistika salohiyatini oshirishga harakat qilayotgan Ozarbayjon so‘nggi yillarda yetarlicha yutuqlarga erishdi. Transport yordamida Ozarbayjonga yuk oqimini jalb qilish uchun mamlakat hududi orqali tranzit tashish vaqtini qisqartirish muhim va bu borada ma’lum natijalarga erishish yo‘lida 2015-yilda Ozarbayjonda tranzit yuklarni tashish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilgan. Kengash Ozarbayjon hududi orqali avtomobil transporti, temir yo‘l, dengiz transporti, dengiz portlari va dengiz terminallari orqali tranzitni jadal amalga oshirishga, shuningdek, “yagona darcha” tamoyilini joriy etishga hissa qo‘shdi[3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 25-sentabrda temiryo‘l sohasini isloh qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi[4]. Ko‘plab muhim takliflar va vazifalar ko‘rib chiqildi. Jumladan, Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda “yagona darcha” tamoyili orqali yuk hujjatlarini elektron rasmiylashtirish, vagonlarga GPS o‘rnatish va onlayn ombor axborot tizimini ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Yevropa Ittifoqi ham, o‘z navbatida, Ozarbayjonning mintaqada muhim roli bor ekanligini amalda ko‘rsatdi. 2022-yil 18-iyulda Yevropa Ittifoqi Ozarbayjon bilan “Energetika sohasida strategik hamkorlik to‘g‘risida”gi anglashuv memorandumini imzoladi. Bokudagi ko‘p sonli uchrashuvlar faqat energiya sohasida emas, balki Ozarbayjon bilan xalqaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish yo‘lidagi harakatlar sifatida baholanmoqda. Shuningdek, Transport tranzit borasida ham xalqaro munosabatlarni mustahkamlash muhim ekanligi haqiqat, Ozarbayjonni Kaspiy Dengizining sharqiy sohiliga yo‘naltirilgan yining umumiy tranzit markazi sifatidagi rolini memorandum orqali bildirmoqda. Bu haqda calibr.az saytidagi maqolada e’tirof etilganidek, Bryussel endi Ozarbayjon

[1] Taleh Ziyadov Azerbaijan The New Silk Roads. Transport and Trade in Greater Central Asia Edited by S. Frederick Starr Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studiyes Program, 2007 page 304

[2] Мехдиев Э.Т. Азербайджан в системе международных транспортных коридоров / Э.Т.Мехдиев, И.А.Гулиев // Евразийский юридический журнал. 2017. №1 (104). — С. 59-61.

[3] Mexdiyev E.T. Azerbaydjan v sisteme mejdunarodnix transportnix koridorov / E.T.Mexdiyev, I.A.Guliyev // Yevraziyskiy yuridicheskiy jurnal. 2017. №1 (104). — S. 59–61

[4] https://uza.uz/oz/posts/temir-yol-sohasini-isloh-qilish-boyicha-takliflar-korib-chiqildi_523204

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan munosabatlarini chuqurlashtirish uchun “darvoza”ga aylanishi kerakligini rasman tan oldi[1]. Bu yo‘lda amaliy natijalarning yining Ozarbayjon bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarining yanada kengayayotganida ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, Ozarbayjonning ham Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan va Markaziy Osiyo davlatlarining Ozarbayjon bilan ham munosabatlarida jadal sur’atlardagi rivojlanish bevosita ko‘p vektorlik tashqi aloqalarning manfaatlar to‘qnashuvidagi amaliy natijasi hisoblanadi. Markaziy Osiyo bilan Janubiy Kavkaz mamlakatlari Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi muhim bo‘g‘in sifatida ko‘riladi, shuning uchun O‘zbekiston va Ozarbayjon tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri transport sohasi hisoblanadi.

Transport aloqalarining tarixiy tahlili. Ozarbayjon va O‘zbekiston munosabatlari tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ikki xalqning tili, dini va qadriyatlari yaqinligi sababli o‘zaro munosabatlarda ham iliqlik mavjud. Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqaro munosabatlardagi krizislarga qaramay, mamlakat rahbarlarining irodasi va to‘g‘ri tashqi siyosiy yo‘nalishi natijasida aloqalar tizimli yo‘lga qo‘yildi. Manfaatli transport aloqalarni o‘rnatish yo‘lida, 1996-yil 13-mayda Saraxsda imzolangan Ozarbayjon Respublikasi, Gruziya, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikalari o‘rtasidagi bitim muhim tarixiy hujjat bo‘ldi. Uning ahamiyati yuqori darajada bo‘ldi va bu bitim qayd etilgan mamlakatlar o‘rtasida nafaqat transport kommunikatsiyaviy aloqalar, balki iqtisodiy munosabatlarning ham jadallashishi kuzatildi. Bu xalqaro transport tranzit tizimining yaratilishi mintaqadagi boshqa mamlakatlarni ham qiziqtirib, 1997-yil Tojikiston Respublikasi, Bolgariya Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi, 1998 yilda Armaniston Respublikasi ushbu bitimga qo‘shildi[2]. Shu tariqa ushbu bitimning amaliy maydoni kengayib bordi. Transkavkaz marshruti eng qisqa va samarali tranzit yo‘l hisoblanadi. Transkavkaz yo‘lagi Toshkent – Ashxobod – Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk) – Boku – Poti orqali o‘tadi, undan keyin parom orqali Qora dengiz orqali yuk Ruminiyaning Konstantiya portiga yoki Bolgariyaning Varna portiga boradi. Aytish lozimki, Transport tranzit sohasidagi hamkorlik Transkavkaz marshruti orqali Tovar va mahsulotlar tashilgan, 1990-yillarning o‘rtalaridan 1999-yillargacha ularning miqdori sezilarli darajada yildan yilga o‘sib borgan. Jumladan, 1996-yilda 100 ming tonna yuk tashilib, 50 ming tonnasi paxta tolasi bo‘lsa, 50 ming tonnasini don mahsulotlari tashkil qilgan. 1997-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 285 ming tonnani tashkil qilgan, shundan 180 ming tonna import, 105 ming tonna eksport mahsulotlari hisoblangan[3]. Bir yilning

[1] EU looks to Azerbaijan for Central Atsian connections https://caliber.az/en/post/96539/
[2] Milliy Arxiv materiallari Fond M -37, R-1, Y-1758, 111- bet
[3] MA materiallari Fond M-37, R-1, Y-2917, 132- bet.

ichida ikki barobar ortgan bu ko‘rsatkich transport va iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 1998-yilda O‘zbekiston ushbu yo‘nalish bo‘yicha 90 ming tonnadan ortiq paxta eksport qilgan. Ammo 1999-yilda bu yuklar ikki barobar kamaydi. Toshkent Qozog‘iston orqali tranzit o‘tkazish bo‘yicha Ostona bilan muzokaralarni boshladi. Sababi, Turkmaniston juda murakkab viza tizimini yo‘lga qo‘ygan va yuqori tranzit tariflarini o‘rnatgan (u tranzitga 50 foizlik chegirma bo‘yicha kelishuvga amal qilmagan va O‘zbekistondan yuk tashishdan 20 foiz QQS undirgan). Bularning barchasi Ozarbayjon tomonidan undiriladigan 20% QQS bilan birgalikda O‘zbekiston tovarlari narxini oshirdi.[1] Aynan shu davrlarda temiryo‘l orqali yuk tashish ko‘rsatkichlari pasaya boshladi. Bitim asosida 50 foizlik chegirmani bermagan tomon bilan muzokaralar olib borilgan.

TRASEKA dasturining amaliy jihatlari. Ozarbayjon va Gruziya rahbariyati tashabbusi bilan 1998-yil sentyabr oyida Boku shahrida “TRASEKA – tarixiy ipak yo‘lining tiklanishi” xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Yevropa Ittifoqining TRASEKA dasturi asosida “Yevropa–Kavkaz–Osiyo yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro transport bo‘yicha asosiy ko‘p tomonlama bitim” imzolandi va Boku deklaratsiyasi qabul qilindi. O‘tgan davr mobaynida TRASEKA dasturi doirasidagi asosiy ko‘p tomonlama shartnoma shartlarini bajarish maqsadida hududda transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirildi [2] . Tbilisida 2000-yil 10-martda “Yevropa–Kavkaz–Osiyo” transport yo‘lagi bo‘yicha birinchi hukumatlararo yig‘ilish (konferensiya) bo‘lib o‘tdi. Yevropa–Kavkaz–Osiyo yo‘nalishi bo‘yicha faol tranzit tovar mahsulotlar tashilgan. Jumladan, 1999-yilda 65 ming tonna tovar O‘zbekistondan jo‘natilgan va 40 ming tonna tovar O‘zbekistonga keltirilgan. [3] 2000-yilga kelib, Ozarbayjondan O‘zbekistonga temir yo‘l orqali 50 ming tonna yuk tashilgan. Ozarbayjon Respublikasi hududidan foydalangan holda TRACEKA yo‘lagi bo‘ylab O‘zbekiston Respublikasi eksport-import yuklarini temiryo‘l orqali tashish hajmi 224 ming tonnadan ortiqni, shu jumladan eksport 139 ming tonnani, import 85 ming tonnani tashkil etgan[4].

Shuningdek, 2008-yil 4-dekabr kuni Bokuda TRASEKAga a’zo o‘n ikki davlat transport vazirlarining o‘ninchi yubiley konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Asosiy kelishuv taraflari delegatsiyalari, TRASEKA Hukumatlararo komissiyasi Doimiy kotibiyati, Yevropa komissiyasi, shuningdek, manfaatdor

[1] T.Abdullayeva, “Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasi: holati va istiqbollari”, Markaziy Osiyo va Kavkaz, №3 (9), 2001, 149- bet.
[2] A.G. Pilin. Tranzitniy potensial stran Yujnogo Kavkaza // Transport i svyaz v novix nezavisimix gosudarstvax:Osobennosti i faktori razvitiya: – M.2013 126- str.
[3] MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 bet 149
[4] MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 bet 65

davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Yubiley uchrashuvi “TRASEKA yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro transport bo‘yicha asosiy ko‘p tomonlama bitim”ning 10 yilligiga va Yevropa Ittifoqining TRASEKA dasturi qabul qilinganining 15 yilligiga bag‘ishlandi. Anjumanda TRASEKAni qo‘shni davlatlarga ham kengaytirish, tashkiliy tuzilmani mustahkamlash bo‘yicha takliflar bildirildi. Tadbir yakunida TRASEKA ishtirokchi-mamlakatlarining transport vazirlari tomonidan bayonot qabul qilindi. Ishtirokchi davlatlar yig‘ilishlari davomida loyihalar va ularning qay tarzda amalga oshirilayotgani yangi g‘oyalar va takliflar qabul qilinib borilgan. Hozirgi vaqtda TRASEKA Yevropa–Kavkaz–Osiyo xalqaro transport koridorini rivojlantirish g‘oyasi bilan birlashgan 13 ta ishtirokchi-davlatning transport tizimini o‘z ichiga oladi[1].

2019-yil 6-dekabrda Boku shahrida Yevropa–Kavkaz–Osiyo yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro transport bo‘yicha asosiy ko‘p tomonlama bitim imzolanganining 20 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya va (IGC) TRASEKA Hukumatlararo komissiyaning o‘n to‘rtinchi yillik yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning qutlov nutqi e’lon qilindi unda: “Ozarbayjon Respublikasi Yevropa–Kavkaz–Osiyo mintaqasida transport yo‘laklari va ular bilan bog‘liq infratuzilmani rivojlantirish muhimligini e’tirof etgan holda, qator loyihalarni amalga oshirishga sarmoya kiritadi va ikki tomonlama va ko‘p tomonlama asosda hamkorlik qiladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlamoqchimanki, Ozarbayjon mintaqa uchun muhim loyihalar tashabbuskori bo‘lgan holda, Boku–Tbilisi–Jayhon, Boku–Tbilisi–Kars temiryo‘li kabi muhim xalqaro loyihalarning ham asosiy ijrochisi hisoblanadi.

Transport sohasida hamkorlikka katta e’tibor qaratayotgan Ozarbayjon Respublikasi Dasturning kelgusi davrdagi faoliyatini mamlakatlarimiz transport sohalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan yangi bosqichning boshlanishi deb baholaydi”[2], – deyiladi murojaatda.

Tarixiy hamda arxiv ma’lumotlarini tahlil qilib, O‘zbekiston – Ozarbayjon Tranzit aloqalar bora bora yaxshi yo‘lga qo‘yilganligining guvohi bo‘ldik. Ikki davlat temiryo‘l ma’muriyati TRASEKA tranzit yo‘lagi bo‘ylab yuk tashish hajmini oshirish bo‘yicha muvaffaqiyatli hamkorlik qilgan. Xususan, Qumko‘l konining xom nefti va Janubiy Qozog‘istondan Qora dengizdagi Batumi portiga neft mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. 2001-yilda 240,0 ming tonna neft va neft mahsulotlari aynan O‘zbekiston hududi bo‘ylab olib o‘tilgan. O‘sha yili O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Ozarbayjon Respublikasi hududi orqali tranzitda olib o‘tiladigan yuklar hajmi 1,4 barobar oshgan[3] va arxiv ma’lumotlariga ko‘ra 51 ming tonnani tashkil qilgan[1].

[1] http://www.traceca-org.org/ru/o-traseka/istorija-traseka/
[2] http://www.traceca-org.org/ru/o-traseka/istorija-traseka/
[3] MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 bet 13

Tarixiy faktlar ikki davlatning tranzit borasida manfaatli hamkorlik qilgani va bu ikki davlatning iqtisodiy o‘sishi uchun ijobiy ta’sir qilganini ko‘rsatmoqda.

Boku–Tbilisi–Axalkalaki–Kars temir yo‘li manfaatlar to‘qnashuvi nuqtasida. O‘rta yo‘lakning asosiy loyihalaridan hisoblanmish, Boku–Tbilisi–Axalkalaki–Kars temiryo‘lining ishga tushirilishi bevosita mintaqadagi barcha davlatlarning manfaatlarining to‘qnashuviga olib kelmoqda. Ushbu yo‘lak faqat ishtirokchi mamlakatlarga foyda keltirmay, balki mintaqada joylashgan barcha davlatlar uchun foydali hisoblanadi. Ko‘plab davlatlar savdo-sotiq maydonini kengaytirish, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash yo‘lida arzon, tez, qulay hamda ishonchli yo‘lni izlaydi. Tezlik muammosini hal qilish yo‘lida muhim qadam 2007- yil 21-noyabrda, Boku–Tbilisi–Kars temiryo‘li qurilishi boshlanganida qo‘yildi. Ushbu loyiha Gruziya va Turkiya chegarasi orqali Yevropa temiryo‘lini Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo orqali Sharqiy Osiyo bilan bog‘laydigan temir yo‘lning bir qismini qurishni o‘z ichiga oladi[2]. Loyiha Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi transport aloqasini ta’minlashga mo‘ljallangan va barqarorlik va xavfsizlikka xizmat qiladi. Boku–Tbilisi–Kars temiryo‘l liniyasi Sharq-G‘arb transport yo‘lagining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, Dengiz orqali yuk tashish bilan solishtirganda, Boku–Tbilisi–Kars temiryo‘li Xitoydan Yevropaga tovarlarni yetkazib berish muddatini ikki baravarga qisqartiradi. Shuning uchun Boku–Tbilisi–Kars temiryo‘li strategik ahamiyat kasb etadi.

Siyosatshunos Rovshan Ibragimov "Kavkaz gazetasi" muxbiri bilan suhbatda eslatganidek, dastlab "Boku–Tbilisi–Kars" loyihasi geosiyosiy edi, ammo vaqt o‘tishi bilan muhim geoiqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi. "Gruziya orqali Turkiyaga temiryo‘lning geosiyosiy ma’nosi Ozarbayjon hududlarini bosib olish munosabati bilan Ozarbayjonning Armanistonga qarshi sanksiyalari siyosatini davom ettirishdan iborat, bu Yerevanni mintaqaviy makroiqtisodiy loyihalardan ajratish strategiyasining bir qismidir. Loyiha 1997-yilda ishlab chiqilganida, u birinchi navbatda, geosiyosiy deb hisoblangan, ammo hozirgi vaqtda u Ozarbayjonning asosiy geoiqtisodiy loyihalaridan biri hisoblanadi[3]. Iqtisodiy aloqalar, manfaatlar to‘qnashuvi ba’zida siyosiy masalalardan ustun kelib, to‘siqlar va muammolarning samarali yechimlariga olib keladi. Boku–Tbilisi–Karsning ishga tushirilishi muqarrar ravishda mintaqa mamlakatlari va ularning qo‘shnilarining savdo-iqtisodiy munosabatlarini va ular orasidagi yo‘lovchi oqimlarini kuchaytiradi va chuqurlashtiradi. Bu borada faktlarni keltiradigan bo‘lsak, 2022-yilda “Boku–

[1] MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 bet 7

[2] Rovshan Ibrahimov The Development of the Transport Sector in Azerbaijan: The Implementation and Challenges //Caucasus International 2016 page 106.

[3] Железнодорожний проект века «Баку-Тбилиси-Карс» введен в строй, Вестник Кавказа 2017.
https://vestikavkaza.ru/news/ZHeleznodorozhnyy-proekt-veka-Baku-Tbilisi-Kars-vveden-v-stroy.html

Tbilisi–Kars” temiryo‘l liniyasi bo‘ylab 432 ming 284 tonna yuk tashilgan bo‘lsa, jami 2017–2022-yillarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha umumiy yuk tashish hajmi 1 million 347 ming 585 tonnani tashkil etdi[1].

Shuningdek, Togrul Ismoil e’tirof etganidek, "Mamlakatlar o‘rtasidagi temiryo‘l aloqasi arzonlashishi muhim, ya’ni loyihada ishtirok etayotgan mamlakatlar aholisining harakatchanligi oshadi. BTK bo‘ylab tezyurar poyezdlar harakatlanar ekan, yo‘l turli mamlakatlardan mintaqaga yanada ko‘proq odamlar oqimini olib kelish imkoniyatini beradi, shuning uchun ham bir-birimiz bilan, ham butun dunyo bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarimiz yanada mustahkamlanadi. Ishonchli yuk tashish iqtisodiy barqarorlikni keltirib chiqaradi, biznesni kuchaytiradi, Rossiya va Osiyo bilan aloqalarni kengaytiradi va bularning barchasi o‘zaro tushunish va siyosiy barqarorlikning oshishiga olib keladi"[2].

Shuning uchun, ushbu yo‘nalish O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ushbu loyihada ishtirok etishdan manfaatdor. O‘zbekiston Prezidentining “2018-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuklarni tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga[3] muvofiq Boku–Tbilisi–Axalkalaki–Kars temiryo‘l liniyasi portlarga chiqish va tranzit tashishlarni amalga oshirish belgilab qo‘yildi.

Ozarbayjon xalqaro munosabatlarni tahlil qilish markazi raisi Farid Shafiyevning so‘zlariga ko‘ra, O‘zbekistonning faol tashqi siyosati Markaziy Osiyo va Kavkaz o‘rtasidagi hamkorlikning yangi istiqbollarini ochmoqda. Shuningdek, Farid Shafiyevning fikricha, cheklovlar kuchayib borayotgani va Yevropa va Xitoyni bog‘lovchi xalqaro transport arteriyalarining amalda yopilishi sharoitida Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi, Kavkaz orqali va undan keyin Yevropaga yuk tashishni ko‘paytirish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda[4]. Mutaxassis O‘zbekiston va Ozarbayjon, o‘z navbatida, transport sohasida hamkorlikni kuchaytirib, transport-kommunikatsiya salohiyatini yanada ochishga, savdo, energetika va sanoat

[1] Грузоперевозки по железнодорожной линии Баку-Тбилиси-Карс превысили 1 млн тонн.. https://report.az/ru/infrastruktura/gruzoperevozki-po-zheleznodorozhnoj-linii-baku-tbilisi-kars-prevysili-1-mln-tonn/

[2] Железнодорожний проект века «Баку-Тбилиси-Карс» введен в строй, Вестник Кавказа 2017 https://vestikavkaza.ru/news/ZHeleznodorozhnyy-proekt-veka-Baku-Tbilisi-Kars-vveden-v-stroy.html

[3] 2018─2022yillarda Transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2017 yil, 2-dekabrdagi PQ-3422-son https://lex.uz/docs/3436209#4730712

[4] Активная внешняя политика Узбекистана открывает новие перспективи сотрудничества между Централной Азией и Кавказом https://isrs.uz/ru/xorijiy-ekspertlar-fikri/aktivnaa-vnesnaa-politika-uzbekistana-otkryvaet-novye-perspektivy-sotrudnicestva-mezdu-centralnoj-aziej-i-kavkazom

kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo‘lida ijobiy qadamlar qo‘yayotganini e’tirof etdi.

Zangezo‘r yo‘laginining ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Ozarbayjon Respublikasini har doim qo‘llab kelgan. Ozarbayjon Respublikasining Zangezo‘r yo‘lagini ochish masalasi ham bundan mustasno emas. Bizga ma’lumki, Ozarbayjon hukumati urushdan (44 kunlik) keyin ozod qilingan hududlarda keng qamrovli qayta qurish kompaniyalarini boshlab yuborgan. Ushbu sa’y-harakatlar doirasida Sharqiy Zangezo‘r iqtisodiy zonasini tashkil etib, Yangi iqtisodiy zona Ozarbayjonning Sharqiy Zangezo‘ridan boshlanib, hozirgi Armanistondagi Zangezo‘r viloyatining qolgan qismidan o‘tib, Ozarbayjonning dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan eksklavi Naxchivanga tutashadigan Zangezo‘r yo‘lagini ochishni rejalashtirgan. Prezident Ilhom Aliyev 2020-yil 12-noyabr kuni Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida “O‘ylaymanki, Zangezo‘r yo‘lagining ochilishi transport sohasida butun mintaqa uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.” – degan edi[1].

Ozarbayjon hukumati Zangezo‘r yo‘lagi kabi mintaqaviy transport loyihalari tinchlik va hamkorlikka yordam berishi va yangi imkoniyatlar yaratishiga ishonchi komil. Ayrim tahlilchilarga ko‘ra, yo‘lak Sharq-G‘arb va Shimol-Janub transport yo‘laklarida muhim bo‘g‘inga aylanadi, bu mintaqadagi barcha mamlakatlarga foyda keltiradi va Yevrosiyo savdo-sotiq va transport kommunikatsiyalarini mintaqa mamlakatlari bilan bog‘laydi[2]. Ayrim ekspertlarning fikricha, Zangezo‘r yo‘lagining yaratilishi BTQ temiryo‘lining ahamiyatini pasaytiradi. Biroq, Ozarbayjonning Zangezo‘r yo‘lagini yaratishdagi maqsadi BTQni foydalanilmay qoldirmaslik emas, chunki har ikki yo‘l ham Ozarbayjon uchun muhim. Yangi yo‘lak Ozarbayjonning Turkiya va Qora dengizga strategik muhim transport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. BTK ham Qora dengiz portlariga qisqaroq kirish imkonini beradi. Shuningdek, O‘rta yo‘lak orqali tashilayotgan yuklar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Shunday ekan, kelgusida o‘sib borayotgan yuk hajmini barqaror tashish uchun ikki yo‘nalishga ega bo‘lish samaraliroq bo‘ladi[3].

2021-yilning 26-oktabr kuni Prezident Ilhom Aliyev va uning turkiyalik hamkasbi Rajab Tayyip Erdog‘on Ozarbayjondagi Zangezo‘r yo‘lagining bir qismi bo‘lgan Horadiz–Jabrail–Zangilon–Agband avtomobil yo‘liga tamal toshini

[1] Istanbul hosted 8th Summit of Cooperation Council of Turkic-Speaking States, 12.11.2021 https://president.az/en/articles/view/54183

[2] Илхам Керимли Подчеркнута важност Зангезурского коридора для облегчения грузових перевозок между Турсией и Централной Азией 2022. https://caspiannews.com/news-detail/zangazur-sorridors-importance-in-facilitating-cargo-betweyen-turkiye-central-asia-highlighted-2022-6-8-0/

[3] Orkhan Baghirov The Impact of the opening of Zangezur Corridor on Regional Transportation and Communication Lines OCTOBER-2021

qo‘yishdi.[1] Albatta, ushbu yo‘lak muhim hisoblanadi, chunki Markaziy Osiyodan Yaqin Sharq va Yevropagacha bo‘lgan 4700 kilometrdan ortiq hududda iqtisodiy va savdo hamkorlikning mustahkamlanishida sezilarli rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston transport vazirining sobiq o‘rinbosari Abdusamat Mo‘minov Trendga bergan ekskluziv intervyusida Zangezo‘r yo‘lagi juda muhim loyiha ekanligi, bu yo‘lak 5–10 million tonnaga yaqin yuklarni tashish imkoniyatini berishi va ushbu transport yo‘nalishining foydasi ham uning geografik qulayligida ekanligini e’tirof etdi. Shuningdek, ushbu loyiha tufayli O‘zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali tashish sezilarli darajada oshishini ta’kidladi[2].

Islomobod Global va strategik tadqiqotlar markazining geosiyosat va iqtisod bo‘yicha ekspertlar kengashi a’zosi, doktor Mehmud-ul-Hasan Xonning aytishicha, Zangezo‘r yo‘lagi Tinch okeandan Turkiyaga ko‘plab savdo yo‘llarini ochib, Kaspiy mintaqasini Markaziy Osiyo bilan bog‘laydi. Ozarbayjon va Armaniston uchun ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy va geostrategik manfaatlarni keltirib chiqaradi[3].

Yaqin Sharq bo‘yicha tahlilchi va Turkiyaning “Fikir Turu” tahlil markazi tadqiqotchisi Orif Keskinning aytishicha, Zangezo‘r yo‘lagi Naxchivan viloyatining ko‘p yillik qamaliga barham beradi va Ozarbayjonning mintaqaviy aloqa tarmoqlaridagi rolini o‘zgartiradi[4]. Ushbu yo‘lak mintaqada joylashgan viloyatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga olib keladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Узбекистан поддерживает инициативу Азербайджана по запуску Зангезурского коридора 19 май 2023Ozarbayjon Respublikalarining transport-tranzit sohasini rivojlantirish omillarini tahlil qilar ekanmiz, AIR markazi yetakchi maslahatchisi Orxan Baghirov fikricha, Zangezo‘r yo‘lagining ochilishi mintaqa rivojiga ijobiy hissa qo‘shadi. Yangi yo‘lak orqali mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi butun mintaqa rivojiga yordam beradi. Zangezur yo‘lagi mintaqadan o‘tuvchi xalqaro transport yo‘laklariga yangi arteriya qo‘shib, Janubiy Kavkazning xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimidagi mavqeyini mustahkamlaydi[5].

[1] Мушвиг Мехтиев Тюркские государства поддерживают открытие Зангезурского коридора https://caspiannews.com/news-detail/turkic-states-support-opening-of-zangazur-corridor-2021-11-15-0/

[2] Узбекистан поддерживает инициативу Азербайджана по запуску Зангезурского коридора 19 май 2023. https://www.trend.az/azerbaijan/business/3750235.html

[3] Мушвиг Мехтиев Президент Алиев заявил, что азербайджанси вернутся в Зангезур спустя столетие. 2021 https://caspiannews.com/news-detail/president-aliyev-says-azerbaijanis-to-return-to-zangazur-after-a-century-2021-7-17-0/

[4] Мушвиг Мехтиев Тюркские государства поддерживают открытие Зангезурского коридора https://caspiannews.com/news-detail/turkic-states-support-opening-of-zangazur-corridor-2021-11-15-0/

[5] Orkhan Baghirov The Impact of the opening of Zangezur Corridor on Regional Transportation and Communication Lines OCTOBER-2021

Shunday, muhim missiyalarni taqozo qilayotgan ushbu yo‘lak biz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston–Ozarbayjon o‘rtasidagi transport sohasida olib borilgan hamkorlik aloqalari 1996-yildan yaxshi rivojlangan, XX asrning so‘nggi XXI asrning boshlarida kuzatilgan ma’lum iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga qaramay, manfaatlar va iqtisodiy munosabatlar transport sohasidagi muammolar yechimining topilishiga olib keldi. Bir-biri bilan zanjir kabi bog‘liq bu yo‘nalishlar bevosita hamkorlik aloqalarining rivojlanishiga ta’sir qilgan. Shuning uchun TRASEKA loyihasi temiryo‘l orqali savdo-sotiq amalga oshirilishida ikki mamlakatning muhim hamkorlik yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘z navbatida, Baku–Tbilisi–Kars temiryo‘li ham O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Ozarbayjonning transport loyihalari bo‘yicha harakatlarini O‘zbekiston doim qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, Zangezo‘r yo‘lagi Turkiya bilan ham iqtisodiy tovar almashinuvining yanada oshishiga turtki bo‘ladi. Transport yo‘nalishida olib borilayotgan hamkorlik bevosita iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga hamda strategik hamkorlikning shakllanishiga olib kelishini O‘zbekiston va Ozarbayjonning munosabatlarida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi transport yo‘nalishida uzoq yillik aloqalarini tahlil qilish natijasida yildan yilga ushbu munosabatlar ijobiy ko‘rinishda siljib borayotgani hamda bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish ikki mamlakat uchun ham manfaatli ekanligini ko‘rsatdi.

Janubiy Kavkaz mintaqasini Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog‘lovchi muhim tarmoq sifatida aynan transport sohasi maydonga chiqadi. Turli loyihalar va tashkilotlar ishtirokida mamlakatlarning birlashib, manfaatli hamkorlik olib borishlari vaqt sinovidan o‘tgan munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy Arxiv materiallari Fond M -37, R-1, Y-1758, 111- bet.
2. MA materiallari Fond M-37, R-1, Y-2917, 132- bet.
3. MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 149- bet.
4. MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 65- bet.
5. MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 13- bet.
6. MA materiallari Fond M-7 R-1 Y-722 7- bet.
7. O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zladi https://president.uz/oz/lists/view/6679
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158 sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 11.09.2023.
9. 2018 – 2022 yillarda Transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2017-yil 2-dekabdagi PQ-3422-son. https://lex.uz/docs/3436209#4730712

10. Temiryo‘l sohasini isloh qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi https://uza.uz/oz/posts/temir-yol-sohasini-isloh-qilish-boyicha-takliflar-korib-chiqildi_523204
11. A.G. Pilin. Tranzitniy potensial stran Yujnogo Kavkaza // Transport i svyaz v novix nezavisimix gosudarstvax:Osobennosti i faktori razvitiya M.2013 str.126
12. Aktivnaya vneshnyaya politika Uzbekistana otkrivayet novie perspektivi sotrudnichestva mejdu Sentralnoy Aziyey i Kavkazom https://isrs.uz/ru/xorijiy-ekspertlar-fikri/aktivnaa-vnesnaa-politika-uzbekistana-otkryvaet-novye-perspektivy-sotrudnicestva-mezdu-centralnoj-aziej-i-kavkazom
13. EU looks to Azerbaijan for Central Atsian connections https://caliber.az/en/post/96539/
14. Gruzoperevozki po jeleznodorojnoy linii Baku-Tbilisi-Kars previsili 1 mln tonn. https://report.az/ru/infrastruktura/gruzoperevozki-po-zheleznodorozhnoj-linii-baku-tbilisi-kars-prevysili-1-mln-tonn/
15. Ilham Kerimli Podcherknuta vajnost Zangezurskogo koridora dlya oblegcheniya gruzovix perevozok mejdu Tursiyey i Sentralnoy Aziyey 2022. https://caspiannews.com/news-detail/zangazur-sorridors-importance-in-facilitating-cargo-betweyen-turkiye-central-asia-highlighted-2022-6-8-0/
16. Istanbul hosted 8th Summit of Cooperation Council of Turkic-Speaking States, 12.11.2021 https://president.az/en/articles/view/54183
17. Jeleznodorojniy proyekt veka "Baku-Tbilisi-Kars" vveden v stroy, Vestnik Kavkaza 2017 https://vestikavkaza.ru/news/ZHeleznodorozhnyy-proekt-veka-Baku-Tbilisi-Kars-vveden-v-stroy.html
18. Mexdiyev E.T. Azerbaydjan v sisteme mejdunarodnix transportnix koridorov / E.T.Mexdiyev, I.A.Guliyev // Yevraziyskiy yuridicheskiy jurnal. 2017. №1 (104). – S. 59–61.
19. Mushvig Mextiyev Prezident Aliyev zayavil, chto azerbaydjansi vernutsya v Zangezur spustya stoletiye. 2021 https://caspiannews.com/news-detail/president-aliyev-says-azerbaijanis-to-return-to-zangazur-after-a-century-2021-7-17-0/
20. Mushvig Mextiyev Tyurkskiye gosudarstva podderjivayut otkritiye Zangezurskogo koridora https://caspiannews.com/news-detail/turkic-states-support-opening-of-zangazur-corridor-2021-11-15-0/
21. Orkhan Baghirov The Impact of the opening of Zangezur Corridor on Regional Transportation and Communication Lines OCTOBER-2021
22. Rovshan Ibrahimov The Development of the Transport Sector in Azerbaijan: The Implementation and Challenges //Caucasus International 2016 page 106
23. T.Abdullayeva –Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasi: holati va istiqbollari, Markaziy Osiyo va Kavkaz, №3 (9), 2001, 149-bet.
24. Taleh Ziyadov Azerbaijan The New Silk Roads. Transport and Trade in Greater Central Asia Edited by S. Frederick Starr Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studiyes Program, 2007 page 304
25. Узбекистан поддерживает инициативу Азербайджана по запуску Зангезурского коридора 19 май 2023 https://www.trend.az/azerbaijan/business/3750235.html

АЧИЛОВ АЗЛАРХОН
Преподаватель, докторант, ТГУВ

Влияние этнополитических процессов на стабильность в Афганистане: исторический и сравнительный анализ

Аннотация*. Афганистан, переживающий один из самых затяжных, разрушительных и страшных конфликтов современности, несмотря на это, не утратил своей уникальной культуры, менталитета и традиций. Гражданская война привела к формальной раздробленности общества и крушению государства как политического института власти. Одним из значимых явлений этих процессов является отсутствие высокоэффективной центральной власти и явный раскол страны по этническому признаку. Продолжающаяся уже более 40 лет гражданская война характеризует глубину разногласий и интенсивность нестабильности в сфере межэтнических отношений. Национальный вопрос — одна из коренных и неразрешимых проблем общественно-политической жизни страны. Кризис в этой области уходит своими корнями в историю афганского государства. Изучение этнонациональных компонентов гражданской войны в Афганистане позволит выявить перспективы ее динамики*

Ключевые слова: *этногенез, пуштуноцентризм, Исламский Эмират Афганистан, пуштуны, таджики, узбеки.*

Abstract*. Afghanistan, which is going through one of the longest, most destructive and terrible conflicts of our time, has not lost its unique culture, mentality and traditions despite this. The civil war led to the formal fragmentation of society and the collapse of the state as a political institution of power. One of the significant phenomena of these processes is the absence of a highly effective central government and the apparent split of the country along ethnic lines. The ongoing civil war for more than 40 years characterizes the depth of disagreements and the intensity of instability in the field of interethnic relations. The national question is one of the fundamental and unsolvable problems of the socio-political life of the country. The crisis in this area has its roots in the history of the Afghan State. The study of the ethno-national components of the civil war in Afghanistan will allow us to identify the prospects for its dynamics.*

Keywords: *ethnogenesis, pashtunocentrism, Islamic Emirate of Afghanistan, Pashtuns, Tajiks, Uzbeks.*

Annotatsiya. *Zamonamizning eng uzoq, eng halokatli va dahshatli to‘qnashuvlaridan birini boshidan kechirayotgan Afg‘oniston shunga qaramay, o‘ziga xos madaniyati, mentaliteti va an’analarini yo‘qotgani yo‘q. Fuqarolar urushi jamiyatning rasmiy parchalanishiga va hokimiyatning siyosiy instituti sifatida davlatning parchalanishiga olib keldi. Ushbu jarayonlarning muhim hodisalaridan biri–yuqori samarali markaziy hukumatning yo‘qligi va mamlakatning etnik belgilar bo‘yicha aniq bo‘linishidir. 40 yildan ortiq davom etayotgan fuqarolar urushi millatlararo munosabatlar sohasidagi kelishmovchiliklar chuqurligi va beqarorlik jadalligini tavsiflaydi. Milliy masala mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy va hal etilmaydigan muammolaridan biridir. Bu sohadagi inqiroz Afg‘oniston davlati tarixidan kelib chiqqan. Afg‘onistondagi fuqarolar urushining etnik-milliy tarkibiy qismlarini o‘rganish uning dinamikasi istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *etnogenez, pashtunotsentrizm, Afg‘oniston Islom Amirligi, pushtunlar, tojiklar, o‘zbeklar.*

